

Rektor nutqi

HURMATLI ANJUMAN ISHTIROKCHILARI, MEHMONLAR, AZIZ HAMKASBLAR!

Avvalo, sizlarni bugungi dolzarb va muhim mavzuga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada ko‘rib turganimdan juda ham mamnunman. “ZAMONAVIY EKOLOGIK SIYOSAT: MILLIY TAJRIBADAN GLOBAL YeCHIMGACHA” — bu nafaqat mavzu, balki zamon talabi, insoniyat kelajagi uchun kurashga chaqiriqdir. Davlatimiz rahbarining 2025 yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilganligi “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi zarurligi bugungi ilmiy-amaliy anjumanni tashkil etishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida alohida o‘rin egallamoqda. Iqlim o‘zgarishlari, suv tanqisligi, havoning ifloslanishi kabi global muammolar har bir millatning mas‘uliyatli yondashuvini talab qilmoqda. Shu ma‘noda, O‘zbekistonning ekologik siyosati – Prezidentimiz tashabbusi bilan shakllanayotgan “**Yashil taraqqiyot**” strategiyasi orqali yangi bosqichga ko‘tarildi.

Aziz yig‘ilish ishtirokchilari!

Milliy tajribamizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, O‘zbekiston ekologik partiyasi, tegishli vazirliklar, ilmiy doiralar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro hamkorlikda ekologik madaniyatni oshirish, yashil energiya manbalarini joriy qilish, cho‘llanishga qarshi kurashish bo‘yicha samarali loyihalarni yo‘lga qo‘ygan. Jumladan, Qoraqalpog‘istondagi Orol fojiasi ortidan amalga oshirilayotgan ekologik reabilitatsiya ishlari nafaqat mintaqaviy, balki global ahamiyat kasb etmoqda.

Ammo bugungi ekologik tahdidlar chegarani tan olmaydi. Shu bois, biz o‘z milliy tajribamizni global miqyosda baham ko‘rishimiz, xalqaro tashkilotlar va xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlikni kengaytirishimiz lozim. Bu borada universitetlar va ilmiy-tadqiqot muassasalari asosiy poydevor bo‘lib xizmat qilishi shart.

Hurmatli konferensiya qatnashchilari!

Oliy ta‘lim muassasasi — faqat ta‘lim maskani emas, balki jamiyatni ongli va ekologik mas‘uliyatli fuqarolar bilan boyituvchi kuchdir. Talabalarimizga ekologik tafakkurni singdirish, ularni amaliy loyihalar orqali tabiatga e‘tiborli qilib tarbiyalash bizning ustuvor vazifamizdir.

Bugungi konferensiya esa bizni bir maqsad atrofida birlashtiradi — u ham bo‘lsa, zamonaviy ekologik siyosatni milliy va global miqyosda uyg‘unlashtirish, tajriba almashish va barqaror kelajak sari dadil qadam tashlashdir.

Anjumanda quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

1-sho'ba. Ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlik: muammo va yechimlar;

2-sho'ba. Ekologik siyosat va iqtisodiy aloqalar: xalqaro tajriba va istiqbollari;

3-sho'ba. Ekologik siyosatning ijtimoiy ahamiyati: ekologik savodxonlik, fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirishning dolzarb masalalari;

4-sho'ba. Zamonaviy ekologik siyosatning xalqaro huquqiy asoslari.

Mazkur anjumanimizga 10 dan ortiq davlatlardan xalqaro toifadagi mutaxassis olimlar ishtirok etishmoqda, jumladan, Kanada, Germaniya, Latviya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Qozog'iston, Qirg'iziston davlatlaridan olimlar kelishgan, shuningdek, konferensiyaga 70 ga yaqin ilmiy maqolalar kelib tushgan.

Yakunda aytmoqchimanki, ekologik barqarorlik — bu kelajak avlod oldidagi burchimizdir. Keling, bu yo'lda birgalikda harakat qilaylik!

E'tiboringiz uchun rahmat!

***1-SHO‘BA. EKOLOGIYA SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK:
MUAMMO VA YECHIMLAR***

**COOPERATION BETWEEN CHINA AND CENTRAL ASIAN
COUNTRIES IN THE CONTEXT OF CLIMATE AND
ENVIRONMENTAL CHALLENGES**

Duken Masimkhanuly,

Doctor of Philology, Professor, Director General of the R.B. Suleimenov Institute of Oriental Studies, Committee of Science, Ministry of Science and Higher Education of the Republic of Kazakhstan. Phone: +7 (727) 261-16-01 E-mail: masimkhan-63@mail.ru

Erkin Baidarov, *Doctor of Philosophy, Professor, Chief Researcher at the R.B. Suleimenov Institute of Oriental Studies, Committee of Science, Ministry of Science and Higher Education of the Republic of Kazakhstan. Phone: +7 (727) 261-16-01 E-mail: erkinbaydarov@gmail.com*

Cooperation between China and the Central Asian countries represents an important and multifaceted aspect of international relations. Since the establishment of diplomatic ties in 1992, China and the Central Asian Republics have demonstrated steady growth in mutually beneficial partnerships encompassing a wide range of political, economic, and cultural domains. This is no coincidence, as the countries of the region (particularly Kazakhstan, Uzbekistan, and Turkmenistan) possess significant natural resources and hold a strategic position at the crossroads of transport routes between Asia and Europe, making them key partners for China. In the context of globalization and growing interdependence, cooperation between China and the countries of the region is gaining increasing importance for their national economies, as well as for regional stability and development.

Both China and the Central Asian countries are actively engaged in international environmental agreements, such as the Paris Climate Agreement. They also support joint initiatives for sustainable development and environmental protection, proposing various collaborative projects that contribute to reducing ecological risks and addressing associated challenges. National legislation also plays a significant role in ensuring environmental security. Both regions (China and the Central Asian Republics) are working toward harmonizing their environmental standards and regulations to align with international requirements and to promote the adoption of advanced environmental technologies.

In this context, one of the key aspects of such cooperation is the collaboration between China and the Central Asian countries in addressing climate and environmental challenges. For the Central Asian Republics,

environmental security holds particular importance [1]. The partnership between China and the Central Asian countries within the framework of «green development» a sustainable approach to construction and the construction industry aimed at minimizing the negative impact of human activities on the environment is actively supported and can be characterized as follows:

– A comprehensive, interdisciplinary model of cooperation in the field of green development is gradually taking shape. China and the Central Asian countries have established a partnership in green development within the framework of the Belt and Road Initiative. Based on this initiative, the countries adhere to the principle of common but differentiated responsibilities and respective capabilities, taking climate action in accordance with their national circumstances to address climate change. Furthermore, the China – Central Asia mechanism is receiving broad support and is increasingly active in the areas of climate change adaptation and sustainable development. Such close cooperation in the joint implementation of green initiatives represents an effective approach to mitigating the impacts of climate change. On this basis, China has signed cooperation agreements on green transformation with all Central Asian countries.

– Owing to China's active involvement in the green energy transformation across Central Asian countries, cooperation in this domain has yielded significant results. For instance, in Kazakhstan, Chinese companies are participating in a range of green energy projects: a 100 MW photovoltaic power project in Kapshagay, a 100 MW wind power project in Abai, among others. In Uzbekistan, several solar and wind energy projects have been completed: China Energy Construction Gezhouba Overseas Investment Co., Ltd. has invested in two 500 MW projects in the Kashkadarya and Bukhara regions. Chinese companies have also participated in photovoltaic projects for the buildings of the Uzbek Tax Committee, the Diamond Mining and Metallurgical Complex, and the Uzbek State University of World Languages.

In Kyrgyzstan, the Ministry of Energy of the Kyrgyz Republic and «China Jinfeng Technology Co., Ltd» are jointly working on the construction of a 3-gigawatt (3000 MW) wind power plant, while «China Power International Development Limited» has signed an agreement to build a 1-gigawatt (1000 MW) solar power plant in the Issyk-Kul region. In Tajikistan, where 90% of electricity is generated through hydropower, the pressure to reduce emissions is relatively lower. The Chinese company «Sinohydro» has participated in the modernization of the 240 MW Sarband Hydropower Plant. Additionally, the Chinese Company TBEA has been involved in the construction of power transmission lines and the Nurabad HPP-1 in Tajikistan. It is also noteworthy that China has expressed interest in the development of the Rogun Hydropower Plant, which is projected to become the tallest dam in the World.

– Recent progress in regional environmental cooperation is closely linked to addressing the ecological crisis in the Aral Sea basin, which represents the most severe environmental disaster in Central Asia, exacerbated by global climate change and local hydrological conditions. Efforts to restore the Aral Sea ecosystem have largely been unsuccessful due to the complexity and fragmentation of national responses. Following the desiccation of the Aral Sea, salts, heavy metals, and other pollutants began accumulating in the atmosphere and were carried by wind over thousands of kilometers, causing serious harm to human health. Therefore, joint cooperation in managing the environmental crisis in the Aral-Caspian region is of critical importance today.

Speaking at the World Climate Summit in Baku, the President of the Republic of Kazakhstan, Kassym-Jomart Tokayev, placed particular emphasis on global water resource issues: «*Today, the Caspian Sea is under threat. Saving the world's largest lake is our shared challenge, requiring long-term international cooperation. Alongside this, Kazakhstan is taking concrete steps to preserve the Aral Sea*» [2]. In his article on Central Asian cooperation published in the newspaper *Egemen Qazaqstan*, the Kazakh leader also addressed regional water issues, noting that the problem of water scarcity, which has affected all countries in the region in recent years, has had a negative impact on the socio-economic situation of farmers and caused substantial economic damage to local populations. He further emphasized the unique role of the International Fund for Saving the Aral Sea as a regional platform for discussing and addressing key water-energy, environmental, and socio-economic challenges [3].

While existing disputes over control of natural resources—most of which relate to oil, natural gas, and mineral resources remain more or less manageable, one of the most pressing and contentious issues concerns water. This challenge is intensifying each year due to the accelerated melting of glaciers in the Pamir and Tien Shan mountains. As a result, every country in the region is now vying for access to rivers and canals, which at times leads to tensions and even conflict.

The People's Republic of China (PRC) and the Central Asian countries have published action plans for environmental management, the development of efficient and water-saving agriculture, and the advancement of green science and technology in Central Asia, with particular focus on ensuring the security of food and water resources. Cooperation between China and the Central Asian countries encompasses areas such as the sustainable use and conservation of biodiversity, «innovative R&D technologies for the green Aral Sea», the joint establishment of a «demonstration center» with Central Asian countries, and the launch of the «International Scientific Plan for the Ecological Management of the Aral Sea». In addition, joint laboratories and generating stations have been established to «develop scientific and

technological talents» in fields such as water-saving agriculture, natural resource management, salt-affected land management, and desertification prevention.

Overall, cooperation in the field of green transformation between China and the Central Asian countries has achieved significant progress. In recent years, it has not only been established but has also developed a multi-level cooperation mechanism, with areas of collaboration expanding from green energy to scientific and technological innovations, personnel training, and more. As a result, it has become a crucial element of the relations between China and the Central Asian countries in addressing climate and environmental issues. Cooperation in green transformation between China and the Central Asian countries is beneficial for regional environmental management and is also an essential part of global climate governance. However, deep cooperation in these areas is still far from being fully realized. There is much more to be done. Nevertheless, cooperation in the field of green transformation between China and the Central Asian countries will continue, expanding and deepening as necessary and driven by mutual interest.

As a strategic partner of the Central Asian countries, China actively supports the green transformation strategy of Central Asia, as noted above. However, the statement on strategic partnership signed by China and the Central Asian countries contains little content regarding a just transition, where the approach to addressing the issues arising from the shift to a sustainable economy takes into account the social and economic impacts on all those affected by this transition. A just transition not only involves reducing emissions and shifting to renewable energy sources, but also supporting workers who may lose their jobs in traditional industries, as well as ensuring social justice and accessibility for all. In this sense, the goal of a just transition is not only closely linked to global development initiatives but also aligns with China's goals for the development of new productive forces. The primary aim of new production is to create conditions for the competitive, innovative development of the economy and society based on technological innovations. At the same time, a just transition contributes to addressing adverse environmental factors and systemic issues, transitioning from an extractive economy to a secondary one. Thus, the path of a fair transformation in the cooperation between China and the Central Asian countries must fully account for unforeseen changes and develop a cooperation system that stabilizes the ecological balance to avoid catastrophic negative impacts on the environment. With such an approach, there is an opportunity to make the green environment more sustainable.

The concept of a just transition has, to some extent, reached an impasse. Addressing these issues requires China and the Central Asian countries to establish a consistent and interactive path of cooperation within

the framework of just transition collaboration, which must align with the goals of the Global Development Initiative proposed by China and the green transformation strategies of the Central Asian countries. A significant role in addressing regional policies for the effective use of natural resources, the development of energy-saving, low-carbon economies, and renewable energy resources, as well as the implementation of key ecosystem restoration projects, could be played by the «Belt and Road Initiative» as a new form of deepening cooperation between China and the Central Asian states [4]. Despite the fact that the Central Asian countries possess sufficient renewable energy resources, they still cannot meet national demand. Environmental issues are a primary concern for the governments of the Central Asian countries. In arid and semi-arid regions, ecosystems are fragile. Climate change and human intervention can easily lead to significant ecosystem changes or even ecological disasters [5]. Therefore, strengthening cooperation between China and the Central Asian countries in the field of renewable energy is of paramount importance. This has practical significance, and as a result, it is necessary to establish and actively promote a regional market for renewable energy cooperation. For example, in Tajikistan, hydropower is the main source of energy; however, it is heavily affected by seasonal climate changes, which, in turn, force the country to implement a power rationing system during dry periods, contributing to the development of rural areas. The CASA-1000 power transmission project, running from north to south, will connect the energy systems of Central Asia with South Asia, enable the modernization, transformation, and integration of Tajikistan's energy system, reconnecting the country's energy grid to the unified energy system of Central Asia and facilitating the construction of a new power transmission line to Uzbekistan.

China-Tajikistan cooperation in the energy sector is becoming increasingly important for the entire Central Asian region. At the same time, China can continue its active support for projects aimed at expanding solar and wind energy in Tajikistan, cooperation with international financial institutions on the issuance of Tajikistan's green bonds, and the joint development of renewable energy technologies suitable for Tajikistan.

Thus, cooperation in the field of green transformation between China and the Central Asian countries is deepening towards a good-faith transformational partnership, which is a requirement for sustainable development. To achieve this, it is necessary to systematically build pathways for cooperation and strive for sustainable and balanced development across different countries. In creating a regional environmental and climate governance system that meets the needs of ecological civilization development, as well as ecological and climate management systems in China and the Central Asian countries, particular attention is paid to regionalism, changes in the energy sector, and human development, which

create the conditions for the functioning of the global system. However, the pressure of global climate change has allowed various countries to cooperate with one another based on sustainable development strategies, though to this day, the concept of just transition and cooperation between China and the Central Asian countries still faces rough patches. This is due to the significant gap between the strategic goals of the Central Asian countries and the United Nations Sustainable Development Goals (SDGs). Moreover, it highlights the numerous challenges and complexities in the practice of international cooperation for a just transition, which are required of China. The Central Asian countries continue to make adjustments to their good-faith cooperation during the transition period. Both sides must actively fulfill their national responsibilities in global climate and environmental governance and realize the expected benefits of just transition cooperation. Only in this way can just transformational cooperation between China and the Central Asian countries become viable and move closer to achieving the UN's Sustainable Development Goals at both the regional and national levels.

In conclusion, it should be noted that environmental security within the framework of cooperation between China and the Central Asian countries represents a complex and multifaceted challenge, requiring a systematic approach and joint efforts. Only through interaction and coordination of actions by both sides can meaningful results be achieved in preserving the natural environment and ensuring the sustainable development of the region.

China and the Central Asian countries could jointly establish a multilateral advisory body that could organize a forum on environmental cooperation between the two regions or specifically on Central Asia. Member countries could take turns hosting regional meetings or summits. Through such cooperation, it would be possible to conduct basic research, monitor, and prevent pollution, thus informing policymakers and the public in the countries about the distribution, causes, and consequences of environmental pollution. As a result, a reduction in the perception gap between countries regarding common environmental issues could be expected.

To accelerate the process of regional cooperation, it is also necessary to continue the discussion of environmental issues at various forums, particularly within the framework of the Shanghai Cooperation Organization (SCO). Frequent meetings and joint efforts to formulate solutions to regional environmental problems will foster mutual understanding and strengthen the sense of community ("a community of shared destiny for mankind"), as well as recognize the need for further environmental protection in the region, assuring member states that the potential benefits of regional cooperation will outweigh the costs of addressing these issues. From this, we can conclude that it is essential to exchange information and institutionalize high-level diplomatic meetings. These processes will undoubtedly contribute to the

removal of existing barriers to regional environmental cooperation [6, p. 355].

References:

1. Dadabaeva Z.A. Klimaticheskie izmeneniya i vodnye problemy Central'noj Azii v XXI veke: riski dezintegratsii [Climate Change and Water Issues in Central Asia in the 21st Century: Risks of Disintegration] // Geoekonomika jenergetiki [Goeconomics of Energy]. – 2023. – №3(23). – PP. 100-119 / DOI: https://doi.org/10.48137/26870703_2023_23_3_100 (In Russian)

2. Doklad Kasym-Zhomarta Tokaeva na «Vsemirnom klimaticheskom sammite» v Baku [Elektronnyj resurs] // Oficial'nyj sajt Prezidenta Respubliki Kazahstan [Official website of the President of the Republic of Kazakhstan] – URL: <https://www.akorda.kz/ru/prezident-kazahstana-vystupil-na-vsemirnom-klimaticheskom-sammite-v-baku-1210326> (Дата обращения: 12.03.2025) (In Russian)

3. Tokaev K.K. Renessans Central'noj Azii: Na puti k ustojchivomu razvitiyu i prosvetaniyu [Central Asian Renaissance: Towards Sustainable Development and Prosperity] // Kazahstanskaja pravda [Kazakhstan truth]. – 2024. August 8 (In Russian)

4. Isadzhanov A.A. Jekologicheskie aspekty ustojchivogo razvitija: regional'nye osobennosti i nacional'nye priority Uzbekestana [Environmental aspects of sustainable development: regional features and national priorities of Uzbekistan] // Nauchnaja diskussija sovremennoj molodezhi: aktual'nye voprosy, dostizheniya i innovatsii [Scientific discussion of modern youth: current issues, achievements and innovations]. – Penza: MCNS «Nauka i Prosveshhenie», 2018. – S. 61-64 (In Russian)

5. Yu Y., Pi Y., Yu X. et al. Climate change, Water resources and sustainable Development in the arid and semi-arid lands of Central Asia in the past 30 years // *Journal of Arid Land*. – 2019. – №11. – PP. 1-14 / DOI: <https://doi.org/10.1007/s40333-018-0073-3>

6. Dauen D. Problemy jekologicheskoj bezopasnosti v dvustoronnih proektah sotrudnichestva Kazahstana i Kitaja [Problems of environmental safety in bilateral cooperation projects between Kazakhstan and China] // «Spravedlivyj Kazahstan i Kitajskaja mehta»: analiz vozmozhnostej i perspektiv strategii sovremenogo razvitija [«Fair Kazakhstan and the Chinese Dream»: Analysis of the Possibilities and Prospects of the Modern Development Strategy]. Almaty: IFPR KN MNVO RK, 2024. – P. 342-355 (In Russian)

**SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA
EKOLOGIK DIPLOMATIYA: MINTAQAVIY BARQARORLIK,
EKOLOGIK XAVFSIZLIK VA O‘ZBEKISTONNING
TASHABBUSLARI**

Sobirov Qobiljon Qosimovich
O'zbekistonda ShHT Xalq diplomatiyasi markazi direktori
Tel: +998 97 739-80-05

Annotatsiya: Bugungi kunda global ekologik siyosat masalalari bo'yicha xalqaro tajriba bilan o'rtoqlashish, mintaqaviy va mahalliy yechimlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil etish, amaliy takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) doirasida ekologik diplomatiyaning ahamiyati va roli tahlil etilgan. Unda tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi ekologik hamkorlik, atrof-muhitni muhofaza qilishdagi umumiy manfaatlar, ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalari ko'rib chiqilgan. Muallif ekologik diplomatiyaning xalqaro munosabatlarda strategik ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, ShHT doirasida ekologik siyosatni samarali amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi. Shuningdek, O'zbekistonning ushbu sohadagi tashabbuslari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, ekologik diplomatiya, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, xalqaro hamkorlik.

Bugungi kunda ekologik diplomatiya jahon siyosiy kun tartibining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar yetishmasligi, iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikka putur yetishi, hamda suv va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolar nafaqat alohida davlatlarni, balki butun mintaqalarni qamrab olmoqda. Bu muammolar insoniyat taqdiriga bevosita daxldor bo'lgan mushtarak qadriyat va ne'matlarning yemirilishiga olib kelib, odamlar hayoti va faoliyatiga tahdid solmoqda, ularning daromad manbalarini qisqartirmoqda. Bunday sharoitda davlatlar o'rtasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarida, balki ekologik sohada ham samarali va tizimli tarzda olib borilishi shart.

Ekologik diplomatiya – bu davlatlar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi muloqot va hamkorlikning alohida yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi – ekologik muammolarni tinch, konstruktiv va barqaror yo'l bilan hal etishdir.

Shanxay hamkorlik tashkiloti o'z faoliyatini 2001 yilda asosan xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurashga qaratgan holda boshlagan bo'lsa-da, keyingi yillarda uning mandati bosqichma-bosqich kengayib bordi. ShHTning xalqaro tashkilot sifatidagi jozibadorligi uning faoliyati asosini tashkil etadigan quyidagi tamoyillarda namoyon bo'lmoqda: Shanxay hamkorlik tashkilotining turli bloklardan xoli maqomga ega ekani, ochiqlik, uchinchi mamlakatlar yoki xalqaro tashkilotlarga qarshi qaratilmagani, barcha ishtirokchi tomonlarning tengligi va suverenitetini hurmat qilish, ichki

ishlarga aralashmaslik, siyosiy qarama-qarshilik va ixtilofli raqiblikka yo‘l qo‘ymaslik.

Bugungi kunga kelib ShHT hamjamiyati – ulkan geografik makonni qamrab olgan va sayyoramiz aholisining qariyb yarmini birlashtirgan, dunyodagi eng yirik mintaqaviy tashkilotdir. Ushbu kengayish jarayonida ekologik masalalar tobora muhim ahamiyat kasb etib, tashkilot kun tartibidagi strategik yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu o‘zgarishni bir necha asosiy faktorlar bilan izohlash mumkin.

ShHTga a‘zo mamlakatlar – Xitoy, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston, Eron Belorus shuningdek kuzatuvchi va muloqotchi davlatlar – ekologik jihatdan o‘zaro bog‘liq hududlarda joylashgan. Bu mamlakatlar umumiy ekologik muammolarga duch kelishmoqda, jumladan:

- Orol dengizi fojiasi, u orqali kelib chiqqan cho‘llanish, suv tanqisligi va aholi salomatligiga salbiy ta‘sirlar;
- Ifloslangan havo va sanoat chiqindilari, ayniqsa, katta megapolislar va sanoat zonalarida (masalan, Pekin, Dehli, Olmaota, Toshkent);
- Iqlim o‘zgarishi natijasida qishloq xo‘jaligida qurg‘oqchilik va yomg‘irlar noaniqligi;
- Suv resurslari bo‘yicha transchegaraviy kelishmovchiliklar, masalan, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida.

Bu ekologik tahdidlar bir davlatning ichida hal etilishi mumkin emas. Ular mintaqaviy yondashuv va hamkorlikni talab qiladi.

ShHT ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga katta ahamiyat berib, ularni barqaror rivojlanishning asosiy elementlaridan biri deb hisoblaydi. ShHT tomonidan qabul qilingan ta‘sis hujjatlarida – Shanxay Deklaratsiyasi (2001) va Xartiya (2002) – ekologiya sohadagi hamkorlik hamkorlikning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan.

Hozirgi bosqichda ShHTning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi faoliyati 2005 yilda Xitoyning sindao shahrida bo‘lib o‘tgan sammitda qabul qilingan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik konsepsiyasi doirasida amalga oshirilmoqda. Bu Konsepsiya ushbu sohadagi amaliy hamkorlikka qaratilgan birinchi hadli hujjat bo‘ldi. Uning asosiy maqsadi – “ekologik muvozanatni saqlash, qulay ekologiya va iqtisodiyotning ekologik rivojlanishini ta‘minlash orqali har tomonlama, hamkorlikda amalga oshirilgan va barqaror xavfsizlikka erishishdir”.

Ta‘kidlash joizki, tabiatni muhofaza qilish mavzusi ShHT xavfsizligi va barqaror rivojlanishi masalalari bilan bevosita bog‘liq holda tashkilotning barcha yakuniy hujjatlaridan joy olmoqda. Masalan, ShHTga a‘zo davlatlarning 2007 yil 16 avgustdagi uzoq muddatli yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomasida tomonlarning atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishi alohida modda bilan

belgilab qo'yilgan. 2010-yillar boshlarida Tashkilotning gumanitar va iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlari rivojlana boshlashi bilan birga, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha ilk muloqotlar boshlandi.

2014 yil, Dushanbe sammitida ShHT davlat rahbarlari ekologik xavfsizlikni mintaqaviy barqarorlikning muhim elementi sifatida e'tirof etdilar[1].

2017 yil, Ostona (Qozog'iston) sammitida esa atrof-muhitni muhofaza qilish, "yashil texnologiyalar" va qayta tiklanuvchi energiya masalalari bo'yicha hamkorlikni rivojlantirishga kelishilindi. Bu sammitda ekologik muammolarga tashkilot miqyosida siyosiy e'tibor kuchaygani sezildi. 2022 yil Samarqand sammitida "yashil energetika", "yashil transport" va "iklim o'zgarishiga moslashish" kabi mavzular ko'proq muhokama qilindi.

2023 yil Dehli sammiti yakunlarida a'zo davlatlar rahbarlari tomonidan qabul qilingan deklaratsiyada, sohadagi hamkorlikning ahamiyatini qayd etib atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini oldini olish, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida 2024 yilni ShHTning Ekologiya yili deb e'lon qilishga kelishib olishdi[2].

O'zbekiston ShHT faoliyatida faol ishtirok etar ekan, ekologik masalalarni hal etish bo'yicha ham qator amaliy tashabbuslar bilan chiqmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoev o'z tashabbuslarida, ekologik diplomatiyani rivojlantirishga, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish va mintaqaviy hamkorlik kuchaytirish kabi takliflarini ilgari surib kelmoqda.

2018 yilda Prezident Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasida Orolbo'yi mintaqasini «ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi» deb e'lon qilishni taklif qildi. Bu tashabbus ShHT sammitlarida ham qo'llab-quvvatlanib, 2021 yil Dushanbeda Orol muammosini hal etish bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish muhimligi ta'kidlandi.

2021 yil, Dushanbe sammitida Prezident Shavkat Mirziyoev "ShHT doirasida Ekologik xavfsizlik bo'yicha mintaqaviy dasturni ishlab chiqish zarur. Unda transchegaraviy ekotizimlarni muhofaza qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va iqlim o'zgarishiga moslashish masalalari o'rin olishi lozim" [3].– deb ta'kidlab o'tgan edi. Mazkur taklif a'zolar tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi va amaliyotga joriy etish bo'yicha ishchi guruhlar tashkil etildi. Bu tashabbus ShHT kun tartibiga ilk bor mustahkam ekologik mexanizm joriy etishga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

2022 yil 16 sentabrda Samarqandda o'tkazilgan navbatdagi ShHT sammitida O'zbekiston Prezidenti Orol dengizi fojiasi va uning oqibatlarini global ekologik muammo sifatida ko'tardi. Shu munosabat bilan Prezident Orolbo'yida "yashil iqtisodiyot" asosida pilot loyihalarni amalga oshirish, ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar markazlarini ochish, YuNESKO himoyasidagi "Orolbo'yi xalqaro innovatsion markazi" faoliyatini kengaytirishni taklif etdi[4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2024 yil 4 iyul kuni Ostonada shahrida “ShHT plyus” formatining “Ko‘p tomonlama muloqotni mustahkamlash – barqaror tinchlik va taraqqiyot sari intilish” mavzusidagi uchrashuvda, ekologik muammolar kuchayib borayotgan bir sharoitda iqlim sohasidagi hamkorlik ShHT yangi kun tartibining eng muhim qismiga aylanishi kerakligini qayd etdi. Shu munosabat bilan “yashil” taraqqiyot sohasidagi umumiy maqsad va vazifalarga erishish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda hamkorlik to‘g‘risidagi bitimni ishlab chiqish taklifini qo‘llab-quvvatladi.

Bundan tashqari, Toshkentda ekologik barqarorlik va “yashil” o‘sish sohasida tadqiqotlar olib boradigan ShHTning Iqlim muammolari bo‘yicha innovatsion yechimlar markazini tashkil etish taklif qilindi[5].

O‘zbekistonning tashabbuslari ShHTning ekologik kun tartibini faqat deklarativ emas, balki amaliy mexanizmlar, institutsional yondashuv va xalqaro hamkorlik asosida boyitishga xizmat qilmoqda. Xususan, Orolbo‘yida ShHTga a‘zo davlatlar ishtirokida daraxt ekish aksiyalari (2022–2023 yillar), Samarqandda “ShHT – yashil kelajak sari” mavzusida xalqaro forum (2022), ShHT Ekologik ta‘lim platformasini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruh faoliyati bunga yaqqol misoldir. Prezidentning “Ekologiya – mintaqaviy barqarorlik asosi” degan konseptual qarashi bu jarayonga siyosiy tayanch bo‘lmoqda.

O‘zbekitonda ShHT Xalq diplomatiyasi markazi Prezidentning 2017 yilgi Ostonada sammitadagi tashabbus va takliflarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek, 2018 yil 26 iyundagi “O‘zbekitonda Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazini tashkil yetishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3807 sonli qarori asosida tashkil topgan bo‘lib, o‘tgan yillar mobaynida Markaz ShHT mamlakatlari bilan madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish, o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilik, millatlararo va dinlararo totuvlikni targ‘ib qilish, davlatlar o‘rtasida sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirish, shuningdek, ilmiy-ma‘rifiy, sport diplomatiyasi, tarixiy xotirani asrash, turli ekologik aksiyalar, ilmiy seminar, konferensiya va davra suhbatlari tashkil etib kelmoqda. Xususan, ekologiya sohasida Markaz tomonidan “Clean games. Kids” musobaqasi, “Tabiat-jamiyat-inson” mavzusida ekologik aksiya, “Tabiatni birgalikda asraylik” Xalqaro bolalar rasmlari ko‘rgazmasi, “*Xotira daraxti*” ekologik loyihasini, shuningdek, “Tozalik va ozodalik o‘yinlari” ekovolontyorlik, targ‘ibot loyihasi formatidagi bir necha bosqichlik “Sirdaryo-do‘stlik daryosi” ekologik aksiyasi o‘tkazib kelmoqda. Aksiyaning birinchi bosqichi Toshkent viloyatining Chinoz tumanida, ikkinchi bosqich Tojikiston Respublikasining Xo‘jand shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotida 2024 yil “Ekologiya yili” doirasida o‘tkazildi. Shuningdek, Markaz tomonidan 2025 yil – O‘zbekitonda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilinganligi va ShHTda “Barqaror

rivojlanish yili” doirasida bir qator ekologik loyihalar, xususan, “*Ekodialog*” loyihasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Orol bolalar nigohida” bolalar rasmlari tanlovi va Qozog‘iston va Qirg‘izistonda “Sirdaryo-do‘stlik daryosi” ekologik aksiyasining uchinchi va to‘rtinchi bosqichlarini amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida ekologik diplomatiyaning mustahkamlanishi – nafaqat mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash, balki umuminsoniy hamkorlik tamoyillarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu diplomatiya turi mintaqada barqaror rivojlanishni ta’minlash, umumiy ekologik muammolarni hal etish va xavfsizlikni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston esa ushbu jarayonda tashabbuskor, amaliy va natijaga yo‘naltirilgan siyosat olib bormoqda. O‘zbekiston mazkur jarayonda faol tashabbuslari va amaliyotdagi yutuqlari orqali ShHTning “yashil kun tartibi”ni shakllantirishda yetakchi o‘rinni egallab bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://eng.sectesco.org/>
2. <https://rus.sectesco.org/20230704/-nyu-deliyskaya-deklaratsiya-soveta-glav-gosudarstv-chlenov-shankhayskoy-organizatsii-sotr-948265.html>
3. МаНба: President.uz, 17.09.2021
4. МаНба: President.uz, 16.09.2022
5. <https://president.uz/uz/lists/view/7373>
6. Ahmadov I. “O‘zbekiston tashqi siyosatida SHHTning o‘rni.” // Iqtisod va jamiyat, 2023, №1
7. Mukhamedov, A. (2023). “SHHT doirasida iqtisodiy hamkorlik: O‘zbekiston tajribasi”. Xalqaro munosabatlar, 4(56), 23–30
8. Uzbek MFA (2022). “Samarqand Summit Declaration of the Shanghai Cooperation Organization”. <https://mfa.uz/>

O‘ZBEKISTONNING RESPUBLIKA VA HUDUDLAR DARAJASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING YECHIMI BO‘YICHA MILLIY TAJRIBASI

Mamadaliyev Odiljon Toirovich

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, i.f.f.d. (PhD)

Tel: +998-91-368-85-00 / email: omamadaliyev1714@yahoo.com

Annotatsiya. Maqolada global ekologik inqirozlar davrida insoniyat oldida turgan chaqiriqlar, shu jumladan ekologiya, atrof-muhitning buzilishi va iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini respublika va hududlar

darajasida oldini olish va yumshatish bo'yicha O'zbekistonning o'ziga hos milliy tajribasi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Ekologik inqiroz, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillik, yashil iqtisodiyot, yashil energetika, ekologik pasportlar, ekologik reytinglar, hududlar.

Bugungi kunda insoniyat taraqqiyoti bilan bir qatorda, tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ekologik muammolar ham ortib bormoqda. Tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish va inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan atrof-muhit ifloslanishi yer sayyorasining ekologik muvozanatini buzmoqda. Bu holat faqatgina tabiatga emas, balki inson salomatligi va kelajagiga ham xavf tug'dirmoqda.

Ekologik muammolarga haqida gapirganda, eng avvalo atmosfera (havo) ifloslanishi asosiy muammo sifatida ko'zga tashlanadi. Bu, havo tarkibiga zararli gazlarning ko'p miqdorda chiqishi ortidan atmosferaning inson salomatligiga taxdididir. Bunga transport vositalari, zavod-fabrikalar va yoqilg'ilar yoqilishi sabab bo'lmoqda. Natijada, insonlar orasida nafas olish yo'llari kasalliklari ko'paymoqda, global isish kuchaymoqda.

Global isish, ya'ni iqlim o'zgarishi – issiqxona gazlarining ko'payishi ortidan yer yuzasining haroratini oshirib bormoqda. Dunyo olimlari so'nggi 100 yilda yer harorati 1 gradusga oshganligini e'tirof etmoqdalar. Bu esa muzliklarning erishiga, dengiz sathining ko'tarilishiga va ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Iqlim o'zgarishi ekotizimlar va inson hayotiga jiddiy tahdid tug'dirmoqda.

Yana bir muammo bu – suv tanqisligi. Toza ichimlik suvi butun dunyoda kamayib bormoqda. Aholi sonining ortishi, suvning isrofgarchiligi va ifloslanishi bu muammoni yanada chuqurlashtirmoqda. Suv tanqisligi oziq-ovqat ishlab chiqarishga, sog'liqni saqlashga va iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilar atrof tabiiy muhitga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, biologik xilma-xillikning kamayishiga ham olib kelmoqda. Ko'plab hayvonlar va o'simlik turlari yo'qolib ketmoqda. Bu o'rmonlarning kesilishi, yashash muhitining buzilishi, ifloslanish va iqlim o'zgarishi bilan bevosita bog'liqdir. O'z navbatida, biologik xilma-xillikning yo'qolishi ekotizimlarni zaiflashtirib, insoniyatning tabiiy boyliklardan foydalanish imkoniyatini kamaytirmoqda.

O'zbekiston ham bu muammolardan xoli emas. Ayniqsa Orol dengizining qurishi, global isishning salbiy ta'siri, xavoning ifloslanishi, suv tanqisligi masalalari doimo kun tartibida bo'lib, bu borada, xususan ekologik muammolar ta'sirini kamaytirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda, aynan O'zbekiston tashabbusi bilan bevosita ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi masalalariga doir BMTning 12 ta rezolyusiyasining qabul qilinganligi e'tiborga sazovor. Bu tashabbuslar nafaqat milliy, balki mintaqa darajasida mavjud bo'lgan ekologik muammolarni yechimiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bundan tashqari, "O'zbekiston – 2030" Milliy strategiyasida bu yo'nalishda 150 dan ortiq chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi 20 dan ortiq rasmiy hujjatlar qabul qilingan.

Shuningdek, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi masalalari bo'yicha zarur qonunchilik asoslari yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida", "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida"gi Qonunlari va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ekologiya, atrof-muhitni asrash borasida qator normalar kiritilgan. Xususan, 49-moddada "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega"ligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonning Yer kodeksi, Havo kodeksi, Uy-joy kodeksi, Shaharsozlik kodeksi normalari ham ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi strategik maqsadlar va konseptual normalarga muvofiqlashtirilgan.

2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi qabul qilingan. Bundan tashqari, mamlakatimizda biologik xilma-xillikni saqlash, tabiiy hududlar maydonini kengaytirish va rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Orol dengizining qurigan tubida chang va tuz bo'ronlari paydo bo'lishining oldini olish uchun 2 million gektar dan ortiq maydonda keng ko'lamlı o'rmonzorlar barpo etilmoqda.

2021 yil kuzida "Yashil makon" umummilliy tashabbusi boshlandi. Bunda yiliga 200 million ko'chat ekish ishlarini amalga oshirish orqali 2030 yilga kelib shaharlardagi yashillik darajasini 30 foizga yetkazish ko'zda maqsad qilingan.

2023 yilda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi yo'nalishida ta'lim va ilm fanni integratsiya qilish maqsadida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish universiteti (Green university), 2024 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim Kengashi tashkil etilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda “Yashil” energetikani rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan loyihalar natijasida 2030 yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olinadigan energiya ulushini umumiy energiya ulushida 54 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan.

«Яшил» иқтисодидётга ўтишнинг устувор йўналишлари



“2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” tasdiqlangan. Shuningdek, 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish maqsadida:

birinchidan, “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va «yashil» o‘tishni ta’minlash dasturi” qabul qilingan;

ikkinchidan, Sanoat tarmoqlarida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamkorligini ta’minlash bo‘yicha konsepsiya;

uchinchidan, 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish va «yashil» o‘tishni ta’minlash bo‘yicha harakatlar rejasi;

to‘rtinchidan, 25 ta korxonada va tashkilotda ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig‘imi ko‘rsatkichini 2026 yilga kelib 2022 yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga qaratilgan 2022 — 2026 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg‘i-energetika resurslarini tejashning maqsadli parametrlari tasdiqlangan.

Islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2025 yil “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilindi. Unda, ekologik barqarorlikni ta’minlash, “yashil iqtisodiyot” va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilish, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik “yashil energiya” stansiyalarini barpo etish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish kabi vazifalar belgilangan. Shuningdek,

iqtisodiyotda “uglerod izi”ni kamaytirish, resurslarni qayta ishlash va samarali foydalanish orqali chiqindilarni kamaytirish hamda “yashil komponentlar”ni oshirishga ham e’tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda ekologiya, atrof-muhitni asrash va iqlim o’zgarishiga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, bir so‘z bilan aytganda samarali ekologik siyosatni yuritish bo‘yicha O‘zbekiston tajribasi xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e’tirof etilib, 4-5 aprel kunlari Samarqandda Xalqaro Iqlim forumini o‘tkazilishiga turki bo‘ldi.

Albatta, har qanday islohotlarning, shu jumladan, ekologiya masalalarida, pirovard maqsadi insonning erkin va farovon hayot kechirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdir. Bunda mamlakatlarning hududiy birliklari alohida o‘rin tutib, o‘zining geografik joylashuvi, resurslaridagi tafovutlar sababli, nomutanosibliklarni bartaraf etgan holda barqaror rivojlantirish islohotlarning asosini tashkil etadi.

O‘zbekistonda ham bu borada o‘ziga hos yondashuv mavjud bo‘lib, nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki ekologik masalalarda ham yechimlar ilgari surilgan. Ayniqsa, bu borada hududlar ekologik pasportlarining ahamiyati juda kattadir, ayniqsa tabiiy resurslarni muhofaza qilish, ekologik nazoratni kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash nuqtai nazaridan. Ekologik pasportlar:

birinchidan, hududning ekologik holatini to‘liq aks ettiradi. Unda atmosfera, suv, tuproq, flora va fauna to‘g‘risidagi ma’lumotlar jamlangan bo‘ladi;

ikkinchidan, hududdagi ekologik muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo‘yicha strategik rejalar tuzishda yordam beradi. Masalan, sanoat chiqindilarini kamaytirish yoki yashil hududlarni ko‘paytirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilish mumkin;

uchinchidan, investorlar uchun ekologik tavsifnomadir. Investorlar “ekologik pasportlar” yordamida hududning ekologik holatini bilgan holda, atrof-muhitga salbiy ta’sir keltirmaslik borasida tegishli choralar ko‘radilar;


to‘rtinchidan, ekologik xavfsizlikni ta’minlashning asosidir. Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hududdagi aholi sog‘lig‘i va turmush darajasini oshirish maqsadida, “ekologik pasportlar” orqali ekologik xavf-xatarlarni oldindan aniqlab, ularga qarshi kurashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

beshinchidan, ekologiya va atrof-muhitga doir zarur ma’lumotlarni qamrab olishi nuqtai-nazaridan muhim ilmiy va statistik manbadir. Tadqiqotchilar, talabalar, mutaxassislar uchun “ekologik pasportlar” ilmiy izlanish olib borishda ishonchli ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi;

oltinchidan, barqaror rivojlanish va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Aynan “ekologik pasportlar” orqali hududlarning

rivojlanishini ekologik me'yorlar asosida nazorat qilish, xalqaro ekologik standartlarga mos keladigan faoliyatni yo'lga qo'yishga erishiladi.

Shu o'rinda, muayyan hudud, ayniqsa tuman (shahar) darajasida "ekologik pasport"ni tayyorlash va shu asosida reytingni yuritish masalasi kompleks va ma'lumotlarga boy jarayon bo'lib, unda turli xil ekologik, geografik va ijtimoiy omillar hisobga olinishi zarur bo'ladi.



Umuman olganda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hududlar uchun ekologik pasportlash bo'yicha me'yor va tavsiyalarni taqdim etganlar. Davlatlar uchun tavsiyaviy harakterga ega bo'lgan "Xalqaro GREEN CITY INDEX" uslubiyoti ishlab chiqilgan. Shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) asoslangan muhim indikatorlar jahon miqyosida amaliyotga keng tatbiq etilmoqda.

O'zbekistonda ham hududlarning ekologik pasportlarini ishlab chiqish borasida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 maydagi «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-81-son Farmonida:


xalqaro tajriba asosida respublikaning barcha hududlarini ekologik baholash bo'yicha indikatorlar asosida «eco-indicator.uz» reytingi shakllantirish va har bir hududning ekologik pasportini e'lon qilish;

2025 yil 1 avgustga qadar har bir hududning 2030 yilgacha mo'ljallangan ekologik «master-reja»sini mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda

ishlab chiqish hamda tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga tasdiqlash uchun kirish nazarda tutilgan.

«master-reja» ijrosi va uning natijadorligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyat, shahar va tumanlar hokimlari hamda ushbu masalaga mas’ul shaxslarga nisbatan mukofotlash yoki intizomiy jazo chorasini ko‘rish uchun asos bo‘lishi belgilab qo‘yilgan.

Umuman olganda amalga oshirilgan ishlar natijasida, respublikaning 14 ta ma‘muriy markazlari uchun ekologik pasportlar, ular asosida hududlarning ekologik reytingi shakllantirilgan, shuningdek, ulardan ochiq foydalanish imkonini beruvchi "GREENCITIES.UZ onlayn platformasi ishga tushirilgan.



Bu ishlarning mantiqiy davomi sifatida, keyingi bosqichda, 2025 yil 1 sentabrdan boshlab tuman (shahar) darajasida ekologik pasportlar va ekologik master rejalar hamda hududlarning ekologik reytingini ishlab chiqib, keng jamoatchilikka taqdim etish amaliyotini joriy etish vazifasi «O‘zbekiston-2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturidan o‘rin olgan. E’tiborli jihati, 2025 yil 1 sentabrdan boshlab hokimlarni lavozimga tasdiqlash va lavozimdan ozod etishda tegishli ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olgan ekologik audit natijalari bilan baho berilishi qat’iy belgilab qo‘yilganligi yurtimizda ekologiya va atrof-muhitga bo‘lgan yuksak e’tiborning ifodasidir.

Yuqoridagi masalalar qatorida, mamlakatning ekologik barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblangan aholining ekologik madaniyatini oshirish masalasi alohida e’tiborga molikdir.

Bu borada, mamlakatimiz Prezidentining 2025 yil 15 maydagi PQ-184-sonli Qarori bilan “2030 yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi” tasdiqlandi. Unda, yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, aholining barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni, shu jumladan “yashil” iste’mol

madaniyatini yanada yuksaltirish masalalar strategik yo‘nalishlar sifatida belgilab berildi.

Muxtasar qilib aytganda, bularning barchasi O‘zbekistonning mamlakat va hududlar darajasida ekologik muammolarni yechish borasidagi milliy tajribasini namoyon etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ekologik muammolarni bartaraf etish uchun har birimiz mas’uliyatni his etishimiz zarur. Tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, chiqindilarni kamaytirish, daraxt ekish, suv va energiyani tejash, qayta tiqlanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish, yashil iqtisodiyotga o‘tish tamoyillarini keng joriy etish — shak-shubhasiz, bu harakatlar katta ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. Yuqoridagilar esa, O‘zbekiston to‘g‘ri yo‘lda ekanligidan dalolat beradi. Shu o‘rinda, ekologiya, atrof-muhitni asrashda nafaqat davlat balki jamiyat ham hayrihoh bo‘lishi zarur. Faqat umumiy harakat bilan, yuksak ekologik madanitga ega bo‘lish va uni amalga bajarish bilangina jonajon Vatanimizni asrashimiz va kelajak avlodga qulay-atrof muhitni meros qilib qoldirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/doc6445145>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/6479180>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/6600413>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 23 noyabrdagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-199-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/6673808>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-106-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/7044889>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi ““O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/7369703>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrdagi “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga

qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

PQ-436-son qarori // <https://lex.uz/docs/6303230>.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 maydagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-184-son qarori // <https://lex.uz/docs/7528761>.

9. UNIDO. Sustainable City Indexing: Towards the Creation of an Assessment Framework for Inclusive and Sustainable Urban-Industrial Development // https://www.unido.org/sites/default/files/files/2018-02/BRIDGE%20for%20Cities_Issue%20Paper_2.pdf/.

10. Siemens. European Green City Index Assessing the environmental impact of Europe's major cities // https://assets.new.siemens.com/siemens/assets/api/uuid:fddc_99e7-5907-49aa-92c4-610c0801659e/european-green-city-index.pdf/.

11. Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolyusiyalari ma'lumotlar banki // <https://research.un.org/en/docs/find/resolutions>.

11. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/>.

ENVIRONMENTAL (WATER) DIPLOMACY IN CENTRAL ASIA

Usmanov Zakir Karimovich

*Associate Professor (PhD), Associate Professor of the Department of Oil and Gas Economics of the Faculty of the Russian State University of Oil and Gas named after I.M. Gubkin in Tashken
(+998977404572, uzk.com@mail.ru)*

Abstract: This article discusses the issues of environmental diplomacy in Central Asia in the context of the growing environmental crisis. Particular attention is paid to the Green Diplomacy initiative in the countries of the Central Asian region. The article occupies an important place in the development of water diplomacy between the states of Central Asia. It is noted that this problem is relevant for the region due to the peculiarities of the position and legal regime of transboundary rivers in Central Asia. The experience of a number of regions and international organizations and NGOs in the formation and development of environmental diplomacy is analyzed.

Key words. Environmental diplomacy, foreign policy, green diplomacy, Central Asia, ecosystem, environment, sustainable development, ecology, sustainable development.

Environmental diplomacy as a phenomenon has emerged relatively recently as a result of the world community's concern about the growing threat of an environmental crisis. There are three global environmental problems that are most acute for the planet's population: climate change, destruction of the Earth's ozone layer and "the closure of global biogeochemical cycles" [1]. Unfortunately, international relations and world politics have not yet been able to achieve the necessary and desired result in this area. This is evidenced by the following examples: within the framework of the Forum on Environmental Security in Rio de Janeiro, a report of the UN International Commission on Environment and Development entitled "Our Common Future" was published.

In the 20th century, the institute of environmental diplomacy has already spread somewhat in some countries that are actively fighting for the restoration of the ecological system on the planet. In this regard, the most striking and successful example of environmental diplomacy is presented in the EU. With the fact that it is the European Union that plays the leading role in the development of international environmental activities [2].

Environmental diplomacy in Central Asia began mainly with the development of water diplomacy. Central Asia is a region where the greatest probability of conflicts is related to water. The main reason for this is the deterioration of the ecology and social economic situation, as well as the growth of political tension. Most of the water used in the region is taken from two main rivers - the Syr Darya and the Amu Darya.

After the collapse of the USSR, the unified water management complex was destroyed and the two main rivers acquired a transboundary character. At present, the newly formed republics of Central Asia are divided not only by territorial borders, but also by the so-called upper reaches - Kyrgyzstan and Tajikistan, and the so-called lower reaches - Kazakhstan, Turkmenistan, Uzbekistan. The countries located in the upper and lower reaches have different economic interests. Kyrgyzstan and Tajikistan generate electricity, and Kazakhstan, Uzbekistan and Turkmenistan grow agricultural products.

In the summer, power engineers are interested in accumulating water for winter electricity generation, and farmers need water specifically in the summer, during the irrigation season [3]. In Soviet times, Central Asia put irrigation needs first, and vigorous work began on irrigating arid territories. Uzbekistan, Kazakhstan, and Turkmenistan had the most suitable agricultural crops. Tajikistan and Kyrgyzstan, rich in water resources, supplied water for the needs of irrigated agriculture in neighboring republics.

In exchange, the downstream countries provided agricultural products and energy resources to the upstream countries. This approach - mutual compensation - allowed for the most optimal management of the region's water resources.

However, the new geopolitical situation after the countries gained independence required new agreements and arrangements on the use of transboundary rivers. During the first years, the republics agreed to maintain the status quo, that is, to follow the mechanism that had been established in the USSR. The most important political step was the initiative of the top officials of the national water management agencies of the Central Asian states adopted in the Tashkent Statement in October 1991. It became the starting point of the negotiation process between the Central Asian states in the sphere of using the water resources of transboundary rivers.[4]

In 1995, at a meeting of the presidents of all Central Asian countries, the Nukus Treaty was signed. In the declaration, the Central Asian countries recognized the growing water deficit in the region, as well as the need to develop multilateral cooperation. In addition, the republics agreed to previously signed agreements on water resources [5]. The concluded agreements only smoothed out the conflict potential for a certain period.

The differences in interests between the upstream and downstream states have gradually expanded, and there has been an obvious bias towards the economically developed downstream states, which require an increase in water reserves for the vegetation of their irrigated lands, and this is contrary to the interests of Tajikistan and Kyrgyzstan, which are seeking to reduce their energy dependence, primarily with Uzbekistan.

With the arrival of the new President of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, who has taken a course to improve relations with neighbors and reduce the conflict potential in the region, a qualitatively new stage in the development of environmental diplomacy in Central Asia has practically begun. The newly elected President of Uzbekistan considers Central Asia a priority area of the country's foreign policy. At present, Uzbekistan has gotten rid of emotional components and pays attention only to the importance of taking into account the interests of all regions of the Central Asian republic in the construction of hydroelectric power plants in the region. At the same time, it demonstrates its readiness for constructive cooperation in the field of hydropower, having announced the joint construction of hydroelectric power plants in the upstream countries.

The development of environmental diplomacy and external environmental policy of states and organizations has become a reflection of the global trend of environmental international cooperation. This work examines one of the practical aspects of environmental diplomacy, i.e. the practice of using the environmental aspect in public diplomatic practice.

Thus, the following conclusions can be made:

- environmental diplomacy is a type of activity that is carried out by subjects of international relations through peaceful means, and also based on the principle of global environmental security with the aim of finding a

mutually acceptable and effective way of interaction between society and nature on a global scale;

- environmental diplomacy is a type of activity that is carried out by subjects of international relations through peaceful means, and also based on the principle of global environmental security with the aim of finding a mutually acceptable and effective way of interaction between society and nature on a global scale;

- environmental diplomacy is based on the principles of the concept of "sustainable development";

- environmental diplomacy is the latest and most relevant for modern world communities.

In conclusion, I would like to note that recently in Central Asia, institutions of environmental diplomacy have been actively developing, many intergovernmental and non-governmental regional organizations have been created that actively cooperate with UN agencies [6], and implement a number of socio-ecological programs and projects. All these factors lead to steadily developing environmental international relations in Central Asia.

References:

1. Kondratiev K.Ya., Demirchyan K.S. The Earth's Climate and the "Kyoto Protocol" // Bulletin of the Russian Academy of Sciences. - 2001, K 11. - P. 1002-1009.

2. Shadimetov Yu.Sh., Airapetov D.A. Actual issues of the strategy of environmentally sustainable transport // Universum: technical sciences: electronic scientific journal. 2022. 4 (97). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13343>

3. Shadimetov Yu.Sh., Airapetov D.A., Ergashev B. Transport, ecology and health // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol 8, Issue 4, no 33, 2021 - PP. 17226-17230. // URL: <http://www.ijarset.com/upload/2021/april/33-botir-28.PDF>.

4. Saidamirov B.Sh., Toropygin A.V. Water problems of Central Asia: solution mechanisms at different levels of political governance // Eurasian integration: economics, law, politics. 2018. No. 4 (26). URL: <https://cyberleninka.ru/articleMvodnye-problemy-tsentralnoy-azii-mehanizmy-resheniya-na-raznyh-urovnyah-politicheskogo-upravleniya>

5. Akunova G.Ch. Features of water diplomacy in Central Asia. Problems of the post-Soviet space. 2021; 8 (2): 229-241. DOI: <https://doi.org/10.24975/2313-8920-2021-8-2-229-241>:

6. Elkeeva K. How will Bishkek and Tashkent build hydroelectric power plants? 2017. URL: <https://rus.azattyk.org/a/28721985.html>

ВОДНАЯ ДИПЛОМАТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА:

ОТ ПРАГМАТИЗМА К ГЛОБАЛЬНОМУ ПАРТНЕРСТВУ

Бафоев Феруз Муртазаевич,

*доцент Бухарского государственного технического университета,
кандидат политических наук, bferuz@list.ru, (+99899-701-17-26)*

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные вопросы водно-энергетических проблем в условиях глобальных климатических изменений. Особое внимание уделено деятельности Узбекистана в направлении рационального водопользования и внедрения водосберегающих технологий. Анализируются национальные программы и международные инициативы страны по обеспечению устойчивого управления водными ресурсами, развитию водной дипломатии и укреплению регионального сотрудничества. Показано, что прагматичная политика Нового Узбекистана способствует решению многолетних проблем Центральной Азии в области водных ресурсов, обеспечивая их эффективное использование и сохранение для будущих поколений.

Ключевые слова: Узбекистан, водные ресурсы, водная дипломатия, климатические изменения, трансграничные воды, Центральная Азия, устойчивое развитие.

С водно-энергетическими проблемами народам планеты приходилось сталкиваться в разные периоды всемирной истории. Нынешний, нарастающий дефицит водных ресурсов относится к числу явных климатических кризисов. Четверть населения планеты сегодня сталкивается с проблемой нехватки чистой питьевой воды. Как известно, в результате глобальных климатических изменений на планете сложилась критическая экологическая ситуация. Все более обостряются такие проблемы, как, например, нехватка питьевой воды. Остаются под угрозой права человека на здоровье, чистую воду. От этого в первую очередь страдают люди, нуждающиеся в социальной защите, в частности, лица с инвалидностью, пожилые люди, женщины и дети [7]. В XX веке на глазах одного поколения было полностью утеряно Аральское море, что стало трагедией поистине планетарного масштаба.

В Центральной Азии особенно острыми становятся проблемы дефицита водных ресурсов. Регион сталкивается с засухами, таянием ледников и нехваткой воды. К 2040 г. на фоне сокращения стока рек Амударья и Сырдарья страны Центральной Азии столкнутся с высоким уровнем водного стресса [1]. В этих условиях Новый Узбекистан разработал собственную стратегию в рассматриваемом направлении и приступил к реализации больших проектов по экономии 15 миллиардов

кубометров воды за счет повышения эффективности водопользования на 25 процентов в следующие пять лет [5].

В рамках Стратегии «Узбекистан – 2030» в нашей стране принимаются меры по достижению Целей устойчивого развития ООН. Они, как известно, охватывают 17 задач благополучия в таких областях, как изменение климата, чистая вода и энергия и т.д. В целях экономии водных ресурсов Узбекистан бетонирует ирригационные сети, совершенствует промышленную базу по выпуску водосберегающих технологий, которые уже внедрены практически на половине орошаемых земель (это почти два миллиона гектаров) [1]. Узбекистан успешно сотрудничает с другими странами мира в рамках программ по смягчению последствий высыхания Аральского моря, рациональному водопользованию. Руководство нашей страны считает, что для решения водной проблемы необходима совместная работа государств всего региона, международных организаций.

Новый Узбекистан считает важным консолидацию усилий в сфере водосбережения. Здесь видятся большие возможности для партнерства с другими странами – от модернизации ирригационной инфраструктуры до совместного мониторинга ледников и внедрения передовых водосберегающих технологий [2]. Руководство Узбекистана считает, что необходимы единые подходы в предотвращении загрязнения трансграничных водных ресурсов [4]. Наша страна заинтересована в совместной реализации огромного потенциала Центральной Азии в области водной энергии. Только в Узбекистане имеется потенциал для производства 10 гигаватт гидроэнергии [3].

Узбекистан выдвинул ряд инициатив, в том числе об учреждении Регионального хаба по внедрению водосберегающих технологий (ВВТ) [5]. Наша страна призывает объединить усилия и запустить Региональную программу по ВВТ в Центральной Азии. Экспертному обсуждению способствует международный форум в регионе Приаралья [1]. В числе других предложений принятие Региональной стратегии рационального использования водных ресурсов трансграничных рек [6].

Кроме того, Узбекистан выступил за разработку под эгидой Организации Объединенных Наций Декларации об обязательствах по обеспечению здоровья и экологической безопасности речных экосистем [4]. В Новом Узбекистане благодаря мудрой и прагматичной политике главы нашего государства управление трансграничными водными ресурсами между странами региона осуществляется на основе добрососедства и уважения взаимных интересов. Это дает возможность легко решать многолетние проблемы, накопившиеся в сфере. Последовательно продолжается активное двух и многостороннее плодотворное сотрудничество в вопросах интегрированного управления водными ресурсами, совместного использования трансграничных вод и

межгосударственных объектов с соседними странами. В частности, в 2024 г. проведен ряд важных встреч, достигнуты определенные договоренности [8].

На заседаниях Межгосударственной координационной водохозяйственной комиссии (МКВК) обсуждаются распределение лимита водозабора на вегетационный и осенне-зимний периоды в бассейнах рек Амударьи и Сырдарьи, использование трансграничных водных ресурсов в регионе, а также текущие вопросы [8].

В 2024-2025 гг. Узбекистаном в рамках заседаний двусторонних совместных рабочих групп и комиссий достигнут ряд важных договоренностей с Казахстаном, Таджикистаном, Кыргызстаном и Туркменистаном по рациональному использованию трансграничных водных ресурсов, а также эксплуатации водохозяйственных объектов, их автоматизации. В июне 2024 г. между Узбекистаном, Казахстаном и Таджикистаном подписан трехсторонний протокол по согласованию режима работы водохранилища Бахри Точик и дополнительно получено свыше миллиарда кубометров воды для Ташкентской, Сырдарьинской и Джизакской областей в течение вегетационного периода [8].

Благодаря положительному решению вопросов, рассматриваемых в рамках Совместной узбекско-туркменской межправительственной комиссии по водохозяйственным вопросам, в настоящее время в Туямуюнском водохранилище накоплено более пяти миллиардов кубометров воды, что на 500 миллионов кубометров больше, чем в прежние годы [8].

В результате тесных связей с Казахстаном в прошлом году для улучшения экологической ситуации в Айдар-Арнасайской системе озер из Шардаринского водохранилища сброшено около 700 миллионов кубометров воды, а в декабре 2024 г., согласно достигнутым договоренностям с Министерством водных ресурсов и ирригации Казахстана, из Шардаринского водохранилища получено 1,4 миллиарда кубометров [8].

В текущем году в Душанбе ожидается проведение Международной конференции по вопросам сохранения ледников. В 2026 г. в Астане пройдет Региональный климатический саммит Центральной Азии, а в 2027 г. в Бишкеке – второй Глобальный горный саммит «Бишкек+», в 2028 г. в Душанбе – Конференция высокого уровня по итогам реализации целей Международного Десятилетия действий «Вода для устойчивого развития» (2018-2028 гг.) [9].

Список использованных источников:

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на Самаркандском международном климатическом форуме.

4 апреля 2025 г. // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан – www.president.uz.

2. «Перед нами стоит исторический шанс сделать наш регион не только устойчивым, но и процветающим». Эксклюзивное интервью Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева «Euronews» в преддверии первого саммита «Центральная Азия - Европейский Союз» в Самарканде. 1 апреля 2025 г. // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан – www.president.uz.

3. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на саммите «Неделя устойчивого развития Абу-Даби». 14 января 2025 г. // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан – www.president.uz.

4. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на Конференции Организации Объединенных Наций по изменению климата (COP29). 12 ноября 2024 г. // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан – www.president.uz.

5. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на девятом заседании Совета управляющих Азиатского банка инфраструктурных инвестиций. 25 сентября 2024 г. // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан – www.president.uz.

6. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на Консультативной встрече глав государств Центральной Азии. 9 августа 2024 г. // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан – www.president.uz.

7. Участникам четвертого традиционного Самаркандского форума по правам человека. 13 июня 2024 г. // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан – www.president.uz.

8. Шавкат Хамраев, министр водного хозяйства Республики Узбекистан. Водная дипломатия Центральной Азии // Посольство Республики Узбекистан в КНР – china.mfa.uz.

9. А.Неъматов: концептуализация водной дипломатии – залог взаимовыгодного решения водных проблем региона. 10 апреля 2025 г. // UzDaily.uz.

ЗЕЛЕНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ В РАМКАХ ИНИЦИАТИВЫ "ПОЯС И ПУТЬ"

Камила Николаева

*PhD, старший преподаватель кафедры Международных
отношений Ташкентского государственного университета
востоковедения*

Тел.: 998998552108

Аннотация. Данная статья посвящена анализу инициативы «Пояса и пути», а также в ней рассмотрены основные направления узбекско-китайского взаимодействия в области «зеленого» развития. Также выделены основные «зеленые» проекты КНР в Узбекистане в рамках инициативы «Пояса и пути».

Ключевые слова: «Пояс и путь», ОПОП, Зеленый шелковый путь, зеленая энергетика, экологически чистая промышленность.

Инициатива «Пояс и путь» является международной экономической стратегией Китая, и она также известна как "Один пояс, один путь" (ОПОП), «Экономический пояс Шелкового пути и Морской шелковый путь XXI века» или «Новый шелковый путь». Она была объявлена председателем КНР Си Цзиньпином в ходе визита в Казахстан в 2013 году [1].

ОПОП официально имеет «пять целей»: согласованная политика, взаимосвязанность объектов, беспрепятственная торговля, финансовая интеграция и связи между народами. За последние годы акцент на разработку «зеленого» и «устойчивого» Пояса и пути усилился. Так, Министерство охраны окружающей среды (ныне Министерство экологии и окружающей среды) уже опубликовало Руководство по продвижению Зеленого пояса и пути, в котором подчеркивается значимость «экологической цивилизации», «концепций зеленого развития», «принципов ресурсной эффективности и экологической чистоты» в рамках пяти вышеперечисленных целей.

«Зелёный шёлковый путь» — это направление с уклоном на устойчивое развитие в рамках Инициативы «Пояс и путь», предназначенное для укрепления экологической репутации Пекина и продвижения его идей на в области экологических вопросов. Впервые Си Цзиньпин упомянул о "Зеленом шелковом пути" в своей публичной речи в июне 2016 года в Узбекистане [2], который сейчас активно развивает свои мощности в области возобновляемых источников энергии при поддержке китайских компаний. Как и более широкий проект «Пояс и путь», контуры Зеленого шелкового пути трудно определить.

Инициатива «Пояс и путь», предложенная председателем Си Цзиньпином, является открытым и инклюзивным проектом, который Узбекистан твердо поддерживает и активно в нем участвует. Для Республики Узбекистан интересен опыт Китая по сокращению бедности, а также Узбекистан заинтересован в углублении сотрудничества в различных областях, таких как торговля и инвестиции, технологии,

возобновляемая энергетика, сельское хозяйство, а идея «Зеленого шелкового пути» представляется особенно важной.

Председатель КНР Си Цзиньпин на встрече с премьер-министром Узбекистана Ариповым А. в Пекине 28 августа 2019 года отметил, что обе страны успешно продвигают строительство Совместного пояса и пути. Динамичное развитие отношений между Китаем и Узбекистаном свидетельствует о том, что обе стороны всегда придерживаются духа добрососедства, взаимной выгоды и взаимной помощи. Си Цзиньпин подчеркнул, что он придает большое значение развитию всеобъемлющего стратегического партнерства между Китаем и Узбекистаном.

Далее, 4 июля 2024 года председатель КНР Си Цзиньпин заявил, что Пекин готов работать с Ташкентом для дальнейшего продвижения развития китайско-узбекских отношений [3]. Во время государственного визита Мирзиёева Ш.М. в КНР в январе 2024 года руководители обеих стран договорились поднять двусторонние отношения до всепогодного комплексного стратегического партнерства новой эпохи и продвигать строительство китайско-узбекского сообщества с общим будущим с более высокой стартовой точки, активизировав «зеленую» кооперацию между странами.

На сегодняшний день реализуется целый ряд проектов в рамках Зеленого Пояса и Пути. Например, ветряная электростанция в Каракалпакстане, мощность которой составляет 1000 мегаватт, ее строительство ведёт компания Sany Renewables International Investment Co., Ltd [4]. Еще одним крупным проектом является запуск солнечной электростанции в Фаришском районе Джизакской области, мощность которой 500 мегаватт, а реализацию этого проекта будет осуществлять компания China Electrical Equipment International Co., Ltd [4]. А в Ахангаране запланировали реализовать проект зеленой энергетике за 1,8 млрд долларов [5], в котором примут участие более 10 китайских компаний. Данный проект направлен на создание инфраструктуры для производства солнечной, ветровой и гидроэнергии на участке площадью 2,6 тыс. гектаров.

Об активном участии продвижении зеленых идей свидетельствует тот факт, что в 2020 году китайская компания Huawei присоединилась к проекту Программы Развития ООН по озеленению дна Аральского моря, запустив инициативу «Green Uzbekistan» [6]. В рамках данной инициативы была оказана поддержка по высадке почти 20 000 саженцев саксаула на засушливых территориях. С самого начала проекта руководство компании заявило, что данный вклад в устойчивое развитие региона Приаралья не будет единоразовым, и что компания готова оказывать поддержку проекта на долгосрочной основе. И в 2021 году был осуществлен выезд команды Huawei в зону высадки саксаула

для ознакомления с прогрессом проекта и был внесен очередной вклад в приобретение саженцев саксаула для дальнейшей их посадки, доведя общее количество растений до 30 000 [6].

Особо необходимо подчеркнуть зеленую кооперацию между Министерством экологии, охраны окружающей среды и изменения климата и ассоциацией китайских предпринимателей в Узбекистане. На встрече 25 апреля 2024 года, проведенной с участием министра экологии Абдухакимова А., председателя ассоциации китайских предпринимателей в Узбекистане Лю Юя и представителей делового сообщества Китая, обсуждались идеи по развитию проектов в области «зеленых» технологий, переработки отходов, борьбы с загрязнением атмосферного воздуха, развития экотуризма и других направлений охраны окружающей среды [7]. Также были подняты темы, касающиеся технических аспектов обращения с отходами, управления водными ресурсами, борьбы с загрязнением воздуха, а также разработки технико-экономических концепций на будущее, привлечения экспертов и координации проектов.

По результатам проведенного мероприятия был принят План действий по развитию сотрудничества между Министерством экологии, охраны окружающей среды и изменения климата и ассоциацией китайских предпринимателей в Узбекистане [7], который включает в себя несколько компонентов: строительство мусоросжигательного завода, создание индустриального парка высоких технологий, развитие экологически чистой промышленности (экопромышленный парк), внедрение системы онлайн-мониторинга за загрязнением для ключевых предприятий, а также установка оборудования для очистки сточных вод, снижения выбросов, управления твердыми отходами и шумом и другие.

Подводя итог вышеизложенного, можно отметить, что в настоящее время активно развивается сотрудничество Узбекистана и Китая в «зеленой» сфере. И одной из платформ для продвижения «зеленых» идей двух государств является Инициатива «Пояса и Пути», в рамках которой ведется плодотворная работа по расширению узбекско-китайских отношений в сфере зеленой экономики и энергетики. Это позволяет китайским компаниям выходить на рынок Узбекистана и осуществлять свои «зеленые» проекты.

Список использованных источников:

1. Regional and country analysis of Chinese BRI engagement// <https://greenfdc.org/china-belt-and-road-initiative-bri-investment-report-2024/>.
2. Xi Jinping Meets with Uzbek President Shavkat Mirziyoyev// <http://www.beltandroadforum.org/english/n101/2023/1018/c130-1187.html#:~:text=The%20Belt%20and%20Road%20Initiative%20proposed>

[%20by%20President,advance%20the%20building%20of%20the%20%22Green%20Silk%20Road%22.](#)

3. Президент Узбекистана выступил за объединение международных усилий в рамках «Зеленого» шелкового пути// <https://president.uz/ru/lists/view/6778>.

4. Узбекско-китайское сотрудничество в «зелёной» энергетике// <https://eenergy.media/news/28433>.

5. Китайская компания планирует реализовать проект зеленой энергетики в Ахангаране за \$1,8 млрд// <https://vzglyad.uz/ru/post/2024/06/20/baibuting-group/>.

6. “Green Uzbekistan” как часть вклада компании Huawei в устойчивое развитие и защиту окружающей среды// <https://www.huawei.com/uz/news/uz/2021/huawei-green-uzbekistan-2021>.

7. Китайские предприниматели подключаются к охране окружающей среды в Узбекистане// <https://nuz.uz/2024/04/25/kitajskie-predprinimateli-podklyuchatsya-k-ohrane-okruzhayushhej-sredy-v-uzbekistane/>.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING TRANSCHEGARAVIY SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Abdullayev J.I

DTPI Tarix va falsafa kafedrası o‘qituvchisi

Email:abdullayevjamshid19900131@gmail.com

Tel: +998996173190

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasidagi suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha tuzilgan asosiy shartnomalarni tizimli tahlil qilish, ularning mazmuniy jihatlarini ochib berish hamda mintaqaviy barqarorlik va hamkorlik nuqtai nazaridan istiqboliy rejalarni baholashga qaratilgan. Shuningdek, 1992-yildan boshlab imzolangan asosiy shartnomalar, jumladan, suvdan birgalikda foydalanish to‘g‘risidagi kelishuv, IFAS doirasidagi deklarativ-huquqiy hujjatlar, Sirdaryo va Amudaryo havzalaridagi oqimlar rejalashtirilishi protokollari, hamda suv-energiya almashinuvi mexanizmlarining tahliliy rekonstruksiyasi amalga oshiriladi. Tadqiqot yakunida Markaziy Osiyo suv diplomatiyasining institutsional transformatsiyasi uchun zarur bo‘lgan huquqiy-hamkorlik tamoyillari, ishonchni mustahkamlovchi choralar va regional sinergetik yondashuvlar asosida strategik tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlari. Markaziy Osiyo, transchegaraviy daryolar, suv diplomatiyasi, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, ekologik barqarorlik, gidroenergetika, irrigatsiya

Markaziy Osiyoda joylashgan besh davlat Sovet Ittifoqi davrida yagona markazlashgan irrigatsion-sug'orish tizimi orqali boshqarilgan bo'lsa-da, mustaqillikdan so'ng bu integratsiyalashgan tizimning yemirilishi hududiy manfaatlar ziddiyati va resurslar taqsimoti bo'yicha keskin ixtiloflarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryo kabi transchegaraviy daryolardan foydalanish bo'yicha qarama-qarshi strategik yondashuvlar — tog'li mamlakatlarning (Qirg'iziston va Tojikiston) gidroenergetik manfaatlari hamda past tog'oldi mamlakatlarning (O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston) irrigatsiya ehtiyojlari — o'zaro ziddiyatli munosabatlarga zamin yaratdi. Bugungi kunda suv resurslarining kamayib borishi, global isish, aholi sonining ortishi va agrotexnik kengayishlar fonida suvdan foydalanish masalasi nafaqat ekologik yoki iqtisodiy, balki siyosiy va xavfsizlik mezonlari bilan ham belgilanmoqda. Shu jihatdan, mintaqadagi davlatlar o'rtasida suv resurslarini boshqarish bo'yicha tuzilgan ko'plab ikki va ko'p tomonlama bitimlar muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Xususan, 1992-yildagi "Suvdan birgalikda foydalanish to'g'risidagi kelishuv", 1998-yilgi "Sirdaryo daryosi bo'yicha o'zaro hamkorlik" protokoli, 2002-yildan keyingi "IFAS" (Xalqaro Amudaryo va Sirdaryo Havzalari Fondi) doirasidagi kelishuvlar hamda 2018-yilgi yangi mintaqaviy muzokaralar suv diplomatiyasining institutsional poydevorini tashkil etgan bo'lsa-da, ularning ijrosidagi muammolar va o'zaro manfaatlar hamon dolzarbligicha qolmoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi suv masalasiga oid shartnomalar o'zining murakkab yuridik-strategik tabiatiga ega bo'lib, ularning har biri suv oqimining mavsumiy taqsimoti, suv-energiya almashinuvi, havza infratuzilmasini modernizatsiyalash, hamda ma'lumotlar almashinuvi kabi komponentlarni qamrab oladi. Kelajakda transchegaraviy suv resurslarining adolatli va barqaror boshqaruvi faqat texnik va iqtisodiy yechimlar bilan emas, balki mustahkam xalqaro huquqiy mexanizmlar, siyosiy muloqot va ishonchga asoslangan ko'p tomonlama institutlar orqali ta'minlanmog'i lozim. Suv ustidan nazorat masalasi mintaqadagi xavfsizlik muvozanatini izdan chiqarish xavfini oshiradi. Aynan shunday murakkab mintaqaviy kontekstda suvdan oqilona foydalanish bo'yicha tuzilgan shartnomalar nafaqat mavjud muammolarning yengil echimi, balki mintaqaning geosiyosiy kelajagini belgilovchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

MATERIAL VA TADQIQOT USULLARI.

Ushbu tadqiqotni olib borish jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, taqqoslash, tizimli tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Mazkur masala bo'yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar asarlari va maqolalari shuningdek, davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnoma va pratakollar tahlil qilingan. Xususan, M.N.Erdonov, Q.R.Mustayev, A.V.Beloglazov, J.Allouche va D.Ziganshinalar asar va maqolalarini ta'kidlashimiz mumkin.

NATIJAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Sovet Ittifoq davrida Markaziy Osiyo yagona irrigatsion tizimga keltirilgan. 1991-yilda mustaqilligini qo‘lga kiritgan 5 ta respublika orasida suvdan foydalanish masalasi bo‘yicha yangicha siyosiy faoliyatning boshlanishi yuz berdi. Oxirgi yillarda Markaziy Osiyo suv resurslarining keskin tanqisligi muammosiga duch kelmoqda. Yozda kuzatilayotgan haddan tashqari qurg‘oqchilik va g‘ayritabiiy jazirama ichimlik va sug‘orish suvi tanqisligini keltirib chiqarmoqda, bu esa qishloq xo‘jaligi ekinlarining sezilarli darajada kamayishiga, hosildorlikning pasayishiga, oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishiga olib kelmoqda. Bu omillarning barchasi mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda. Global isish va raqobatning kuchayishi mintaqadagi suv resurslariga bosim o‘tkazmoqda. Markaziy Osiyo respublikalari suv masalasi bo‘yicha birinchi kelishuvni 1992-yil 18-fevralda Olmota shahrida o‘tkazishgan [1, 163,b]. 1992-yilgi kelishuv respublikalararo suv munosabatlaridagi “maqom”ni saqlab qolish, tashkiliy va xalqaro huquqiy kontekstda Orol dengizi havzasidagi suv resurslarini birgalikda boshqarishni birlashtirish imkonini berdi va mintaqa davlatlarining mustaqil rivojlanishi sharoitida suv sohasida hamkorlikni rivojlantirish uchun asos yaratdi[2, 1,b]. Komissiyaning ijro etuvchi organi etib Amudaryo va Sirdaryo bo‘yicha ikkita alohida havza suv tashkilotlari (Basin Water Organization) tayinlandi [3]. Ammo, tomonlar ushbu bitimning hamma moddalarini ham to‘liq tatbiq etishga muvaffaq bo‘lishmadi. Ushbu shartnoma asosida tuzilgan Markaziy Osiyo suv xo‘jaligi komissiyasi o‘z vazifasini to‘liq ado eta olmadi. Bunga mamlakatlar orasida hal qilinmagan ko‘plab ziddiyatlar mavjudligi sabab bo‘lgan. Ayrim mutaxassislar fikricha shartnoma aslida paxta hosilini yig‘ishtirib olish bilan bog‘liq tashvishlar bilan izohlash mumkin edi” [4, 48,b].

Markaziy Osiyo respublikalarining rahbarlari 1993-yili Qizilo‘rda shahrida “Orol dengizi va Orolbo‘yi muammosini hal qilish, atrof-muhitni yaxshilash va Orolbo‘yining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shma harakatlar to‘g‘risida” bitim tuzishdi. Umuman olganda ushbu bitim Orol muammosi haqida ilk bor mustaqil respublikalar tomonidan qo‘yilgan qadam bo‘ldi. “Xalqaro Orolni qutqarish fondi” tashkil qilindi. Fond dastavval anchagina moliyaviy muammolarga duch keldi. Ayniqsa, 2002- yil avgust oyida Turkmaniston Prezidentining Fondni maqomi qisqartirilgan sof xo‘jalik yurituvchi organga aylantirish to‘g‘risidagi rasmiy taklifidan so‘ng Fondning iqtisodi kutilmaganda pasayib ketdi. Ayrim xorijlik tadqiqotchilar fikricha Markaziy Osiyo davlatlari siyosatida islohotlarga olib keladigan yoki suv haqida gapiradigan shartnomalardan qochishga harakat qilishgan [5,13]. Dunyo miqyosida transchegaraviy va mahalliy suv obyektlari masalasida qabul qilingan bir nechta bitimlar, xususan, Xelsinki shahrida 1992- yili 17- martda qabul qilingan Yevropa Hamjamiyatining “Xalqaro ko‘llar va transchegaraviy suv arteriyalaridan foydalanish va muhofaza qilish Konvensiyasi”si va BMTning “Xalqaro suv

oqimlaridan kema qatnovsiz foydalanish huquqlari to'g'risidagi 1997-yilgi Konvensiya'si [6, 76,b] ham Markaziy Osiyoda suv masalasi bo'yicha siyosatga o'z ta'sirini o'tkazgan.

1996-yili O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida davlatlararo foydalanishdagi suv xo'jalik ob'ektlariga va ushbu ob'ektlar ostidagi yer maydonlariga egalik huquqi to'g'risida kelishuvlar imzolandi. Xususan, 1996-yil Amudaryo pastki oqimidagi suv inshootlarini birgalikda boshqarish bo'yicha Chorjo'y bitimi imzolandi. Bu bitimga ko'ra tomonlar Qarshi va Amu-Buxoro kanallari, Tuyamo'yin suv ombori kabi inshootlarni birgalikda boshqarishni kelishdilar. Shartnomaga ko'ra O'zbekiston tomoni ularni boshqaradigan, Turkmaniston tomoni esa ijara va yer egaligini oladigan bo'ldi. 2021-yili tomonlar Amudaryoning quyi oqimida suv ta'minotni yaxshilash uchun Ashxobod shahrida yangi bitimni imzoladilar. Unga ko'ra Tuyamuyun suv omborining Sulton Sanjar to'g'oniga suv o'tkazmaydigan parda qurish bo'yicha birgalikdagi harakatlar to'g'risida kelishib olindi. 1998-yili 17-mart sanasida O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston hukumatlari Sirdaryo daryosidan foydalanish bo'yicha shartnoma imzolashdi. 1998-yilgi Sirdaryo shartnomasi suv va energiya resurslaridan foydalanishni tartibga soladi, quyi oqimdagi mamlakatlar yuqori oqimdagi mamlakatlar tomonidan suvni saqlash evaziga ko'mir, gaz, elektr energiyasi va boshqa tovarlar yoki xizmatlar yetkazib beradi. Qirg'izistonning Toktog'ul GESidan suv chiqarish va energiya almashinuvi tizimini belgiladi. Ayrim tadqiqotchilar shunday bo'lsa-da, so'nggi o'n yillikda suv xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan bir tomonlama harakatlar, hatto ob'ektiv holatlar tufayli ham mintaqaning xalqaro-huquqiy maydonga to'liq va so'zsiz tegishli ekanligini ko'rsatish qiyin deb baholashadi [7, 45,b]. Misol uchun, Turkmanistonda qurilgan "Oltin asr ko'li", Tojikistondagi Rog'un Ges masalasi, Amudaryoda qurilayotgan "Qo'shtepa" kanali ana shunday bir tomonlama va o'zaro kelishuvlarga nisbatan subyektiv siyosat natijasi deyish mumkin. Xususan, "Oltin asr ko'li" sabab qaqragan cho'lga quyiladigan suvning katta qismi bug'lanib ketishini, paxta dalalaridagi suv zaharli pestitsidlar va o'g'itlar bilan ifloslanganligi ta'kidlanmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikning yana bir misoli 1998-yil 26-martda Toshkentda imzolangan BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus dasturi to'g'risidagi Toshkent deklaratsiyasidir. Ushbu deklaratsiyada xususan Markaziy Osiyodagi suv resurslarini birgalikda boshqarish masalasi ham o'rin olgan [8, 354,b].

2000-yil 21-yanvarda Ostona shahrida Qozog'iston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida "Chu va Talas daryolarida davlatlararo suv xo'jaligi ob'yektlaridan foydalanish to'g'risida" bitim tuzildi. 14 qismdan iborat bu bitimga ko'ra O'rta-To'qay va Kirov suv omborlari kabi inshootlarni birgalikda boshqarishga kelishildi. Bunga ko'ra Qirg'iziston inshootlarni boshqaradi, xarajatlar ikki davlat o'rtasida taqsimlanadi[9].

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida, ayniqsa O'zbekiston-Tojikiston va O'zbekiston-Qirg'iziston aloqalarida 2006-2011 yillarda Rog'un va Qambarota GES lari masalasida keskinlik kuchayadi. Bu davrda ikki tomonda ham rasmiy shartnomalar imzolangan va amalda vaziyat qaltis bo'lgan. O'zbekiston Tojikiston va Qirg'izistondagi yirik GESlar qurilishini suvdan pastki oqim davlatlariga zarar yetkazadi deb tanqid qilgan. 2009 yilda Qirg'iziston Markaziy Osiyo suv xo'jaligi komissiyasidagi ishtirokini to'xtatgan, 2016- yilda esa tashkilotga a'zolikini butunlay "muzlatib" qo'ydi [10, 39,b]. Bu esa oradagi konfliktlar natijasi sifatida talqin qilinadigan holat bo'lgan.

2017-yilning 6-oktabr kuni Toshkent shahrida Qirg'iziston va O'zbekiston hukumatlari Qirg'izistonning Jalolobod viloyati, Ola-Buqa tumanidagi O'rta-To'qay/Kosonsoy suv omboridan davlatlararo foydalanish to'g'risida kelishishdi. Endilikda Qirg'iziston tomoni ushbu suv omborining xavfsizligini ta'minlashi, texnik xizmat ko'rsatishi belgilandi. O'zbekiston tomoni bu omborni avvaldan moliyalashtirib kelgan va bu ishni davom ettirishi belgilandi. 2018-yili O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida Sirdaryo masalasidagi bitim imzolandi. Bu bitim Farhod to'g'oni masalasidagi 49 yillik kelishuvni o'z ichiga olib, unda O'zbekiston vakillari ob'yektning barqaror ishlashi uchun zarur bo'lgan transport, mashinalar, asbob-uskunalar va materiallarni olib kirish va eksport qilishga ruxsat berishga erishdilar. To'g'onni Tojikiston qo'riqlashi va O'zbekiston saqlanishiga javobgar bo'ladi[11]. Farhod GES da 2002-yili ro'y bergan ikki tomonlama tanglik postsovet makonida transchegaraviy texnogen inshootlarga egalik masalasining huquqiy va geopolitik murakkabligini fosh etgandi. Bu voqea suv resurslari ustidan nazoratning geostrategik instrumentga aylanishining yaqqol namunasi bo'lib, Markaziy Osiyodagi gidropolitik vaziyatni keskinlashtirgan. 2018-yilgi bitim esa Sh.Mirziyoyev rahbarligidagi O'zbekiston diplomatiyasida yaxshi yangilik sifatida e'tirof qilinadi. Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil oxirida prezidentlikka kelishi bilan Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan suv, energetika va chegara masalalarida yangi siyosiy yondashuv – ochiqlik, diplomatiya va mintaqaviy hamkorlik yo'li boshlanib, 2018-yilda qator muhim va ijobiy shartnomalar imzolandi. Xususan, 2018-yili Qirg'iziston bilan Kampirovot ombori bo'yicha shartnoma suv taqsimotida ishonch muhitini mustahkamladi.

Xulosa o'rnida Markaziy Osiyodagi suv muammosi bo'yicha tuzilgan shartnomalar mustaqillik davrida mintaqaviy integratsiyani ta'minlash, transchegaraviy suv resurslarini adolatli boshqarish va ekologik barqarorlikni saqlashga qaratilgan bo'lsa-da, ularning amaliy samarasini ishonch tanqisligi, siyosiy manfaatlar to'qnashuvi hamda institutsional zaifliklar cheklab kelmoqda. Aksar shartnomalar deklarativ tusda qolgan, suv-energetik almashinuv mexanizmlarining samaradorligi esa resurslar taqsimotidagi

buzilish va iqtisodiy kompensatsiya mexanizmlarining noaniqligi sababli cheklangan. Shunday bo'lsa-da, 2018-yildan boshlab shakllana boshlagan ko'p tomonlama kelishuvlar va siyosiy iqlimdagi yumshash mintaqada suv masalasini barqaror boshqarishga asos bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Markaziy Osiyodagi transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalasi mintaqaning ekologik, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqarorligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu yo'nalishda quyidagi xulosalar va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. **Institutsional islohotlar va huquqiy asoslarni mustahkamlash:** IFAS kabi mintaqaviy institutlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ularning ijro mexanizmlarini aniq belgilash va amalda bajarilishini ta'minlash zarur.

2. **Ma'lumotlar almashinuvi va monitoring tizimlarini yaxshilash:** Davlatlararo ishonchni mustahkamlash uchun real vaqt rejimida ishlovchi suv oqimlari monitoringi, meteorologik va gidrologik ma'lumotlar almashinuvi tizimlarini rivojlantirish lozim.

3. **Suv-energiya almashinuvi bo'yicha o'zaro manfaatli mexanizmlar yaratish:** Tog'li va past tog'oldi mamlakatlar o'rtasida suv va energiya resurslari bo'yicha almashinuv tizimlarini institutsional asosda barpo etish muhim.

4. **Ekologik xavfsizlikni ta'minlash:** Suvdan foydalanishning ekologik barqarorlik mezonlariga rioya qilish, Orolbo'yi mintaqasini rehabilitatsiya qilishga qaratilgan qo'shma dasturlarni ishlab chiqish va xalqaro donorlarni jalb etish zarur.

5. **Geosiyosiy yondashuv o'rniga sinergetik strategiya:** Mintaqaviy suv resurslari bo'yicha geosiyosiy raqobat o'rniga regional manfaatlar uyg'unligi asosida integratsion va sinergetik yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim.

6. **Xalqaro tajribani hisobga olish:** Xelsinki konvensiyasi va boshqa xalqaro huquqiy mexanizmlarni o'rganib, mintaqaviy shartnomalarga moslashtirish zarur. Bu, o'z navbatida, mintaqaning xalqaro suv huquqi doirasida legitimlik va barqarorlikka erishishini ta'minlaydi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish faqat tabiiy resurslar siyosati emas, balki mintaqaviy integratsiyaning sinov maydoni bo'lib qolmoqda. Bu boradagi muvaffaqiyat mintaqaviy tinchlik, barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А.В. Белоглазов. Международные водные конфликты в Центральной Азии (1992-2006 гг). Ученые записки Казанского университета. Серия Гуманитарные науки. 2007. 161-174.

2. Соглашение 1992: три принципиальных урока. Доклад Ю. Х. Рысбекова на международной конференции “Водному сотрудничеству стран Центральной Азии — 20 лет: опыт прошлого и задачи будущего”, Алматы, 2012. http://cawater-info.net/bk/water_law/pdf/rysbekov1-2012.pdf/ Foy. vaqt: 08.05.2025.

3. D.Ziganshina. Water infrastructure in Central Asia: legal and institutional frameworks. https://www.frontiersin.org/journals/climate/articles/10.3389/fclim.2023.1284400/full?utm_source=chatgpt.com/ Foy. vaqt: 08.05.2025.

4. J.Allouche. The governance of Central Asian waters: national interests versus regional cooperation. Central Asia at the crossroads. 2007. 45-55.

5. Sievers E.W. Water, Conflict and Regional Security in Central Asia // Environment Law J. – 2002. – V. 10, No 3. – P. 13.

6. Erdonov.M.N, Mustayev.Q.R. Markaziy Osiyo mamlakatlarida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish: muammo va yechimlar. “Экономика и социум” №11(102)-1 2022. 74-80.

7. Валентини К.Л., Оролбаев Э.Э., Абылгазиева А.К. Водные проблемы Центральной Азии./– Б.: 2004. – 142 с.

8. Aituarova G.A., Tulesheva L.Kh. The role international and regional organizations in solving the problem of water shortage in Cenral Asia. Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 2 (83) Том 4. 2025 г. 352-358.

9. https://unece.org/DAM/env/water/Chu-alas/ChuTalas_Agree_RU.pdf/ Foy. vaqt: 08.05.2025.

10. Саидамиров Б. Ш., Торопыгин А. В. Водные проблемы Центральной Азии: механизмы решения на разных уровнях политического управления. Экономика. М. 34-42.

11. Таджикистан и Узбекистан договорились о разделе Фархадской ГЭС <http://www.interfax.ru/world/594998/> Foy. vaqt: 08.05.2025.

THE GEOPOLITICAL DYNAMICS OF ENVIRONMENTAL COOPERATION BETWEEN CENTRAL AND SOUTH ASIAN COUNTRIES

Khaytimmatov Omonboy Davronbek ogli

Teaching Assistant and Independent Researcher, Department of Political Science, Faculty of International Journalism, Uzbekistan State University of World Languages

(+998978580062, xaytimmatovo@gmail.com)

Abstract: This paper examines the geopolitical factors shaping environmental cooperation between Central and South Asian countries. Despite diverse political and ecological contexts, both regions face shared

challenges such as water scarcity, climate-induced disasters, and ecological degradation, highlighted by the Aral Sea crisis and Himalayan glacial melt. Regional organizations like the Shanghai Cooperation Organization (SCO), Economic Cooperation Organization (ECO), and International Fund for Saving the Aral Sea (IFAS) offer platforms for collaboration but are limited by geopolitical rivalries, mistrust, and weak enforcement. Major obstacles include political tensions, insufficient data sharing, financial constraints, and competing national interests. Nevertheless, opportunities exist through joint research, renewable energy projects, youth exchanges, and strengthened regional institutions. The paper underscores the urgent need for comprehensive strategies to build trust, improve institutional capacity, and adopt sustainable policies.

Key words: Central Asia, South Asia, environmental cooperation, geopolitics, climate change, water scarcity, regional organizations, Shanghai Cooperation Organization (SCO), Economic Cooperation Organization (ECO), International Fund for Saving the Aral Sea (IFAS), Aral Sea crisis, renewable energy, transboundary water management, regional security, sustainable development.

The regions of Central and South Asia are bound together not only by geographical proximity but also by shared environmental challenges. From the drying Aral Sea to the glacial melt in the Himalayas, the ecological interdependence of these areas has become increasingly pronounced. In recent years, environmental issues such as water scarcity, desertification, and climate-induced disasters have begun to influence the geopolitical landscape. Cooperation in managing these challenges is no longer optional but essential for regional stability, economic growth, and human security. This paper aims to explore the geopolitical factors that drive or hinder environmental cooperation between these two strategic regions.

Central Asia, comprising Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, and Uzbekistan, and South Asia, which includes Afghanistan, Pakistan, India, Nepal, Bhutan, Bangladesh, and Sri Lanka, are diverse in terms of ecology, politics, and economy. Yet they are ecologically linked through major river systems such as the Amu Darya, Syr Darya, and the Indus. Climate change has led to glacial retreat in the Hindu Kush and Pamir mountains, reducing water availability and increasing competition over shared resources. Environmental degradation, air pollution, and declining biodiversity further exacerbate regional vulnerabilities.

As highlighted by the President of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, in his strategic vision, restoring relations between Central and South Asia—home to nearly two billion people—is not only a vital necessity but also a natural and inevitable process in today’s complex geopolitical environment. Both regions are rapidly developing, and Uzbekistan’s initiative aims to

expand and deepen interregional connectivity through a strategic project [1]. This approach introduces a unique new concept based on historical, scientific, literary, religious, and civilizational criteria. It embodies new geopolitical, geoeconomic, and geocivilizational foundations and perspectives for the interactions between these two key regions.

Environmental cooperation in this region is influenced by a complex mix of political relations, historical conflicts, and strategic ambitions. Tensions between India and Pakistan, the instability in Afghanistan, and China's growing involvement in Central Asian infrastructure all shape environmental agendas. While upstream countries often pursue hydropower projects, downstream nations worry about water security. National interests frequently overshadow collective ecological needs, leading to fragmented and reactive policies rather than coordinated strategies.

Several regional organizations serve as important platforms for fostering environmental cooperation between Central and South Asian countries, each with its own unique focus and challenges. The Shanghai Cooperation Organization (SCO), which includes key Central and South Asian states such as China, Russia, India, Pakistan, and the Central Asian republics, plays a vital role in promoting regional security, economic collaboration, and environmental sustainability [2]. However, while the SCO's engagement with environmental issues is growing, its overarching emphasis on security and strategic interests often sidelines ecological priorities, limiting the depth of cooperation that could otherwise be achieved. This focus reflects the geopolitical complexities within the organization, where environmental goals sometimes take a backseat to power dynamics.

Similarly, the Economic Cooperation Organization (ECO) seeks to enhance economic development and regional integration with environmental sustainability as part of its agenda [3]. ECO's initiatives in renewable energy and sustainable agriculture demonstrate a promising direction; yet, the organization's impact remains constrained by insufficient funding and a lack of robust enforcement mechanisms, which undermines its ability to ensure member states adhere to agreed environmental standards. This gap suggests that without stronger institutional frameworks and resource commitments, ECO's environmental ambitions may not translate into effective action on the ground.

The International Fund for Saving the Aral Sea (IFAS) is among the most focused regional bodies dedicated to addressing critical ecological challenges, particularly the shrinking Aral Sea [4]. IFAS has successfully coordinated several cross-border water management and ecological restoration projects, indicating the potential for targeted regional cooperation. Nevertheless, persistent national disputes over water allocation and dam projects highlight that even focused organizations face significant political obstacles, which limit the scope and sustainability of collaborative efforts.

In South Asia, the South Asian Association for Regional Cooperation (SAARC) provides a forum for dialogue among Afghanistan, Bangladesh, Bhutan, India, Maldives, Nepal, Pakistan, and Sri Lanka [5]. Although SAARC has adopted environmental charters and launched initiatives addressing disaster risk reduction and climate change adaptation, ongoing bilateral tensions—especially between India and Pakistan—have significantly hindered meaningful regional environmental cooperation. This political distrust curtails essential information sharing and joint planning, underscoring that without improved diplomatic relations, environmental cooperation remains fragile and episodic.

Overall, while these regional organizations offer important platforms for dialogue and some degree of collaboration, their effectiveness is limited by weak enforcement, diverging national interests, and geopolitical rivalries [6]. To move forward, it is crucial to enhance institutional capacities, foster trust through transparency and consistent dialogue, and develop legally binding agreements that prioritize sustainable management of shared environmental resources. Only through such comprehensive reforms can the environmental cooperation between Central and South Asian countries reach its full potential.

One notable case is the Indus Waters Treaty between India and Pakistan, which has survived decades of conflict and demonstrates that cooperation is possible even amid political hostility. In Central Asia, the Rogun Dam project in Tajikistan has raised concerns among downstream countries like Uzbekistan, highlighting the need for coordinated water management. Progress is being observed in addressing environmental issues in the region, including water and energy matters. Uzbekistan has considered the possibility of participating in the construction projects of the Qambar-Ata and Rogun hydropower plants [1]. The Aral Sea crisis serves as a stark example of the consequences of mismanaged resources and has led to some collaborative efforts for restoration. Building on this, the President of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, has emphasized the urgent need to take all necessary measures to mitigate the ecological damage caused by the crisis and to strengthen regional cooperation. He advocates for the development of a regional initiative known as the “Green Agenda for Central Asia”, which focuses on helping countries in the region adapt to climate change while promoting the widespread adoption of advanced resource-efficient technologies. This vision underscores Uzbekistan’s leadership role in fostering sustainable environmental cooperation across Central Asia.

Major obstacles to environmental cooperation between Central and South Asian countries stem from deep-rooted geopolitical rivalries, longstanding mutual distrust, and insufficient institutional capacities across the region [7]. Historical conflicts and competing national interests often

overshadow the urgency of addressing shared environmental challenges, creating a fragmented approach to resource management.

Many countries face internal political pressures and lack the cohesive political will required to commit to comprehensive, long-term environmental strategies [8]. Financial constraints further exacerbate these challenges, as limited budgets restrict investments in sustainable infrastructure, environmental monitoring, and adaptation initiatives.

Moreover, the exchange of critical environmental data remains minimal, with countries often reluctant to share hydrological, meteorological, or ecological information due to security concerns or political sensitivities [9]. This lack of transparency severely hampers the development of coordinated responses to environmental threats. Disaster preparedness and early warning systems, which are vital for managing climate-induced hazards such as floods, droughts, and glacial lake outburst floods, suffer from inadequate regional coordination, leading to suboptimal responses and increased vulnerability for millions of people.

Foreign investments, while crucial for infrastructure development and economic growth, sometimes prioritize short-term national or corporate gains over long-term regional environmental sustainability [10]. Large-scale projects in energy and transport infrastructure, including dams and pipelines, are occasionally pursued without sufficient consideration of their cross-border ecological impacts, thereby fueling tensions among neighboring countries. These investments often lack robust environmental safeguards or regional consultation mechanisms, limiting their potential to contribute positively to shared environmental goals.

Addressing these obstacles requires a multi-faceted approach: strengthening regional institutions to enhance enforcement capabilities, fostering trust through transparent data sharing and regular dialogue, mobilizing sustainable finance, and ensuring that development projects adhere to rigorous environmental and social standards [11]. Only through such comprehensive efforts can Central and South Asia move towards effective, cooperative management of their shared environmental resources and challenges.

Despite these significant challenges, numerous promising opportunities for environmental cooperation between Central and South Asian countries are beginning to emerge. Joint scientific research initiatives and the regular exchange of critical environmental data can serve as foundational steps toward building mutual trust and enabling evidence-based policymaking [12]. Investment in renewable energy projects—such as regional solar, wind, and hydropower initiatives—that benefit multiple countries simultaneously can help reduce reliance on contested and finite natural resources, thus mitigating potential conflicts [13]. Furthermore, facilitating youth and academic exchanges across the region encourages the development of a shared culture

of cooperation and awareness about common ecological challenges. Strengthening the mandates and operational capacities of existing regional organizations, alongside promoting proactive climate diplomacy, can create the institutional framework necessary to align national policies toward a more unified, strategic approach to ecological sustainability. By combining scientific collaboration, regional integration, and diplomatic engagement, Central and South Asia can chart a more resilient and cooperative environmental future.

Environmental issues in Central and South Asia are increasingly recognized as strategic concerns that transcend borders. While geopolitical tensions and historical grievances pose significant barriers, the urgency of climate change presents a unique opportunity to reframe regional relations through the lens of shared survival and mutual benefit. Enhanced environmental cooperation, grounded in diplomacy, science, and multilateral engagement, is essential for building a resilient and secure future for the region.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Cooley, Alexander. *Great Games, Local Rules: The New Great Power Contest in Central Asia*. Oxford University Press, 2012. — Discusses SCO’s regional influence including security and environmental aspects.
3. Nadkarni, Mohan. “Environmental Governance and Regional Cooperation in Central Asia: The Role of the SCO.” *Central Asian Affairs*, vol. 6, no. 2, 2019, pp. 131–152. — Analyzes the SCO’s environmental agenda and limitations.
4. Ashgabat Protocol, International Fund for Saving the Aral Sea (IFAS). Official Website, 2021. — Information on IFAS’s projects and challenges.
5. Garg, Suman. “SAARC and Regional Environmental Cooperation: Challenges and Prospects.” *South Asia Journal*, 2020. — Covers SAARC’s environmental initiatives and political difficulties.
6. Nayak, Megha. “Regional Cooperation and Environmental Governance in South and Central Asia.” *Journal of Asian Studies*, vol. 79, no. 1, 2020, pp. 45–62. — Summarizes challenges faced by regional bodies in achieving effective cooperation.
7. International Crisis Group, “Water Politics in Central Asia: Cooperation or Conflict?” <https://www.crisisgroup.org/europe-central-asia/central-asia/water-politics-central-asia-cooperation-or-conflict>

8. United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific (UN ESCAP), “Transboundary Water Cooperation in Asia,” <https://www.unescap.org/resources/transboundary-water-cooperation-asia>

9. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO), “Data Sharing and Cooperation in Transboundary Waters,” <http://www.fao.org/3/i8835en/I8835EN.pdf>

10. International Institute for Sustainable Development (IISD), “Foreign Investment and Environmental Sustainability in Asia,” <https://www.iisd.org/articles/foreign-investment-environmental-sustainability-asia>

11. United Nations Environment Programme (UNEP), “Strengthening Regional Environmental Governance,” <https://www.unep.org/resources/report/strengthening-regional-environmental-governance>

12. Asian Development Bank (ADB), “Regional Cooperation in Environmental Monitoring and Data Sharing,” <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/623521/regional-environmental-cooperation.pdf>

13. International Renewable Energy Agency (IRENA), “Renewable Energy Market Analysis: South and Central Asia,” <https://www.irena.org/publications/2021/Jun/Renewable-Energy-Market-Analysis-South-and-Central-Asia>

ISSUES OF INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIELD OF ECOLOGY BETWEEN UZBEKISTAN AND SOUTHEAST ASIAN COUNTRIES

Mirkamolova Gavxarxon Javlon qizi

Uzbekistan State World Languages University, PhD Student.

(+998991090343)

Annotation: The article explores the current challenges and prospects of international environmental cooperation between Uzbekistan and Southeast Asian countries. It analyzes key areas of mutual interest, including water resource management, climate change adaptation, biodiversity conservation. The article contributes to the discourse on sustainable development by underlining how cross-regional partnerships can support both environmental protection and socio-economic resilience.

Key words: international cooperation, climate change, Uzbekistan, ASEAN countries, ecology.

In the context of increasing global environmental challenges, international cooperation in the field of ecology has become a crucial necessity. Climate change, loss of biodiversity, deforestation, and water scarcity are not limited by national borders and therefore demand joint solutions and collaborative efforts. For landlocked countries such as Uzbekistan, the need for regional partnerships is particularly pressing, especially in addressing ecological problems linked to water management and desertification. Southeast Asia, with its rapidly growing economies and complex environmental landscape, has emerged as an important player in global ecological initiatives. Countries in this region are actively engaged in sustainable development programs and are part of various environmental frameworks such as the ASEAN Agreement on Transboundary Haze Pollution and the UN Sustainable Development Goals (SDGs). These initiatives create opportunities for cooperation with non-ASEAN countries, including Uzbekistan, especially in areas such as climate adaptation technologies, conservation strategies, and green innovation. This article aims to examine the scope, mechanisms, and obstacles of ecological cooperation between Uzbekistan and Southeast Asian nations. It explores the existing agreements, policy alignments, and shared environmental concerns that serve as a foundation for collaboration.

Recent literature (Kassim et al., 2020; Nguyen et al., 2021) also discusses the potential of green technology transfer, sustainable agriculture, and renewable energy initiatives between Asian countries as a new phase in ecological collaboration. While most studies focus on intra-ASEAN cooperation or ASEAN-China relations, there is a gap in the literature regarding the ecological partnerships between Central Asian states and Southeast Asia. Therefore, this article aims to contribute to the existing body of knowledge by focusing on the relatively unexplored nexus of ecological cooperation between Uzbekistan and Southeast Asian countries. It seeks to address how shared environmental concerns, policy frameworks, and technological exchanges can form the basis for future collaboration.

This study adopts a qualitative research approach to examine the current state, mechanisms, and potential of international ecological cooperation between Uzbekistan and Southeast Asian countries. The methodology is based on documentary analysis, comparative policy review, and expert opinion synthesis to ensure a comprehensive understanding of the topic. Primary sources: Official reports and documents from international organizations such as the United Nations Environment Programme (UNEP), ASEAN Secretariat, Uzbek Ministry of Ecology, and other environmental agencies were examined to gather factual data about agreements, action plans, and regional cooperation frameworks. Secondary sources: Peer-reviewed journal articles, books, and analytical papers were reviewed to

extract academic insights, historical background, and theoretical perspectives related to ecological diplomacy and regional cooperation models.

The materials were selected based on the following:

Relevance to ecological cooperation

Focus on either Uzbekistan or Southeast Asian countries (or both)

Published within the last 15 years to ensure contemporary relevance

Available in English, Russian, or Uzbek.


The analysis was conducted using a thematic content analysis approach:

Key themes such as sustainable development, climate adaptation, water resource management, and biodiversity conservation were identified.

A comparative analysis was carried out to assess the similarities and differences in environmental strategies between Uzbekistan and ASEAN member states.

A SWOT analysis (Strengths, Weaknesses, Opportunities, Threats) was also applied to evaluate the feasibility and challenges of bilateral or multilateral cooperation.

Key Findings of the Article on Ecological Cooperation



The study is limited by the availability of specific bilateral documents between Uzbekistan and individual Southeast Asian nations. Language barriers and lack of transparency in some national policy documents also posed minor challenges. Nevertheless, triangulation of sources was used to validate data and ensure reliability.

The analysis of policy documents, international agreements, and academic literature has yielded the following key findings regarding the state and prospects of ecological cooperation between Uzbekistan and Southeast Asian countries:

1. Shared Environmental Challenges Identified

Both Uzbekistan and Southeast Asian nations face critical environmental issues such as:

Water scarcity and degradation (e.g., the Aral Sea crisis in Uzbekistan and Mekong River challenges in Southeast Asia)

Climate change impacts, including extreme weather events and increasing desertification

2. Existing Participation in Multilateral Environmental Frameworks

Uzbekistan and ASEAN countries are actively engaged in international environmental platforms such as:

UNFCCC (United Nations Framework Convention on Climate Change)

Regional frameworks like CAREC (Central Asia Regional Economic Cooperation) and ASEAN Environmental Cooperation Strategy.

CONCLUSION

In an era of intensifying environmental challenges, international cooperation has become a strategic imperative for both Uzbekistan and Southeast Asian nations. This study has revealed that while these regions share common ecological concerns—such as climate change, water scarcity, and biodiversity loss—their cooperative engagement in the environmental sector remains limited and largely underdeveloped in bilateral contexts. Uzbekistan's increasing involvement in global ecological frameworks, along with ASEAN's institutionalized environmental mechanisms, creates promising opportunities for collaboration. Ultimately, by investing in proactive environmental diplomacy and cross-regional collaboration, both Uzbekistan and Southeast Asian countries can enhance their ecological resilience and contribute more effectively to global sustainability goals.

References:

1. Caballero-Anthony, M. (2010). Non-traditional security in Asia: Issues, challenges and frameworks for action. Institute of Southeast Asian Studies.

2. Elliott, L. (2011). ASEAN and environmental cooperation: Norms, interests and identity. *Pacific Review*, 24(4), 411–433. <https://doi.org/10.1080/09512748.2011.596549>

3. Keohane, R. O., & Victor, D. G. (2011). The regime complex for climate change. *Perspectives on Politics*, 9(1), 7–23. <https://doi.org/10.1017/S1537592710004068>

4. Najam, A., Huq, S., & Sokona, Y. (2003). Climate negotiations beyond Kyoto: Developing countries concerns and interests. *Climate Policy*, 3(3), 221–231. <https://doi.org/10.3763/cpol.2003.0323>

5. Nguyen, T. T., Hoang, A. T., & Nguyen, B. C. (2021). Development of renewable energy and environmental policies in ASEAN countries:

Progress and challenges. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 144, 110996. <https://doi.org/10.1016/j.rser.2021.110996>

6. Kassim, H., Wahid, H., & Latif, A. A. (2020). Green technology transfer between Asian countries: Current trends and future opportunities. *Asian Journal of Environment & Ecology*, 13(3), 27–36.

7. Tussupova, K., Berndtsson, R., Bramryd, T., & Beisenova, R. (2019). Water and health in Central Asia—A review of policy and practices. *Water Policy*, 21(4), 826–842. <https://doi.org/10.2166/wp.2019.023>

“EKOLOGIYA SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK: MUAMMO VA YECHIMLAR”

Abdusalomova Zanjiloy Farxod qizi

UzDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti 3- bosqich talabasi.

“Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti sovrindori. azanjiloy@gmail.com

+998915049891

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlikning dolzarb masalalari, mavjud muammolar va ularning yechimlari yoritilgan. Xususan, iqlim o‘zgarishi, ekologik xavfsizlik, xalqaro kelishuvlar va hamkorlik shakllari tahlil qilinadi. Maqola xalqaro ekologik bitimlar samaradorligini oshirish yo‘llarini ko‘rsatishga intiladi.

Kalit so‘zlar: Ekologik xavfsizlik, xalqaro hamkorlik, iqlim o‘zgarishi, barqaror rivojlanish, Parij kelishuvi, ekologik siyosat, global muammolar

Hozirgi davrda ekologik muammolar insoniyat oldidagi eng katta global chaqiriqlardan biri bo‘lib qolmoqda. Atmosfera isishi, okean sathining ko‘tarilishi, muzliklarning erishi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi hodisalar hech bir davlatni chetlab o‘tmaydi. Ana shunday muammolar fonida ekologiya sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarurati yuzaga kelgan. Ushbu maqolada ekologik sohada mavjud xalqaro kelishuvlar, ular bilan bog‘liq muammolar va ularni samarali amalga oshirish yo‘llari haqida tahliliy yondashuv asosida fikr yuritiladi.

Asosiy qism:

1. Xalqaro ekologik hamkorlik shakllari

Ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlik quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- Xalqaro hujjatlar asosida: Kioto protokoli (1997), Parij kelishuvi (2015), Montreal protokoli (1987) kabi bitimlar asosida mamlakatlar global ekologik muammolarga qarshi kurashda birgalikda harakat qilishni zimmasiga olgan.

- Mintaqaviy hamkorlik: Yevropa Ittifoqining "Green Deal", ASEAN va MDH ekologik dasturlari mintaqaviy muvofiqlik asosida amalga oshirilmoqda.

- Xalqaro tashkilotlar orqali: BMT, IPCC, Green Climate Fund, UNEP, GEF kabi tashkilotlar ekologik loyihalarni moliyalashtiradi va monitoring qiladi.

- NNTlar va fuqarolik jamiyatlari: Greenpeace, WWF, Fridays for Future kabi nohukumat tashkilotlar ekologik ongni oshirish, siyosiy bosim o'tkazish va ekologik huquq himoyasida muhim rol o'ynaydi.

2. Mavjud muammolar

- Geoiqtisodiy va geosiyosiy to'qnashuvlar: Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar ekologik majburiyatlar bo'yicha kelisha olmayapti.

- Moliyaviy yetishmovchilik: Kam rivojlangan davlatlarda ekologik dasturlarni amalga oshirish uchun texnologik va moddiy resurslar yetishmaydi.

- Texnologik tengsizlik: Yashil texnologiyalar rivojlangan davlatlarda to'plangan, ularni keng tarqatish sekin kechmoqda.

- Monitoring va nazorat mexanizmlarining sustligi: Ba'zi xalqaro bitimlarda aniq nazorat tizimi mavjud emas, bu ularning bajarilishini zaiflashtiradi.

3. Yechimlar

- Adolatli yondashuv: Davlatlarga ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasiga qarab turlicha ekologik majburiyatlar yuklash.

- Moliyaviy mexanizmlarni kengaytirish: Green Climate Fund, GEF orqali kam rivojlangan davlatlarga grant va subsidiya ajratish tizimi kuchaytirilishi kerak.

- Texnologiyalarni ommalashtirish: Rivojlangan mamlakatlar o'zining ilg'or ekologik texnologiyalarini boshqa davlatlarga ham taqdim etishi muhim.

- Xalqaro monitoring tizimlarini mustahkamlash: Har bir davlatning ekologik majburiyatlari aniq monitoring va baholash asosida tekshirilib borilishi lozim.

Xulosa: Ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng jiddiy tahdidlardan biri bo'lib, uni faqat birgalikdagi xalqaro hamkorlik orqali hal qilish mumkin. Har bir davlat ekologik muammolarni faqat o'z chegarasi doirasida emas, balki global miqyosda anglab, mas'uliyatli yondashishi zarur. Bugun boshlanayotgan har bir ekologik tashabbus — ertangi sog'lom hayot kafolatidir. Xalqaro ekologik hamkorlik nafaqat iqlim o'zgarishining oldini olish, balki suv resurslari, havo sifati, biologik xilma-xillikni saqlab qolish kabi ko'plab yo'nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham bunday hamkorlikka nafaqat davlatlar, balki xususiy sektor, jamoat tashkilotlari, ilmiy doiralar va oddiy fuqarolar ham jalb qilinishi kerak. Xalqaro ekologik bitimlar ustida ishlashda ochiqlik, ishonch, barqarorlik va texnologik adolat tamoyillariga asoslanish lozim. Uzoq muddatli

strategiyalar, aniq monitoring tizimlari, moliyaviy kafolatlar va texnologik transfer mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish bu yo‘ldagi muvaffaqiyatning kalitidir. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik va moliyaviy yordam ko‘rsatish, ularning ham ekologik jarayonlarda to‘laqonli ishtirokini ta‘minlash global ekologik muvozanatni saqlashda asosiy bosqichlardan biridir.

Shunday ekan, ekologik sohadagi xalqaro hamkorlik nafaqat bugungi avlod, balki kelajak avlodlar uchun ham tabiiy muhitni asrab-avaylashning yagona yo‘li bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). “Paris Agreement”, 2015. <https://unfccc.int>
2. IPCC. Sixth Assessment Report, 2023. <https://www.ipcc.ch>
3. Green Climate Fund – Official website. <https://www.greenclimate.fund>
4. Sachs, J. D. (2021). The Age of Sustainable Development. Columbia University Press.
5. Yaqinov, A. (2020). “Xalqaro ekologik hamkorlikda O‘zbekistonning ishtiroki.” O‘zbekiston ekologiya jurnali, №4, 12-18-bet.
6. UNEP (2022). Emissions Gap Report. <https://www.unep.org>

EKOLOGIYA SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK: MUAMMO VA YECHIMLAR

Istamova Dilnura Zafar qizi

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti,
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.*

[Tel:+998941152648](tel:+998941152648), dilnuraistamova9@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlikning dolzarb masalalari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida so‘z yuritilgan. Ekologik muammolar ya‘ni havoning ifloslanishi, suvning kamayishi va iqlim o‘zgarishi kabi holatlar davlatlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni talab etadi chunki ekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: BMT, Yevropa Ittifoqi, sulfat kislota, Monreal protokoli, Kioto protokoli, ozon qatlami

Oxirgi o‘n yilliklarda ekologik muammolar butun insoniyat hayotiga jiddiy xavf solmoqda. Iqlim o‘garishi, suvning ifloslanishi va shu kabi muammolar birgina davlat chegarasida hal qilinadigan muammo bo‘lmaganligi, tufayli bu masalalar qo‘shni davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar

bilan hamkorlik qilishni taqozo etadi. Shuning uchun ham BMT, Yevropq Ittifoqi kabi tashkilotlar shu sohadagi muammolarni hal qilish bo'yicha ko'pgina konvensiya va shartnomalar imzolamoqda. Dunyo kundan kunga ko'plab ekologik muammolarga duch kelmoqda buning eng asosiy sabablaridan biri insonlarning resurslarni tezda iste'mol qilishidir, bu muammolar hal etilmasa, ayanchli oqibatlariga olib keladi.


Suvning ifloslanishi, global isish, o'rmonlarning kamayishi kabi muammolar xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan birgalikda hal etilmasa insonlar salomatligiga zarar yetkazadi shuningdek, ekologik muammolar global taraqqiyotga ham tahdid solmoqda.

Global ekologik muammolar faqat bir mamlakat yoki mintaqa emas, balki butun insoniyatni qamrab olgan muammolardir. Ular xalqaro hamkorlik, yangi texnologiyalar va atrof muhitni muhofaza qilish siyosati orqali sezilarli natijaga erishishi mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida aytilganidek, ekologik muammolarning paydo bo'lishi dunyoni larzaga soladigan xavfdir. Ayniqsa, 2030-yilga borib toza ichimlik suvi muammosi paydo bo'ladi va suvga bo'lgan talab va mavjud bo'lgan suv o'rtasida 40% farq paydo bo'ladi. Ta'kidlash joizki, 750 mutaxassisdan tarkib topgan jamoa tomonidan o'tkazilgan so'rovda toza ichimlik suvining tugab borishi butun dunyo aholisi uchun chinakamiga global xavf deb baholandi. Aslida, ichimlik suvi muammosi dunyo aholisini qiynab kelayotgan muammolarning eng oldi qatoridan o'rin olib ulgurgan.[1]

Suv insonlar uchun ham hayvonlar uchun ham birdek kerakli, agar suv ifloslanishining oldi olinmasa, hayvonlar nobud bo'ladi va bu ekologik muvozanat buzilishiga sabab bo'ladi. Suvning ifloslanishiga sabab bo'layotgan omillardan biri bu zavod va fabrikalardagi zaharli moddalarning havoga chiqarib yuborilishidadir.



Yuqoridagi rasmda aks ettirilganidek, zavodlardan oltingugurtning havoga chiqarib yuborilishi natijasida bulutlar sulfat kislotali bulutlarga

aylanadi va kislotali yomg'irlar suvga zarar yetkazib ifloslanishiga sabab bo'ladi va uni yaroqsiz holga keltiradi. Oltinugurt dengiz uchun zararli bo'lgan moddadir.

Yana bir ekologiyaga xavf soladigan holat bu yovvoyi qushlar va hayvonlarning yo'qolib ketishidir. Qushlarning mavsum almashinuviga qarab ko'chib yurishi natijasida ularni bir yoki ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik orqali himoyalab bo'lmaydi. 1971-yilda Eronning Ramsar shahrida 61 davlat ishtirokida suv va botqoqlik qushlarini asrash bo'yicha bitim tuzilib, unda bitimga qo'shilgan davlatlar hududidagi 400 ta ko'l va botqoqlik hududlarini alohida muhofaza ostiga olish belgilandi. [2] Hayvonlarni asrash bo'yicha 1974-yilda Rossiya, AQSh, Kanada, Daniya va Norvegiya davlatlari o'rtasida Arktikada oq ayiqni muhofaza qilish to'g'risida tuzilgan bitim yaqqol misol bo'ladi. [3]

Sanoat chiqindilarining havoga chiqarib yuborilishi havoning ifloslanishi va ozon qatlamining yemirilishiga sabab bo'lmoqda. Ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoli eng muhim xalqaro ekologik bitimlardan biridir. Bundan tashqari yana ko'plab bitimlar imzolangan. Ifloslanishning oldini olish maqsadida 1997-yilda Kioto protokoli imzolangan va asosiy ifloslantiruvchi sifatida AQSh 2001-yilda chiqarilgan. [4] Bunday bitimlar imzolanganidan so'ng barcha davlatlarning birlashib harakat qilishi natijasida, ekologik muammolarning oldi olinishi mumkin.

XULOSA

Ekologik muammolarning oldini olish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada xalqaro hamkorlikni o'rni muhim ahamiyatga ega. Xalqaro hamkorlikda davlatlar va xalqaro tashkilotlar umumiy harakatlar va o'zaro ishonchli siyosat asosida ish olib borsa samaradorlikka erishish mumkin. Yuqorida keltirilgan, davlatlar o'rtasida tuzilgan bitimlar yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar muammolarning oldini olish uchun muhim tashabbusdir.

Ekologik barqarorlikka erishish muhim masala bo'lib, barcha davlatlarning manfaatlarining birlashishi hamda yangi texnologiyalarning yaratilishi bunga erishishga yordam beradi.

Olimlar va siyosatchilar olib borayotgan tadqiqotlar va izlanishlar inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlash atrof-muhit muammolarining oldini olishda muhim.

Ekologiyani saqlash faqatgina davlatlar va xalqaro tashkilotlar zimmasidagi vazifa emas shuning uchun, insonlar ham atrof-muhitni himoyalashda shaxsiy javobgardirlar. Agar insonlar javobgarlikni his qilgan holda tabiatga e'tiborli bo'lishsa bu muammolar global darajadagi xavfga aylanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Global ekologik muammolar barqaror taraqqiyotga katta tahdid solmoqda. Url: <https://xs.uz>.

2.Umarjonova M., Komilova B., "Ekologiya sohasida xalqaro hamkorlik zaruriyati". Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(9), 2023.- P. 886-891.

3. Umarjonova M., Komilova B., "Ekologiya sohasida xalqaro hamkorlik zaruriyati". Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(9), 2023.- P. 886-891.

4.Michael Finus "International Cooperation to Resolve International Pollution Problems". CCMP, February, 2004.-P.5-6

ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA EKOLOGIYA SIYOSATINING XALQARO HAMKORLIKDAGI O'RNI

Niyozaliyev Inomjon Ilhomovich

*O'zDJTU, Xalqaro jurnalistika fakulteti, Xalqaro munosabatlar ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi. Tel: +998900734141*

Email: inomiddinniyoaliyev0404@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida ekologik siyosatning tutgan o'rni, xalqaro ekologik muammolarni hal qilishda global hamkorlikning ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, ekologik tahdidlarning transmilliy xarakteri ularni alohida davlatlar tomonidan emas, balki xalqaro miqyosda birgalikda hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston misolida mintaqaviy ekologik diplomatiya yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda siyosiy iroda va fuqarolik jamiyatining roli alohida e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: ekologik siyosat, xalqaro hamkorlik, global ekologik tahdidlar, diplomatiya, O'zbekiston tajribasi, fuqarolik jamiyati.

So'nggi o'n yilliklarda global miqyosda ekologik muammolar tobora kuchayib bormoqda. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, suv va havoning ifloslanishi kabi tahdidlar nafaqat alohida davlatlar, balki butun insoniyat uchun umumiy muammo hisoblanadi. Ana shunday global muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tabiat chegaralarni tan olmaydi, ekologik muammolar esa bir hududda yuzaga kelib, boshqa mintaqalarga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xalqaro ekologik siyosat bugungi kunda BMT, Yevropa Ittifoqi, Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), Xalqaro energetika agentligi (IEA) kabi ko'plab nufuzli tashkilotlar doirasida olib borilmoqda. Shu bilan birga, Parij iqlim kelishuvi, Kyoto protokoli kabi hujjatlar davlatlar o'rtasida ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan muhim tashabbuslardir.

Ushbu maqolada ekologiya sohasida xalqaro hamkorlikning dolzarbligi, mavjud muammolar, muvaffaqiyatli tajribalar hamda O‘zbekiston misolida istiqbolli yo‘nalishlar tahlil qilinadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ekologiya sohasida xalqaro hamkorlik quyidagi asosiy yo‘nalishlarda samarali tarzda amalga oshirilmoqda.

Xalqaro huquqiy mexanizmlar. Parij iqlim kelishuvi, Kyoto protokoli va boshqa xalqaro shartnomalar orqali davlatlar issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha aniq majburiyatlar olgan. Ushbu mexanizmlar orqali global darajada ekologik mas‘uliyat tuyg‘usi shakllanmoqda [1].

Moliyaviy va texnik yordam. Rivojlangan mamlakatlar tomonidan kam rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga ekologik barqarorlikni ta‘minlash uchun grant va texnologik yordamlar ko‘rsatilmoqda. Jumladan, “Green Climate Fund” va boshqa moliyaviy dasturlar orqali o‘nlab davlatlarda yashil energiya loyihalari moliyalashtirilmoqda [2].

Ilmiy hamkorlik. Xalqaro ilmiy markazlar, universitetlar va nodavlat tashkilotlari ekologik tadqiqotlarda birgalikda ishlash orqali innovatsion yechimlar yaratmoqda. Bu esa ekologik siyosatni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda [3].

Mintaqaviy tashabbuslar. Markaziy Osiyo, Yevropa va Osiyo-Tinch okeani mintaqalarida ekologik xavfsizlik bo‘yicha bir qator hududiy dasturlar ishlab chiqilgan. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari Orolbo‘yi inqirozi bo‘yicha ko‘p yillik strategiyalarni birgalikda amalga oshirmoqda [4].

O‘zbekiston tajribasi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda ekologik siyosatni kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. 2019-yilda Ekologiya vazirligining qayta tashkil etilishi, “Yashil makon” umummilliy loyihasining boshlanganligi, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi sifatida e‘lon qilinishi xalqaro hamkorlik doirasidagi ijobiy natijalardandir [5].

Tahlillardan kelib chiqadigan bo‘lsak, xalqaro ekologik hamkorlik bugungi kunda nafaqat dolzarb, balki global barqarorlikni ta‘minlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Atrof-muhit muhofazasi masalalarida biror davlat yakka holda muammoga barham berolmasligi tobora ayon bo‘lib bormoqda. Shu bois ham ko‘p tomonlama yondashuv va transchegaraviy mas‘uliyat hissi ekologik siyosatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Biroq, xalqaro ekologik tashabbuslarning amalga oshirilishida muayyan to‘siqlar mavjud. Ayrim davlatlarning iqtisodiy manfaatlar ekologik majburiyatlardan ustun qo‘yilishi, siyosiy kelishmovchiliklar yoki moliyaviy resurslarning yetishmasligi bu kabi holatlar umumiy harakatlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ba‘zan xalqaro hujjatlarda belgilangan majburiyatlar amaliyotda to‘liq bajarilmasligi holatlari ham kuzatilmoqda. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, agar siyosiy iroda va xalqaro sheriklik uyg‘unlikda ishlasa, qisqa muddat ichida ham aniq natijalarga erishish mumkin. Masalan, Orol

dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik inqirozga javoban mamlakat tomonidan ilgari surilgan mintaqaviy loyihalar va ularni xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda amalga oshirish bu yoʻldagi muhim qadamlardan biridir. Kelajakda xalqaro ekologik hamkorlik samaradorligini oshirish uchun quyidagi omillarga alohida eʼtibor qaratish zarur: ekologik texnologiyalar almashinuvi, moliyaviy mexanizmlarning soddalashtirilishi, yoshlarning ekologik savodxonligini oshirish va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki. Zero, ekologik barqarorlik bu faqat siyosiy yoki iqtisodiy masala emas, balki insoniyatning yashash huquqidir.

Xalqaro ekologik hamkorlik bugungi kunda insoniyatning umumiy manfaatlarini taʼminlashda ajralmas rol oʻynaydi. Iqlim oʻzgarishi, suv resurslarining kamayishi, biologik xilma-xillikning yoʻqolishi kabi muammolar faqat yagona global yondashuv bilan hal etilishi mumkin. Bunday hamkorlik nafaqat davlatlar oʻrtasidagi siyosiy munosabatlarni, balki ilmiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ham oʻzaro ishonch va hamjihatlikni talab etadi [6].

Oʻzbekistonning ekologik siyosatida amalga oshirilgan yutuqlar, ayniqsa, Orolboʻyi mintaqasida koʻrsatilgan xalqaro yordam va mintaqaviy hamkorlik, mamlakatning ekologik barqarorlikka erishishdagi ijobiy tajribalaridan biridir. Biroq, xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash va ekologik muammolarni hal etishda toʻsiqlar ham mavjud boʻlib qolmoqda. Shu bois, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin.

Xalqaro huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish: Global ekologik siyosatni yanada samarali qilish uchun xalqaro shartnomalar va kelishuvlarni kuchaytirish zarur. Davlatlar oʻrtasidagi majburiyatlar aniq belgilanishi, monitoring tizimlari yanada samarali ishlashi lozim.

Ekologik taʼlim va oʻzgarishlarga tayyorlikni oshirish: Yoshlarni ekologik savodxonlikka yoʻnaltirish va ularni barqaror rivojlanishga tayyorlash davlatlar va xalqaro tashkilotlar uchun ustuvor vazifa boʻlishi kerak. Bu yerdagi eʼtiborli jihat ekologik muammolarni faqatgina ilmiy yondashuvlar asosida emas, balki fuqarolik hamjamiyatining faol ishtiroki bilan hal etish zarurligidir.

Moliyaviy va texnologik hamkorlikni kuchaytirish: Kam rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy resurslar va ekologik texnologiyalar almashinuvi orqali barqaror rivojlanish yoʻnalishlariga oʻtish zarur. Xalqaro moliyaviy institutlar va rivojlanayotgan davlatlar oʻrtasida yanada kuchliroq hamkorlik aloqalari oʻrnatilishi kerak.

Milliy ekologik siyosatni mustahkamlash: Oʻzbekiston kabi mamlakatlar oʻz ichki ekologik siyosatlarini yanada kuchaytirish orqali xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etishni davom ettirishi zarur. Yashil energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik texnologiyalar sohasidagi innovatsiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega [7].

Shu tarzda, ekologiya sohasida xalqaro hamkorlik yanada rivojlanib, global ekologik muammolarni hal etishga jiddiy hissa qo‘shishi mumkin. Har bir davlatning o‘z ekologik mas‘uliyatini his qilib, faol ishtirok etishi ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik xavfsizlik har bir inson va har bir davlat zimmasidagi umumiy mas‘uliyatdir. Global ekologik muammolarni hal etishda faqat xalqaro emas, balki mahalliy darajadagi harakatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Davlatlararo ishonch va barqarorlik ekologik siyosatdagi muvaffaqiyat kalitidir. O‘zbekiston bu borada yetarlicha salohiyatga ega bo‘lib, xalqaro maydonda o‘zining ijobiy tajribasi bilan ulush qo‘shmoqda. Kelajak avlodlar uchun sog‘lom va barqaror muhit yaratish bugungi kunimizning eng dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. United Nations Environment Programme. Global Environmental Outlook 6. – Nairobi: UNEP, 2019. – 708 b.

2. World Health Organization. Climate change and health. URL: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/climate-change-health>.

3. Alimov A. B. Ekologicheskaya diplomatiya i mejdunarodnoe sotrudnichestvo. Tashkent: Universitet, 2021. – 210 s.

4. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – yangi dunyoqarash. T.: O‘zbekiston, 2021. – 350 b.

5. Karimov I.A. Global muammolar va ularni hal etishda O‘zbekistonning yondashuvi. Siyosat, 2020. №3. – B. 45–50.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. Aral dengizi inqirozi va mintaqaviy xavfsizlik. Toshkent, 2023. – 52 b.

7. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. URL: <https://sdgs.un.org/2030agenda>.

XALQARO EKOLOGIK MUAMMOLAR YECHIMIDA XALQARO HAMKORLIK HAMDA UNDA O‘ZBEKISTONNING ISHTIROKI

Yusufjonov Bahrom Yo‘ldoshovich

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xalqaro munosabatlar
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

+998918320780, yusufjonovbahrom2005@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy dunyoda ekologik muammolar, jumladan iqlim o‘zgarishi, global isish, biologik xilma-xillikning yo‘qolib borishi, suv resurslari tanqisligi va atrof-muhit ifloslanishi kabi muammolar global

xarakter kasb etmoqda. Bu muammolarni bartaraf etishda ekologiya va iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro hamkorlikning ahamiyati muhim, hamda u davlatlar, xalqaro tashkilotlar va nodavlat institutlarining birgalikdagi sa'y-harakatini talab qiladi. Shu bilan birga ushbu yo'nalishda O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatlarda olib borayotgan izchil faoliyati, ham yildan yilga oshib bormoqda. Ushbu ilmiy tadqiqotda yuqorida aytilgan fikrlar bo'yicha so'z yuritiladi, hamda xalqaro ekologik hamkorlikdagi muammo va yechimlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Parij kelishuvi, Kioto protokoli, Tomonlar konfrensiyasi, iqlim o'zgarishi, ekologik barqarorlik.

Hozirgi davrda global barqarorlik hamda rivojlanish uchun to'siq bo'layotgan eng katta muammolardan biri bu albatta ekologik, ya'ni iqlim va atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan muammolardir. O'tgan asrlarga nisbatan inson kapitalining oshishi, texnologiyalar va ishlab chiqaruvchi sanoatning rivojlanishi, tabiiy resurslardan keng ko'lamda foydalanishning ko'payishi va natijada atmosferaga issiqxona gazlarining katta miqdorda chiqarilishi global miqyosda ekologik muammolar va tahdidlarning ko'payishiga olib keldi. Xalqaro hamjamiyat ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlatlarni birgalikdagi hamkorlikka chorlamoqda va bu Parij kelishuvi, Tomonlar konferensiyalari (COP) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturlarida ko'rinmoqda. Bundan O'zbekiston ham so'nggi yillarda atrof-muhitni himoya qilish hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda xalqaro maydonda o'z faolligini ko'rsatib kelmoqda va mintaqadagi ekologik barqarorlikni ta'minlashda liderlik maqomini namoyish qilib kelmoqda.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va ekologik barqarorlikni taminlash uchun juda katta ishlar amalga oshirilmoqda, lekin shu bilan bir qatorda ushbu yo'nalishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib xalqaro hamjamiyat sur'atlarini sekinlashtirmoqda. Birinchi o'rinda xalqaro ekologik hamkorlik nima ekanligini anglab oladigan bo'lsak, Xalqaro ekologik hamkorlik (XEH) deyilganda – yer yuzidagi barcha mamlakat (xalq)lar tomonidan tabiat muhofazasiga doir xalqaro kelishuv-shartnoma, konvensiyalar tuzish, Xalqaro ekologik me'yorlarni ishlab chiqish va ularga rioya etilishini hamkorlikda nazorat qilish, umumsayyoraviy va hududiy ekologik muammolarni birgalikda hal etish, ilmiy tadqiqotlar va turli xalqaro anjumanlar o'tkazish kabi keng ko'lamli tadbir choralar kompleksi tushuniladi [1]. Bu hamkorlikning asosida albatta har bir insonning sog'lom ekologik muhitda yashashga bo'lgan huquqi va davlatlarning o'z fuqarolari manfaatlari uchun atrof-muhit hamda tabiiy resurslardan foydalanish kabi prinsiplar yotadi. Malumki, ekologik muammolar shartli ra vishda 3 guruhga bo'linadi:

- mahalliy ekologik muammolari;
- mintaqaviy ekologik muammolari;

- sayyoraviy ekologik muammolari [2].

Ushbu muammolarni bartaraf etish har bir davlat, mintaqaviy tashkilot va UNEP (United Nations Environment Programme), IPCC (Intergovernmental Panel on Climate Change) kabi xalqaro tuzilmalar o'zlarining dasturlari doirasida sa'y-harakatlar olib borishmoqda. Ayniqsa xalqaro miqyosda UNEP, UNFCCC va COP doirasida ko'plab dasturlar va rejalar amalga oshirilmoqda. Masalan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi yoki UNEP (inglizcha: UNEP, United Nations Environment Programme) BMT tizimida yaratilgan dastur bo'lib, butun tizim darajasida tabiatni muhofaza qilishni muvofiqlashtirishga yordam beradi. Dastur BMT Bosh Assambleyasining 1972-yil 15-dekabrda № 2997-sonli rezolyutsiyasi (A/RES/2997(XXVII)) asosida tashkil etilgan. UNEPning asosiy maqsadi hozirgi va kelajak avlodlar manfaati uchun atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishdir. Dastur shiori -"Atrof-muhit taraqqiyot manfaati uchun"[3]. Yoki Community of Parties ni oladigan bo'lsak, bu Tomonlar konfrensiyasi iqlim o'zgarishlariga birgalikda javob berish, atrof-muhitga issiqxona gazlarini chiqarilishini cheklash, 2015-yil 12-dekabrda qabul qilingan Parij kelishuvi maqsadlari hamda asr oxirigacha global o'rtacha harorat ko'tarilishini sanoatdan oldingi darajadan 2°C dan pastroq, imkon qadar 1.5°C gacha ushlab turish kabi maqsadlarni amalga oshirishda umumiy platforma vazifasini o'taydi [4].

Xalqaro hamjamiyat oldida bir qancha muammolar turibda va ular qatoriga ushbu muammolar kiradi:

- Rivojlanayotgan mamlakatlarda ekologik loyihalar uchun mablag'larning yetishmasligi.
- Mamlakatlardagi ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi nomutanosiblik.
- Ekologik muammolar bo'yicha malumotlarni yetkazish va almashinishdagi ba'zi kamchiliklar.

Ushbu muammolarni yechish bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan mamlakatlarni iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlash va ularda yashil iqtisodiyotni tadbiq qilish uchun ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. UNDP (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rivojlanish Dasturi) va GCF (Yashil Iqlim Jamg'armasi) orqali davlatlarga moliyaviy yordam, grantlar va imtiyozli kreditlar ajratish kengaytirilmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasiga ham CAREC (Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturi) va Osiyo Rivojlanish Banki orqali ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun katta moliyaviy yordam berilmoqda. Iqlim va ekologik tahdidlarga qarshi kurashda malumotlar almashinuvini yaxshilashda IPCC (Hukumatlararo iqlim o'zgarishi bo'yicha panel) tashkiloti faoliyat yuritmoqda va bu tashkilot global ilmiy hamjamiyatning

eng muhim platformasi bo‘lib, uning hisobotlari davlatlar uchun iqlim siyosatini shakllantirishda asosiy yo‘l-yo‘riq hisoblanadi. Ko‘pgina davlatlar ushbu tashkilot hisobotlarini inobatga olgan holda o‘zlarining iqlim o‘zgarishiga moslashish, emissiya qisqartirish va ekologik dasturlarini tuzishmoqda [5].

O‘zbekiston ham ushbu jarayonlarda faol ishtirok etmoqda. Xususan, 2023–2024-yillarda mamlakat quyidagi muhim voqealarga mezbonlik qildi: CMS COP14, CRIC-21. Bundan tashqari, 2025-yilning 24-noyabridan 5-dekabrigha qadar O‘zbekistonda CITES COP20 — yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo to‘g‘risidagi konvensiya ishtirokchilari konferensiyasining 20-yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi [6]. Umuman O‘zbekiston Markaziy Osiyoning ekologik markaziga aylanish uchun xalqaro tashabbuslarning faol tashabbuskori bo‘lmoqda. O‘zbekiston UNDP bilan iqlim o‘zgarishiga moslashish, suv resurslaridan unumli foydalanish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun birgalikda hamkorlik qilmoqda [7]. Bunday hamkorliklarga “Iqlim o‘zgarishiga moslashish va Orolbo‘yi hududida ekologik barqarorlikni taminlash” va energetika sohasida tiklanuvchan energiya manbalari (quyosh va shamol energiyalari) o‘rnini oshirib yashil energetikaga o‘tish kabilrni misol qilib keltira olamiz. O‘zbekistonning Markaziy Osiyoga qaratilgan ekologik siyosati mintaqadagi suv resurslaridan unumli foydalanishni rivojlantirish hamda ekologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha hamkorlikni mustahkamlashga katta urg‘u beradi. Shundan kelib chiqib ayta olamizki, O‘zbekistonning xalqaro ekologik hamkorlikdagi faoliyati nafaqat mintaqaviy, balki global darajada ham katta hamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy davrning eng dolzarb muammolari bu ekologiya va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolar bo‘lib ularni qanday hal qilish bashariyatning kelajakdagi rivojlanish yo‘lini tom ma‘noda belgilab beradi. Shu tufayli ham BMT, uning UNDP, UNEP, UNFCCC dasturlari, Parij kelishuvi, COP yani Tomonlar konfrensiyasi hamda mintaqaviy tashkilotlarning ekologik dasturlari bugungi kunda ekologik harakatlarning yo‘naltiruvchi kuchi bo‘lmoqda. Iqtisodiy o‘sish suratlari va ekologik maqsadlar o‘rtasidagi tafovutlar, ekologik tashabbuslarni moliyalashtirishdagi yetishmovchiliklar va o‘zaro malumotlar almashinuvidagi kamchiliklar xalqaro hamjamiyat istiqboli uchun bir qancha to‘siqlar yaratayotgan bo‘lishi mumkin, lekin xalqaro ekologik tuzilmalar va BMT keng ko‘lamli choralarni amalga oshirmoqda. O‘z navbatida, O‘zbekistonning olib borayotgan ichki hamda tashqi ekologik siyosati uning mintaqadagi va xalqaro maydondagi o‘rni va imijini yanada oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlik. Arxiv.uz, 2024. Url: <https://arxiv.uz/>

2. A.A Maxmudov. “Ekologik muammolar va xalqaro hamkorlik”. «Новости образования: исследование в XXI веке» Международный научный журнал, 2023. - С.14.
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi. Url: <https://uz.wikipedia.org>.
4. Conference of the Parties (COP). United Nations Climate Change.com. Url: <https://unfccc.int>.
5. Intergovernmental Panel on Climate Change. Url: <https://www.ipcc.ch>.
6. COP va uning O‘zbekiston barqaror kelajagidagi ahamiyati. Url: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/36074>.
7. UNDP Uzbekistan. Url: <https://www.undp.org/uzbekistan>.

2-SHO‘BA. EKOLOGIK SIYOSAT VA IQTISODIY ALOQALAR: XALQARO TAJRIBA VA ISTIQBOL

EKOLOGIK SIYOSATNI YURITISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING ISHTIROKI

S.Sh.Saidov,

O‘zDJTU “Siyosiy fanlar” kafedrasi mudiri, DSc.

Annotatsiya. Ijtimoiy sohaning muhim yo‘nalishi hisoblangan ekologiya borasida nafaqat davlat tashkilotlari, balki fuqarolik jamiyatining keng institutlari ham mas‘ul hisoblanadi. Ushbu ilmiy maqolada turli nodavlat notijorat tashkilotlarining ekologik yo‘nalishdagi funksiyalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, fuqarolik jamiyati, NNT, ijtimoiy soha, davlat siyosati.

Ma‘lumki, fuqarolik jamiyati rivojlanar ekan uning institusional asoslari ham shakllanib, taraqqiy etib boradi. Jamiyatdagi ko‘plab ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy va ma‘rifiy muammolarni hal qilishda «uchinchi sektor» deb ataluvchi nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT)ning ishtiroki yanada kuchayadi. Bugungi kunda, «uchinchi sektor» tushunchasi dunyodagi barcha mamlakatlar siyosiy jarayonlari va ijtimoiy hayotida tashabbus ko‘rsatayotgan va faoliyat yuritayotgan nodavlat tashkilotlariga nisbatan keng qo‘llaniladi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - biznes yoki shaxsiy sektor, uchinchi sektor - nodavlat notijorat tashkilotlari).

Nodavlat notijorat tashkilot deganda, jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda tuzilgan, faoliyati davomida faqat foyda olishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ymagan va olingan foydani uning ishtirokchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqaradigan tashkilot tushuniladi[1].

Xalqaro umumqabul qilingan standartlarga ko‘ra NNTlar ijtimoiy foydali ishlar bilan shug‘ullanib, jamiyat, fuqarolarning turmush darajasini yaxshilanishi va hayot farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ular o‘z faoliyati orqali biror iqtisodiy, moliyaviy foyda ko‘rishni maqsad qilib olmaydi. NNTlar o‘z a‘zolarini ijtimoiy foydali ishlarga jalb etgani holda jamiyat hayotiga tobora integratsiyalashib boradi.

Xorijiy ekspertlarning fikriga ko‘ra, nodavlat sektori subyektlari birinchi navbatda jamiyatda ijtimoiy kapitalning ko‘payishiga va rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy kapital o‘zaro bir-biriga yordam beruvchi va hamkorlik qiluvchi ijtimoiy munosabatlar tizimi ko‘rinishidagi jamoat tashkilotlari, ijtimoiy tarmoq, ijtimoiy normalar va ishonch orqali

mustahkamlanib boriladi. Uning ajralmas elementi sifatida ekologiya sohasini ham ta'kidlash mumkin.

NNTlarning davlat tomonidan moliyalashtirilishi, ularning moddiy-texnik va tashkilotchilik faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, jamiyatda aholining kam ta'minlangan qatlamiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni yaxshilashdan ham iborat. Shunday ekan, NNTlar, uning vakillari va a'zolarining ham ijtimoiy xizmatlar sohasida kompetentligi va professionalizmi talab qilinadi. NNTlar tomonidan aholiga ijtimoiy yordam berilishi jamiyatda ijtimoiy muammolar – ekologik vaziyatni yaxshilashga olib keladi.

Olib borilgan tadqiqotlar tahlili shundan dalolat bermoqdaki, fuqarolarning NNTlarga bo'lgan intilishi va a'zoli mamlakatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Jahon tajribasida nodavlat sektori turli ijtimoiy sohalar: sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, sport, madaniyat, san'at sohalar, tarixiy obidalar, fauna va floralarni, ekologiya, atrof-muhitni saqlash, nomoddiy boyliklarni, inson huquqlari, aholiga yuridik xizmatlar ko'rsatish kabi tarmoqlarni qamrab oladi.

«Uchinchi sektor» fuqarolarga samarali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda eng faol tashkilotlardan hisoblanadi. Sababi, NNTlar aholining muammolari, ehtiyojlarini tez payqaydi hamda qisqa vaqt ichida masalaning yechimini topa oladilar. Uning eng katta yutug'i – o'z faoliyatiga ko'ngillilarni jalb eta olishidadir. Nodavlat sektorning faoliyati natijasida ta'lim, sog'liqni saqlash, sportni rivojlantirish orqali iqtisodiyotga katta foyda keltirib va rivojlangan davlatlarning YAIM o'sishida o'zining munosib ulushiga ega bo'lib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida, inson kapitali va ijtimoiy kapitalning rivojiga ijobiy ta'sir o'tkazadi[2].

«Uchinchi sektor»ning jamiyat modernizatsiyasi va ijtimoiy kapital rivojidadagi o'rni quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- NNTlarning har qanday vaziyat va sharoitga tez moslashuvchanligi;
- turli ijtimoiy vazifalarni bajarishda uyushqoqligi, taktika va strategiyasi, instrumentlarining rang-barangligi;
- jamiyatdagi muayyan muammoni tezkorlik bilan hal qilishga intilishi;
- aholiga aniq yo'naltirilgan va manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatishi;
- muammoni hal qilishda yangi innovatsion g'oyalar va mexanizmlarni joriy qila olishi;
- sarflangan mehnatning administrativ resurslar sarfiga nisbatan ancha arzonligi;
- ko'ngillilar sifatida faoliyat olib boradigan yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilganda ham iqtisodiy jihatdan o'zini oqlashi;
- davlat organlari dasturlari va faoliyatiga muqobil ravishda o'ziga xos faoliyat turi;

- muammolar yechimini topishda kompleks va integratsiyaviy yondashuvning mavjudligi;
- NNTlar aholiga ko'rsatadigan ijtimoiy yordamining turli- tumanligi va samaradorligi.

Uchinchi sektor vakillari jamiyat va davlat hayotida tutgan o'rni, aholi bilan bevosita ishlashi, ularni ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayoniga jalb qilish hamda jamiyatda ijtimoiy kapitalning rivojidadagi o'rnidan kelib chiqib bir qancha funksiyalarni bajaradi.

Nodavlat sektorning ijtimoiy funksiyalari. Shaxsning turli-tuman intilishlari, his-tuyg'ulari va manfaatlarini ifoda etishda NNTlarning roli katta. Ular qadriyatlar, manfaatlar va qiziqishlar umumiyligiga asoslangan insonlar uchun muloqot (hamkorlik) «maydonchasi» vazifasini o'tab berishadi. Turli uyushmalar, xorlar, sport klublari, diniy jamoalar, kasaba uyushmalari, etnik guruhlar assotsiatsiyalari, o'quvchilar klublari, skautlar (scout) va ko'plab boshqa turdagi birlashmalar sifatida faoliyat olib borishadi. Bir so'z bilan aytganda, NNTlar hamjihatlikda nimalarnidir qilishga intiladigan insonlarni birlashtiradi. Bu esa, o'z navbatida, inson hayotini, inson yashayotgan hayotni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Nodavlat sektor turli xildagi fikrlar jamlanmasi hisoblanib, jamoatchilik manfaatlarini ilgari surish hamda demokratik tamoyillarni targ'ib qilishi bilan jamiyatda ijtimoiy fikrning plyuralizatsiyasini ta'minlab beradi. Bu esa, yagona fikr va mafkuraning monopoliyasini oldini olishga, jamiyatda g'oyalar va qarashlar xilma-xilligiga asoslangan ijtimoiy munozara va muloqotning shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchi sektorning eng muhim vazifalaridan yana biri bu – jamiyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam va diskriminatsiyaga uchrayotgan guruhlar manfaatlarini himoya qilish (*advocacy*) hisoblanadi. Bundan tashqari, ekologik muammolar, inson huquqlarini himoyasi, korrupsiyani oldini olish, jamoatchilik nazorati kabi «umumiy farovonlikni ko'zlovchi» (*watchdog*) vazifalarni bajarishda NNTlar ham katta ahamiyat kasb etadi.

Nodavlat tashkilotlari, marginalizatsiya xavfi ostidagi insonlar va sotsial guruhlarni (masalan, uzoq vaqtdan beri ishsiz insonlar yoki nogironlar) jamiyatga integratsiyalashuvida yordam beradi. NNTlar, ularning demokratik institutlarga ishonchini oshirib, o'zaro ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Jamiyatda ijtimoiy adolat va bag'rikenglik omillarini rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Jahon tajribasida davlat, nodavlat, xususiy sektorlarning huquqiy, iqtisodiy funksional-tashkiliy jihatlarini amalga oshirishda aynan ekologik sohada ijtimoiy sheriklik tamoyillariga asoslanishi katta ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina huquqiy demokratik davlatlarda NNTlar faoliyati davlat tomonidan rasman e'tirof etiladi. Ular jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qilishda ijtimoiy sherik sifatida tan olinadi. Masalan, 1997

yilda Buyuk Britaniyada davlat va NNTlarni o‘zaro ijtimoiy sherikligi tamoyillari to‘g‘risida rasmiy hujjat qabul qilingan. Buning muhim jihatlaridan biri NNTlar fuqarolarni jamiyat muammolarini hal qilishda jonbozlik va faollik ko‘rsatishga o‘rgatishda hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi roliga alohida urg‘u beriladi. Shuning uchun ham Angliya hukumati uchinchi sektorni ijtimoiy xizmatlarni amalga oshiruvchi muhim institut sifatida biladi va ularning asosiy qismini davlat byudjetidan moliyalashtiradi.

Nodavlat sektori ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy fenomen sifatida XX asrning 60 yillaridan boshlab tadqiqotchilar e‘tiborini torta boshladi. Ularning mamlakat iqtisodiyotida, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy hayotidagi beqiyos xizmati anglab yetilgandan so‘ng, ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yanada kuchaytirishga bo‘lgan harakatlar boshlandi. Hozirda davlat, munitsipal va hududiy siyosat nodavlat sektorining qay darajada rivojlanganiga qarab belgilanadi[3].

Agarda bu boradagi milliy tajribani tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash yo‘lini tanlab, o‘z oldiga rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimizga munosib turmush sharoitlarini ta‘minlash va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash kabi maqsadlarni qo‘ydi. Keng qamrovli demokratik o‘zgarishlarning ustuvor yo‘nalishi sifatida inson huquqlari, manfaatlari va erkinliklari, uning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun qulay sharoitlar ta‘minlangan kuchli va ochiq fuqarolik jamiyatini qurish belgilandi. Qisqa vaqt ichida O‘zbekistonda aholining keng qatlamlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan fuqarolik jamiyati institutlari, mustaqil, barqaror NNT tizimini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab ishlar amalga oshirildi.

«Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Uning mazmun-mohiyati fuqarolik institutlari, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlarining kishilar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha faoliyati va vakolatlarini kengaytirish, fuqarolarning o‘z hayoti va butun jamiyat hayotini boshqarishda keng ishtirokini ta‘minlashi kabi tamoyillarni qamrab olmoqda.

Agarda 1991 yil 1 yanvar holatiga respublikamizdagi NNT soni 95 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib ularning soni bir necha barobarga ko‘paydi va 9 mingdan ortiqni tashkil etmoqda. Mamlakatimizda 530 ta xotin-qizlar NNT, 10 mingga yaqin fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Mahallalarga ilgari joylardagi davlat hokimiyati organlari vakolatiga taalluqli 30 dan ortiq vazifalar bosqichma-bosqich o‘tkazildi.

O‘zbekistonda «uchinchi sektor»ning faoliyat yurgizishi va rivojlanishi borasida yetarli darajadagi huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining jamoat tashkilotlariga bag‘ishlangan 13-

bobida belgilab qo'yilgan huquqiy normalar ham fikrimiz isbotidir. Bundan tashqari, NNTlar faoliyatining meyoriy asoslari «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi (1991 y.), «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi (1996 y.), «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi (1999 y.), «Jamoat fondlari to'g'risida»gi (2003 y.), «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (2013 y.), «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi (2014 y.), «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi (2018 y.) O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va boshqa bir qancha huquqiy-meyoriy asoslarda belgilab qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2008 y.) qo'shma Qarori ham mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari faolligini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida NNTlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat Fondining tashkil etilishi ham fikrimizning yorqin isbotidir.

Har bir jamiyatda iqtisodiy o'sish sur'atlari kun sayin ortib borayotgan davrda ijtimoiy kapitalning ahamiyati ham oshib borishi tayin. Agrar jamiyatdan sanoatlashgan jamiyatga o'tish davrida ijtimoiy kapitalni rivojlantirish, islohotlarning tub mohiyatini aholiga yetkazish, fuqarolar ongida yangi zamonaviy tafakkurni va innovatsion g'oyalarni shakllantirishda nodavlat sektorning roli beqiyosdir. Biz o'rganayotgan masalaning tub mohiyati shundaki, nodavlat sektorining jamiyatda ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtiroki asnosida ijtimoiy kapital omili boyib borishi hamda buning samarasi o'laroq parallel ravishda mamlakat iqtisodiyoti ham barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun nodavlat sektorning iqtisodiyot bilan bog'liqlik jihatlarini e'tibordan chetda qoldirish aslo mumkin emas. Jamiyatning barcha sohalarida fuqarolarning o'zaro bir-biriga bo'lgan ishonchi, hamkorligining yangi qirralari va istiqbollarni ochishda NNTlar muhim ahamiyatga ega deyishimiz mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, nodavlat sektorning asosiy vazifalaridan biri – fuqarolarda mas'uliyat hissini uyg'otish, o'zgalarga yordam ko'rsatish, millat, ayniqsa, yoshlar kelajagi haqida qayg'urishga o'rgatishdir. Ma'lum bo'lishicha, ko'plab fuqarolarning nodavlat sektorida ishtirok etishi natijasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan ishlab chiqiladigan hamda qabul qilinadigan qarorlar, qonunlarga muayyan o'zgartirishlar kiritilishiga zamin yaratadi.

Demak, uchinchi sektorning jamiyat modernizatsiyasidagi roli tobora oshib borishi shundan dalolat beradiki, NNTlar davlat va jamiyat qurilishiga, islohotlarni hayotga samarali tadbiriq etilishiga va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, uchinchi sektor davlatning ko'pgina vakolatlarini tobora o'z zimmasiga olgani holda jamiyat

boshqaruvining to'laqonli ishtirokchisiga aylanib boradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda qabul qilingan «Taraqqiyot strategiyasi»ni ijtimoiy-siyosiy hayotimizga tadbiriq etishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида»ги Қонуни. 14.04.1999. №763-І., 2-модда.
2. Исраелян Е.В. Взаимодействие государства и гражданского общества: опыт Канады и российские реалии. Россия и Америка в XXI веке. Электронный научный журнал. №2. 2008. [Электрон манба] URL: <http://www.rusus.ru/?act=read&id=82>
3. Алексеева О., Джибладзе Г. и др. Государственная политика в области содействия гражданским инициативам: позиция неправительственных организаций. -М.: 2001.

DAVLAT EKOLOGIK SIYOSATIDAGI ZAMONAVIY YO'NALISHLAR

Muitov Davron Sobirovich

*O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti, Siyosiy fanlar kafedrasii
professori v.b.*

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati zamonaviy siyosiy, iqtisodiy va institutsional kontekstda tahlil qilinadi. Muallif ekologik siyosatning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari va strategik yo'nalishlarini ochib beradi hamda uning barqaror rivojlanish tamoyillariga integratsiyasini ko'rsatadi. O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, suv va yer resurslarini boshqarish, chiqindilarni kamaytirish hamda xalqaro ekologik tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Mamlakatning 2030 yilgacha bo'lgan ekologik strategiyalari, xalqaro majburiyatlari va tegishli normativ-huquqiy hujjatlari asosida olib borilayotgan siyosiy islohotlar institutsional va resurs jihatdan mustahkamlanganligi ta'kidlanadi. Xususan, "2025 yil – Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili" Davlat dasturining tarkibi va amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqola O'zbekistonda ekologik siyosatning siyosatshunoslikdagi yangi yo'nalish sifatida shakllanib borayotganini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ekologik siyosat, barqaror rivojlanish, "yashil" iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik, davlat dasturi, institutsional islohotlar, xalqaro hamkorlik, ekologik boshqaruv, chiqindilarni boshqarish, suv resurslari, siyosiy tahlil.

Bugun ekologiya sohasidagi siyosiy qarorlar milliy ustuvor yoʻnalishlar va barqaror rivojlanish boʻyicha global tendensiyalarni inobatga olgan holda qabul qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan ekologik siyosatning nazariy jihatlarini oʻrganish, uning mohiyatli xususiyatlari, tamoyillari va metodologik asoslarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Oʻzbekistonda ekologik siyosatni rivojlantirish murakkab yondashuv — yaʼni iqtisodiy rejalashtirishga ekologik strategiyalarni integratsiya qilish hamda xalqaro ekologik tashkilotlar bilan faol hamkorlikni talab etadi [1].

Maʼlumki, ekologik siyosat davlat va xalqaro boshqaruv sohasi sifatida tabiiy muhitni muhofaza qilish boʻyicha mahalliy chora-tadbirlaridan barqaror rivojlanish, transchegaraviy hamkorlik va ekologik xavfsizlikni taʼminlashni oʻz ichiga olgan global tartibga solish tizimigacha boʻlgan uzoq rivojlanish yoʻlini bosib oʻtdi [2]. Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan ekologik siyosat – bu ekologik tahdidlarning siyosiy institutsionallashuvi mahsuli boʻlib, u jamiyat va tabiiy muhit oʻrtasidagi oʻzaro aloqani tartibga solishga qaratilgan meʼyorlar, institutlar va hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishda ifodalanadi.

Oʻzbekistonda zamonaviy davlat ekologik siyosatining asosiy yoʻnalishlari ekologik xavfsizlikni taʼminlashga institutsional islohotlar, qonunchilik tashabbuslari, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni uygʻunlashtirgan tizimli yondashuv zaruratini tasdiqlamoqda. Zotan, Oʻzbekiston ekologik strategiyasining asosiy elementi – davlat boshqaruvi tizimiga barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish boʻldi. Aynan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 oktyabrdagi 627-sonli qarori bilan 2030 yilgacha BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (BRM) erishish boʻyicha Milliy strategiya tasdiqlangan boʻlib, unda ekologik yoʻnalish davlat siyosatining ustuvorlaridan biri sifatida eʼtirof etilgan [3]. Mazkur hujjatga muvofiq, Prezident huzurida BRMga erishish boʻyicha Milliy komissiya tuzilgan, uning tarkibiga qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat vakillari, hamda ilmiy va nodavlat sektor mutaxassislari kiritilgan. Bu barqaror rivojlanishning boshqaruv paradigmasi sifatida institutsionallashuvidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, davlat siyosatining strategik yoʻnalishlaridan biri — “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishdir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4 oktyabrdagi PQ–342-sonli qarori bilan 2023–2030 yillarda “yashil” iqtisodiyotga oʻtish konsepsiyasi tasdiqlangan [4]. Unda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik soliqqa tortish hamda tsiklik iqtisodiyotni rivojlantirish boʻyicha aniq maqsadlar belgilangan. Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan, bu industrial rivojlanish modelidan ekologik yoʻnaltirilgan modernizatsiya modelga oʻtishni anglatadi. Davlat energetik transformatsiyaga katta eʼtibor qaratmoqda: xususan, xalqaro investitsiyalarni

jalb etish orqali quyosh va shamol elektr stansiyalari qurish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda, jumladan Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ko'magida bu jarayon harakatda [5].

Uchinchidan, davlat ekologik siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri – tabiiy resurslar, ayniqsa suv va yer resurslarini strategik boshqarishdir. O'zbekistonning 2030 yilgacha suv xo'jaligini rivojlantirish Milliy rejasi 2022 yilda qabul qilingan bo'lib, zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etish, suv hisobini raqamlashtirish va suv foydalanuvchilar uyushmalari tashkil etishni nazarda tutadi. Orol muammosi bo'yicha mintaqaviy ekologik xavfsizlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Orol qurib qolgan tubining ekotizimini tiklash va cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha keng ko'lamli dasturlar xalqaro ko'mak bilan amalga oshirilmoqda va Markaziy Osiyodagi yirik ekologik loyihalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, davlat siyosati atrof-muhitni ifloslanishidan muhofaza qilish choralari kuchaytirish va chiqindilarni boshqarish tizimini isloh qilishni davom ettirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 25 iyundagi 402-sonli qarori bilan atmosfera havosining sifati monitoringi dasturi tasdiqlangan bo'lib, Sog'liqni saqlash Butunjahon Tashkiloti tavsiyalariga muvofiq avtomatlashtirilgan nazorat stansiyalarini joriy etishni nazarda tutadi. 2024 yil 10 yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarini boshqarish to'g'risida"gi Qonuni (№ZRU-880) [6] chiqindilar bilan muomala qilishning huquqiy asoslari, ishlab chiqaruvchining kengaytirilgan javobgarligi tamoyillari hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini belgilab berdi.

Shu tariqa, O'zbekistonning ekologik siyosati ekologik xatarlar, davlat boshqaruvi, iqtisodiy transformatsiya va xalqaro majburiyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifoda etuvchi yaxlit strategik modelga asoslanadi. Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan muhim jihat shuki, O'zbekistonda ekologik xavfsizlik nafaqat tartibga solish obyekti, balki siyosiy tahlilning mustaqil sohasiga aylanmoqda. Bu esa zamonaviy tahdidlar xususiyati, ularga institutsional javoblar va davlat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabat modelining transformatsiyasini aks ettiradi.

Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasida ekologik siyosatni shakllantirish va amalga oshirish tizimli strategik xarakter kasb etmoqda. Davlat barqaror rivojlanishning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan mexanizmlarini milliy kun tartibiga izchil joriy etmoqda. Bu jarayon ichki ekologik tahdidlar va xalqaro majburiyatlar bilan bog'liqdir. Siyosiy va boshqaruv rejalashtirish darajasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash faoliyati normativ va resurs jihatdan ta'minlangan milliy strategiyalar, konsepsiyalar va maqsadli dasturlar orqali institutsionallashmoqda.

Ushbu sohadagi asosiy hujjatlardan biri – 2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi bo‘lib, u 2019 yil 4 oktyabrdagi PQ–4477-sonli Prezident qarori bilan tasdiqlangan. Strategiya barqaror rivojlanish, ekologik javobgarlik, tarmoqlararo hamkorlik va ilmiy asoslangan tabiatdan foydalanish tamoyillariga asoslangan. Uning qabul qilinishi O‘zbekistonning industrial-resurs modelidagi iqtisodiy rivojlanishdan innovatsion-ekologik va uzoq muddatli barqarorlikka yo‘naltirilgan modelga o‘tishdagi muhim bosqich bo‘ldi.

Strategiyaga muvofiq 2030 yilgacha quyidagi asosiy maqsadlarga erishish ko‘zda tutilgan: qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 25–30%gacha oshirish, YAIMning energiya sig‘imini kamaytirish, agrar sektorni suv tejash texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish, ekologik audit tizimini joriy etish va davlat ekologik boshqaruv organlarining institutsional salohiyatini oshirish [7]. Bu choralar xalqaro standartlarga, jumladan 2015 yildagi Parij kelishuvi va BMTning 2030 yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish kun tartibiga mos keladi.

Strategiyaning mazmuni va tuzilishi siyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ekologik ustuvorliklarning davlat siyosati tarkibiy qismi sifatida institutsional mustahkamlanishi jarayoni ketmoqda. Masalan, “yashil” iqtisodiyot masalalari bo‘yicha Idoralararo komissiya tashkil etilgan, tarmoqlararo ko‘rsatkichlar tizimi tasdiqlangan va barqaror rivojlanish bo‘yicha hududiy dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bu jarayonlar ekologik xavfsizlik tamoyillarining deklarativ nutqdan amaliy siyosatga o‘tishini aks ettiradi.

Strategiyaning muhim jihati – ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy va investitsiyaviy mexanizmlarni rivojlantirishdir. Xususan, Milliy “yashil o‘sish” jamg‘armasini tuzish, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi kabi xalqaro moliyaviy institutlar resurslarini faol jalb qilish nazarda tutilgan. 2023–2024 yillarda Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan hamkorlikda Navoiy, Buxoro va Jizzax viloyatlarida jami 2000 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyalarini qurish boshlangan.

Keyingi muhim dasturiy hujjat — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 29 dekabrdagi UP–252-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2025 yil – Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili” Davlat dasturidir. Dastur kompleks tarmoqlararo xarakterga ega bo‘lib, 100 dan ortiq tadbirni o‘z ichiga oladi. Ular quyidagilarni qamrab oladi: chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ekologik toza transportni joriy etish, ekologik turizmni rivojlantirish, ekologik ma’rifat va barqaror yerda foydalanish hamda bioxilma-xillikni normativ ta’minlash.

Xulosa qilib aytganda, dasturning o‘ziga xos jihati – boshqaruv monitoringini samarali tashkil etishdir. Dasturlar ijrosini baholash bo‘yicha

maxsus Respublika ishchi guruhi tashkil etilgan, real vaqt rejimida ma'lumot to'plash imkonini beruvchi elektron ekologik hisobot tizimi joriy etilmoqda. Bunday yondashuv davlat boshqaruvi raqamlashuvi sohasidagi zamonaviy tendensiyalarga mos bo'lib, davlat organlari faoliyatining oshkoraligini va javobgarligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 oktabrdagi 627-sonli qarori // *Lex.uz*. URL: <https://lex.uz/docs/5052923>

2. Meadows D.H., Randers J., Meadows D.L. Limits to Growth: The 30-Year Update. — Chelsea Green Publishing, 2004. — 338 p.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2020 yil 20 oktabr, 627-son. — Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha Milliy strategiya.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 2023 yil 4 oktabr, PQ-342-son. — 2023–2030 yillarda “yashil” iqtisodiyotga o'tish Konsepsiyasi.

5. ADB (Asian Development Bank), IFC (International Finance Corporation), EBRD (European Bank for Reconstruction and Development) hisobotlari va rasmiy saytlaridagi ma'lumotlar.

6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, “Ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarini boshqarish to'g'risida”gi Qonun, 2024 yil 10 yanvar, ZRU-880. — Manba: <https://lex.uz/docs/6862301>

O'ZBEKISTON EKOLOGIK SIYOSATINING DOLZARB MASALALARI

Agabayev Sharaf Kurbanbay o'g'li

*O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti Siyosiy fanlar kafedrasida
dotsenti (sharofagabaev@gmail.com)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasidagi ekologik vaziyatga ta'sir qiluvchi asosiy omillar – global iqlim o'zgarishlari, transchegaraviy resurslar muammosi, antropogen yuklama va ekologik boshqaruvdagi institutsional xususiyatlar tahlil qilingan. Orol fojiasi, suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi, atmosfera havosining ifloslanishi va chiqindilarni boshqarish kabi ekologik tahdidlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari yoritilgan. Shuningdek, ekologik muammolarga siyosiy nuqtai nazardan yondashuvning ahamiyati, ekologik boshqaruvning takomillashuvi va xalqaro ekologik majburiyatlarga muvofiqlik muhimligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik tahdid, Orol muammosi, suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi, chiqindilarni boshqarish, ekologik siyosat, barqaror rivojlanish, transchegaraviy resurslar.

O‘zbekiston Respublikasidagi ekologik vaziyat tabiiy muhitning global o‘zgarishlari hamda mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning xususiyatlari ta’sirida shakllanmoqda. Ushbu omillar qatoriga antropogen yuklama, asosiy resurslarning transchegaraviy tabiati, iqlim o‘zgarishlari hamda ekologik boshqaruvdagi institutsional xususiyatlarni kiritish mumkin. Mamlakatning geografik joylashuvi, iqlimiy zaifligi va suv resurslariga bog‘liqligi (ularning katta qismi milliy hududdan tashqarida shakllanadi) O‘zbekiston uchun ekologik tahdidlarni nafaqat ekologik, balki strategik ahamiyatga ega masalaga aylantirmoqda.

Siyosiy-ekologik tahlil nuqtai nazaridan, mazkur tahdidlar davlat boshqaruvi barqarorligi, ijtimoiy barqarorlik, aholining salomatligi hamda mamlakatning tashqi siyosiy faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi strukturaviy omillar sifatida qaralishi lozim. Bu kontekstda ekologik muammolar faqatgina tabiatni muhofaza qilish faoliyati ob’ekti sifatida emas, balki ommaviy siyosatning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular turli aktorlar manfaatlarini hisobga olgan holda, tarmoqlararo muvofiqlashtirishni, barqaror rivojlanish jarayonlariga integratsiyani talab qiladi.

Ekologik xavflar orasida eng dolzarblaridan biri bu Orol fojiasining oqibatlaridir. XX asrda Amudaryo va Sirdaryo suvlarining intensiv ravishda boshqa yo‘nalishlarga burilishi natijasida Orol dengizining qurib borishi natijasida Orol bo‘yi mintaqasi ekologik falokat hududiga aylangan. Ekotizimlarning buzilishi, sho‘rlanishlarning hosil bo‘lishi, aholining kasallanish darajasining ortishi – bularning barchasi ekologik inqirozni milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi strukturaviy muammo darajasiga olib chiqdi. Tibbiy-ekologik tadqiqotlar Qoraqalpog‘iston va unga yaqin hududlarda nafas yo‘llari kasalliklari, onkologik patologiyalar va kamqonlik kasalliklarining barqaror o‘shini qayd etmoqda[1]. Shu bilan birga, fojia transchegaraviy xarakterga ega: toksik moddalar bilan to‘yingan chang aerzollari shamol orqali qo‘shni davlatlarga ko‘chib, mintaqadagi xalqaro keskinlikni yanada kuchaytirmoqda[2].

Keyingi muhim ekologik tahdid bu suv resurslari tanqisligidir. Bu holat ham iqlimiy, ham geosiyosiy omillar bilan bog‘liq. O‘zbekiston transchegaraviy daryolarning quyi oqimida joylashgan bo‘lib, umumiy suv iste’molining 80 foizgacha bo‘lgan qismi mamlakat tashqarisida shakllanadi. Rasmiy prognozlarga ko‘ra, 2050-yilga kelib suv tanqisligi amaldagi iste’molning 25 foiziga yetishi mumkin[3]. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va urbanizatsiya o‘sib borayotgan sharoitda bu holat suv resurslari uchun ichki va mintaqaviy raqobatni kuchaytiradi. Siyosiy nuqtai nazardan, bunday jarayonlar transchegaraviy suv resurslarini boshqarish bo‘yicha mexanizmlarni shakllantirish va mintaqaviy institutlar doirasida faol diplomatiyani olib borishni talab qiladi.

Tuproqlarning degradatsiyasi muammosi ham suvdan samarasiz foydalanish bilan chambarchas bogʻliq. Qishloq xoʻjaligi yerlarining shoʻrланishi va eroziyasi ularning unumdorligining pasayishiga olib keladi va ayniqsa qishloq joylarida ijtimoiy xavf-xatarlarni kuchaytiradi. Tuproq degradatsiyasi aslida tabiiy xavfdan siyosiy zaiflik omiliga aylanib, kambagʻallik darajasining oshishiga va ekologik migratsiyalarning yuzaga kelishiga sabab boʻlmoqda.

Global iqlim oʻzgarishi ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Oʻzbekistonda oʻrtacha yillik haroratning barqaror oshishi kuzatilmoqda: Gidrometeorologiya xizmati maʼlumotlariga koʻra, bu koʻrsatkich har oʻn yillikda +0,29 °C atrofida[4]. Ekstremal ob-havo hodisalari, qurgʻoqchilik va toshqinlarning koʻpayishi suv xavfsizligi, biologik xilma-xillik va qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Bu oʻzgarishlar ekologik emas, balki siyosiy yechimlarni – milliy barqaror rivojlanish tizimiga integratsiyalashgan moslashuvchan va oldini oluvchi strategiyalarni – ishlab chiqishni talab qiladi.

Qoʻshimcha ekologik tahdidlardan biri bu sanoatlashgan va urbanizatsiyalashgan hududlardagi atmosferadagi havo sifatining yomonlashuvidir. Toshkent, Navoiy, Olmaliq va Fargʻona shaharlari muntazam ravishda PM2.5 va PM10 (*PM2.5 — diametri 2,5 mikrometr (mkm) yoki undan kam boʻlgan moddaning zarralari, PM10 — diametri 10 mikrometr (mkm) yoki undan kam boʻlgan moddaning zarralaridir*) zarrachalari boʻyicha ruxsat etilgan meʼyorlardan oshib ketgan koʻrsatkichlarni namoyon etmoqda, ayniqsa qish oylarida. Avtotransport yuklamasining ortishi bilan birgalikda bu aholi salomatligining yomonlashuvi, mehnatga layoqatning pasayishi va sogʻliqni saqlash xarajatlarining oshishiga olib keladi – yaʼni bu holat siyosiy-iqtisodiy oqibatlariga ega.

Bundan tashqari, chiqindilarni boshqarish muammosi ham mavjud. Qayta ishlash quvvatlarining yetishmasligi, chiqindilarni ajratish darajasining pastligi va eskirgan poligonlar tuproq hamda yer osti suvlarining ifloslanishiga olib kelmoqda. Chiqindilarning atigi chorak qismigina ekologik standartlarga muvofiq qayta ishlanadi yoki utilizatsiya qilinadi[5]. Shu bilan birga, chiqindilar bilan ishlashga oid qonunchilik tizimini ham takomillashtirish zarur. Chunki, xususi sektor ishtirokining kamayishi va bunday sharoitda chiqindilar nafaqat ekologik, balki institutsional muammo sifatida paydo boʻlib, iqtisodiy siyosat, investitsiyalar va tadbirkorlikni tartibga solish sohalaridagi qarorlarni qayta koʻrib chiqishni talab qiladi.

Shu tariqa, Oʻzbekistondagi ekologik tahdidlar tahlili ularning kompleks va siyosiy jihatdan muhim xarakterga ega ekanligini koʻrsatadi. Bu tahdidlar milliy xavfsizlikning asosiy tarkibiy qismlariga taʼsir koʻrsatadi: oziq-ovqat xavfsizligi, aholining salomatligi, demografik barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik va xalqaro hamkorlik. Shu bois ekologik siyosat faqatgina

tabiatni muhofaza qilish vositasi emas, balki strategik davlat rejalashtirishining ajralmas qismi bo'lishi, ilmiy asoslanganlik, idoralararo muvofiqlashtirish va fuqarolik jamiyati ishtirokiga tayanishi lozim.

Shuningdek, mintaqaviy suv resurslariga bog'liqlik sharoitida mamlakatda geosiyosiy muammolar kuchaymoqda. Masalan, transchegaraviy daryolar, ayniqsa Amudaryo, qo'shni davlatlar hududida shakllanadi. Prognozlarga ko'ra, 2050-yilga borib O'zbekistonda suv resurslari tanqisligi ehtiyojning 25 foiziga yetishi mumkin[6]. Shu bilan birga, Afg'onistonda Qo'sh-Tepa kanali qurilishi Amudaryo suvining oqimini qayta taqsimlash xavfini yuzaga keltirmoqda va transchegaraviy suv diplomatiyasini kuchaytirishni talab qiladi.

Shu o'rinda, global iqlim o'zgarishlari suv va qishloq xo'jaligi resurslariga bo'lgan bosimning yanada oshib borayotganligiga e'tibor qaratish lozim. So'nggi o'n yilliklarda o'rtacha harorat har 10 yillikda 0,29 °C ga ko'tarilgan[7], qurg'oqchilik va boshqa ekstremal hodisalar tez-tez uchramoqda. Bu esa, cho'llanish xavfini kuchaytirib, ekologik migratsiya xavfini yuzaga keltiradi, bunga eng ko'p zarar ko'rayotgan hududlarni, ayniqsa – Qoraqalpog'iston, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarini misol keltirish mumkin.

Atmosfera havosining sifati hanuzgacha qator shaharlarda talab darajasida emas. Hidrometeorologiyaning yillik hisobotiga ko'ra, qishki davrda Toshkent, Olmaliq va Navoiy shaharlarida zararli moddalar konsentratsiyasi belgilangan me'yorlardan 2–3 barobar yuqori[8]. Asosiy ifloslantiruvchilar – avtotransport, issiqlik elektr stansiyalari, sement va kimyo sanoati korxonalari hisoblanadi.

Chiqindilarni boshqarish muammosi qayta ishlash infratuzilmasining yetishmasligi va institutsional muvofiqlashtirishning zaifligi bilan murakkablashmoqda. Davlat ekologiya qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, atigi 24% chiqindi utilizatsiya qilinadi yoki qayta ishlanadi. Ko'pchilik chiqindixonalar sanitariya me'yorlariga javob bermaydi va bu holat qishloq hamda dam olish zonalari uchun jiddiy ekologik xavf tug'dirmoqda[9].

Mamlakatda bunday muammolarni o'rganish, tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishda Respublika Davlat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi muvofiqlashtiruvchi va normativ funksiyalarni bajaradi. O'zbekiston huquqiy tizimida asosiy ekologik hujjatlar belgilab qo'yilgan bo'lib, ular orasida “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonun (2021-yil tahriri), “Ekologik ekspertiza to'g'risida”gi Qonun, “Suv resurslaridan oqilona foydalanish to'g'risida”gi Qonun va boshqa huquqiy asoslar mavjud. Shu bilan birga, bir qator strategik hujjatlarni ham misol keltirish mumkin. Masalan, “2030-yilgacha biologik xilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi” va 2019-yilda tasdiqlangan “Yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasi” ham shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining zamonaviy bosqichi ekologik tahdidlarga tizimli javob berish va barqaror rivojlanish bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish zarurati bilan belgilanadigan institutsional va normativ muhitning faol transformatsiyasi bilan tavsiflanadi. Siyosiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu jarayonlar tabiatni muhofaza qilishning texnokratik modelidan strategik yo‘naltirilgan va institutsional asoslangan barqarorlik siyosatiga bosqichma-bosqich o‘tishni anglatadi hamda ekologik muammolarning echimiga keng yo‘l ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хакимов, Ф.Э. Экологические аспекты устойчивого развития Приаралья // Молодой ученый. – 2015. – № 9. – С. 118–121.
2. ВМТ. Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p sheriklik trast fondi.– URL: <https://mptf.undp.org/fund/ar100>
3. 2050-yilga kelib O‘zbekistonda suv tanqisligi 15–25 foizga yetishi mumkin // kun.uz. - 2024.-URL: <https://kun.uz/ru/news/2024/06/20/k-2050-godu-defitsit-vody-v-uzbekistane-mojyet-dostich-15-25>
4. O‘zbekistonning 2021–2030 yillarga mo‘ljallangan milliy moslashuv rejasi. – Toshkent: Hidrometeorologiya qo‘mitasi, 2021. – 122 b.
5. Белялова, Л.Э. Экологическая модернизация и обращение с отходами в Узбекистане // Журнал экологических исследований. – 2019. – № 3. – С. 45–49.
6. Qo‘sh-Tepa kanali va Markaziy Osiyodagi suv xavfsizligi // carov.org. – 2024. – URL: <https://capow.org/otchet-centra-nacionalnyh-interesov-kanal-kosh-tepa-i-vodnaya-bezopasnost-v-centralnoj-azii/>
7. O‘zbekistonning 2021–2030 yillarga mo‘ljallangan milliy moslashuv rejasi. – Toshkent: Hidrometeorologiya qo‘mitasi, 2021. – 122 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati agentligi. Atrof-muhit holati to‘g‘risida milliy ma‘ruza. – Toshkent, 2023. – URL: <https://www.uznature.uz/uz/site/news?id=3961>
9. Белялова Л.Э. Обращение с отходами в Узбекистане: институциональные ограничения и пути модернизации // Журнал экологических исследований. – 2021. – № 1. – С. 48–52.

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA EKOSIYOSATNING O‘RNI

Masharipov Ikramjon Batirovich,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, siyosiy fanlar doktori

ikrommasharipov1967@gmail.com

Tel: (98) 123 33 55

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati institutlarining ekologik siyosat (ekosiyosat)dagi ishtiroki va ularning atrof-muhitni muhofaza qilishga qo‘shayotgan hissasi ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Muallif ekosiyosat tushunchasi va uning nazariy asoslarini ochib beradi, shuningdek, fuqarolik jamiyatining jamoatchilik nazorati, ekologik ma’rifat, huquqiy ishtirok va safarbarlik kabi yo‘nalishlardagi vazifalarini atroflicha yoritadi. Maqolada O‘zbekiston tajribasi misolida fuqarolik institutlarining davlat ekosiyosati bilan o‘zaro aloqasi va faol hamkorlik mexanizmlari tahlil etiladi. Муаллиф томонидан фуқаролик жамияти иштирокini yanada kengaytirishga qaratilgan aniq amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Ekosiyosat, fuqarolik jamiyati, ekologik nazorat, barqaror rivojlanish, jamoatchilik ishtirokchilari, NNT, ekologik ma’rifat.

Jahon hamjamiyati so‘nggi o‘n yilliklarda global ekologik muammolarning chuqurlashuvi sababli barqaror rivojlanish modellariga o‘tish zaruratiga duch kelmoqda. Bu holat atrof-muhitni muhofaza qilishga doir siyosat – ekosiyosatning barcha davlatlarning strategik vazifasiga aylanganini anglatadi. Shu bilan birga, mazkur jarayonda faqat davlat boshqaruv organlari emas, balki fuqarolik jamiyati institutlarining ham ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Fuqarolik jamiyati – bu davlat va shaxs o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi, fuqarolarning erkin uyushmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), ommaviy axborot vositalari (OAV), fuqarolar harakatlari va boshqa institutlardan iborat tizimdir. Ushbu institutlar faoliyatida ekologik masalalarga nisbatan munosabat kuchaygan sari, ularning ekosiyosatga ta’siri ham ortib bormoqda. Maqolada ekosiyosat tushunchasi, uning nazariy va amaliy jihatlarini hamda fuqarolik jamiyati institutlarining bu jarayondagi ishtiroki ilmiy asosda tahlil qilinadi. O‘zbekiston misolida amaliy mexanizmlar o‘rganiladi va takliflar ilgari suriladi.

1. Ekosiyosat: nazariy asos va amaliyotdagi tendensiyalar. Ekosiyosat tushunchasining evolyusiyasi.

“Ekosiyosat” tushunchasi ekologik muammolarga siyosiy yondashuvni anglatib, XX asr oxirida global iqlim o‘zgarishi, ozon qatlaminin yemirilishi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi muammolar tufayli shakllana boshladi. Bu jarayonda 1992 yildagi Rio-de-Janeyrodagi “Barqaror rivojlanish” Butunjahon konferensiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Ekosiyosat ikki asosiy tamoyilga tayanadi:

Institutsional yondashuv: davlat organlari, NNT, xususiy sektor va jamiyatning o‘zaro munosabati orqali ekologik boshqaruvni tashkil etish.

Interaktiv siyosat: fuqarolar va jamoatchilikning ekosiyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirokini ta’minlash.

Zamonaviy ekosiyosatning asosiy yoʻnalishlari: Fuqarolik jamiyati va uning institutsional shakllari. Fuqarolik jamiyati – davlatdan mustaqil ijtimoiy tuzilma boʻlib, quyidagi institutsional elementlarga ega: Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT): ekologik muammolar boʻyicha tuzilgan jamoat tashkilotlari. Ijtimoiy harakatlar: jamoatchilikning ekologik adolat, xavfsizlik va barqarorlik uchun tashkil etgan harakatlari. Mustaqil OAV: ekologik axborotni tarqatuvchi ommaviy manbalar.

Ilmiy hamjamiyat va ekspert kengashlari. Fuqarolik jamiyatining ekosiyosatdagi ishtiroki uning siyosiy subʼekt sifatida shakllanishiga olib keladi. Ayniqsa, ekologik ong va fuqarolik masʼuliyatini oshirishda NNT va ijtimoiy harakatlarning oʻrni beqiyos.

3. Ekosiyosiy jarayonlarda fuqarolik jamiyatining ishtiroki.

Qaror qabul qilish jarayonida ishtirok

Jamoatchilik muhokamalari va soʻrovlar orqali fikr bildirish.

Ekologik ekspertizalarda NNT va fuqarolar ishtirokini taʼminlash.

Qonun loyihalarini muhokama qilish va ularga takliflar berish.

Monitoring va nazorat funksiyalari

Ifloslanish darajasini kuzatish, maʼlumotlar toʻplash.

Davlat organlari faoliyatini nazorat qilish.

Tabiatni muhofaza qilish boʻyicha manzilli tadbirlarni baholash.

Ekologik maʼrifat va jamoatchilikni safarbar etish

“Grin aksiyalar”, “Eko-klublar”, “Ekologik festivallar” tashkil etish.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali aholiga taʼsir oʻtkazish.

Maktab va universitetlarda ekomaʼrifiy darslar oʻtkazish.

4. Oʻzbekiston misolida: milliy ekosiyosatda fuqarolik jamiyatining roli

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda ekosiyosatda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki faollashdi: Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qoʻmitasi huzurida jamoatchilik kengashlari tashkil etilgan. "Yuksalish", "EcoForum Uzbekistan", "Ekosan" kabi NNTlar aholi oʻrtasida ekologik ongni oshirishda faol ishtirok etmoqda. “Green Alliance Uzbekistan” tashabbusi orqali yoshlarning ekosiyosiy jarayonlarda ishtiroki kuchaymoqda.

2023 yilda qabul qilingan “Ekologik nazorat toʻgʻrisida”gi qonunda jamoatchilikning ekologik nazoratdagi ishtiroki mustahkamlab qoʻyildi.

Xulosa va ilmiy takliflar

Ekosiyosatning samaradorligi faqat davlat siyosatining sifatidan emas, balki fuqarolik jamiyatining undagi faol ishtirokidan ham kelib chiqadi. Ushbu maqsadda quyidagi ilmiy takliflarni berish mumkin:

1. Institutsional aloqalarni mustahkamlash: NNT, davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi hamkorlik platformalarini tashkil etish.

2. Maʼlumotlar bazasini yaratish: ekologik monitoring natijalarini ommaviy maʼlumot sifatida taqdim etish.

3. Qonunchilikda ishtirokni kuchaytirish: fuqarolar va jamoatchilik tashkilotlarini ekologik qonunchilikni shakllantirishda jalb etish.

4. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish: barcha ta'lim bosqichlarida ekologik savodxonlikni oshirish.

5. Jahon tajribasini lokallashtirish: Yevropa Ittifoqi va Janubiy Koreya kabi davlatlarning ekosiyyosat modellarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish.

Adabiyotlar ro'yxati ro'yxati:

1. Meadows D. et al. Limits to Growth, Club of Rome Report, 1972.

2. Dryzek J. S. The Politics of the Earth: Environmental Discourses, Oxford University Press, 2013.

3. UNDP Uzbekistan. Environmental Governance in Uzbekistan: Civic Engagement Review, 2021.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-269-son Farmoni, 2022 yil.

5. Hasanov B. Environmental Policy and Public Participation in Uzbekistan, Tashkent State University, 2020.

6. OECD. Environmental Performance Review: Uzbekistan, 2019.

7. O'zbekiston Respublikasi "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni, 2023 yil.

GREEN GROWTH AND CLIMATE RESILIENCE IN BHUTAN: NAVIGATING DEVELOPMENT AND SUSTAINABILITY IN A CHANGING GLOBAL ORDER

Dr. Beena

Assistant Professor MERI Centre for International Studies (CIS)

52-55, Sewa Marg, Janakpuri Institutional Area,

Janakpuri, New Delhi

Abstract: Bhutan's growth experience in the past two decades proves that economic growth and protecting nature can go hand in hand. Because Bhutan is carbon-negative and leads in protecting biodiversity, it stands out as an environmental leader and example of soft power in South Asia. Yet, a higher risk from climate change, the importance of hydropower to its economy and an unbalanced labour market are major barriers to becoming greener. The approaches in the recent World Bank reports guide the exploration of how Bhutan can diversify its economy and help private companies, as well as give youth, women and low-skilled workers equal chances at work. It also advocates for Bhutan to use its environment to its advantage with new policies, participate in voluntary carbon markets and make sustainable investments, upholding its worldwide reputation on

sustainability. By linking Gross National Happiness (GNH) with green economy ideas, Bhutan achieves a unique style of environmental statecraft that includes both local and global climate activities. This paper considers Bhutan in light of global development, managing the environment and ways to build resilience against climate challenges, so that small countries may find guidance for their future growth..

Keywords: Green Growth, Climate Resilience, Sustainable Development, Environmental Diplomacy, Natural Capital

Introduction

The country is an example to the world in handling climate change, by linking its environmental work to Buddhism and GNH. Under its Constitution, Canada is required to preserve at least 60 percent of its land as forests and it has not only met but surpassed this demand. At the end of 2020, forest cover accounted for 71 percent, making Bhutan one of the rare carbon-negative nations (Ministry of Energy and Natural Resources, 2020). As reported in Bhutan's Second NDC of 2021 to the UNFCCC, the country emitted 3.8 million tonnes of CO₂ in 2015, but its forests absorbed about 9.4 million tonnes of the greenhouse gas (Royal Government of Bhutan, 2021). At the 2019 UN Climate Action Summit, the nation's former Prime Minister, Dr. Lotay Tshering, stated that "We are not only carbon neutral; we are carbon negative." This is made possible by our decisions, influenced by our culture and written into our constitution" (UN Climate Action Summit, 2019).

Integrating Sustainability with Development: A Holistic Model

Bhutan's aim for climate resilience is to balance both environmental and social development. Hydropower is the main source of electricity in Sweden, so the country depends very little on fossil fuels. It also works to achieve 100 percent organic farming in agriculture by 2035, in support of making the food system sustainable (Royal Government of Bhutan, 2021). Moreover, young people are made aware of the environment when environmental science is part of their education and the day is celebrated when Social Forest Day is commemorated on the date that the third king was born.

As an alternative to GDP, the country uses a measure known as Gross National Happiness (GNH) which takes into account nine areas, including protecting the environment, preserving culture, having good government and ensuring equality in economic and social sectors (Centre for Bhutan Studies, 2019). The use of Gross Happiness as an indicator represents Bhutan's original views on development and also fits with the global SDGs.

Even with its successful environmental efforts, Bhutan is exposed to certain dangers caused by climate change. Due to its high mountains and heavy use of river basins for farming, it is very vulnerable to dangers from

melting glaciers and floods during the monsoon season. Bhutan came 115th out of 191 countries and was 76th in exposure to riverine flooding based on the INFORM 2019 Risk Index. Though cyclones and droughts are unlikely, people in the area must always be ready for possible landslides and earthquakes. Bhutan also faces these challenges because its coping capacity is comparable to that of India and Kyrgyzstan (INFORM Index, 2019).

Vulnerability and Adaptation in the Face of Climate Risks

With the COVID-19 pandemic, the nation's development difficulties became tougher, so in its recovery strategy, the government included climate resilience and sustainability. In 2020, the Economy of the Future made job creation, safeguarding nature, making the economy less polluting and investing in both human and natural capital its top priorities. Using the Climate Change Knowledge Portal and CMIP5 projections, Bhutan selected climate-responsive goals for its development. Through the ND-GAIN Index, it was again shown that Bhutan is the world's 91st most vulnerable nation when it comes to dealing with climate change (ND-GAIN, 2020).

The signs of stress caused by natural resources are growing. As forests, water and biodiversity are affected more, the agriculture and energy sectors suffer increased risks from extreme weather. When the weather changes, both food and energy may be at risk, since crops and hydropower may be affected. Moreover, the effects of climate change help to increase inequality in terms of poverty, differences between genders and health problems. As the world gets warmer, there are more cases of mortality from heat, spread of diseases by pests and animals, lack of food and shortage of food in regions that cannot cope (World Bank, 2021).

Global Partnerships and Climate Risk Mitigation Initiatives

Working with other countries has greatly contributed to Bhutan's success in becoming a green nation. Working with the Asian Development Bank (ADB) and the World Bank Group (WBG) has strengthened Bhutan's ability to withstand changes in the climate. The ADB is committed to helping the country move toward green energy by investing in solar, wind and biogas and promoting improvements in energy efficiency as well as involvement in markets related to carbon emissions. It also focuses on protecting structures against climate Change – mainly in the transportation sector – and on advancing sustainable and intelligent urban development (ADB, 2019). The World Bank's plan for 2021–2024 additionally highlights reducing risks from disasters, building sustainable tourism and ensuring more jobs, as well as supporting Bhutan in keeping its environment safe. The frameworks supported the objectives of Bhutan Vision 2020 and its 12th Five-Year Plan (World Bank, 2021).

Geographic and Climatic Vulnerabilities: Bhutan's Exposure to Natural Disasters

Glacier Lake Outburst Floods (GLOFs) seriously threaten what Bhutan hopes to achieve in development and climate change. Canada has 677 glacial lakes and records reveal that at least 18 GLOF events have occurred in the country since the 1950s, with another in 2019 the most recent. Sudden and major harm to human lives, buildings and nearby farms may occur when such events happen. The government in Bhutan has introduced both traditional and up-to-date measures to address these dangers. The project entitled “Reducing Climate Change-Induced Risks and Vulnerabilities from Glacial Lake Outburst Floods in the Punakha-Wangdi and Chamkhar Valleys” demonstrates how Bhutan is tackling the risks. The project, streamlined by the Least Developed Countries Fund (LDCF) in Mongolia, works to decrease the water in Torthormi Lake and set up automated warning systems. Valleys hit by the earthquake are home to 10 percent of the population and contain major economic hotspots and hydropower plants. Since 2008, the project has improved both Bhutan’s preparedness and the knowledge of its people (GEF-LDCF, 2020; UNDP Bhutan, 2020).

Economic Diversification and Policy Innovations for Climate Resilience

In the past few years, Bhutan has taken steps to overcome the restrictions of its economy. While the country has made great improvements in literacy, how long people live and poverty, a significant part of its economy still depends on hydropower and exports mostly go to India as well. During the pandemic, Bhutan’s economy decreased by 3.7 percent, as confirmed by the 2022 Bhutan Development Update, because the country depends so heavily on one business area. Additionally, the labour market is not operating smoothly, since 38 percent of people in working-age groups are either unemployed or underemployed, more commonly among youth and women. It was clear to him that diversifying the economy is necessary now: “It has become imperative for us to diversify what our country produces.” It is important to build up the private sector, encourage new businesses and invest in greener technologies so we can remain resilient in the future.

Bhutan has rolled out numerous detailed policy programs as part of its intentions to be green. The NES 2020 highlights “environmentally sustainable and climate-resilient development,” focusing on conserving nature, efficient use of water, handling waste and reducing emissions in cities. Bhutan’s Climate Action Plan (for the years 2022 to 2030) addresses climate adaption in agriculture, handling emergencies and conserving water. The goal of these frameworks is to strengthen rural facilities against climate change and enhance advance notice of any disasters.

More people and organizations are turning to innovative ways to raise money. The state is using voluntary carbon markets and natural capital accounting to make use of its carbon-negative status. The National Environment Commission is joining forces with the World Bank and UNDP

to establish a system that would let Bhutan earn money for its environmental services through carbon credits. In that same year, the country agreed to explore carbon offset projects with other countries using Article 6 of the Paris Agreement.

Because of its commitment to nature, Bhutan has gained a strong reputation on the global stage. Being given an excellent score by the 2020 EPI underlines that Canada excels when it comes to protecting the environment and reducing air pollution. The studies undertaken with India and Japan have underlined that even small nations with limited options can provide unique and successful answers to climate change.

Conclusion

Alternative progress in a global warming world can be found in the green development paradigm of Bhutan which builds on its constitution, Buddhist beliefs and the Gross National Happiness (GNH) system. It goes against the belief that supporting the environment and the economy cannot go together. In reality, Bhutan has proved that focusing on nature and people can be a key element in developing a nation.

Still, pursuing this future can lead to certain issues. Bhutan's worldwide recognition for being carbon-negative may not last unless the country strengthens its economy, institutions and makes socio-economic policies that include all people. Bhutan experiences climate change now, as it affects people's jobs, hydro projects and the state of nature. For this reason, the country should implement practical green economic solutions to prepare for unpredictable changes in the environment.

Therefore, Bhutan needs to emphasise: First, the development of infrastructure that can withstand climate change and support planning for disasters, mainly in areas prone to danger from mountains and rivers. Next, growing its private sector, including green companies, tourism and agriculture, can offer more jobs and wean the country from both aid and money sent by their workers overseas. In addition, using initiatives like REDD+ and purchasing voluntary offsets is a way to gather funds for nature and development projects. In addition, increasing climate diplomacy globally would help Bhutan represent the principles and interests of other least developed and small mountainous nations.

Recalibration could lead to greater benefits in the future. Aligning its goals for green growth with business and international support could make Bhutan a hub for activities that benefit the environment and encourage diplomacy in Asia. A new generation of policy might draw from this model by looking at indicators of development such as the environment and culture, along with economic growth.

All in all, Bhutan is going beyond dealing with climate change and is leading in redefining development in the future human era. If its ideas remain

practical and progressive, Bhutan's way might be an example others can follow to help our planet.

References:

1. Royal Government of Bhutan. (2021). *Second Nationally Determined Contribution*. National Environment Commission. <https://www.nec.gov.bt>.
2. World Bank. (2022). *Bhutan Development Update: Seizing Green Growth Opportunities*. Washington, DC.
3. Ministry of Finance. (2023). *Annual Budget Report 2023–2024*. Thimphu: RGoB.
4. Labour Force Survey Report. (2022). Ministry of Labour and Human Resources, Bhutan.
5. National Environment Commission. (2020). *Third National Communication to UNFCCC*. RGoB.
6. GCF. (2023). *Projects Approved in Bhutan*. Green Climate Fund. [<https://www.greenclimate.fund/countries/bhutan>].
7. BEFIT 2023. (2023). *Proceedings of the Bhutan Economic Forum for Innovative Transformation*. Thimphu: Royal Monetary Authority.
8. NCHM. (2021). *Glacial Lake Inventory and Risk Assessment Report*. National Center for Hydrology and Meteorology.
9. Kuensel Online. (2022). “Minister Yeshey Penjor on Carbon Markets.” July 17, 2022.
10. UN Climate Action Summit. (2019). Statement by H.E. Dr. Lotay Tshering. <https://www.un.org/en/climatechange>.
11. Inter-Parliamentary Union. (2023). “How Bhutan is Addressing Climate Change.” URL: <https://www.ipu.org/news/case-studies/2023-05/how-bhutan-addressing-climate-change>.
12. Climate Change Knowledge Portal. URL: <https://climateknowledgeportal.worldbank.org/country/bhutan/heat-risk>
13. UNDP. (2023). “A milestone in Bhutan's journey to adapt to climate change.” URL: <https://www.undp.org/blog/milestone-bhutans-journey-adapt-climate-change>.
14. National Center for Hydrology and Meteorology. Royal Government of Bhutan. URL: <https://www.nchm.gov.bt/home/pageMenu/781>.
15. Climate Change Laws of the World. (2024). “Bhutan Biennial Transparency Report.” URL: https://climate-laws.org/documents/bhutan-biennial-transparency-report-btr1_6563?q=Bhutan&id=bhutan-biennial-transparency-report-btr1_a21b.
16. The Climate Reality Project. (2023). “How Climate Change is Quietly Rewriting Bhutan's Future.” Srijana Giri. URL: <https://www.climateRealityProject.org/blog/how-climate-change-quietly-rewriting-bhutans-future>.

17. Climate Change Adaptation. “Reducing Climate Change-induced Risks from Glacial Lake Outburst Floods in Bhutan.” URL: <https://www.adaptation-undp.org/projects/ldcf-glof-bhutan>.

18. World Bank Groups. (2021). “Climate Risk Country Profile: Bhutan”. URL: https://climateknowledgeportal.worldbank.org/sites/default/files/2021-08/15874-WB_Bhutan%20Country%20Profile-WEB.pdf.

ZAMONAVIY DUNYODA EKOLOGIK XAVFSIZLIK MASALALARI

Azizov Tuxtamish A'zamovich

*“ISFT” institutining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori,
O'zDJTU mustaqil izlanuvchisi*

Zamonaviy dunyoda ekologik xavfsizlik masalasi tobora dolzarb tus olmoqda. Sanoatning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, aholi sonining ortishi, tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish va global iqlim o'zgarishlari ekologik muhitga sezilarli darajada salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Shu sababli, turli davlatlar ekologik inqirozlarni oldini olish va ularni bartaraf etish uchun maxsus strategiyalarni ishlab chiqish hamda ilg'or boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zaruriyatiga duch kelmoqdalar.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ekologik favqulodda vaziyatlarni boshqarish samaradorligi davlat siyosati, ilmiy-texnologik yondashuvlar va xalqaro hamkorlik darajasiga bog'liq.[1] AQSH, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlar ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun huquqiy tartibga solish, texnologik innovatsiyalar va moliyaviy resurslarni safarbar qilish bo'yicha muvaffaqiyatli tajribaga ega. Shu bois, xorijiy tajribani chuqur o'rganish va mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Favqulodda ekologik vaziyatlar, odatda, ekologik inqiroz bilan bog'liq bo'lib, ular ekologik muvozanatning buzilishi, tabiiy ofatlar yoki inson omili natijasida kelib chiqadi. Ushbu holatlar muayyan hududda ekologik barqarorlikni izdan chiqarishi va uzoq muddatli salbiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Shu bois, favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish va ularni oldini olish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish va bartaraf etish bo'yicha samarali siyosat yuritmoqda. Bu davlatlar ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida maxsus davlat dasturlari, xalqaro bitimlar, innovasion texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlardan foydalanishadi. AQSH, Evropa Ittifoqi (YI), Yaponiya va Janubiy Koreya ushbu yo'nalishda eng ilg'or tizimlarni ishlab

chiqqan davlatlar qatoriga kiradi. Quyida ushbu mamlakatlarning ekologik xavfsizlik va favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish bo'yicha tajribalari batafsil tahlil qilamiz.

AQShning ekologik inqirozlarni boshqarish tizimi: [2] AQSH dunyodagi eng yirik sanoatlashgan davlatlardan biri bo'lib, ekologik xavfsizlik va favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish bo'yicha ilg'or tajribaga ega. Bu mamlakatda ekologik inqirozlarni oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha bir nechta muhim mexanizmlar joriy qilingan: Huquqiy asos va davlat organlari: Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (Environmental Protection Agency, EPA) – AQShning asosiy ekologik boshqaruv organi bo'lib, suv, havo va tuproq ifloslanishini nazorat qiladi, ekologik qonunchilikni ishlab chiqadi va favqulodda ekologik vaziyatlarga javob beradi. Favqulodda vaziyatlar bo'yicha federal agentlik (FEMA) – tabiiy va antropogen ofatlarga qarshi kurash bo'yicha asosiy federal tuzilma. Superfund dasturi – kimyoviy va sanoat chiqindilari sababli yuzaga kelgan ekologik falokatlarni bartaraf etish bo'yicha maxsus hukumat dasturi.

Ekologik xavfsizlik strategiyalari: “Clean Air Act” va “Clean Water Act” – havo va suv sifatini himoya qilishga qaratilgan federal qonunlar. “National Environmental Policy Act (NEPA)” – davlat loyihalarini amalga oshirishda ekologik baholash jarayonini majburiy qiladi. “Climate Action Plan” – global isishga qarshi kurash bo'yicha ishlab chiqilgan strategik reja.

Innovasion texnologiyalar va monitoring tizimi: AQShda sun'iy yo'ldosh texnologiyalaridan foydalangan holda ekologik monitoring olib boriladi. Havo va suv sifatini kuzatish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar ishlatiladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish (quyosh va shamol energetikasi) keng joriy qilinmoqda.

AQSH tajribasi ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlatning faol ishtiroki, ilmiy innovatsiyalar va mustahkam huquqiy asos muhim ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonlik olimlar S.Bo'riev, D.Maxkamova va V. Sherimbetovning ta'kidlashicha, AQShda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA) muhim rol o'ynaydi. Ushbu agentlik havo va suv sifatini nazorat qilish, chiqindilarni boshqarish hamda ekologik qonunchilikni amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Evropa Ittifoqida ekologik xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish mexanizmlari:[3] Evropa Ittifoqi (EI) bugungi kunda dunyoda ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida eng ilg'or va rivojlangan siyosatni amalga oshirayotgan mintaqalardan biri hisoblanadi. EIga a'zo davlatlar favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarishda mustahkam huquqiy bazadan, rivojlangan ekologik monitoring tizimlaridan va zamonaviy, ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalardan

samarali foydalanish orqali kompleks yondashuvni qo‘llaydi. [4] Huquqiy asos va davlat organlari: Evropa Atrof-muhit agentligi (European Environment Agency, EEA) – ekologik monitoring va axborot almashinuvini ta‘minlovchi muassasa. Favqulodda vaziyatlar bo‘yicha YI mexanizmi (EU Civil Protection Mechanism) – ekologik inqiroz va tabiiy ofatlarga tezkor javob beruvchi tizim. Evropa Komissiyasining Atrof-muhit bo‘limi – ekologik qonunchilik va strategiyalarni ishlab chiqadi. O‘zbekistonlik olim S. Bo‘riev fikriga ko‘ra, Evropa Ittifoqi ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda qat‘iy qonunchilik va xalqaro hamkorlikka tayanadi. Evropa Atrof-muhit agentligi (EEA) ekologik monitoringni amalga oshirish va davlatlar o‘rtasida axborot almashinuvini tashkil etishda muhim institut sifatida [5] faoliyat yuritadi. Shuningdek, u “Yashil kelishuv” (Green Deal) strategiyasi doirasida Evropa iqtisodiyotini ekologik barqaror rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Ekologik xavfsizlik strategiyalari, “Green Deal” strategiyasi – Evropa iqtisodiyotini ekologik jihatdan barqaror qilish maqsadida qabul qilingan reja. “Zero Pollution Action Plan” – 2050 yilga qadar havo, suv va tuproq ifloslanishini minimal darajaga tushirish. “Emission Trading System” (ES) – karbonat angidrid chiqindilarini nazorat qilish uchun kvota tizimi.

Texnologiyalar va ekologik monitoring, IoT va sun‘iy intellekt asosida ishlaydigan ekologik monitoring tizimlari. Energetika sohasida yashil texnologiyalarning keng joriy etilishi. Ekologik transport va chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari. YI tajribasi ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda xalqaro hamkorlik, texnologiyalarni joriy etish va qat‘iy ekologik siyosat muhim ekanligini ko‘rsatmoqda. [6]

Yaponiya va Janubiy Koreyaning ekologik xavfsizlik strategiyalari, Yaponiya va Janubiy Koreya Osiyo mintaqasida ekologik xavfsizlik va favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish bo‘yicha etakchi davlatlardan hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda ekologik boshqaruv yuqori texnologiyalar, ekologik ta‘lim va qat‘iy qonunchilikka asoslangan. S. Bo‘rievning ta‘kidlashicha, Yaponiya va Janubiy Koreya ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda yuqori texnologiyalar va innovatsiyalarga katta e‘tibor qaratadi. Yaponiya "Asosiy atrof-muhit qonuni" (Basic Environment Law) orqali ekologik muhofazani tartibga soladi, Janubiy Koreya esa "Yashil o‘sish strategiyasi" (Green Growth Strategy) orqali ekologik barqarorlikka erishishga harakat qiladi.

Yaponiya tajribasi: Yaponiyada ekologik inqirozlarni boshqarish bo‘yicha maxsus dasturlar mavjud: “Basic Environment Law” – ekologik muhofazaga oid asosiy qonun. Tabiiy ofatlar vaqtida tezkor javob berish tizimi – zilzila va sunamilar natijasida yuzaga keladigan ekologik muammolarni boshqarish bo‘yicha ekologik toza sanoat texnologiyalarini

joriy etish sohasida Yaponiya etakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Jumladan, “Toyota” va “Honda” kabi yirik avtomobilsozlik kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan gibrid va elektr energiyasida harakatlanuvchi ekologik avtomobillar atrof-muhitga etkaziladigan zararni minimallashtirishga qaratilgan muhim innovasion echimlar sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash tizimlari keng joriy etilgan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi texnologik ilg‘orlik ekologiya va iqtisodiyot o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Janubiy Koreya tajribasi, “Green Growth Strategy” – Koreyaning ekologik barqaror iqtisodiyot strategiyasi. “National Emergency Management Agency (NEMA)” – favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish bo‘yicha agentlik. Texnologiyalar: Shamol va quyosh energiyasidan foydalanish. Havo sifatini nazorat qilish uchun IoT va sun’iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar. Yaponiya va Janubiy Koreyaning tajribasi ekologik xavfsizlikda ilg‘or texnologiyalarning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarishda turli mexanizmlarni qo‘llaydi. AQSH huquqiy tartibga solish va davlat institutlariga tayanadi, Evropa Ittifoqi ekologik barqarorlik va xalqaro hamkorlikni ustuvor deb biladi, Yaponiya va Janubiy Koreya esa innovasion texnologiyalarga e’tibor qaratadi.

Ushbu xalqaro tajribalarni o‘rganish O‘zbekiston uchun ekologik xavfsizlik strategiyasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi va o‘ziga xos model yaratishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati ro‘yxati:

1. Бринчук М.М. Экологическое право. Учебник для высших учебных заведений. ГАРАНТ, 2010 г.

2. U.S. Environmental Protection Agency (EPA)

3. European Environment Agency (EEA)

4. Карабалаева С.Б. Международная научно-практическая конференция на тему: «Современная юриспруденция: проблемы и решения» г.Бишкек, КГЮА, 21 май 2014.

5. Андросов М.В., Бажайкин А.Л., Бортник И.Ю. Бринчук М.М., Вершило Н.Д., Вершило Т.А., Дубовик О.Л., Зозуля В.В., Каленченко М.М., Калинин В.Т., Куделкин Н.С., Кузнецова О.Н., Мисник Г.А., Редникова Т.В., Семенихина В.А., Степаненко В.С., Чолтян Л.Н. Комментарий к Федеральному закону от 10 января 2002 г. N 7-ФЗ "Об охране окружающей среды" (под ред. д.ю.н., проф. О.Л. Дубовик). - ГАРАНТ, 2016.

6. Управление государственным и муниципальным имуществом (учебник) (Бакулина А.А., Красюкова Н.Л., Панина О.В., Прокофев С.Е.; под ред. С.Е. Прокофева). - "КНОРУС", 2022 г.

7. Japan Ministry of the Environment – Basic Environment Law (1993)

O‘ZBEKISTON EKOLOGIK SIYOSATI: BARQAROR RIVOJLANISH SARI YO‘L

Qosimova Shoira Xalilovna,

Surxondaryo viloyati Denov tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat Salomatligi texnikumi Umumkasbiy fanlar kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda butun dunyoda “Katta tezlashuv” atamasini olgan sayyoraviy o‘zgarishlar va ularning oqibatlari hamda natijalari haqida ochib berishga harakat qilingan. Ekologik savodxonlik, ekologik madaniyat va ularning qonunlar hamda normalar bilan belgilanganlik holatlari yoritilgan. Shuningdek, ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizini oilada, maktabda, keyingi ta’lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish masalalari ochib berilgan. Shu o‘rinda bu borada xorij tajribasiga e’tibor qaratilgan. Hozirgi kunda nafaqat bizning o‘lka, balki butun yer sayyorasi uchun bugun ekologik bilim va madaniyatga ega bo‘lish zarurati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, “katta tezlashuv”, “yashil makon”, biologik xilma-xillik, noto‘g‘ri ekspluatatsiya, tabiat, ekologik oqibatlar, ekologik ekspertiza.

Bugungi kunda ekologik muammolar dunyo miqyosidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning noto‘g‘ri ekspluatatsiya qilinishi hamda biologik xilma-xillikning kamayishi nafaqat tabiat, balki inson salomatligi va iqtisodiy barqarorlikka ham xavf solmoqda. Shu sababli ekologik siyosat davlatlar va xalqaro tashkilotlar faoliyatida alohida o‘rin egallaydi.

Xo‘sh, ekologik siyosat nima? O‘zbekistonda ekologik siyosat qanday amalga oshirilmoqda? So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ekologik sohada katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat rahbarining tashabbusi bilan ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash va inson faoliyatining tabiatga salbiy ta’sirini oldini olish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish bilan bir qatorda juda ko‘plab siyosiy-ijtimoiy va madaniy ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Xususan, 2019 yilda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tashkil etilishi ham atrof muhitning qulay ekologik holatini,

ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar va ob'ektlarning muhofaza qilinishini ta'minlash uchun yetarlicha ko'rsatkich vazifasini o'tashi mumkin.

Shuningdek, "Yashil makon" umummilliy loyihasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021 yil 2 va 9 noyabr kunlari kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselekt yig'ilish yuzasidan 47-sonli bayoni asosida Respublikamizda har yili 200 mln tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish tashabbusi belgilangan [2]. Bu shahar ekologiyasini yaxshilash, havo ifloslanishini kamaytirish va biohafsalikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Ekologik siyosat nafaqat tabiatni, balki inson hayotining sifatini saqlashga xizmat qiladi. Uning samaradorligi faqat davlat organlarining emas, balki har bir fuqaroning faol ishtirokida namoyon bo'ladi.

Xususan, bir paytlar dunyoda to'rtinchi katta dengiz hisoblangan Orol bugungi kunda asosan qurib ketgan. Uning o'rnida yaylov va tuzlar bilan qoplangan "Orol qipiroqlari" hosil bo'ldi. Bu hududdan ko'tarilayotgan tuzli shamollar nafaqat mahalliy aholi, balki Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham jiddiy ekologik tahdid solmoqda. Orol dengizi qurishi — O'zbekistonning eng katta ekologik muammosi hisoblanadi. 1960-yillarda dengizdan yiliga 50 kubometrqa yaqin suv olingani sababli Orol dengizi o'lkalar orasida atigi 10 foizga kamayib, hozirda asosan tuproq va tuz bilan qoplangan. O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, Orol dengizi qurib ketganidan keyin, u yerlarda 15 millionga yaqin odamning hayotiga salbiy ta'sir etmoqda, shuningdek, biologik xilma-xillik ham yo'qolmoqda. YuNDP, UNEP va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qurib qolgan Orol dengizi tubini yashillantirish, tuzli yerlarni melioratsiya qilish, aholi uchun ekologik xavfsiz hayot sharoitini yaratish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmogda [3]. 2018 yilda boshlangan "**Orolbo'yi ekologik tiklanish**" dasturi orqali yillar davomida yo'qolgan ekologik balanslikni tiklash maqsad qilingan [4].

Ayniqsa, yirik shaharlarda — Toshkent, Navoiy, Olmaliq kabi sanoat markazlarida havo ifloslanishi darajasi yuqori. Motor transporti, sanoat chiqindilari va markazlashmagan isitish qurilmalari bunda asosiy omillardan hisoblanadi.

Ekologik siyosatning samarasi faqat davlat chora-tadbirlari bilan cheklanmasligi kerak. Aholi o'rtasida ekologik ongni oshirish, maktab va universitetlarda ekologik ta'limni kuchaytirish, NNT va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish orqali keng qamrovli ta'sirga erishish mumkin. So'nggi yillarda quyosh va shamol elektrostansiyalari qurish bo'yicha Saudiya Arabistoni, Xitoy va BAA kabi davlatlar bilan hamkorlik kengaymoqda. Bu nafaqat energiya ta'minotini yaxshilash, balki ekologik yukni kamaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston ekologik siyosatni jadal rivojlantirmogda. Bu yo'nalishdagi muvaffaqiyatlar katta, lekin hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham talaygina. Tabiat – inson hayotining asosi. Uni ehtiyot qilish nafaqat

davlatning, balki har bir fuqaroning ham mas'uliyatidir. Barqaror ekologik siyosat — barqaror kelajak sari yo'ldir.

O'zbekistonning ekologik siyosatidagi asosiy maqsadlar — tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelgusi avlodlar uchun sog'lom va xavfsiz muhitni saqlash. Davlat ekologik siyosatida muammolarning barcha yo'nalishlariga e'tibor qaratilayotgani, shuningdek, xalqaro hamkorlik va inovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'li bilan ekologik muammolarga yechim topishga intilish mobaynida maqsadga muvofiq qonunlar qabul qilinmoqda.

O'zbekistondagi sanoat markazlari va transport tizimlari atmosferadagi zararli gazlar va moddalarning ko'payishida asosiy rol o'ynaydi. Ayniqsa, Toshkent, Navoiy va Olmaliq kabi yirik shaharlarda havo ifloslanish darajasi yuqori. Buning oqibatida, aholining sog'lig'iga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish holatlari tez-tez namoyon qilmoqda.

O'zbekistonda ekologik siyosatning barqarorligi faqat qonunlarning mukammalligiga emas, balki ularni amalga oshirishga, davlat organlarining mas'uliyatiga, shuningdek, aholi va fuqarolik jamiyatining ekologik ongiga ham bog'liqdir. Xalqaro hamkorlik, yangi texnologiyalar va qonunchilik islohotlari orqali bu muammolarga yechim topish mumkin. Har bir qonun va dastur muammolarni hal etishga qaratilgan, lekin ularning samarasi faqat jamiyatning jalb qilinishi va mas'uliyatli munosabat bilan amalga oshirilishiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni (1992 yil) (<https://lex.uz/uz/docs/38050>)
2. Yashil Makon <https://yashilmakon.eco/#/>
3. YuNDP, UNEP va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikdagi Orol dengizi tubini tiklash dasturi . (<https://www.undp.org/>)
4. "Orolbo'yi ekologik tiklanish" dasturi (2018 yil) O'zbekiston Respublikasi. (<https://www.senat.uz/uz>)

ВОДНЫЕ РЕСУРСЫ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ЛОКАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ К ГЛОБАЛЬНЫМ РЕШЕНИЯМ

Тураева Сурия Телмановна

Доцент кафедры «Международная экономика», УМЭД

(+998 90 327 08 63, E-mail: sturayeva@uwed.uz)

Уктамова Малика Шухратовна

Магистрант Университета мировой экономики и дипломатии (УМЭД)

(+998881886595, E-mail: malikauktamova76@gmail.com)

Аннотация. Статья затрагивает ключевые проблемы водопользования в Узбекистане и рассматривает их в контексте международного опыта и подходов к управлению водными ресурсами. Особое внимание уделяется рациональному использованию воды, модернизации ирригационных систем и роли экологической дипломатии. Целью исследования является оценка эффективности реализуемых государственных мер, а также поиск устойчивых решений в условиях климатических изменений и растущей водной нагрузки.

Ключевые слова: Рациональное использование воды, Узбекистан, водосбережение, капельное орошение, цифровизация, трансграничные водные потоки, климатические изменения, устойчивое развитие.

Введение. Проблема воды в XXI веке перестала быть исключительно природной или хозяйственной. Это уже вопрос выживания и устойчивого развития. Быстрое сокращение доступных пресных вод, усиливающееся под воздействием климата и человеческой деятельности, особенно остро проявляется в странах Центральной Азии, включая Узбекистан.

С 1960 года мировое потребление воды увеличилось почти в восемь раз. Это тревожный показатель, который подталкивает государства к пересмотру своих подходов к водопользованию. В условиях, когда 80% воды в Узбекистан поступает из-за границы, внутренняя устойчивость водного сектора приобретает первостепенное значение.

Вода — это уже не просто природный ресурс. Она стала элементом национальной безопасности. Более 70% мировой орошаемой земли используется для нужд сельского хозяйства, и Узбекистан не исключение. Без стабильного водоснабжения невозможно обеспечить урожай, а значит — и продовольственную безопасность. Рациональное использование воды — вопрос не только экологии, но и экономики.

Узбекистан сильно зависит от трансграничных водных потоков. Внутренние источники обеспечивают всего 20% от общего потребления. На территории страны эксплуатируется 4,3 млн гектаров орошаемой земли, обслуживаемой более чем 180 тыс. км каналов, десятками водохранилищ и сотнями гидросооружений. Однако значительная часть этой инфраструктуры была создана ещё в советское время и серьёзно устарела.

Системы теряют воду из-за испарения, инфильтрации и технических утечек. Особенно это заметно при использовании поверхностного полива, который остаётся доминирующим методом в аграрном секторе.

Среди основных проблем можно выделить:

- высокий процент потерь воды из-за изношенности систем;
- традиционные, неэффективные методы полива;
- деградация мелиоративного состояния земель;

- зависимость от внешнего водоснабжения.

На фоне этих проблем актуализируется необходимость не просто латать старое, а полностью пересматривать подход к водопользованию — от инфраструктуры до менталитета фермеров.

Государственная политика нацелена на переход к водосберегающим технологиям. Капельное, дождевое, пленочное и дискретное орошение за последние три года внедрено на площади более 1 млн гектаров, что почти в 9 раз превышает показатели начала реформ. Лазерное выравнивание почвы также активно используется для повышения водоэффективности.

Цель — охватит до 2 млн гектаров водосберегающими технологиями к 2030 году. Это составит до 75% всех орошаемых земель в стране.

С 2019 года действуют субсидии и льготное кредитование на закупку и внедрение водосберегающего оборудования. Только в 2024 году на эти цели выделено 208 млрд сумов, благодаря чему орошение улучшено на 22 тыс. гектаров — в основном хлопковых полей.

С 2022 года более 5 тыс. насосных станций оцифрованы. Это позволило контролировать водоснабжение на 2,5 млн гектаров и сократить потери воды на 3 млрд кубометров. Также улучшено водоснабжение на дополнительных 400 тыс. гектаров. Потери снизились до 10%, что является заметным прогрессом.

Планы на 2025 год включают бетонирование оросительных каналов и установку солнечных панелей на насосных станциях. Такие меры призваны сократить расход электроэнергии до 20%.

Узбекистан активно участвует в глобальных водных инициативах и обращается к международному опыту. Согласно статистике, до 70% всей пресной воды в мире потребляется сельским хозяйством. Однако до 60% этой воды теряется. Это показывает, насколько важен переход на устойчивые и технологичные методы полива. Международное сотрудничество и обмен знаниями становятся критически важными факторами.

Для устойчивого будущего водного сектора Узбекистану необходим комплекс мер, в том числе:

- капитальная реконструкция ирригационных сетей;
- расширение охвата водосберегающими технологиями;
- вовлечение частного сектора и международных инвесторов;
- развитие экологического образования среди населения.

Без изменения подходов к управлению вода, риски экономических и социальных потерь будут только расти.

Дефицит пресной воды — это не локальная проблема, а глобальный вызов. Для Узбекистана она обостряется за счёт природной и геополитической специфики. Однако последовательные шаги в сфере

цифровизации, модернизации и поддержки фермеров уже дают положительные результаты. Дальнейшее развитие возможно только при активном государственном участии, поддержке гражданского общества и международной кооперации.

Список использованных источников:

1. Мухамедова, Ш. (2022). Проблемы управления водными ресурсами в Узбекистане в условиях глобальных изменений. Журнал Экологической Дипломатии, 12(3), 45-59.
2. Юсупова, З. (2021). Водные ресурсы Центральной Азии: вызовы и пути решения. Азиатский Экономический Обзор, 5(2), 34-49.
3. Стратегия действий по развитию Республики Узбекистан на 2017-2021 годы. (2017). Программа Правительства Узбекистана.
4. Министерство водного хозяйства Республики Узбекистан. (2023). Программа модернизации водных технологий и систем орошения в Узбекистане. Отчёт о состоянии водных ресурсов.
5. FAO. (2020). Water for Sustainable Agriculture. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
6. World Bank. (2021). Managing Water Resources for Sustainable Development in Central Asia. World Bank Report.
7. Международный водный форум. (2022). Современные методы водосбережения и их внедрение в сельском хозяйстве. Доклады конференции.
8. Хамидов, Н. (2020). Влияние климатических изменений на водные ресурсы Узбекистана. Управление водными ресурсами в условиях глобальных вызовов. 58-72.
9. UNDP. (2021). Climate Change and Water Security in Central Asia. United Nations Development Programme Report.
10. Сидорова, В. (2021). Инновации в сельском хозяйстве: технологические решения для повышения водоэффективности. Агроинновации и устойчивое развитие, 13(4), 112-125.

IQLIM O‘ZGARISHI OQIBATLARINI KAMAYTIRISH VA “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHNI TEZLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Jo‘rayeva Shahina Narzullayevna

*O‘zDJTU, Xalqaro jurnalistika fakulteti Siyosiy fanlar kafedrasida
o‘qituvchisi*

(+99891 0098689, shahrus8689@gmail.com)

Annotatsiya: Iqlim o'zgarishi bugungi kunda global darajadagi eng jiddiy tahdidlar qatoridan joy olgan bo'lib, uning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlari tobora chuqurlashib bormoqda. Bu muammo, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan O'zbekiston kabi tabiiy resurslarga tayanadigan va iqlimga sezgir mamlakatlar uchun dolzarb sanaladi. Shu sababli iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim. Ushbu maqolada, iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirishni qo'llab-quvvatlashning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Iqlim o'zgarishi, "yashil" iqtisodiyot, ekologik muammolar, iqtisodiy barqarorlik, muammo, innovatsion yechimlar.

Iqlim o'zgarishi[1] — bu Yer atmosferasidagi uzoq muddatli harorat, yog'ingarchilik va boshqa iqlim sharoitlarining o'zgarishidir. U asosan inson faoliyati, ayniqsa, sanoat va transportdan chiqadigan issiqxona gazlari tufayli yuzaga keladi. Iqlim o'zgarishi tufayli qurg'oqchilik, suv tanqisligi, kuchli bo'ronlar va muzliklarning erishi kabi hodisalar ko'paymoqda. Bu holat nafaqat atrof-muhitga, balki inson salomatligi va iqtisodiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Iqlim o'zgarishining oldini olish uchun global miqyosda barqarorlik va ekologik siyosatga rioya qilish zarur.

Yashil iqtisodiyot[2] — bu ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan va tabiiy resurslardan oqilona foydalanuvchi iqtisodiyot turidir. U atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Yashil iqtisodiyotda qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, suv), chiqindilarni qayta ishlash, energiya samaradorligi va ekologik toza texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Bu model ish o'rinlarini yaratish, resurslar tanqisligini kamaytirish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Iqlim o'zgarishi va yashil iqtisodiyot o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan ikki muhim tushunchadir. Iqlim o'zgarishi asosan inson faoliyati natijasida, xususan, yoqilg'i mahsulotlarini haddan tashqari ko'p yoqish, sanoat chiqindilari va o'rmonlarning qisqarishi natijasida yer atmosferasida issiqxona gazlari miqdorining ortishi bilan bog'liq. Bu esa global haroratning oshishi, qurg'oqchilik, suv tanqisligi, ekstremal ob-havo hodisalari kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Yashil iqtisodiyot esa aynan mana shu salbiy oqibatlarni kamaytirish va oldini olish uchun ishlab chiqilgan iqtisodiy modeldir. Bu modelda ekologik zarar keltirmaydigan texnologiyalarni qo'llash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish asosiy yo'nalish hisoblanadi. Shunday qilib, yashil iqtisodiyot iqlim o'zgarishiga qarshi kurashning eng


samarali vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. U resurslardan oqilona foydalanish orqali atmosferaga chiqadigan zararli gazlar miqdorini kamaytiradi va barqaror rivojlanishni ta‘minlaydi. Shu bois, yashil iqtisodiyotga o‘tish iqlim o‘zgarishining oldini olish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

2024-yil 4-aprelda Samarqandda Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo sammiti bo‘lib o‘tdi. Sammit doirasida iqlim o‘zgarishi, barqaror rivojlanish va yashil energetika masalalari muhokama qilindi. Bu yig‘ilishda Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha aniq reja va tashabbuslarni ilgari surdilar. Ayniqsa, O‘zbekiston uchun bu sammit mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va ekologik muammolarga qarshi kurashishdagi sa‘y-harakatlarini xalqaro darajada namoyish etish imkonini berdi[3]. “O‘zbekiston degradatsiyaga uchragan yer maydonlarini qisqartirish va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish maqsadida “Yashil makon” loyihasi doirasida keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish ishlarini olib bormoqda. Bundan tashqari, Orolbo‘yining 2 million gektardan ortiq cho‘l hududlarida qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar ekildi,” – deb ta‘kidlab o‘tdi O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur sammitda so‘zlagan nutqida.

Shuningdek, 2025-yil 5-aprel kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi doirasida iqlim o‘zgarishi muammolariga bag‘ishlangan muhim yig‘ilishlar tashkil etildi. Xususan, “Iqlim inqirozini hal qilishning muhim yo‘li” mavzusida metan chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha muhokamalar o‘tkazildi. Ushbu yig‘ilishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini kamaytirish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish masalalari bo‘yicha komissiyasi a‘zolari faol ishtirok etib, metan chiqindilarini kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish yo‘nalishlarida o‘z takliflarini bildirganlar. Bu muloqotlar global iqlim inqiroziga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va O‘zbekistonning ekologik siyosatini yanada takomillashtirishga xizmat qildi[4]. “Davrimizning o‘tkir muammosiga aylangan, sayyoramiz taraqqiyotiga jiddiy to‘siq bo‘layotgan iqlim o‘zgarishlari doimo diqqatimiz markazida bo‘lishi kerak. Chunki uning ayanchli oqibatlari, eng avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlarga kuchli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Parij bitimi doirasida va uglerod neytralligiga erishish borasida o‘z zimmamizga olgan majburiyatlarni to‘liq bajarish har qachongidan ham muhimdir,”[5] - deb ta‘kidlab o‘tdi O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasidagi nutqida.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati 2030 yilga borib aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YAIM)ni hozirgi 1700 AQSh dollaridan 4200 AQSh dollarigacha oshirish vazifasini qo‘ydi. Xalqaro rivojlanish bo‘yicha

hamkorlar O'zbekistonga kam uglerodli rivojlanish loyihalarini tadbiq qilish, iqlimga chidamlilikni oshirish va tabiiy ofatlar xavfini kamaytirishda yordam bermoqdalar[6].



YAIM o'sishida tarmoqlarning hissasi dinamikasi 2020-2024 yillar, jamiga nisbatan % da

2024- yilning yanvar-sentabrida YAIM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p., sanoat tarmog'i – 1,6 f.p., qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. va xizmat ko'rsatish tarmog'i – 3,3 f.p. ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAIM 0,3 f.p. ga ko'paydi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining 95,4 % ini tashkil etdi va 6,6 % ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri 6,3 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 6,6 % ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri – 0,3 f.p.).

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. YAIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 46,5 % dan 47,2 % ga, sanoatning ulushi 24,7 % dan 26,2 % ga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 21,2 % dan 19,4 % ga hamda qurilish tarmog'ining ulushi 7,6 % dan 7,2 % ga kamaydi[7].

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda issiqxona gazlari chiqindilarining eng katta qismi energiya resurslari, ya'ni, yoqilg'i, elektr ishlab chiqarish sohalari ulushiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, maishiy chiqindilar, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq holatlar ham mavjud. Umuman olganda, O'zbekistonda issiqxona gazlari chiqindilari yillar davomida biroz kamaygan, biroq energiya sektori hali ham asosiy ifloslantiruvchi soha bo'lib qolmoqda. Bu esa ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun energiya tizimini isloh qilish zarurligini anglatadi[8].

Birinchi, iqlim o'zgarishi natijasida kuzatilayotgan haroratning ko'tarilishi, suv resurslarining kamayishi, qurg'oqchilik va boshqa favqulodda ekologik holatlar O'zbekiston qishloq xo'jaligi, energetika, sog'liqni saqlash va infratuzilma kabi strategik sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aynan shu kontekstda "yashil" iqtisodiyotga o'tish ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va milliy iqtisodiyotni uzoq muddatli istiqbolda mustahkamlashning asosiy vositasiga aylanadi.

Ikkinchi, "yashil" iqtisodiyot investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va texnologik modernizatsiyani rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Bu jarayon, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Quyosh, shamol va bioenergiya loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalar energetik mustaqillikni ta'minlash bilan birga, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv nafaqat ekologik jihatdan foydali, balki iqtisodiy jihatdan ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uchinchi, xalqaro moliya institutlari va donorlar tomonidan "yashil" loyihalarga ko'rsatilayotgan moliyaviy yordam va grantlar O'zbekiston uchun muhim imkoniyatdir. Mamlakatda "yashil" obligatsiyalar orqali infratuzilma va energetika sohasidagi barqaror loyihalarni moliyalashtirish tajribasi allaqachon boshlangan. Bu esa, o'z navbatida, xalqaro moliya bozorlarida O'zbekistonning obro'sini oshirishga va xorijiy investorlarga nisbatan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish O'zbekistonning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi muhim strategik yo'nalishdir. Bu jarayonda hukumat, xususiy sektor, fuqarolik jamiyati va xalqaro hamkorlarning uzviy aloqaligi muhim ahamiyat kasb etadi. Iqlimga moslashuv va barqaror rivojlanishga erishish uchun huquqiy va institutsional bazani mustahkamlash lozim. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish faqat texnik yoki moliyaviy islohotlar bilan emas, balki siyosiy iroda, davlat boshqaruvi sifatining oshishi va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Bu borada ta'lim, ilm-fan va ommaviy axborot vositalari orqali aholi ongini oshirish, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. NASA rasmiy veb-sayti: What is climate change?
<https://science.nasa.gov/climate-change/>
2. UNEP rasmiy veb-sayti: What is green Economy?
<https://www.unep.org/regions/asia-and-pacific/regional-initiatives/-economy>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi rasmiy veb-sayti: Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi o'y ishini boshladi,
<https://parliament.gov.uz/news/parlamentlararo-ittifoqning-150-yubiley-assambleyasi-oz-ishini-boshladi>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi,
<https://president.uz/uz/lists/view/8034>
5. Centre of Hydrometeorological Services of Uzbekistan (Uzhydromet) (2021[5]), First Biennial Update Report to the United Framework Convention on Climate Change,
<https://unfccc.int/documents/283216>.
6. "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. Jahon banki: Washington D.C."
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti
<https://stat.uz/uz/>
8. Yevropa Ittifoqi rasmiy sayti: Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo sammiti, Samarqand, O'zbekiston, 4 aprel 2025-y.
https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/yevropa-ittifoqi-%E2%80%93-markaziy-osiyo-sammiti-samarqand-ozbekiston-4-aprel-2025-y_uz

O'ZBEKISTONNING EKOLOGIK SIYOSATI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR, TAJRIBALAR VA XULOSALAR

Maxmanazarova Malika Anvarovna

O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti

Siyosiy fanlar kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

e-mail: osiyoazizovna@gmail.com

tel: +99 888 840 28 08

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ekologik siyosat orqali milliy tajribadan global yechimgacha bo'lgan ayni paytgacha ekologiya sohasidagi o'zgarishlar va islohotlar natijalari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. O'zbekiston ekologik siyosat sohasida milliy tajribalarni shakllantirish va

ularni global yechimlarga integratsiya qilish yo'lida izchil harakat qilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ekologik tashabbuslar nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda.

Kalit so'zlar: zamonaviy ekologik siyosat, global, ekologik qonunchilik, barqaror rivojlanish, atrof-muhit muhofazasi, xalqaro hamkorlik, yashil maydon, yashil iqtisodiyot, integratsiya, yangi texnologiyalar, dekarbonizatsiya.

KIRISH. O'zbekistonda 2025-yil "Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil Iqtisodiyot yili" deb belgilandi. [1] Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu tashabbusni quyidagicha izohladi: "bir yilni shu ishga bag'ishlasak, qonunlarimizni yanada takomillashtiramiz va sa'y-harakatlarimizni tartibga solamiz. O'zbekiston shamol, quyosh va gidroelektr energetikasida bunday yutuqlarga erishishiga hech kim ishonmagan. Yashil Iqtisodiyot yilida biz eng yaxshi amaliyotlarni o'rganamiz. Agar biz har bir qaror, qonun va farmonni barqarorlikka yo'naltirsak, bu foydali bo'lishiga ishonaman."

O'zbekiston ekologik siyosat sohasida milliy tajribalarni shakllantirish va ularni global yechimlarga integratsiya qilish yo'lida izchil harakat qilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ekologik tashabbuslar nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida milliy qonunchilikni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tashkil etilib, ekologik holatni yaxshilash, chiqindilarni boshqarish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha muhim vazifalar belgilandi. [2] O'zbekiston Ekologik Partiyasi barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va atrof-muhitni asrash bo'yicha dasturlar ishlab chiqish va ilgari surish orqali muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston BMTning biologik xilma-xillik bo'yicha Kunming-Monreal global dasturini qo'llab-quvvatlab, 2050-yilga kelib tabiat bilan uyg'unlikda yashaydigan dunyo konsepsiyasini amalga oshirishga hissa qo'shmoqda.

Davlatimiz rahbari Birlashgan Arab Amirliklari poytaxtida bo'lib o'tgan "Abu-Dabi barqarorlik haftaligi" sammitida nutq so'zladi. U, xususan, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, barqaror o'sishni kafolatlash va global xavfsizlikni mustahkamlash uchun energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va uglevodorodlardan foydalanishni sezilarli darajada kamaytirish zarurligini ta'kidladi. Ekologik barqarorlikni ta'minlash va resurslar samaradorligini birinchi o'ringa qo'yadigan "yashil" rivojlanish modeliga o'tish O'zbekistonning yangi asosiy maqsadlaridir. Quyosh, shamol, gidro va biogaz kabi qayta tiklanadigan manbalardan olinadigan energiyadan foydalanishni ko'paytirish, shu bilan birga iqlim o'zgarishiga hissa qo'shadigan va global isishni tezlashtiradigan xavfli gazlar, ayniqsa uglevodorodlar chiqindilarini kamaytirish bu yo'nalishdagi asosiy

tashabbuslardir. U qo'shimcha ravishda nafaqat ichki, balki mintaqaviy va hatto xalqaro muammolarni hal qilib, tez orada amalga oshirilishi kerak bo'lgan strategik maqsadlarni belgilab berdi. [3] Prezident Mirziyoyevning Abu-Dabi sammitidagi nutqi O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishdagi qat'iyatini, xalqaro hamkorlikka ochiqqligini va ekologik barqarorlikka bo'lgan e'tiborini yana bir bor namoyish etdi. Bu tashabbuslar mamlakatning global iqlim siyosatidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Atrof-muhit va ekologiyaning ifloslanishiga yana bir asosiy omil sifatida turli xildagi chiqindilar va ularni yetarlicha qayta ishlanmasligi hisoblanadi. Yashil iqtisodiyotga o'tishda va ekologik muammolarning ta'sirini kamaytirishdan chiqindilarni saralash, ularni qayta ishlash ham o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat chiqindilarini qayta ishlash bo'yicha ayniqsa jahon tajribasini o'rganish va amaliyotga qo'llash muhim. Yangi texnologiyalar ham chiqindilarni saralash va qayta ishlash jarayonini tezlashtiradi. Dunyodagi eng yaxshi qayta ishlash tizimiga ega davlatlar qatoriga Germaniya, Avstriya, Janubiy Koreya va Uels kiradi. Germaniya dunyoda eng yuqori qayta ishlash darajasiga ega bo'lib, chiqindilarining 66,1 foizini qayta ishlashga yo'naltiradi. Avstriya ham chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha yetakchi davlatlardan biri bo'lib, 54 foizlik qayta ishlash darajasiga erishgan. Germaniya eng samarali qayta ishlash tizimiga ega, chunki u qat'iy hukumat siyosati va samarali chiqindi boshqaruv dasturlariga ega. "Yashil nuqta" tizimi ishlab chiqaruvchilarni o'z mahsulot qadoqlarini qayta ishlash uchun javobgar bo'lishga majbur qiladi. Aholi chiqindilarni ajratish bo'yicha yaxshi xabardor qilingan bo'lib, turli materiallar uchun oltita alohida konteynerdan foydalanadi. Depozit qaytarish tizimi esa idishlarni qaytarishga rag'batlantirib, 98,4% darajadagi qaytarilish ko'rsatkichiga erishishga yordam bergan. [4]. Dunyoda chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha yuqori natijalarga erishgan davlatlar o'zlarining samarali siyosatlari, ilg'or texnologiyalari va fuqarolarni ongli ravishda jalb qilish orqali muvaffaqiyatga erishgan. Bugungi kunda O'zbekistonda ham chiqindilarni qayta ishlash sohasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, Samarqandda chiqindilarni qayta ishlash zavodi ishga tushirilgan. Bundan tashqari, Toshkentning Yakkasaroy tumanida chiqindilarni ajratib yig'ish bo'yicha tajriba loyihalari amalga oshirilmoqda. Biroq, umumiy qayta ishlash darajasi hali yuqori emas. O'zbekiston ham yuqorida qayd etilgan davlatlarning tajribalarini o'rganib, chiqindilarni qayta ishlashni yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022 yildagi PQ-436-son bilan tasdiqlangan "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora tadbirlari to'g'risidagi" qarorida ham O'zbekistonning 2030-yilgacha amalga oshirilishi rejalashtirilgan asosiy strategik yo'li belgilangan. Ushbu qonunda asosiy vazifalardan biri bu 2030-yilgacha "yashil iqtisodiyotga

o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi bo'lib, bunda ushbu dastur orqali O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan va "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlaydigan loyihalarni moliyalashtirish ham nazarda tutilgan. Xususan, 2022–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i va energiya resurslarini tejash bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar tasdiqlangan [5].

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash dasturi mamlakatning barqaror rivojlanish yo'lida muhim qadam hisoblanadi. Ushbu dastur doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni maqsad qilgan.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi quyidagi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Energiya samaradorligini oshirish: Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini ikki baravar oshirish va yalpi ichki mahsulot (YIM) birligiga nisbatan issiqxona gazlarining chiqarilishini 2010-yildagi darajadan 10 foizga qisqartirish.

2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish: Elektr energiyasini ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 25 foizga yetkazish.

3. Iqlim o'zgarishiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish: Suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish va yerlarning tanazzulga uchrashi bo'yicha neytral balansga erishish.

4. "Yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish: Davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo'nalishlariga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan "yashil" mezonlarni kiritish.

2024-yilda O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimi joriy etilishi belgilandi. Bu tizim issiqxona gazlarining chiqarilishini monitoring qilish, hisobot berish va tekshirish (MRV) tizimini, shuningdek, iqlim monitoringi tizimini joriy etishni nazarda tutadi. Onlayn platforma orqali issiqxona gazlari ajratmalarini xatlovdan o'tkazish va ularni kamaytirish faoliyatini muvofiqlashtirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida kadrlar tayyorlash dasturi ham muhim ahamiyatga ega masalalardan hisoblanadi. O'zbekiston Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) bilan hamkorlikda iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash va yashil rivojlanish modeliga o'tish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqmoqda. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari va rivojlanish bo'yicha hamkor tashkilotlar bilan aloqalarni faollashtirish orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari bo'yicha tajriba-sinov loyihalari amalga oshirilmogda.

Global yechimlarga yo'naltirilgan g'oyalar orqali mamlakatimiz ekologiyasini yanada yaxshilash va tizimdagi mavjud muammolarga yechim topish mumkin. Xususan, bular jumlasiga, maktab va oliy ta'lim muassasalarida ekologik savodxonlikni oshirish orqali aholining ekologik muammolarga bo'lgan munosabatini o'zgartirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini singdirish zarur. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqarish va kundalik hayotda qo'llash orqali atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish mumkin.

O'z navbatida, xalqaro tajriba almashinish ham muhim jarayondir. Bunda, ekologik muammolarni hal etishda boshqa davlatlar bilan tajriba almashish, xalqaro loyihalarda ishtirok etish va global ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali samarali yechimlarni topishga erishiladi. Nodavlat tashkilotlar, mahalliy hamjamiyatlar va fuqarolarning ekologik loyihalarda faol ishtirokini ta'minlash orqali jamiyatning ekologik muammolarga bo'lgan mas'uliyatini oshirish kerak. Ayniqsa, ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan startaplar va innovatsion loyihalarni moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali yangi texnologiyalarni rivojlantiriladi. O'zbekistonning milliy tajribalari va yuqoridagi g'oyalarni amalga oshirish orqali global ekologik muammolarga yechim topishda faol ishtirok etishi mumkin. Bu esa mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish bilan birga, ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning zamonaviy ekologik siyosati milliy tajribalarni asos qilib, ularni global yechimlar bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan. Ekologik qonunchilikning mustahkamlanishi, ekologik partiyalarning faol ishtiroki va xalqaro hamkorlik orqali mamlakat atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish yo'lida muhim qadamlar qo'ymoqda. Bu yondashuv O'zbekistonni nafaqat mintaqaviy, balki global ekologik tashabbuslarda faol ishtirokchi sifatida tanitmoqda. Shu asosda, mamlakat ichida samarali tajribalarni kengaytirish va ularni boshqa davlatlar bilan bo'lishish orqali global darajadagi ekologik muammolarga barqaror yechimlar taklif etilishi mumkin.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash dasturi mamlakatning barqaror rivojlanish yo'lida muhim ahamiyatga ega. Ushbu dastur doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni maqsad qilgan. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida xalqaro hamkorlik, kadrlar tayyorlash va monitoring tizimlarini joriy etish kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gazeta.uz sayti: 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi”, <https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/20/yil/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Matbuot xizmati: "Prezident ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi." 02.02.2018, <https://www.president.uz/uz/1472>
3. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi rasmiy websayti: “Yashil” taraqqiyot yo'lida butun dunyoga ochiqlik siyosati, 16.01.2025. <https://parliament.gov.uz/oz/news/yashil-taraqqiyot-yolida-butun-dunyoga-ochiqlik-siyosati>
4. Plastic Expert: Which country has the best recycling system. <https://www.plasticexpert.co.uk/which-country-has-the-best-recycling-system/>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022 yildagi PQ-436-son bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6303230>

ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА И ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ ИНТЕГРАЦИИ В ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ПОЛИТИКУ УЗБЕКИСТАН

Ахмедова Шахризода Анваровна

Преподаватель-стажёр кафедры Политических наук факультета

Международной журналистики УзГУМЯ

(+998954411791, shaxrizodaa@inbox.ru)

Аннотация: в условиях глобальных экологических вызовов переход к зелёной экономике становится стратегическим направлением устойчивого развития. В статье представлен политологический анализ зелёной экономики как вектора трансформации экономических и политических систем, с акцентом на опыт Узбекистана и международные модели (ЕС, КНР, Южная Корея). Рассматриваются ключевые теоретические подходы (экологическая модернизация, устойчивое развитие, экологическая справедливость), взаимосвязь зелёной экономики и экологической безопасности, а также институциональные барьеры в Узбекистане. На основе сравнительного анализа предложены направления политико-институционального укрепления зелёного курса: развитие зелёного финансирования, расширение международного сотрудничества, усиление гражданского участия и формирование политического лидерства. Подчёркивается

необходимость междисциплинарного подхода для достижения экологической и социально-политической устойчивости.


Ключевые слова: зелёная экономика, экологическая безопасность, устойчивое развитие, Узбекистан, экологическая политика, политические институты, международный опыт, климатическая дипломатия.

Современные глобальные вызовы — климатические кризисы, деградация экосистем и ресурсный дефицит — подталкивают к пересмотру традиционных моделей развития. В этих условиях зелёная экономика приобретает политическое измерение, выступая не просто как экологическая альтернатива, а как инструмент трансформации государственной политики и институтов. [1]

По определению UNEP и OECD, зелёная экономика — это модель, обеспечивающая устойчивый рост за счёт экологической ответственности и социальной инклюзивной [2]. С политологической точки зрения, это означает переосмысление самого понятия «успешности государства», где экологическая устойчивость становится частью его легитимности.

Зелёная экономика в современных условиях выступает не только как экономико-экологическая модель, но и как политическая идеология устойчивого развития. Её сущностное значение раскрывается в тесной связи с категорией экологической безопасности, которая в политологии трактуется как системный элемент национальной и глобальной безопасности, направленный на защиту стратегических интересов личности, общества и государства от экологических угроз.

Важным методологическим ресурсом политологического анализа здесь служит концепция **устойчивой безопасности** (*sustainable security*), сформировавшаяся на стыке политических и экологических исследований. Она утверждает, что эффективное управление природными ресурсами и климатическими рисками является основой долгосрочной стабильности и предотвращения конфликтов — как внутригосударственных, так и трансграничных [3]. Современные теории «зелёной трансформации» в политической науке представлены рядом взаимодополняющих подходов:



В Китае стратегия зелёного роста реализуется через концепцию «экологической цивилизации», закреплённую с 2012 года как часть социализма с китайской спецификой. Она включает системные реформы, экологические индикаторы для чиновников, развитие зелёных финансов и промышленности. Китай активно продвигает возобновляемую энергетику и «зелёные» города, сохраняя централизованное управление [7].

Южная Корея демонстрирует успешную интеграцию зелёной повестки в либерально-демократической системе. Стратегия Green New Deal (2009) предусматривает модернизацию инфраструктуры, снижение выбросов и создание зелёных рабочих мест. Поддержка осуществлялась через инвестиции, налоговые льготы и развитие чистых технологий, а координацию обеспечивали специализированные государственные структуры [8][9].

Сравнительный анализ моделей зелёной экономики в ЕС, Китае и Южной Корее выявляет общие черты: наличие стратегических документов, институциональная приверженность устойчивости, государственное стимулирование и международное сотрудничество. Отличия выражаются в уровне участия общества, характере регулирования и подотчётности: ЕС опирается на демократию, Китай — на централизованный контроль, а Южная Корея сочетает рынок и государственные механизмы.

В условиях усиливающихся климатических вызовов Узбекистан, расположенный в уязвимом экорегионе Центральной Азии, нуждается в институциональном переосмыслении стратегии устойчивого развития. Зелёная экономика должна стать основой как экологической безопасности, так и политической стабильности. Опыт Южной Кореи — с её акцентом на технологическую модернизацию, партнёрство и

межведомственную координацию — представляет собой релевантную модель для адаптации в узбекском контексте.

Узбекистан за последние годы предпринял важные шаги в направлении институционализации экологической политики. Принята Концепция обеспечения экологической безопасности на 2023–2030 годы (ПП-436 от 26.12.2022), в которой впервые закреплена связь между экологической повесткой и национальной безопасностью, обозначены приоритеты: борьба с опустыниванием, загрязнением водных ресурсов, утратой биоразнообразия [10]. Экологический кодекс Республики Узбекистан (2023) стал юридическим основанием для применения международных экологических стандартов, включая принцип «загрязнитель платит», устойчивое природопользование и расширенную ответственность производителя [11]. Важным политико-символическим актом стало объявление 2025 года — Годом охраны окружающей среды и зелёной экономики (УП-276 от 30.12.2024), что усилило акценты в государственной политике на возобновляемую энергетику, зелёную промышленность и экологическое образование [12].

Узбекистан также активизировал участие в международных инициативах, включая климатические форумы ООН (COP28), проекты ПРООН, Всемирного банка и GEF, а также региональную программу «Зелёный пояс Центральной Азии» [13]. Эти шаги демонстрируют стремление государства позиционировать себя в качестве ответственного участника глобального экологического управления.

Экологическая трансформация в Узбекистане сталкивается с рядом структурных ограничений. Наиболее серьёзными являются слабая межведомственная координация, дублирование функций и ограниченные механизмы взаимодействия между государственными структурами. Финансирование экологических инициатив остаётся нестабильным, а зелёные финансовые инструменты недостаточно развиты. Участие частного сектора сдерживается отсутствием налоговых стимулов и доступных кредитных механизмов. Научно-экспертная поддержка носит эпизодический характер, особенно на региональном уровне, а недостаточный уровень цифровизации экологического мониторинга снижает прозрачность и контроль. Эффективность устойчивого развития требует усиления административной связности, институционального доверия и устойчивой модели партнёрства с бизнесом и обществом.

Заключение. В условиях климатической нестабильности и деградации ресурсов переход к зелёной экономике становится индикатором управленческой зрелости. Международный опыт (ЕС, КНР, Республика Корея) показывает, что экологическая трансформация требует сочетания политической воли, институциональной согласованности, экономических стимулов и участия граждан.

Узбекистан предпринял важные шаги: приняты ключевые стратегические документы, начата институционализация зелёного курса, расширено международное сотрудничество. Однако на практике сохраняются барьеры: слабая координация между ведомствами, ограниченное зелёное финансирование, низкий уровень участия НПО и экспертного сообщества, а также дефицит лидерства на местах.

Для эффективной реализации зелёной стратегии необходимо создание централизованного института координации (например, Совета по устойчивому развитию), развитие ESG-инструментов, усиление научного сопровождения и институциональное вовлечение общества. Только системный подход позволит превратить декларации в устойчивую модель экологически ориентированного развития.

Список использованных источников:

1. Драчёв С. А. Зелёная экономика: теория, модели, инструменты // Экономика. Экология. Социум. — 2019. — № 2(4). — С. 25–34.
2. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication: A Synthesis for Policy Makers. — Nairobi: UNEP, 2011. — 44 p.
3. Sachs J. D. The Age of Sustainable Development. — New York: Columbia University Press, 2015. — 543 p.
4. Schlosberg D. Defining Environmental Justice: Theories, Movements, and Nature. — Oxford: Oxford University Press, 2007. — 245 p.
5. European Commission. The European Green Deal. COM (2019) 640 final. — Brussels, 2019. — 24 p.
6. Ministry of Strategy and Finance, Republic of Korea. Green New Deal Policy. — Seoul, 2009. — 17 p.
7. Экологический кодекс Республики Узбекистан. — Ташкент: Юридическая литература, 2023. — 352 с.
8. О Государственной программе «2025 — Год охраны окружающей среды и зелёной экономики»: Указ Президента РУз от 30.12.2024 г. № УП–276 // Народное слово. — 2025. — № 1 (1 января).
9. Ministry of Ecology of Uzbekistan. Green Belt of Central Asia Initiative: Official Report. — Tashkent, 2022. — 28 p.
10. Саидов А. Х., Каримов Ж. М. Институциональные проблемы реализации экологической политики в Узбекистане // Общество и управление. — 2024. — № 1. — С. 42–50.
11. Нурматов К. Роль институциональных структур в экологическом управлении Узбекистана // Журнал права и политики. — 2023. — № 2. — С. 44–51.
12. Агентство по статистике при Президенте Республики Узбекистан. Экономические показатели и зелёный сектор: статистический сборник. — Ташкент, 2023. — 95 с.

13. Бакиев Ш. Механизмы привлечения частных инвестиций в экологическую сферу // Экономика и инновации. — 2022. — № 6. — С. 73–79.

ЭКОЛОГИЯ КАК ОСНОВА ИНТЕГРАЦИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: УРОКИ И ПЕРСПЕКТИВЫ НА ПРИМЕРЕ ЕВРОПЕЙСКОГО ОПЫТА

Темирбаева Айгерим Кайратовна

*Самостоятельный соискатель, преподаватель-стажер кафедры
Политических наук Узбекского государственного университета
мировых языков*

(+998905939429, aygerimtemirbaeva@mail.ru)

Аннотация: Данная статья посвящена анализу экологических вызовов региона, изучению европейских подходов к решению экологических проблем и определению перспектив интеграции Центральной Азии через призму экологии. Цел исследования заключается в обосновании экологии как ключевого фактора регионального сотрудничества и выявлении практических шагов для устойчивого развития региона.

Ключевые слова: экология, Центральная Азия, интеграция, Европейский Союз, экологическая политика, водные ресурсы, Аральское море, зеленая экономика.

Современный мир сталкивается с глобальными экологическими вызовами, которые требуют объединения усилий на региональном и международном уровнях. Центральная Азия, регион, обладающий уникальным геополитическим положением и значительными природными ресурсами, находится в эпицентре экологических проблем, решение которых невозможно без координации между странами. Экологическая повестка становится основой для интеграционных процессов, способствуя не только сохранению окружающей среды, но и укреплению экономического и политического сотрудничества. Опыт Европейского Союза в области экологической политики и интеграции представляет собой ценный пример, который может быть адаптирован к условиям Центральной Азии.

Формирование экологической политики Европейского Союза началос в 1970-х годах, когда экологические проблемы стали предметом общественного и политического внимания. Как отмечает Гусев А.А., первые шаги в этой области были предприняты в 1972 году на фоне роста экологического движения и осознания необходимости защиты окружающей среды [1, С. 419]. В этот период были приняты первые

директивы, регулирующие качество воздуха и воды, а также управление отходами. Важным этапом стало создание правовой базы, которая закрепила экологические стандарты для стран-членов ЕС. Одной из ключевых инициатив является Рамочная директива по водам [2], которая установила стандарты для управления трансграничными водными бассейнами и способствовала восстановлению экологического состояния таких рек, как Рейн и Дунай. Этот подход позволил странам координировать усилия для достижения устойчивого состояния водоемов, что стало примером успешного трансграничного сотрудничества. По мнению Матвеевой, интеграция экологических принципов в политику ЕС была обусловлена не только внутренними факторами, но и международными обязательствами, такими как подписание Парижского соглашения по климату [3, С. 212]. Эти обязательства подтолкнули ЕС к разработке более амбициозных стратегий, направленных на сокращение выбросов парниковых газов и переход к низкоуглеродной экономике.

Одним из центральных элементов экологической политики ЕС является Европейская зеленая сделка, запущенная в 2019 году. Эта инициатива, как подчеркивает Илбудо, представляет собой комплексный план достижения климатической нейтральности к 2050 году, что делает ЕС первым регионом, поставившим такую цель [4, С. 209]. Зеленая сделка охватывает широкий спектр мер, включая декарбонизацию энергетики, развитие возобновляемых источников энергии, повышение энергоэффективности зданий и поддержку циркулярной экономики, направленной на минимизацию отходов. Например, ЕС планирует к 2030 году сократить выбросы парниковых газов на 55% по сравнению с уровнем 1990 года. Для достижения этой цели внедряются механизмы, такие как система торговли выбросами, которая стимулирует предприятия сокращать эмиссии за счет рыночных инструментов. Кроме того, значительное внимание уделяется сохранению биоразнообразия. Программа Natura 2000, охватывающая более 18% территории ЕС, направлена на защиту редких видов и природных экосистем. Эти меры демонстрируют, что экологическая политика ЕС ориентирована не только на борьбу с изменением климата, но и на комплексное сохранение природной среды.

Финансовые механизмы играют ключевую роль в реализации экологической политики ЕС. Как отмечает Борисов, успех экологических инициатив во многом зависит от наличия устойчивых источников финансирования [5, С. 128]. Программа LIFE, действующая с 1992 года, поддержала тысячи проектов, направленных на охрану природы, снижение загрязнения и внедрение инновационных технологий. Европейский инвестиционный банк также активно участвует в финансировании зеленых проектов, включая развитие

возобновляемой энергетики и модернизацию инфраструктуры. Например, в 2020 году ЕИБ выделил более 50 миллиардов евро на проекты, связанные с климатом и окружающей средой. Кроме того, программа Horizon 2020, а затем Horizon Europe, предоставляет гранты для исследований в области устойчивого развития, что способствует разработке новых технологий, таких как водородная энергетика и системы улавливания углерода. Эти финансовые инструменты позволяют не только реализовывать крупномасштабные проекты, но и поддерживать малые и средние предприятия, которые играют важную роль в переходе к зеленой экономике.

Важной особенностью экологической политики ЕС является активное вовлечение гражданского общества и частного сектора. По словам Матвеевой, участие неправительственных организаций, таких как WWF и Greenpeace, повышает прозрачность и эффективность экологических мер [3]. НПО участвуют в мониторинге выполнения экологических стандартов, разработке инициатив и просвещении населения. Например, кампании по повышению осведомленности о переработке отходов привели к тому, что в странах ЕС, таких как Германия и Швеция, уровень переработки достигает 60–70%. Частный сектор также играет важную роль, внедряя экологические технологии и инвестируя в устойчивые проекты. Политика ЕС стимулирует бизнес через налоговые льготы и субсидии, что делает экологические инновации экономически выгодными. Кроме того, ЕС активно продвигает концепцию социальной ответственности бизнеса, побуждая компании учитывать экологические и социальные факторы в своей деятельности.

В то время как, в Центральной Азии, одним из наиболее перспективных направлений для интеграции является совместное управление водными ресурсами. Регион зависит от трансграничных рек, таких как Амударья и Сырдарья, которые обеспечивают водой миллионы людей. Катастрофа Аралского моря, вызванная нерациональным использованием этих рек для ирригации, привела к опустыниванию, утрате биоразнообразия и ухудшению здоровья населения. По данным Программы ООН по окружающей среде, около 40 миллионов человек в регионе зависят от этих водных источников, что подчеркивает необходимость согласованного подхода [6]. Международный фонд спасения Арала (МФСА), созданный в 1993 году, обладает потенциалом для модернизации и превращения в эффективную платформу, подобную бассейновым советам ЕС, которые координируют управление водными ресурсами [7]. Такие советы могли бы разрабатывать стандарты водопользования, предотвращать конфликты и финансировать проекты по восстановлению экосистем. Европейский опыт, в частности Рамочная директива по водам, показывает, что четкие правовые рамки и совместный мониторинг способствуют успеху. Для Центральной Азии

важно усилит институциональную базу МФСА, привлеч международных экспертов и обеспечит прозрачность принятия решений, чтобы повысить доверие между странами.

Развитие зеленой экономики представляет собой еще одно направление для интеграции. Центральная Азия обладает значительным потенциалом для возобновляемых источников энергии, таких как солнечная и ветровая, благодаря обилию солнечных дней и обширным территориям. По оценкам, Казахстан и Узбекистан могут производить до 30% электроэнергии из возобновляемых источников к 2035 году при условии инвестиций в инфраструктуру [8]. Совместные проекты в этой области, например строительство региональных солнечных электростанций или ветровых ферм, могли бы снизить зависимость от угольной энергетики, сократить выбросы парниковых газов и создать новые экономические возможности. Финансирование таких инициатив возможно через международные организации, такие как Азиатский банк развития, а также через частный сектор, привлеченный налоговыми льготами и государственными гарантиями. Европейская зеленая сделка, направленная на декарбонизацию экономики, демонстрирует, как финансовые инструменты, такие как Европейский инвестиционный банк, могут поддерживать зеленые проекты. В Центральной Азии создание регионального фонда для финансирования экологических инициатив могло бы стимулировать сотрудничество и привлечь внешние инвестиции.

Научное сотрудничество и образование также играют ключевую роль в интеграции через экологию. Создание региональных центров экологических исследований, объединяющих ученых из всех стран Центральной Азии, позволит разрабатывать инновационные решения, адаптированные к местным условиям. Например, исследования по сохранению ледников Памира и Тянь-Шаня, которые сокращаются на 0,2–1% ежегодно, могут стать основой для совместных проектов. Такие центры могли бы координировать разработку технологий для устойчивого сельского хозяйства или восстановления деградированных земель. Образовательные программы, включая обмен студентами и стажировки, повысят квалификацию специалистов и укрепят научные связи. Европейский опыт, в частности программа Horizon 2020, показывает, что финансирование исследований способствует инновациям и интеграции. В Центральной Азии международные гранты и партнерства с университетами ЕС могли бы поддержать развитие экологического образования, создавая кадровую базу для реализации региональных проектов.

Вовлечение гражданского общества является важным элементом успешной интеграции. Европейский опыт подчеркивает, что участие неправительственных организаций (НПО) и местных сообществ

повышает прозрачность и эффективность экологической политики. В Центральной Азии экологические НПО, такие как местные инициативы по защите Аралского моря, могут играть роль посредников между государством и обществом. Поддержка НПО через гранты и платформы для диалога с властями позволит им влиять на экологическую политику и контролировать выполнение обязательств. Кампании по повышению осведомленности, например о переработке отходов или экономии воды, укрепят общественную поддержку интеграционных инициатив. Создание региональных форумов, где НПО из разных стран могли бы обмениваться опытом, усилит их воздействие. Европейские НПО, такие как WWF, демонстрируют, как общественные организации могут способствовать реализации крупных экологических проектов, и этот подход может быть адаптирован в Центральной Азии.

Таким образом, опыт Европейского Союза в области экологии демонстрирует, что эффективная экологическая политика требует комплексного подхода, сочетающего правовые рамки, финансовые инструменты и общественное участие. Успехи ЕС, такие как восстановление водных экосистем, сокращение выбросов и развитие возобновляемой энергетики, стали возможны благодаря политической воле, координации между странами и инновационным решениям. Центральная Азия может адаптировать эти принципы, сосредоточив усилия на управлении водными ресурсами, зеленой экономике, науке и общественном участии, способствуя объединению стран региона для общих целей.

Список использованных источников:

1. Гусев А.А. Основные направления и этапы формирования экологической политики Европейского Союза / А.А. Гусев // Безопасность Евразии. -2007. N2.С. 418-423.

2. Директива Совета Европейского Союза 98/83/ЕС от 3 ноября 1998 г. о качестве воды, предназначенной для потребления людьми. [Электронный источник]. URL: <https://wecoop.eu/wp-content/uploads/2020/04/%D0%94%D0.pdf>. (дата обращения: 10.05.2025).

3. Матвеева Е.В. Экологическая политика Европейского союза. Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. 2010. (6), С. 311-317.

4. Илбудо А.-Б. М. Проблема экологической политики Европы. Мировая наука. 6 (27), С. 209-211.

5. Борисов, Н.А. О типологии и видах экологической политики. М.: Управленческое консультирование. 4 (48), С. 128-131.

6. Отчет «Лидеры Центральной Азии - вовлечение молодежи в реализацию национальных приоритетов в области изменения климата, региональное сотрудничество и климатическое финансирование для

устойчивого развития». Алматы, 2023. [Электронный источник]. URL: <https://carececo.org/news/calp23/%D0%.pdf>. (дата обращения: 10.05.2025).

7. Международный фонд спасения Арала. Годовой отчет по управлению водными ресурсами. Ташкент: МФСА, 2024. [Электронный источник]. URL: <https://aral.uz/wp/wp-content/uploads/2024/12/%D0%.pdf>. (дата обращения: 05.05.2025).

8. На пути к справедливому энергетическому переходу в Центральной Азии. ОБСЕ, 2024. [Электронный источник]. URL: <https://www.osce.org/files/f/documents/9/c/565519.pdf>. (дата обращения: 04.05.2025).

AMIR TEMURNING EKOLOGIK SIYOSATI

Tog'ayeva Dilnoza

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

To'g'ayeva Dilnoza Mirahmatovna (99) 843-70-47

togayevadilnoza92@gmail.com

Annotatsiya: Turon imperiyasida hukumronlik qilgan Sohibqiron Amir Temur ekologik muvozanatni saqlashga harakat qilgan. Tabiatni asrash va ekologik muammolarni oldini olish uchun o'zining qoidalari va amaliyotlarini joriy qilgan. U yerlarni qishloq xo'jaligi uchun ishlatishda ham tabiatni zarar bermaslikka ahamiyat bergan bo'lsa, harbiy jang kezlarda ham o'rmonlarni kesilib vayron bo'lishini oldini olgan. Amir Temur olib brogan tadbirlarda yashil makonlar nafaqat iqtisodiy va ekologik manbalar, balki madaniy va ruhiy ahamiyatga ega ekanligini ham anglab yetgan.

Kalit so'z: Amir Temur, suvingi ta'minoti, atrof-muhit, ekologiya, Oo'rmonlarni saqlash, qishloq xo'jaligi.

Amir Temur (1336–1405) tomonidan asos solingan Temuriylar davri Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy qishloq xo'jalik ishlari taraqqiyot darajasiga ko'tarildi [1]. Biroq, bu davrda ham ekologik omillar va muammolar mavjud bo'lgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Garchi o'sha davrda ekologiya fan sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, inson faoliyatining tabiatga ta'siri tarixiy manbalar orqali bevosita anglash va tushinish mumkin.

Amir Temurning ekologik siyosatini baholashda ikki tomonlama yondashuv zarur:

Birinchidan: irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish va qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash ijobiy ekologik ta'sir ko'rsatgan;

Ikkinchidan: harbiy yurishlar natijasida qishloq xo'jaligi yerlarining keng ko'lamlari ishlatilishi salbiy ta'sirga olib kelgan makonlarni obodonlashtirgan.

Bu davrda irrigatsiya tizimlari alohida ahamiyatga ega sifatida qaralgan. Bu esa qishloq xo'jaligini rivojlantirish va aholining oziq-ovqat ta'minotini yaxshilashga yordam bergan. Ekologik muammo va omillarni bartaraf etish uchun say-harakatlar olib borilgan. Tarixiy manbalar uning kanallar va suv omborlarini, yerning shur qismlarini tozalash uchun bir qancha chora tadbirlar olib borgan.

Amir Temur davri shaharsozlik va bog'dorchilikning yuksalishi bilan ajralib turadi. Uning hukmronligi davrida Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlar nafaqat harbiy va siyosiy markazlar, balki go'zal bog'lar va ko'kalamzorlashtirilgan hududlar bilan ham mashhur bo'lgan. Bog'lar nafaqat estetik zavq manbayi, balki dam olish, muloqot va ijtimoiy hayotning muhim qismi bo'lgan[2]. Ular suv ta'minoti, meva va sabzavot yetishtirish, iqlimni yumshatish kabi amaliy funktsiyalarni ham bajaradigan bo'lib, shu tariqa shaharning ekologik muvozanatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Amir Temur davrida ekologik tabiatni asrash uchun tashkil etgan tartibotlari quyidagilarni tashkil etadi:

Qo'shinchilik va o'rmonlarning kesilishi: Amir Temur yirik harbiy yurishlar uyushtirgan va bu yurishlar uchun katta miqdorda otlar, qurollar va yog'och materiallari kerak bo'lgan. Harbiy lagerlar qurilishi, ko'priklar va qal'alar barpo etilishi uchun o'rmonlar kesilishi ehtimoli katta bo'lgan. Bu holat mintaqadagi o'rmon fondining qisqarishiga olib kelgan bo'lishi mumkin;

Sug'orish tizimlari: Temuriylar davrida sug'orish va dehqonchilik rivojlangan bo'lib, bu daryo tizimlariga aralashuvni keltirib chiqargan. Ko'plab kanallar, spool quvurlar, ariq va suv inshootlari barpo etilgan;

Shaharlarning kengayishi va chiqindilar muammosi: Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlarda aholining ko'payishi va shahar infratuzilmasining kengayishi natijasida chiqindilar va sanitariya bilan bog'liq ekologik muammolar yuzaga kelgan. Shu sababli, bu shaharlar atrofini tozza va ozoda saqlash uchun chora-tadbirlar tashkil etgan;

Hayvonot dunyosiga ta'sir: Amir Temur yurishlarida minglab otlar, tuyalardan foydalanilgan. Shu sababli, otlar va hayvonlarni ta'minoti bilan ta'minlash uchun otxona va bir qancha muhofaza jarayonlari tashkil etilgan;

Iqlim va tabiiy ofatlar: Tarixiy manbalarda ba'zan qurg'oqchilik, kuchli sovuq yoki seldan kabi tabiiy holatlar yuzaga kelgan. Bu holatlar iqlim sharoitining o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Bunday ofatlar esa qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada, dehqonlar uchun juda m'sulyatli mehnat faoliyatlari yuzaga kelgan. Biroq Sohibqiron bu kabi omillarni bartaraf etish uchun ma'sul xodimlarga devon hisobidan mablag' ajratilgan.

Amir Temur davrida ekologik muammolar bugungi zamonaviy tushunchadagi darajada kuzatilmagan bo'lsa-da, siyosiy jarayonlarning tabiatga ta'siri sezilarli darajada bo'lgan. Tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish, harbiy yurishlar va sug'orish tizimlari ekologik muvozanatga

ma'lum darajada zarar yetkazgan bo'lishi mumkin. Bu holat tarixiy taraqqiyot bilan ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanat zarurligini ko'rsatadi.

Amir Temur davridagi bog'lar va ko'kalamzorlashtirish suv ta'minoti bilan chambarchas bog'liq edi. Keng kanallar va arig'lar tizimi orqali suv shaharlarga va bog'larga yetkazilgan[3]. Bu suv boshqaruvi nafaqat qishloq xo'jaligining rivojlanishiga, balki tabiatni obodonlashtirish ishlarining amalga oshirilishiga ham imkon yaratgan.

Amir Temur, tarixda o'zining davlat quruvchilik, harbiy qobiliyatlari va siyosiy donoligi bilan tanilgan buyuk hukmdor bo'lib, uning o'ziga xos tabiat va atrof-muhitga nisbatan munosabati ham alohida ahamiyatga ega. Uning davrida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, ekologik muvozanatni saqlash va tabiat resurslaridan samarali foydalanish masalalari katta ahamiyatga ega bo'lgan. U o'z hukmronligini boshlaganidan so'ng, tabiatni va uning barcha resurslarini aqlli va manfaatli tarzda boshqarish zarurligini tushunardi. U tabiiy resurslardan samarali foydalanish, landshaftlarni rivojlantirish, o'rmonlarni saqlash va suv ta'minoti masalalariga e'tibor berardi. Tabiat bilan uyg'unlikda yashashni ta'minlash, odamlarning sog'lig'ini saqlash va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun zaruriy shart edi. Amir Temur davlat boshqaruvini o'rnatishda tabiiy muhitga ehtiyotkorlik bilan yondashgan.

Amir Temur, xususan, qishloq xo'jaligi va suvsiz hududlarda suv resurslarini boshqarishda yuqori darajada ilmiy yondashuvni amalda qo'llagan. Daryo bo'ylarida suv omborlarini qurish, kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish va suvni samarali taqsimlash orqali qishloq xo'jaligini rivojlantirgan.

Amir Temur bog'lari xususidagi dastlabki ma'lumotlar o'tmish tarixchilari, shoirlari, sayyohlari asarlarida uchraydi. Shuningdek, Amir Temur bog'lari O'rta asrlar rassomlari miniatyuralarida ham tasvirlangan. Amir Temur barpo etgan bog'larida siyosiy maqsadda ham keng foydalangan. Jumladan: Bog'i Dilkusho (ko'ngil ochuvchi bog') bog'ida Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixoni qabul qilgan [4].

Amir Temur o'zining bog'larini joylashtirishda tabiiy landshaftni hisobga olib, har bir bog'ni shahar arxitekturasiga mos ravishda joylashtirgan. Amir Temur bog'larini yaratishdagi yana bir muhim jihat, ularning madaniy rolidir. Bog'lar shaharlar va imperiyaning madaniy markazlariga aylangan. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlarda joylashgan bog'lar, nafaqat arxitektura, balki ilm-fan, san'at va ma'naviyat markazlari sifatida xizmat qilgan. Bu bog'larda ko'plab ilmiy va madaniy tadbirlar, jamiyatning ruhiy rivojlanishiga qaratilgan yig'ilishlar bo'lib o'tgan. Amir Temur bog'larida shuningdek, turli xil o'simliklar va mevali daraxtlar ham o'stirilgan. Bu bog'lar nafaqat estetik, balki iqtisodiy jihatdan

ham ahamiyatli bo'lib, yerlarning samarali ishlatilishi va aholining oziq-ovqat ta'minotini yaxshilashga xizmat qilgan.

Amir Temur bog'lari – Amir Temur Samarqand atrofida bunyod ettirgan. Bu bog'lari o'rta asr rassomlari miniatyuralarida ham tasvirlangan. Amir Temur bog'lari tuzilishiga ko'ra 2 turga bo'lingan:

1) chorbog'lar–geometrik (to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak) shaklda bo'lgan. 1 km masofaga cho'zilgan. Sahnidan o'tgan ariqlar ularni teng 4 qismga ajratib turgan. Atrofidagi baland paxsa devorlarning har burchagida minora bo'lgan. Markazda saroy joylashgan. Bunday bog'larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan; Birgina misol: muarrix Sharafiddin Ali Yazdiyning qayd etishicha:“Hazrati Sohibqiron obod Samarqandning shimoliy tomonida barpo etgani Bog'i Shimol nomi bilan mashhur boqqa ko'chib o'tib, jahon ahli sig'gudek ulkan saroparda (shohona chodir) qurdirdi. Uning darvozasi oldidagi chodir (ko'ndalon) hamda podshoh qabulxonasi (borgoh) bazmlar uchun tikilgan katta va kichik chodirlar ko'kka bo'y cho'zib, oyga tekkudek tuyulardi. Bu bog'i Eram yanglig' orom maskani jannatning bazm saroyi hasad qiladigan darajada orasta va salobatli qilib bezatdilar”[5].

2) tuzilishi geometrik shaklda bo'lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag'rida barpo etilgan bog'lar. Bunday bog'lar hukmdor shikor (ov) qilishi uchun mo'ljallangan.

Xulosa o'rnida keltirilganda, Amir Temurning atrof-muhitga bo'lgan yondoshuvini tushunish, uning ekologik tafakkurini o'rganish va u davrda tabiiy resurslarni boshqarishdagi strategiyalarini aniqlash imkonini beradi. Mavzuni o'rganish, nafaqat tarixiy nuqtai nazardan, balki ekologik masalalar bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy qarashlarni ham chuqur tahlil qilishga yordam beradi. Biroq, zamonaviy ekologik fikrlar atrof-muhitning barqaror rivojlanishi, uzoq muddatli rejalashtirish va tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan. Amir Temurning yondashuvi zamonaviy ekologiya prinsiplaridan farq qilsa-da, u o'z davri uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga urinishlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zotov O. Amir Temur geosiyosati va XXI asr bo'sag'asida siyosiy taraqqiyot tabiati. «Fidokor» gazetasi. 2000 yil, 5 dekabr.

2. “Temur Tuzuklari” – T.: O'zbekiston, 2018. 106 b.

3. <https://zarnews.uz/post/amir-temur-davrida-yer-egaligi-va-soliq-tizimlari>

4. Rui Gonzales de Klavixo Samarqandga-Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). Toshkent.: O'zbekiston., 2010. – 18b.

5. Sharafiddin Ali Yazdiy Zafarnoma.–T.: Sharq, 1997.–257 b.

O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR

Choriyeva Nargiza Ibotovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

1-kurs tayanch doktorant

(chorievanargiza257@gmail.com, +998931708807)

Polvanov Azim Kuchkarovich

Toshkent Texnologiya, Menejment va kommunikatsiya instituti

“Tillar va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida o'qituvchisi

(polvanovazim70@gmail.com, +998933948585)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotda ekoturizmning jahon turizm industriyasidagi o'rnini, O'zbekistonning ekoturistik salohiyati va ushbu sohani rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekoturizm, tabiiy resurslar, turizm industriyasi, ekologik muhofaza

Zamonaviy dunyoda turizm sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda va bu jarayonda ekologik turizm alohida o'rin tutmoqda. Global iqtisodiyotda tobora muhim rol o'ynayotgan ushbu soha nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham katta ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston kabi boy tabiiy resurslarga ega bo'lgan mamlakatlar uchun ekoturizmni rivojlantirish strategik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda ekologik turizm jadal rivojlanib borayotgan turizm industriyalarining biridir. Bu soha jahon turizm industriyasidagi ulushi - 4% ni, ekoturizm xizmatlaridan olinadigan daromad 55 mlrd dollar va uning yillik o'sishi 30% tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich 2020 yilga borib jahon turizm industriyasining asosiy strategik yo'nalishlaridan biriga aylanishi mutaxassislar tomonidan bashorat qilinmoqda. O'zbekiston tarixiy va madaniy obidalarga boy turistik mamlakatlardan biridir. Bundan tashqari uning tabiiy va ekoturistik salohiyatidan turizm maqsadlarida hududlarda etarlicha foydalanilmayapti. Buning uchun xorij tajribasi asosida ekoturizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tabiiy resurslarning tobora kamayib borayotganligi, atrof-muhit muhofazasining sayyoraviy chegaralarda tobora keskin xolatlarni keltirib chikarayotganligi, tabiiy inqirozlarning oldini olish, tabiatni kelgusi avlodlar uchun muhofaza qilishda ekologik turizmni rivojlantirish xalqaro miqyosda tan olingan najot yo'llaridan andoza olish, tajribalardan oqilona foydalanish muhimdir. O'zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat ma'naviyatimiz, ilm-fan, madaniyat, ma'rifat, tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni jalb

qilish, biologik xilma-xillikni saqlash muammolarini xal qilishga balki, shu bilan birga iqtisodiy masalalarni, mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, aholini yangi ish joylari bilan ta'minlash, mamlakatimiz iqtisodiyotining o'sishiga katta xissa qo'shadi.

Mamlakatimiz ekoturizm resurslariga boy davlatlar katorida turadi va Markaziy Osiyoning, dunyo mamlakatlarining o'zaro aloqalarini geografik jihatdan bog'lovchi davlatdir. Shu sababli ichki va xalqaro turistik oqim va ekoturistik oqim ham bizda kuchayishining juda katta imkoniyatlari hamda salohiyatlari bor. Hozirgi kunda butun dunyoda turizm tizimida ekologik turizmning o'z o'rnini mavjud. Bu ayniqsa rang barang tabiatga ega quyoshli O'zbekistondan mamlakat uchun juda ahamiyatlidir. [1]

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo hududidagi davlatlar orasida ekologik turizmni rivojlantirish bo'yicha katta imkoniyatlariga ega bo'lgan va bu borada raqobatbardoshligi yuqori mamlakatlardan hisoblanadi. Yuksak tog' cho'qqilarimiz, uch ming yillik insoniyat tamadduniga guvoh shaharlarimiz, cho'l va yashil vodiylarimiz, ming bir dardga shifo zilol suvlarimizning borligi ushbu sohani rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratib beradi.

Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ekoturizmning o'rnini va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ko'plab qarashlar olg'a surilmoqda. Xalqaro maqomdagi tashkilot va muassasalarning ma'lumotiga ko'ra, ko'pgina turizm turlari yiliga o'rtacha 5 foizga ortib borayotgan bo'lsa, ekoturizm yiliga o'rtacha 20-30 foizga o'sib bormoqda. Aksariyat mutaxassis va tadqiqotchilarning ilmiy tajriba va xulosalari shuni ko'rsatmoqdaki, ekoturizm turizmning yangi va yosh yo'nalishi bo'lishiga qaramasdan, ommalashuvi boshqa turistik yo'nalishlarga nisbatan 2-3 barobar jadal kechmoqda. [2]

Mamlakatimizda tarixiy obidalar, manzilgohlarda an'anaviy turizm turmoqlarini yo'lga qo'yish bilan bir qatorda, hududlarda ekoturizmni boshqa turizm tarmoqlari bilan rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Bu borada ajoyib tabiat yodgorliklari ekoturistik manzilgohlar sifatida g'orlar, sharshara, buloq, jilg'a va soylar, daralar, qoyali relief shakllari, ochilib qolgan yotqiziqlar xorijiy sayyohlarni qiziqtirishi tabiiy. Buning uchun sohadagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari qabul qilinishi turizmning iqtisodiyotning asosiy tarmog'iga aylanishiga huquqiy asos bo'lib hizmat qilmoqda. Jumladan, 2019 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish" PF-5611-son Farmoni asosida 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilishi xududlarda turizmning ko'plab tarmoqlari rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ekoturizmni rivojlantirishning hududlarda turlicha ko'rinishda bo'lishi, O'zbekiston

Respublikasini, uning ekoturistik holati, imkoniyati va kelajak istiqbollari qarang muayyan bir hududlarga bo'lish mumkin. [3]

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston ekoturizm sohasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Mamlakatimizning geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va madaniy merosi ekoturistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Mamlakatimizning Markaziy Osiyodagi strategik joylashuvi, xilma-xil tabiat manzaralari va ekologik resurslar ekoturizm rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonov M.R., Jumaboev T.J., Jo'raqulov X.J. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratishning ba'zi masalalari. –O'qitish metodikasi/ teaching meth/ ilmiy axborotnoma geografiya, 2019-yil, 1-son. –b.195-196

2. Artikova Sh., Qurbonov T, Shodiyev F. Ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari. –Journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 5.57, 2023.-b.4.36

3. Muminov A. o'zbekistonda ekologik turizmning rivojlantirish masalalari (buxoro viloyati misolida). –Eurasian journal of academic research innovative academy research support center, 2024. –b.27

MARKAZIY OSIYODAGI TRANSCHEGARAVIY DARYOLARNI BOSHQARISH: XALQARO HUQUQ, EKOLOGIK MUAMMOLAR VA “YASHIL” IQTISODIYOT YECHIMLARI

*Vorisova Komilaxon Olmos qizi,
O'zDJTU “Siyosiy fanlar” kafedrasida
1-bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Markaziy Osiyo mintaqasi transchegaraviy daryolar (Sirdaryo va Amudaryo) bilan bog'liq bo'lgan murakkab ekologik va siyosiy muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi suv resurslarini taqsimlash masalalari nafaqat tabiiy resurslar, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Transchegaraviy daryolarni boshqarish uchun xalqaro huquq, mintaqaviy hamkorlik va ekologik barqarorlikni ta'minlash zarurdir. Ushbu maqolada, Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolarni boshqarishning huquqiy va ekologik jihatlari tahlil qilinadi hamda “yashil” iqtisodiyot asosida yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: resurs, xalqaro huquq, ekologiya, suvernitet, konvensiya, xavfsizlik, integratsiya, energiya.

Bilamizki, transchegaraviy daryolarni boshqarishning asosiy xalqaro huquqiy asosi BMTning 1997-yildagi Transchegaraviy Suvlar Konvensiyasi hisoblanadi. Ushbu konvensiya davlatlarga o‘zaro kelishuvlar asosida daryolarni samarali boshqarishni ta’minlashni nazarda tutadi. Konvensiyada quyidagi prinsiplar asosiy o‘rinni egallaydi:

Suvernitet va xavfsizlik – har bir davlat o‘z hududidagi suv resurslarini boshqarish huquqiga ega, ammo boshqa davlatlar tomonidan foydalanish huquqini hurmat qilish kerak.

1. *Suvning oqilona va adolatli foydalanilishi* – suv taqsimoti adolatli va teng bo‘lishi lozim.

2. *Doimiy muloqot va kelishuvlar* – transchegaraviy daryolarni boshqarishda davlatlar o‘rtasida doimiy muloqot va hamkorlik zarur.

3. *Ehtiyotkorlik* – qarorlar qabul qilishda boshqa tomonlarning manfaatlarini hisobga olish zarur [1].

Markaziy Osiyodagi davlatlar o‘rtasida mavjud suv taqsimoti bo‘yicha bitimlar va shartnomalar, ayniqsa Amudaryo va Sirdaryo bo‘yicha kelishuvlar, mintaqadagi suvlardan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan. Biroq, amaliyotda bunday kelishuvlar hali ham to‘liq amalga oshirilmagan va mintaqaviy kelishmovchiliklar hamon mavjud. Transchegaraviy daryolarni boshqarishning eng muhim masalalaridan biri – suv taqsimoti. Daryolar o‘rtasidagi suv resurslarining taqsimoti, ayniqsa Sirdaryo va Amudaryo kabi katta daryolarda, har bir davlatning ehtiyojlari, siyosiy manfaatlar va iqtisodiy vaziyatiga qarab o‘zgaradi. Daryolarning yuqori oqimidagi (upstream) davlatlar, masalan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston, suvning to‘g‘ri oqishi uchun zarur bo‘lgan tabiiy resurslarni ishlatish imkoniyatiga ega bo‘lishsa, pastki oqimidagi (downstream) davlatlar, masalan, O‘zbekiston va Turkmaniston, suvsizlik va yuqori iste’mol talablarini qondirishda qiyinchiliklarga duch keladilar [2]. Buning asosiy sabablari esa quyidagilar; birinchidan, yuqori oqimdagi davlatlar uchun ko‘proq foydalanish huquqi: Yuqori oqimdagi davlatlar, daryolardan o‘zining ichki ehtiyojlari va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun ko‘proq foydalanishga intilishadi, natijada pastki oqimdagi davlatlarning suvga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq qondirilmaydi. Ikkinchidan, Manfaatlar va siyosiy ixtiloflar: Daryolarni boshqarishda davlatlar o‘rtasidagi siyosiy manfaatlar nizo keltiradi [3]. Ayrim davlatlar, o‘z iqtisodiy rivojlanishiga erishish uchun ekologik balansni saqlashga e’tibor bermasdan, suv resurslaridan haddan tashqari foydalanishi mumkin. Uchinchidan, xalqaro huquqning zaifligi: BMTning 1997-yildagi Transchegaraviy Suvlar Konvensiyasi mavjud bo‘lsa-da, ko‘plab davlatlar bu konvensiyani amalga oshirishda kutilgan samarani ko‘rsatmayapti. Bu, davlatlarning mustaqillik va suverenitetini saqlashga qaratilgan siyosatlarini oldini oladi. Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolarning ekologik muammolari ham muhim omil hisoblanadi. Daryolarni boshqarishning noto‘g‘ri ekologik yondashuvi natijasida, Orol dengizi

inqirozi kabi ekologik falokatlar yuzaga kelgan. Iqlim o'zgarishi va suvning to'g'ri taqsimlanmasligi bu muammolarni yanada kuchaytirgan [4]. Asosiy sabab esa sug'orish tizimlarining noto'g'ri ishlatilishi: daryolarning suvini qishloq xo'jaligida haddan tashqari ishlatish, tuproqning tuzlanishiga, yerning yomonlashishiga va suvning sifati pasayishiga olib keladi. Orol dengizining sathi pastlashgani, suvsizlanish va tuzlanish jarayonlari ushbu mintaqadagi eng yirik ekologik falokatdir. Negaki, Sirdaryo va Amudaryo daryolaridan suvning haddan tashqari foydalanilishi natijasida Orol dengizi sayozlashgan va qisqarib borgan. Bu ekologik inqiroz nafaqat suv manbalarini kamaytirgan, balki biotoplarning yo'qolishiga, o'simliklar va hayvonot dunyosining qisqarishiga olib keldi. Daryolarning ekosistemalari o'zgarib, baliqlar va boshqa suv hayvonlarining ko'payishi uchun sharoitlar yomonlashmoqda. Bu esa, mintaqaning biologik xilma-xilligini kamaytiradi [5].

Ko'plab mamlakatlarda eski va samarali bo'lmagan sug'orish tizimlari ishlatiladi, bu esa suvni samarali boshqarishga to'sqinlik qiladi. Ayniqsa, O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonning pastki oqimlarida muammolarga olib kelmoqda. Daryolarning miqdori kamaygan sari, bu yerlarni qishloq xo'jaligida ishlatishning samaradorligi ham pasayadi. Shuningdek, iqlim o'zgarishini ham inobatga olish kerakki, chunki uning o'zgarishi natijasida, yomg'ir yog'ishi va muzliklarning erishi kabi tabiiy omillar daryolarning suv miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu o'zgarishlar, mintaqadagi barcha davlatlar uchun suv manbalarini boshqarishni yanada murakkablashtiradi [6]. Albatta, Orol dengizining qurib borishi natijasida hududda tuzlashish va qurg'oqchilik yuzaga kelgan. Bu, nafaqat tabiiy muhitni, balki mintaqaning iqtisodiy salohiyatini ham yomonlashtirdi.

Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolarni boshqarishdagi siyosiy muammolar, ayniqsa, diplomatik kelishuvlar va hamkorlikning yetishmasligi sababli yuzaga keladi [7]. Suv resurslaridan foydalanish bo'yicha davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar va nizo, ekologik va ijtimoiy inqirozlarga olib keladi. Daryolarni boshqarish masalasida ba'zi davlatlar, o'z manfaatlarini ilgari surish uchun boshqa davlatlar manfaatlarini hisobga olmaydi. Chunki, diplomatik muloqotning zaifligi sababli suv resurslari va ularni boshqarish bo'yicha ko'plab kelishuvlar mavjud bo'lsa-da, ular ko'pincha samarali amalga oshirilmaydi [8]. Bu esa mamlakatlar o'rtasida ishonchsizlikni kuchaytiradi. Milliy manfaatlar va suverenitet masalasi bo'yicha esa har bir davlat o'zining suv resurslaridan foydalanishda suverenitetini himoya qilishga intiladi. Bu esa mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda to'sqinlik qiladi. Shuningdek, iqtisodiy va siyosiy raqobat natijasida suv resurslarini boshqarish bo'yicha iqtisodiy manfaatlar o'rtasidagi raqobat, ayniqsa sug'orish va energetika sektorlarida, davlatlar o'rtasida keskin raqobatni keltirib chiqaradi. Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolar bilan bog'liq

muammolarning sabablari ko'p qirrali va turli omillarga asoslanadi. Bu muammolarni hal qilish uchun nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy yondashuvlar kerak. Suv taqsimoti, ekologik buzilishlar, siyosiy va diplomatik kelishmovchiliklar, hamda hukumatlararo hamkorlikning zaifligi bu masalalarning asosiy sabablarini tashkil qiladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, suv resurslarini ekologik va adolatli taqsimlash, hamda diplomatik muloqotlarni kuchaytirish zarurdir [9].

Markaziy Osiyodagi ekologik muammolarni hal qilish uchun yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish yondashuvlarini joriy etish zarur. Bu yondashuv, tabiiy resurslardan foydalanishni ekologik jihatdan barqaror va samarali tashkil etishga imkon beradi. Quyidagi takliflar bu masalalarni hal qilishga yordam beradi: birinchidan, "yashil" suv boshqaruvi; Zamonaviy suvni tejash texnologiyalarini joriy etish va daryolarni ekologik jihatdan boshqarish zarur. Shuningdek, sug'orish tizimlarida yuzaga kelgan tuzlanishni oldini olish uchun ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish kerak. Ikkinchidan, barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini rivojlantirish orqali daryolardan samarali va ekologik toza foydalanishni ta'minlash mumkin. Kimyoviy o'g'itlar o'rniga tabiiy o'g'itlardan foydalanish va ekinlarni ekologik toza usullar bilan yetishtirish zarur [10]. Bu bilan tuproqning tuzlanishiga qarshi kurashish va qishloq xo'jaligining barqarorligini ta'minlash mumkin. Uchinchidan, "yashil" energiya manbalarini rivojlantirish, masalan, quyosh va shamol energiyasi, transchegaraviy daryolarni boshqarish jarayonida ekologik muammolarni kamaytiradi. Barqaror GESlar (gidroelektr stansiyalari)ni ekologik jihatdan xavfsiz ishlashini ta'minlash va ularni qayta tiklash jarayonlarida resurslarni samarali boshqarish zarur. To'rtinchidan, aholini ekologik muammolar va suv resurslarini boshqarishning ahamiyati haqida xabardor qilish kerak. Mintaqada "yashil" iqtisodiyot va barqaror rivojlanish bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ekologik ongni shakllantirishga yordam beradi va bu o'z navbatida suvga, atrof muhitga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi [11].

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolarni boshqarish masalasi, xalqaro huquq, ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotning integratsiyasini talab etadi. Mintaqadagi ekologik inqirozlar, ayniqsa *Orol dengizi* atrofidagi holat, mintaqaviy hamkorlikning yetishmasligi, va suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish kabi muammolarni hal qilish uchun zamonaviy yondashuvlar zarur. "Yashil" iqtisodiyot asosida rivojlanish, ekologik boshqaruv va suvni oqilona foydalanish orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin. Xalqaro qonunchilik, mintaqaviy hamkorlik va ekologik ma'rifatni kuchaytirish, Markaziy Osiyo davlatlari uchun barqaror rivojlanishning asosiy tamoyilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. BMT (1997). Transchegaraviy Suvlar Konvensiyasi. United Nations, New York.
2. Kuziev A. (2019). Suv resurslarini boshqarish: Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida transchegaraviy daryolarni boshqarish. Tashkent: Universitet Nashri.
3. Shirokov D. (2018). Iqlim o'zgarishi va transchegaraviy daryolar: Markaziy Osiyo tajribasi. Almaty: Gidrometeorologiya Instituti.
4. Sadriddinov A. (2021). Markaziy Osiyo va suv resurslari: Iqtisodiy va siyosiy yondashuvlar. Tashkent: Markaziy Osiyo Tadqiqotlari Markazi.
5. Dastanov D. (2020). Markaziy Osiyodagi ekologik siyosat va suv resurslarini boshqarish: Xalqaro tajriba va mintaqaviy yechimlar. *Journal of International Environmental Law*, 25(2), 198-215.
6. Ahmedov S. (2017). Transchegaraviy daryolarni boshqarish va ekologik barqarorlik: Markaziy Osiyodagi real vaziyatlar. Tashkent: Ekologiya va Tabiatni Muhofaza Qilish Boshqarmasi.
7. Vasiliev S., & Lomaev, O. (2019). Suv resurslaridan foydalanish va ekologik barqarorlik: O'zbekiston va Qozog'iston tajribasi. *Environmental Policy and Governance*, 28(1), 67-80.
8. Shu M. (2022). Iqlim o'zgarishi va transchegaraviy daryolar boshqaruvi: O'rta Osiyo uchun strategiyalar. Cambridge University Press.
9. Xafizov F., & Nazarov, M. (2021). Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot: Markaziy Osiyo mamlakatlarida suvsizlik va ekologik xavf. *International Journal of Sustainable Development*, 36(4), 112-130.
10. Andreev P. (2018). Suverenitet va xalqaro huquq: Transchegaraviy suvlarni boshqarish. Tashkent: Markaziy Osiyo Huquqshunoslik Instituti.
11. Muradov Z. (2020). Aral dengizining ekologik inqirozi va uning iqtisodiy va siyosiy ta'siri. *Central Asia Studies Review*, 14(2), 79-94.

EKOLOGIK BARQARORLIK VA TASHQI IQTISODIY STRATEGIYALAR UYG'UNLIGI—MILLIY TAJRIBA

Xayrullayeva Aziza Yigitali qizi

O'zDJTU tayanch doktoranti

(+998915392727, azizaxayrullayeva@uzswlu.com)

Annotatsiya: Mazkur maqolada respublikamiz miqyosida amalga oshirilayotgan ekologik harakatlar, hukumat tomonidan ekologiyani asrash maqsadida amalga oshirib kelinayotgan loyiha, strategiyalarni yoritish, ichki va tashqi iqtisodiy, siyosiy strategiyalarning amaiyati, roli va ko'zlangan maqsadlarini qisqacha yoritib berishga harakat qilinadi.

Kalit soʻzlar: Ekologiya, davlat siyosati, strategiyalar, tabiiy resurslar, taraqqiyot, yashil iqtisodiyot.

Global miqyosda iqlim oʻzgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik xavfsizlik muammolari davlatlarning oldiga yangi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy yondashuvlarni ishlab chiqishga, ularni qoʻllab koʻrishga undamoqda. Ekologik barqarorlik endilikda nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi, balki iqtisodiy taraqqiyot, xalqaro aloqalar va barqaror rivojlanishning ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, Oʻzbekiston ham ekologik siyosatini global talablar bilan uygʻunlashtirishga harakat qilmoqda. Ushbu maqolada Oʻzbekistonning ekologik barqarorlikka doir tashabbuslari, amalga oshirilayotgan davlat strategiyalari va ularning xalqaro iqtisodiy aloqalarga taʼsiri tahlil qilinadi.

Xalqaro tajriba va Oʻzbekistonning integratsiyasi dunyoning rivojlangan davlatlari ekologik siyosatni iqtisodiy strategiyalarning ajralmas qismiga aylantirmoqda. Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy va boshqa davlatlar “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida rivojlanib, uglerod izini kamaytirishga intilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqining “Yashil bitim” dasturi 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishishni maqsad qilgan [7]. Xitoy esa “yashil sanoat”ni rivojlantirishga yirik sarmoyalar ajratib, ekologik toza mahsulotlar eksportini kengaytirmoqda. Oʻzbekiston ham bu boradagi xalqaro tajribalardan foydalangan holda oʻziga xos strategik yondashuvlarni ishlab chiqmoqda. Xususan, BMT, Jahon banki, GEF (Global Environmental Facility) kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar, mamlakatning ekologik barqarorlikka boʻlgan sodiqligini koʻrsatadi. Davlat miqyosida amalga oshirilayotgan asosiy strategiyalar va ularning mamlakatda yashil, ekologik rakursdan rivojlanish, tabiiy boyliklarni saqlab qolishga, mintaqada tobora tanqis boʻlib borayotgan suv resursidan oqilona foydalanish hamda, fuqarolarni ham ekologik bilimlarini orttirish, jamiyatda eko faollarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar karvoni izidan mamlakatimizda bir qancha davlat miqyosidagi qonun, strategiya va loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan:

1. “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi Bu strategiyada ekologik barqarorlikni taʼminlash ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida belgilangan. Unda atmosfera havosini tozalash, chiqindilarni qayta ishlash, choʻllanishga qarshi kurashish va suv resurslaridan samarali foydalanish kabi aniq maqsadlar belgilangan. Strategiyaning muhim jihati shundaki, u ekologik siyosatni iqtisodiy rejalashtirish bilan uygʻunlashtirishga xizmat qiladi [1].

2. Atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha 2030-yilgacha boʻlgan Konsepsiya Ushbu konsepsiya asosida ekologik normativ-huquqiy baza mustahkamlanmoqda, monitoring tizimlari joriy etilmoqda, ilmiy-texnik asoslar yangilanmoqda. Konsepsiya, shuningdek, xalqaro ekologik

standartlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilishni ham nazarda tutadi. [2].

3. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi O‘zbekiston hukumati tomonidan ishlab chiqilgan ushbu strategiya uglerod chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, “yashil” innovatsiyalarni joriy etish va davlat xaridlarini ekologik mezonlar asosida amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. strategiyaning asosiy ustunligi uning xalqaro iqtisodiy aloqalar bilan bevosita bog‘liq ekanligida namoyon bo‘ladi.

Ekologik barqarorlikni, yer yuzidagi flora va fauna olamini, inson yashab turgan va saqlab qolinishi lozim bo‘lgan tabiatni asrash maqsadida ham yurtimizda istiqbolli loyiha ham samarali rejalar ishlab chiqilib, amaliyotga taqdim etilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari O‘zbekistonda quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Nurafshon, Zarafshon va Jizzax viloyatlarida barpo etilgan quyosh elektr stansiyalari qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va energiya sohasida ekologik barqarorlikka erishish imkonini bermoqda. Ekologik ta‘lim va madaniyatni rivojlantirish Davlat tomonidan olib borilayotgan “Bir million yashil oila” tashabbusi orqali aholining ekologik madaniyatini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, maktab va oliy ta‘lim tizimiga ekologik ta‘lim fanlari joriy etilgan. Yashil transport infratuzilmasi Yirik shaharlarda ekologik toza jamoat transport vositalari, velosiped yo‘laklari, elektromobillarni rag‘batlantirish tizimlari joriy etilmoqda. Bu esa shahar ekologiyasini yaxshilash bilan birga xorijiy “yashil” texnologiyalar importini ham faollashtirib kelinmoqda.

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarda ham ekologik mezonlarga asoslangan siyosatni olib bormoqda. Misol uchun, eksport qilinayotgan mahsulotlar ekologik xavfsizlik standartlariga javob berishi kerak. Shu bilan birga, mamlakat “yashil” texnologiyalar bo‘yicha xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni kuchaytirmoqda. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan ekologik loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha hamkorlik rivojlanmoqda.

Ekologik barqarorlik va tashqi iqtisodiy strategiyalar O‘zbekiston rivojlanishining asosiy poydevorlaridan biriga aylanmoqda. Bu ikki yo‘nalishning uyg‘unlashuvi mamlakatning xalqaro nufuzini oshiradi, aholi salomatligini yaxshilaydi, iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtiradi. O‘zbekiston ekologik siyosatini iqtisodiy manfaatlar bilan birlashtirgan holda, barqaror rivojlanish sari ishonchli qadamlar tashlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risidagi farmon. <https://strategy.uz>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). 2030 yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi to‘g‘risidagi farmon. <https://lex.uz/ru/docs/4574008>

3. Zoi Environment Network. (2022). Yashil o‘shish yo‘lida: O‘zbekistonning iqtisodiy va ekologik barqarorligi. Jahon banki va O‘zbekiston hukumati hamkorligida. <https://zoinet.org/wp-content/uploads/2022/07/UZB-WB-Green-Growth-2022-uz.pdf>

4. O‘zA. (2024). Yurtimizda ekologik barqarorlik ta‘minlanadi. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. https://uza.uz/oz/posts/yurtimizda-ekologik-barqarorlik-taminlanadi_692346

5. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). Support to Climate Change Adaptation in Uzbekistan. <https://www.undp.org>

6. Jahon banki. (2022). O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hisobotlari. <https://www.worldbank.org>

7. Европейская Комиссия. (2020). Европейский зеленый курс (European Green Deal). <https://ec.europa.eu>

EKOLOGIK SIYOSAT ORQALI YOSHLAR FAOLLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Ulugbek Rustamovich Soatov

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi, markaz katta ofitseri (+998 71 268 59 82, ulabadro@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar ijtimoiy faolligini rag‘batlantirishda ekosiyosatning rolini nazariy va amaliy jihatdan yoritishga urinilgan. Zero, XXI asr muammolari qatorida iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va ekologik inqirozlar muhim o‘rin egallaydi. Mazkur muammolarga javoban yuritilayotgan ekosiyosat fuqarolik jamiyatini barpo etish va yoshlarni ushbu jarayonlarga jalb etish uchun samarali vositaga aylanmoqda. O‘zbekiston misolida ekologik siyosatning yoshlar faolligini oshirishdagi institutsional va ijtimoiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Davlat siyosati, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, yoshlar harakatlari va ta‘lim muassasalari faoliyatidagi ekologik masalalarning integratsiyalashuvi mazkur jarayonning muhim jihati sifatida o‘rganiladi. Shu bilan birga, maqolada xalqaro tajriba va yoshlar ekologik faolligining global tendensiyalari bilan qiyosiy tahlil ham keltiriladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar siyosati, ekosiyosat, fuqarolik jamiyati, ekologik faollik, barqaror rivojlanish, iqlim o‘zgarishi, ijtimoiy mas‘uliyat, ekologik ta‘lim, NNT, davlat strategiyasi.

Bugungi kunda yosh avlod faqat ma'rifiy, siyosiy yoki iqtisodiy sohalarda emas, balki ekologik faoliyatda ham o'z salohiyatini namoyon etmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, barqaror resurslardan foydalanish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish kabi yo'nalishlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim platformaga aylandi. Bu jarayonda ekosiyosat markaziy o'rin egallab, fuqarolik jamiyatining shakllanishida yangi siyosiy va madaniy trendlarni belgilamoqda.

1. Ekosiyosat tushunchasi va uning ijtimoiy-siyosiy asoslari

Ekosiyosat bu davlatning atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va iqlim o'zgarishiga qarshi strategik chora-tadbirlar majmui bo'lib, u faqat tabiiy muhitga emas, balki jamiyat tuzilishi, fuqarolik faolligi va ijtimoiy barqarorlikka ham ta'sir ko'rsatadi. Ekosiyosiy yondashuvlarda barqaror rivojlanish tamoyillari, ekologik adolat, kelajak avlodlar uchun javobgarlik, ekologik demokratik ishtiroki kabi g'oyalar markaziy o'rinni egallaydi [1].

2. Ekosiyosat va yoshlar ijtimoiy faolligining o'zaro bog'liqligi

Yoshlar orasida ekologik madaniyat va ekologik dunyoqarashni shakllantirish, faqat ta'lim orqali emas, balki amaliyot, volontyorlik, jamoatchilik nazorati, tashabbuslar va muammolarni yechishda ishtirok orqali amalga oshirilishi zarur. Bu jarayonda ekosiyosat orqali yoshlarni rag'batlantirish mexanizmi — davlat siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Masalan, “Yashil makon”, “Obod qishloq”, “Yoshlar – tabiat himoyachisi”, “Eko-ta'lim” dasturlari va aksiyalari orqali minglab yoshlar ekologik hayot tarziga jalb etilayapti. Bu faoliyatlar orqali ularda faqat atrof-muhitga emas, balki jamiyatga bo'lgan mas'uliyat, hamjihatlik va fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi [3].

3. Davlat va fuqarolik institutlari hamkorligida yoshlarning ekofaolligini kuchaytirish

O'zbekistondagi davlat organlari, mahallalar, ta'lim muassasalari va NNTlar o'rtasidagi hamkorlik modeli ekologik siyosatni yoshlarga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Xususan:

O'zbekiston Ekologik partiyasi — yoshlar qanotini shakllantirib, turli ekologik forumlar va tadbirlar tashkil qilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalaridagi ekoklublar — talabalarni amaliy loyihalarga jalb etmoqda.

Nodavlat tashkilotlar, masalan, *Ekomaktab* va *Green Alliance Uzbekistan* kabi harakatlar — yoshlarning tashabbuslarini institutsional qo'llab-quvvatlamoqda.

4. Xalqaro tendensiyalar va O'zbekiston tajribasi

Global miqyosda, BMTning 2030 yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)da yoshlar ishtirokining ahamiyati alohida qayd etilgan.

Ayniqsa, 13-maqсад — iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashish boʻyicha yoshlarning faolligi talab etiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Oʻzbekistonda ushbu maqsadlar bilan uygʻunlashgan holda “yoshlar ekosi-yosati” rivojlanmoqda [2].

Ekosi-yosatning yoshlar faolligini ragʻbatlantirishdagi ahamiyati shundan iboratki, u jamiyatda ekologiyaga oid bilimlarni oshirish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, davlat va jamiyat oʻrtasidagi muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun:

Yoshlar uchun maxsus ekologik siyosiy taʼlim dasturlari ishlab chiqilishi;

yoshlar tashabbuslarini moliyaviy va huquqiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari yaratilishi;

ekologik faollikni davlat grantlari, tanlovlar, moddiy ragʻbatlantirish orqali kengaytirish;

taʼlim muassasalarida “ekologik fuqarolik” tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan tatbiq etish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisidagi Farmoni. 2023 yil.

2. Mirziyoev Sh.M. “Yangi Oʻzbekiston strategiyasi”. — T.: Oʻzbekiston, 2022.

3. UNESCO. “Education for Sustainable Development: Youth Engagement and Participation”. Paris: UNESCO, 2021.

4. United Nations. “Youth in Climate Action Report”. New York, 2020.

5. Xalqaro ekologik siyosat institutlari (IIEP, GEF, UNEP) hisobotlari, 2019–2024.

6. Toshkenbaeva G. “Ekologik madaniyat va yoshlar faolligi”. – T.: Fan, 2021.

7. YuNDOKS va Ekologik harakat partiyasi maʼlumotlari, 2020–2023.

INTERNET NASHRLARIDA OROL DENGIZI MUAMMOSINING YORITILISHI: TAHLILY YONDASHUV

Temirxanova Sapura Bahadir qizi

*OʻzDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti, magistrant
(+998905914161, temirxanovasapura@gmail.com)*

Annotatsiya. Mazkur maqola Orol dengizi ekologik inqirozining O‘zbekiston va Qozog‘iston internet nashrlarida qanday yoritilayotganini tahlil qiladi. Internet jurnalistikasining rivojlanishi ekologik mavzularni yoritishda yangi imkoniyatlar yaratdi. Tadqiqotda internet nashrlarida berilayotgan materiallar janri, mazmuni, vizual ifodasi, ularning ijtimoiy ta’siri va foydalanuvchilarning qabul qilishi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Orol dengizi, internet nashrlari, ekologik inqiroz, raqamli jurnalistika, ommaviy axborot vositalari, O‘zbekiston, Qozog‘iston.

Orol dengizi inqirozi global ekologik inqiroz sifatida internet yordamida keng yoritilmoqda. Bu vosita nafaqat jamoatchilikni xabardor qilish, balki ilmiy hamjamiyat va siyosatdonlarni birlashtirishda ham muhim ahamiyatga ega. Kelgusida internet texnologiyalaridan yanada samarali foydalanish Orol hududining ekologik tiklanishiga katta hissa qo‘shishi mumkin. Ma’lumotlarga qaraganda, global miqyosda internet foydalanuvchilari soni yildan-yilga o‘sib bormoqda. Masalan, 2023-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, o‘rtacha internet foydalanuvchisi kuniga 6 soat 37 daqiqa onlayn vaqt o‘tkazgan [1]. Bu esa ekologik muammolar bo‘yicha axborot tarqatishda internetning naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyoda ham internetdan foydalanish ko‘paymoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda Orol muammosi haqida ma’lumotlar tez tarqalib, yosh avlodning e’tiborini jalb qilmoqda. Bu, ayniqsa, Instagram va YouTube kabi platformalarda seziladi [2]. 2023-yilda o‘tkazilgan global so‘rovnomalar natijalariga ko‘ra, foydalanuvchilarning 45 foizi ekologik mavzular haqida ma’lumotni birinchi navbatda internetdan olishlarini bildirgan [3].

O‘zbekistonning rasmiy internet nashrlari, xususan, **Kun.uz**, **Gazeta.uz**, **Daryo.uz** va **Xabar.uz**, Orol muammosini yoritishda faol ishtirok etmoqda. Ushbu nashrlar Orol dengizining qurishi, ekologik oqibatlari, hukumat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va xalqaro hamkorlik haqida muntazam maqolalar chop etadi. Masalan, **Kun.uz** nashrida Qozog‘istonning Shimoliy Orol dengizini tiklash bo‘yicha amalga oshirgan chora-tadbirlari haqida maqola e’lon qilingan [4]. Ushbu maqolada Qozog‘istonning Shimoliy Orol dengizi suvini saqlash hajmini 42 foizga oshirgani, suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, baliqchilik va ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, nashrda Orol dengizi suvida faqat bitta jonzot omon qolgani haqida maqola chop etilgan. Maqolada Orol dengizining sho‘rlanishi natijasida faqat artemiya jonzoti omon qolganligi, bu jonzotning baliqchilikda ozuqa sifatida muhimligi va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar haqida so‘z yuritilgan [5].

Qozog‘istonning rasmiy internet nashrlari ham Orol muammosini yoritishda faol ishtirok etmoqda. Masalan, Kazinform [6] va Tengrinews.kz

[7] nashrlari Orol dengizining shimoliy qismini tiklash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, suv resurslarini boshqarish, ekologik holatni yaxshilash va baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha maqolalar chop etadi. Ushbu maqolalarda Qozog'iston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar, xalqaro hamkorlik va ekologik monitoring haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etiladi. Orol dengizi muammosi bo'yicha O'zbekiston va Qozog'iston olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, Ziyoviddin Akramov va Risqitilla Nurinboev tomonidan 1979 yilda yozilgan "Orol muammolari" nomli maqolada Orol dengizining qurishi, uning ekologik oqibatlari va yechimlari haqida so'z yuritilgan [8]. Shuningdek, Dilmurod Iminov tomonidan yozilgan "Orol dengizi muammosi va yechimlari: O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning olib borayotgan sa'y-harakatlari va istiqbollari" nomli maqolada Orol dengizi muammosining tarixiy sabablari, O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va xalqaro hamkorlik haqida tahliliy ma'lumotlar taqdim etilgan [9]. Yana bir misol, "Orol dengizini qurishidan kelib chiqadigan global muammolar va yechimlar" nomli maqolada Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolar, ularning global iqlimga ta'siri va yechimlari haqida so'z yuritilgan [10].

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining rasmiy "Ekologiya vazirligi" telegram kanalida va saytida 2023-yildan 2024 yilning fevraliga qadar e'lon qilingan jami 47 ta materialning 24 tasi video va tekst, 13 tasi foto va tekst, fotoreportajlar formatida uzatilganini ko'rish mumkin. Format tarafdin bu shuni anglatadiki, Orol dengiziga oid e'lon qilinayotgan ma'lumotlarning deyarli 2/3 bo'lagi video, qolgani foto formatda taqdim qilinmoqda. Vaholangki, hozirda ma'lumot uzatishning har xil ko'rinishlari, uzatish uchun qulay bo'lgan infografikalardan ham foydalanilmoqda. Shuningdek, auditoriyani tortadigan fotoreportajlarning ham kam berilishini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, kanalda Orol dengizi mintaqasi, aholining turmush tarzi, dengizning bugingu ko'rinishini tasvirlovchi fotoreportaj, videolar ham deyarli yo'qligini payqadim. Mazmunan esa, yuqorida qayd etganimizdek Orolbo'yi mintaqasiga dunyo e'tiborini qaratish maqsadida amalga oshirilgan tadbirlar, yugurish marafonlari, Orolning tarixi, uning atrofidagi boshqa orollar haqida ma'lumotlar va asosan "yashil o'rmon"larni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlardan iborat. Ma'lumot uzatishda shuni alohida takidlash kerakki, real hayot, reallik tasvirlangan har qanday narsa odamlar, jamoatchilik e'tiborini tortadi. Shu sababdan, Orolbo'yi mintaqasiga dunyo e'tiborini qaratish uchun shunchaki yugurish marafonlarini emas, real aholining turmush tarzini ko'rsatish, salomatlikni ko'rsatish alohida ahamiyat kasb etishi mumkin. Bundan tashqari, jurnalistlar ko'proq dengiz keltirib chiqarayotgan oqibatlarga faqat ekologik tarafdin qarayotganligini ham aytib o'tish zarur. Chunki bu faqat ekologik emas, boshqa barcha sohalarni ham qamrab

oladiku, ya'ni demografiya, iqtisodiyot, bandlik, salomatlik v.b. Kanalda 1,5 yil mobaynida hech qanday infografikalardan foydalanilmagan. To'g'ri, bu usulda asosan sonlardan, aniq faktlardan foydalaniladi. Shuning uchun Orolning faqat ekologik muammo ekanligini unutmagan holda, boshqa sohalarni ham o'z ichiga olgan infografikalar uzatish mumkin. Masalan, shu kunga qadar aholining salomatligi qanday ahvolda, daromadlari, yashash tarzi qandayligini jamlagan grafikalar ham taqdim qilish yoki shu kunga qadar dengizning qurigan tubiga yillar davomida qancha cho'lga chidamli o'simliklar ekilgaligini tasvirlovchi video, foto formatdagi materiallar taqdim qilish mumkin. Bu shubhasiz jamoatchilikning, hattoki xalqaro tashkilotlarning e'tiborini tortishi ham aniq. Yana shunday rejalarni oldinda qilinadigan ishlar uchun ham qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Orol dengizi muammosi internet nashrlarida muhim ekologik masala sifatida tan olingan bo'lsa-da, bu yoritilish ko'p hollarda yuzaki, rasmiy xabarlar doirasida qolmoqda. Mavzuni yanada kengroq, interaktiv, tahliliy va jurnalistik izlanishga asoslangan shaklda yoritish zarur. Xususan, inson huquqlari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar, ekologik migratsiya, sog'liqni saqlash, ta'lim, yoshlar va Orolbo'yi aholisining kundalik hayoti singari jihatlarni qamrab olgan materiallar tayyorlash, bu boradagi ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy onlayn platformalar faoliyatini kuchaytirish zarurdir. Bu esa nafaqat Orol muammosini kengroq auditoriyaga yetkazadi, balki bu ekologik fojining ijtimoiy ongdagi aksini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. DataReportal 2023. "Digital Overview Report."// URL: <https://datareportal.com/reports/digital-2024-deep-dive-the-state-of-internet-adoption>
2. ITU 2023. "Facts and Figures: Internet Use."// URL: <https://www.itu.int/itu-d/reports/statistics/2023/10/10/ff23-internet-use/>
3. DataReportal 2023. "Digital Overview Report."// URL: <https://datareportal.com/reports/digital-2024-deep-dive-the-state-of-internet-adoption>
4. Kun.uz. Qozog'iston Shimoliy Orol dengizi suvini 42 foizga oshirdi – 13-yanvar, 2025. <https://kun.uz/news/2025/01/13/qozogisshirdi>
5. Kun.uz. Orol dengizida faqat bitta jonzot omon qoldi – maqola. 2025. Havola: <https://kun.uz/67362467>
6. Kazinform. Northern Aral Sea restoration project - overview and progress (Qozog'iston yangilik agentligi) 2024.
7. Tengrinews.kz. Kazakhstan expands fish farming in Aral region – ekologiya va iqtisodiy rivojlanishga oid maqola. 2024.
8. Akramov, Z. va Nurinboev, R.. Orol muammolari. Sovet davri matbuoti. 1979.

Havola: <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/sovet-davri-matbuoti/ziyoviddin-akramov-risqitilla-nurinboev-orol-muammolari-1979>

9. Iminov, D. Orol dengizi muammosi va yechimlari: O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning olib borayotgan sa’y-harakatlari va istiqbollari. *Nordic Scientific Journal*. 2022.

Havola: <https://ojs.nordicun.uz/index.php/nordic/article/view/1739>

10. Mamatov, O. Orol dengizini qurishidan kelib chiqadigan global muammolar va yechimlar. *Open Science Uzbekistan*. 2023.

Havola: <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6674>

IQLIM O‘ZGARISHI VA UNING GLOBAL XAVFSIZLIKKA TA’SIRI

Bozorboyev Eldorbek Husniddin o‘g‘li

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti
Siyosatshunoslik yo‘nalishi 3 kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola iqlim o‘zgarishining global miqyosdagi xavfsizlikka ko‘rsatayotgan ta‘sirini har tomonlama tahlil qiladi. Iqlimning keskin isib borishi, qurg‘oqchilik, suv tanqisligi, dengiz sathining ko‘tarilishi, o‘rmonlarning qisqarishi kabi ekologik o‘zgarishlar nafaqat tabiatga, balki inson xavfsizligi, iqtisodiyot, oziq-ovqat xavfsizligi, migratsiya oqimlari va hatto siyosiy barqarorlikka ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Maqolada iqlim o‘zgarishining xavfsizlik bilan bevosita va bilvosita aloqalari, jumladan, suv resurslari uchun raqobat, qurolli ziddiyatlarning kuchayishi, zamonaviy xavfsizlik paradigmasidagi o‘zgarishlar, xalqaro tashkilotlarning (BMT, NATO, IPCC) ushbu masalaga yondashuvi hamda mavjud strategik yechimlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo va O‘zbekiston misolida iqlim o‘zgarishining mintaqaviy tahdid darajasi tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy xulosasi shundan iboratki, iqlim muammosi global xavfsizlikning ajralmas elementi sifatida qaralishi, davlatlararo hamkorlikning kuchaytirilishi va iqlimga moslashuv strategiyalarining amaliyotga joriy etilishi zarurdir.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, global xavfsizlik, ekologik tahdidlar, suv tanqisligi, migratsiya, oziq-ovqat xavfsizligi, qurolli mojarolar, BMT, iqlim xavfsizligi, barqaror rivojlanish, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston.

So‘nggi o‘n yilliklarda insoniyat duch kelayotgan eng jiddiy tahdidlar qatorida iqlim o‘zgarishi o‘z dolzarbligi va keng qamrovi bilan ajralib turadi. Ushbu hodisa tabiiy muvozanatning buzilishi, havo haroratining ko‘tarilishi, ekstremal ob-havo sharoitlarining ko‘payishi, global suv tanqisligi va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solayotgan omillar bilan chambarchas bog‘liq.

Iqlim o'zgarishi endilikda faqatgina ekologik muammo emas, balki global xavfsizlikka bevosita tahdid soluvchi geosiyosiy va strategik masalaga aylanib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, NATO, Jahon Banki kabi yirik xalqaro tuzilmalar ham iqlim muammosini global xavfsizlik bilan chambarchas bog'liq deb e'tirof etmoqda.

2021-yilda BMT Xavfsizlik Kengashi iqlim o'zgarishini qurolli ziddiyatlar, terrorchilik, suv va resurslar bo'yicha nizolar, hamda majburiy migratsiyalarni keltirib chiqaruvchi xavf omili sifatida rasman tan oldi. Hisob-kitoblarga ko'ra, haroratning o'rtacha 1.5°C ko'tarilishi 2030-yilgacha dunyodagi 700 milliondan ortiq odamni suv va oziq-ovqat tanqisligiga duchor qilishi mumkin. Dengiz sathining ko'tarilishi esa yirik port shaharlar, orol davlatlari va qirg'oqbo'yi hududlarini mavjudlikdan mahrum qilmoqda. Bunday ekologik siljishlar ijtimoiy tanglikni kuchaytiradi, ishsizlik, resurslar uchun raqobat va migratsion bosimni keskin oshiradi.

Ayniqsa, iqlim o'zgarishining xavfsizlik bilan bog'liq jihatlari o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Birgina Afrika qit'asida so'nggi 20 yillikda yuz bergan 40 dan ortiq qurolli mojarolarning sababi sifatida suv resurslari va chorva yaylovlari uchun raqobat ko'rsatilgan. Yaqin Sharqda esa qurg'oqchilik va yer degradatsiyasi Suriya inqirozining boshlanishida muhim rol o'ynagan omillardan biri bo'ldi. Bularning barchasi shuni ko'rsatmoqdaki, ekologik beqarorlik nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va harbiy nizolarga ham sabab bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan O'zbekiston ham ushbu global iqlim o'zgarishlaridan mustasno emas. Aral dengizining qurishi, Amudaryo va Sirdaryoning sathi pasayishi, yozgi issiqning keskin kuchayishi va yomg'ir miqdorining kamayishi bu yerda yashayotgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, mintaqadagi transchegaraviy suv manbalarining cheklanganligi, ularning boshqaruvidagi kelishmovchiliklar kelajakda hududiy ixtiloflar ehtimolini oshiradi.

Maqolaning mazkur qismida aynan iqlim o'zgarishining global xavfsizlikka ko'rsatayotgan real va potensial tahdidlari, ekologik xavf manbalari va ularning xalqaro munosabatlar hamda xavfsizlik paradigmasiga kiritayotgan o'zgarishlari chuqur tahlil qilinadi. Ilmiy izlanishlar orqali ko'plab mamlakatlarda olib borilayotgan iqlim xavfsizligi bo'yicha strategiyalar, harbiy bloklar va nodavlat tashkilotlar yondashuvi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning ushbu yo'nalishdagi siyosati, qabul qilingan milliy konsepsiyalar, ekologik diplomatiya va mintaqaviy hamkorlik bo'yicha tashabbuslari ham yoritib beriladi.

Shu tarzda, iqlim o'zgarishi va xavfsizlik masalasi o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalar, ularning zamonaviy tahdidlar kontekstidagi o'rni, davlatlararo strategik fikrlash va global barqarorlikka ta'siri ushbu ilmiy maqola doirasida ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali ko'rib chiqiladi. Bu

esa mavzuning nafaqat dolzarbligini, balki ilmiy-amaliy ahamiyatini ham belgilab beradi.

NATIJARLAR

Iqlim o'zgarishining inson xavfsizligiga ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, global haroratning ko'tarilishi bilan tabiiy ofatlar soni va intensivligi oshmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, jahonda 400 dan ortiq yirik iqlim bilan bog'liq ofatlar ro'y bergan bo'lib, bu 1990-yillardagi o'rtacha ko'rsatkichdan 3 barobar ko'pdir.

Suv resurslarining kamayishi natijasida Afrika, Osiyo va Yaqin Sharqdagi aholining katta qismi ichimlik suvi ta'minotida muammolarga duch kelmoqda. Bu esa sog'liqni saqlash, oziq-ovqat ishlab chiqarish va sanitariya tizimlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, Sahroi Kabir janubida joylashgan davlatlarda suv uchun nizolar sababli 2020-2024 yillar oralig'ida 2000 dan ortiq qurolli to'qnashuvlar qayd etilgan.

Yomg'ir miqdorining pasayishi va vegetatsion mavsumlarning qisqarishi sababli qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligi keskin tushib ketmoqda. Jahon oziq-ovqat dasturining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil holatiga ko'ra 783 milliondan ortiq odam ochlik xavfi ostida qolmoqda. Iqlim o'zgarishi bu ko'rsatkichning har yili o'sishiga sabab bo'layotgan asosiy omillardan biridir.

Migratsiya oqimlari sezilarli darajada kuchaygan. Har yili 25–30 million odam iqlim bilan bog'liq sabablarga ko'ra o'z yashash hududlarini tark etmoqda. Bu esa yangi joylarda ijtimoiy beqarorlik, ish o'rinlari uchun raqobat va siyosiy keskinliklarni keltirib chiqarmoqda. 2050-yilga borib bu raqam 200 millionga yetishi mumkinligi prognoz qilinmoqda. Iqlim o'zgarishi qurolli mojarolar xavfini ham oshirmoqda. Masalan, Sudanning Darfur mintaqasidagi qurolli ziddiyatlar boshlanishiga yer va suv resurslari tanqisligi sabab bo'lgan. Suriya inqirozi ham 2006–2010 yillardagi qurg'oqchilik, qishloq aholisi migratsiyasi va iqtisodiy bosimlarning jamlanmasi natijasida yuzaga kelgan. Dengiz sathining ko'tarilishi orol davlatlari va qirg'oqbo'yi megashaharlari uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bangladesh, Indoneziya, Filippin va Tinch okeani orollari iqlim qochqinlari manbai sifatida dunyo siyosiy xaritasida tobora muhim o'rin egallamoqda. Bu esa xalqaro huquqda "iqlim qochqinlari" tushunchasini rasmiylashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Energetika sektori ham iqlim ta'siridan mustasno emas. Termoelektr stansiyalarida suv yetishmovchiligi, shamol va quyosh elektr stansiyalarida ob-havoga bog'liqlik sababli barqaror elektr ta'minoti xavf ostida qolmoqda. Energiya ta'minotidagi uzilishlar esa sanoat, sog'liqni saqlash va xavfsizlik tizimlarini izdan chiqaradi. Ekstremal ob-havo hodisalari aholining psixologik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. AQShda 2022-yilda qayd etilgan iqlimga bog'liq ofatlar natijasida 150 mingdan ortiq fuqaro travmatik stress sindromi, xavotir va depressiyadan aziyat chekkan. Bunday salbiy psixologik ta'sirlar ijtimoiy ishonch, fuqarolik barqarorligi va xavfsizlik tuyg'usini zaiflashtiradi.

Harbiy sohalarda ham iqlim o'zgarishi strategik rejalarni qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. NATOning 2023-yilgi hisobotida iqlim o'zgarishi harbiy tayyorgarlik, infratuzilma, logistika va rejalashtirishga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida e'tirof etilgan. Ko'p sonli harbiy bazalar dengiz sathining ko'tarilishi natijasida xavf ostida qolmoqda. Suv havzalari bo'yicha transchegaraviy bahslar kuchaymoqda. Orol dengizi havzasi, Nil daryosi, Yevfrat-Tigr daryolari bo'yicha ko'p tomonlama kelishmovchiliklar mintaqaviy xavfsizlikni zaiflashtirmoqda. Bu holat iqlimga oid diplomatiya va resurslar ustidan adolatli nazoratni ta'minlash zarurligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston misolida Aral fojiasi global iqlim xavfsizligining mahalliy tus olgan klassik namunasi hisoblanadi. Suv sathining keskin pasayishi, atmosfera changining kuchayishi va salomatlik ko'rsatkichlarining yomonlashuvi aholi turmush darajasini pasaytirmoqda. Shu bilan birga, hukumat tomonidan qabul qilingan "Yashil makon", "Iqlim strategiyasi – 2030" dasturlari ushbu tahdidlarga qarshi tizimli kurashayotganini ko'rsatadi.

Orolbo'yi hududlarida yashovchi aholining iqlimga moslashuv darajasi ijtimoiy inklyuziya va ta'lim dasturlari orqali oshirilmoqda. Bu hududlardagi issiqxona loyihalari, dam olish infratuzilmasi va suv tejevchi texnologiyalar mahalliy xavfsizlik strategiyalarining bir qismiga aylangan. Jahon miqyosida esa iqlim xavfsizligi bo'yicha yondashuvlar xilma-xil. Ayrim davlatlar bu masalani geosiyosiy ustunlik vositasi sifatida ko'rayotgan bo'lsa, boshqalar uni ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyot bilan bog'lamoqda. Iqlim adolatini ta'minlash uchun Global Janub davlatlariga moliyaviy yordam ajratish muhim hisoblanadi.

Iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri ayollar va bolalar orasida yanada kuchliroq sezilmoqda. Oziq-ovqat yetishmovchiligi, suv uchun uzoq masofalarga yurish, maktabni tark etish holatlari ko'paymoqda. Bu esa gender tengligi va inson huquqlari sohasidagi yutuqlarga tahdid solmoqda.

BMTning "Senday risklarni kamaytirish dasturi" doirasida davlatlarga iqlim xavfini milliy xavfsizlik strategiyalariga integratsiya qilish tavsiya etilmoqda. Bu degani, har bir davlat iqlimni nafaqat ekologik, balki harbiy va geosiyosiy omil sifatida ham baholashi lozim.

Iqlim xavfsizligini ta'minlash uchun ko'p darajali hamkorlik – davlatlararo, mintaqaviy va global darajada – zarur. Mavjud tahdidlarni to'liq anglash, erta ogohlantirish tizimlarini kuchaytirish, xavf zonalarini kartalashtirish, yashil texnologiyalarni ommalashtirish bu yo'nalishdagi muhim yo'nalishlar sirasiga kiradi. Ta'lim va ommaviy axborot vositalari orqali iqlimga oid xavf xabardorligini oshirish ham dolzarb vazifa hisoblanadi. Aholining ekologik savodxonligi qancha yuqori bo'lsa, shuncha tez va moslashuvchan reaksiya berish imkoniyati kuchli bo'ladi. Shuningdek, xususiy sektorning ishtiroki iqlim xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Kompaniyalar iqlim xavfini korporativ strategiyalarga integratsiya qilgan holda, barqaror ishlab chiqarish, yashil investitsiyalar va uglerod izini

kamaytirishga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilmoqda. Yuqoridagi barcha tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi inson xavfsizligining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatuvchi ko'p qirrali va murakkab tahdiddir. Unga qarshi kurashish uchun innovatsion yondashuvlar, xalqaro birdamlik va strategik fikrlash muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA

Iqlim o'zgarishi bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan eng murakkab, ko'p qirrali va transmilliy muammolardan biri sifatida global xavfsizlik diskursida yetakchi mavzulardan biriga aylandi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sanoat inqilobining kuchayishi, uglerod chiqindilarining keskin ortishi, o'rmonlarning kesilishi va ekologik muvozanatning buzilishi natijasida Yerning o'rtacha harorati 1,1 daraja Selsiyga ko'tarilgan. Bu ko'rsatkich 2100-yilga borib 2,7 darajagacha yetishi mumkinligi prognoz qilinmoqda.

Bunday isish jarayoni nafaqat tabiat tizimlariga, balki inson xavfsizligi, jamiyat barqarorligi, iqtisodiy rivojlanish va siyosiy boshqaruvga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. AQSh Milliy Xavfsizlik Strategiyasi (2022)da iqlim o'zgarishi harbiy tahdidlar bilan teng darajada xavf sifatida ko'rilmoqda. Bu esa muammoning dolzarbligini xalqaro siyosiy darajada tan olinganini ko'rsatadi.

Iqlim o'zgarishi va xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlik eng avvalo resurslar uchun raqobatda yaqqol ko'zga tashlanadi. Suv va qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tanqisligi tufayli Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharqda tobora ko'proq ijtimoiy ziddiyatlar, etnik mojarolar va kuchli migratsion oqimlar yuzaga kelmoqda. 2023-yilda Afrikada suv resurslari tufayli 124 ta mahalliy mojarolar qayd etilgan.

Iqlim inqirozi oziq-ovqat zanjiriga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda global g'alla ishlab chiqarish 8 foizga kamaygan. Bunday kamayish asosan Hindiston, Pokiston, Eron va Shimoliy Afrikadagi qurg'oqchiliklar bilan bog'liq. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligi va narxlar barqarorligiga tahdid tug'diradi.


Orol dengizi ekologik fojiasi O'zbekiston uchun iqlim xavfsizligining naqadar dolzarb ekanini isbotlovchi misoldir. Suv resurslarining noto'g'ri boshqaruvi natijasida yuzaga kelgan ushbu holat mintaqada sog'liq muammolari, iqtisodiy tanazzul va ekologik migratsiyaning asosiy sababiga aylangan. Bu holat butun dunyo uchun ogohlantiruvchi dars bo'lishi kerak. Dengiz sathining ko'tarilishi boshqa xavfsizlik yo'nalishlariga ham ta'sir qilmoqda. Indoneziyaning Jakarta shahrining 2025-yilgacha qisman suv ostida qolishi mumkinligi sababli mamlakat poytaxtini ko'chirish haqida qaror qabul qilgan. Bunday qarorlar davlat byudjetiga, ijtimoiy tartibga va strategik xavfsizlik siyosatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Iqlim o'zgarishi inson sog'lig'i bilan ham uzviy bog'liq. WHO (Butunjahon sog'liqni saqlash

tashkiloti) ma'lumotlariga ko'ra, iqlim bilan bog'liq ofatlar natijasida har yili 250 ming odam erta vafot etadi. Bu ko'rsatkich yillar o'tgan sari ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, issiq to'lqinlari yurak-qon tomir va nafas olish tizimlariga og'ir zarba bermoqda. Ekstremal ob-havo hodisalari ortidan keladigan migratsion bosim ham xavfsizlikka tahdid solmoqda. 2022-yilda BMT Qochqinlar Agentligi tomonidan "iqlim qochqinlari" deb atalmish yangi toifani rasmiy tan olish masalasi ko'rib chiqildi. Bu shuni ko'rsatadiki, global iqlim inqirozi inson huquqlari va xalqaro huquq tizimida ham tub o'zgarishlar keltirib chiqarmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarining tanqisligi mintaqaviy xavfsizlik muammosini keskinlashtirayotgan omillardan biridir. Amudaryo va Sirdaryo bo'yicha Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston o'rtasida kelishuvlar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ko'plab ziddiyatli holatlar saqlanib qolmoqda. Bu kelajakda mojarolar ehtimolini oshirishi mumkin. Ko'plab rivojlangan davlatlar iqlimga moslashish strategiyasini milliy xavfsizlik rejalariga integratsiya qilmoqda. Masalan, Germaniya, Kanada va Avstraliya iqlimni harbiy tahdidlar darajasida baholab, maxsus "Iqlim xavfsizligi strategiyalari"ni ishlab chiqqan. Bu yondashuv ekologik tahdidlar va harbiy xavfsizlikni yagona tizimda baholashga yo'l ochmoqda. Xususi sektor, ayniqsa yirik korporatsiyalar, uglerod neytrallik maqsadlariga erishish uchun keng ko'lamlı tashabbuslar boshlamoqda. Masalan, Microsoft 2030-yilgacha uglerod emissiyalarini nolga tenglashtirishni, Apple esa butun ta'minot zanjirini "yashil" qilishni maqsad qilgan. Bu esa iqtisodiy xavfsizlik va ekologik barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiradi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) ichida iqlim o'zgarishi bo'yicha 13-maqsad global hamkorlikni talab qiladi. Ammo amaliyotda bu boradagi moliyaviy va texnik resurslar teng taqsimlanmagan. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqlim oqibatlariga qarshi kurashish uchun yetarli moliyaviy yordam ololmayapti, bu esa global ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytiradi.

2023-yilda BMT Iqlim Sammitida iqlim moliyasi bo'yicha 100 milliard dollarlik fond yaratish taklifi ilgari surildi. Biroq ushbu mablag'larning amaliy taqsimoti, shaffofligi va samaradorligi borasida hali ko'plab savollar mavjud. Iqlim xavfsizligiga oid siyosiy irodani moliyaviy mexanizmlar bilan muvofiqlashtirish dolzarb masalalardan biridir. Texnologik innovatsiyalar, xususan sun'iy intellekt, dronlar, meteorologik monitoring tizimlari va smart qishloq xo'jaligi echimlari iqlim tahdidlarini barvaqt aniqlash va ularga qarshi kurashishda samarali vositaga aylanishi mumkin. Ammo bu texnologiyalarning global miqyosda teng taqsimlanishi hali ham zaif. Iqlim bilan bog'liq xavflarni oldindan bashorat qilish tizimlari kuchaytirilmoqda. Masalan, Yaponiya, Norvegiya va Janubiy Koreya erta ogohlantirish tizimlari orqali minglab insonlarning hayotini saqlab qolmoqda. Bunday tizimlarni O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarga joriy etish global xavfsizlik strategiyasining bir bo'lagi bo'lishi kerak.



Bu grafik iqlim o'zgarishining **ikki asosiy global xavfsizlik tahdidi** – **haroratning ortishi** va **klimatik migratsiya** – orasidagi **uzviy bog'liqlikni** vizual ko'rinishda aks ettiradi. Harorat ortgani sari migratsion bosim kuchaymoqda. Bu esa hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyatlari uchun ogohlantiruvchi signal sifatida xizmat qilishi kerak.

Aholining iqlim savodxonligini oshirish iqlim xavfsizligining ijtimoiy poydevoridir. Bu orqali fuqarolar ekologik muammolarga faol javob qaytara oladi, davlat siyosatlarini qo'llab-quvvatlaydi va xavf oldini olishda ishtirok etadi. Shu bois, ta'lim tizimida iqlim masalalarini integratsiya qilish zarur.

Ayollar va yoshlarning iqlim xavfsizligidagi roli ortib bormoqda. Ular ko'pincha resurslar yetishmovchiligi va migratsiya oqibatlariga birinchi bo'lib duch kelishadi. Shu sababli gender yondashuvi va yoshlar siyosati ham iqlim xavfsizligi kontekstida alohida o'rganilishi lozim. Iqlim xavfsizligi faqat bir davlat yoki mintaqaning ishi emas, balki butun insoniyat taqdiriga daxldor masala hisoblanadi. Uning yechimi xalqaro birdamlik, hamkorlik, axborot almashinuvi va adolatli siyosiy qarorlar qabul qilinishiga bevosita bog'liq. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi global xavfsizlik muammosi sifatida dolzarbligini tobora kuchaytirib bormoqda. Bunga qarshi kurashda har bir sektor, davlat, xalqaro tashkilot va har bir fuqaroning o'z hissasi bo'lishi lozim.

XULOSA

Iqlim o'zgarishi XXI asrning eng muhim global muammolaridan biri sifatida insoniyat xavfsizligiga tahdid solmoqda. Maqola davomida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqlimdagi keskin o'zgarishlar faqat ekologik tizimlarni emas, balki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni ham chuqur silkitmoqda. Suv tanqisligi, oziq-ovqat xavfsizligi, migratsiya, qurolli

mojarolar, sog‘liq muammolari, milliy va mintaqaviy siyosiy beqarorlik — bularning barchasi iqlim inqirozining bevosita yoki bilvosita natijalaridir.

Yil sayin kuchayib borayotgan tabiiy ofatlar, masalan, dovullar, qurg‘oqchilik, toshqinlar va o‘rmon yong‘inlari ko‘plab hududlarda aholi yashash sharoitini izdan chiqarmoqda. Dengiz sathining ko‘tarilishi esa qirg‘oqbo‘yi shaharlari va orol davlatlarini yo‘qolib ketish xavfi bilan yuzma-yuz qoldirmoqda. Bu esa iqlimga oid mojarolarni nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlik tahdidi sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

BMT, NATO, IPCC va boshqa yirik xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham iqlim xavfsizligi tushunchasini global xavfsizlik paradigmasiga integratsiya qilish zarurligini asoslaydi. Bu kontekstdan kelib chiqqan holda, milliy xavfsizlik strategiyalarida iqlim bilan bog‘liq xavflarga alohida e‘tibor qaratilishi talab etiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham bu tahdid jiddiy ahamiyat kasb etadi. Aralbo‘yi inqirozi, transchegaraviy suv manbalari muammolari, qishloq xo‘jaligi resurslarining kamayishi va ekologik muvozanatning buzilishi bu yerda yashovchi aholi xavfsizligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Iqlim xavfsizligini ta‘minlash uchun nafaqat hukumat darajasida, balki xalqaro, mintaqaviy va mahalliy hamkorlik doirasida chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim. Bu borada quyidagi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi: ekologik diplomatiyani kuchaytirish, iqlimga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish, barqaror energetika tizimlarini yaratish, iqlim xavfsizligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, va aholining ekologik savodxonligini oshirish.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- ❖ Iqlim o‘zgarishi xavfsizlikka tahdid soluvchi eng asosiy global omilga aylanmoqda.

- ❖ Xavfsizlikni ta‘minlash uchun ekologik yondashuvlar bilan strategik rejalashtirish uyg‘unlashishi zarur.

- ❖ Iqlim xavfsizligi davlat siyosatining ajralmas bo‘lagi bo‘lishi kerak.

- ❖ Iqlim inqiroziga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik va adolatli moliyaviy mexanizmlar muhim o‘rin tutadi.

- ❖ O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot, ekologik innovatsiyalar va mintaqaviy hamkorlik asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Shunday qilib, iqlim o‘zgarishi xavfiga qarshi kurashish nafaqat ekologik muammo, balki xavfsizlik, taraqqiyot va barqarorlik masalasi sifatida ko‘rilmog‘i zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati ro‘yxati:

1. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). (2021). Climate Change 2021: The Physical Science Basis. – Cambridge: Cambridge University Press. – 394 p.
2. United Nations Security Council. (2022). Climate and Security: Annual Report. – New York: UN Publications. – 112 p.
3. World Bank. (2023). Climate Change and Fragility in Developing Countries. – Washington D.C.: World Bank Group. – 87 p.
4. FAO. (2022). The Impact of Climate Change on Food Security. – Rome: Food and Agriculture Organization. – 75 p.
5. Germanwatch. (2023). Global Climate Risk Index 2023. – Berlin: Germanwatch e.V. – 56 p.
6. National Geographic Society. (2022). Climate Change and Human Migration. – Washington D.C.: NGS. – 60 p.
7. BMT O‘zbekiston vakolatxonasi. (2021). Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha milliy harakatlar strategiyasi. – Toshkent: BMT O‘zbekistondagi vakolatxonasi. – 49 b.
8. Ministry of Ecology of Uzbekistan. (2023). Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish strategiyasi. – Toshkent: Ekologiya vazirligi. – 62 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2022). “Yashil makon” umumxalq harakati to‘g‘risida. – Toshkent: Prezident matbuot xizmati.
10. NATO. (2023). Climate Security Risk Assessment Report. – Brussels: NATO Publications. – 95 p.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT: O‘ZBEKISTON TASHABBUSLARI VA XALQARO HAMKORLIK

Qurolboyeva Maftuna Olimjon qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistika fakulteti

Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Tel:+998948260501, maftunaqurolboyeva237@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish zarurati, O‘zbekistonning bu boradagi milliy tashabbuslari, strategik hujjatlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, yashil energetika, suv resurslarini boshqarish, chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalarda olib borilayotgan amaliy ishlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, O‘zbekiston, xalqaro hamkorlik, ekologik xavfsizlik.

KIRISH. Yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy rivojlanishni ta’minlovchi tizimdir. BMT tomonidan e’tirof etilgan bu model bugungi kunda dunyo mamlakatlari uchun dolzarb yo‘nalish hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan O‘zbekiston, ekologik jihatdan zaif hudud bo‘lib, cho‘llanish, suv tanqisligi va sanoat chiqindilarining ortishi kabi xavf-xatarlarga duch kelmoqda. Shu bois, yashil iqtisodiyotga o‘tish — O‘zbekiston uchun strategik zaruratga aylangan. Yashil iqtisodiyot atamasi bugungi kunda global miqyosda barqaror rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar tanqisligi va atrof-muhit muhofazasi muammolari bu yondashuvni dolzarb etmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi ham bu global chaqiriqlardan mustasno emas. Mintaqaning geoiqtisodiy va ekologik jihatdan zaifligi yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni taqozo etmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lida bir nechta tashabbuslarni ilgari surgan. O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot konsepsiyasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2019-yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” bu boradagi muhim hujjat sanaladi [1]. Ushbu strategiya doirasida quyidagi sohalarga ustuvor ahamiyat qaratilgan:

Yashil energetika: quyosh, shamol va gidroenergiya manbalarini rivojlantirish. Masalan, Nurobod va Qashqadaryoda qurilgan quyosh elektr stansiyalari bunga misoldir.

Suv resurslarini boshqarish: suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish, yer osti suvlari monitoringi, drenaj tizimlarini yaxshilash.

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish: 2030-yilgacha elektr energiyasining kamida 25% ini qayta tiklanuvchi manbalardan olish rejalashtirilgan [2].

Chiqindilarni boshqarish: chiqindilarni ajratish, utilizatsiya qilish va qayta ishlash infratuzilmasini yaratish.

1-jadval.Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi(%)[3]:

Davlat	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi(%)	Ma’lumot yili
O‘zbekiston	10%	2023
Qozog‘iston	12%	2023
Qirg‘iziston	89%(asosan GES)	2023
Turkmanisto	2%	2023
n Tojikiston	98%(Asosan GES)	2023

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Tojikiston va Qirg‘iziston GESga asoslangan yashil energiyada yetakchi hisoblanadi. O‘zbekiston esa qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirish bosqichida.

O‘zbekiston yashil iqtisodiyot sohasida qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan: BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bilan “Yashil iqlim fondi” orqali iqlimga chidamli loyihalar amalga oshirilmoqda [4]. Yevropa Ittifoqi bilan ekologik loyihalar, xususan, chiqindi va suv resurslari boshqaruvi sohasida grantlar asosida ishlanmalar olib borilmoqda [5]. Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki bilan energetika sohasida ekologik toza texnologiyalarni joriy qilishda hamkorlik qilinmoqda [6].

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan mintaqaviy dasturlari : “Markaziy Osiyo iqlim muhofazasi tashabbusi” doirasida tajriba almashish va qo‘shma loyihalarni ishlab chiqish yo‘lga qo‘yilgan [7]. Yevropa Ittifoqi (YeI) bugungi kunda dunyodagi eng faol yashil siyosat yurituvchi mintaqaviy tashkilotlardan biri hisoblanadi. 2019-yilda qabul qilingan “Yashil kelishuv” (European Green Deal) strategiyasi orqali YeI 2050-yilgacha karbon neytrallikka erishishni maqsad qilgan. Unga ko‘ra, energetika, transport, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda ekologik barqarorlik asosiy tamoyil bo‘lib xizmat qiladi. Bu dastur doirasida YeI boshqa mamlakatlar, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan ham yashil iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga intilmoqda.

2- jadval. “Yashil” loyihalarga jalb qilingan xalqaro moliyalashtirish (mln AQSH dollari) [8]:

Tashkilot	O‘zbekiston	Qozog‘iston	Qirg‘iziston
	n		n
BMT Taraqqiyot Dasturi	45mln	60mln	20mln
Yevropa Ittifoqi	80mln	100mln	30mln
Jahon Banki	120mln	200mln	50mln

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar Markaziy Osiyo davlatlariga ajratilgan ekologik yo‘nalishdagi moliyaviy ko‘mak hajmini aks ettiradi. O‘zbekiston ushbu moliyaviy yordamdan faol foydalangan davlatlar qatorida bo‘lib, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya va chiqindilarni boshqarish sohasidagi loyihalarda katta moliyalashtirishga ega bo‘lgan.. Qozog‘iston ham yirik miqdorda mablag‘ jalb qilgan bo‘lsa, Qirg‘iziston aosan GESlarni modernizatsiya qilishga e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida so‘nggi yillarda bir nechta yo‘nalishlarda yashil iqtisodiy loyihalar amalga oshirila boshladi: Qayta tiklanuvchi energiya: YeI tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar orqali O‘zbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish rejalashtirilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqining “Switch Asia” dasturi doirasida energiya samaradorligini oshirish loyihalari amalga oshirilmoqda [9]. Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonda organik dehqonchilik va agroekotizimlarni rivojlantirishga yordam bermoqda. Bu esa eksport

salohiyatini oshirishi bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

3-jadval. Elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi “yashil energiya” ulushi [10]:

Davlat	Quyosh	Shamol	Gidro	Umumiy yashil energiya
O‘zbekiston	5%	2%	3%	10%
Qozog‘iston	6%	4%	2%	12%
Qirg‘iziston	0%	0%	89%	89%

Jadvalda qayd etilganidek, O‘zbekiston quyosh va shamol energiyasi bo‘yicha imkoniyatlar hali to‘liq ishga solinmagan. Gidroenergetika ulushi nisbatan kichik.

XULOSA

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi faol harakatlari nafaqat ichki siyosat, balki mintaqaviy barqarorlik va ekologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Bu boradagi xalqaro hamkorlik esa bilim almashish, investitsiya jalb qilish va texnologiyalar transferini ta‘minlab, barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida yashil iqtisodiyotga o‘tish — global iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va ekologik barqarorlik ehtiyoji fonida dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, O‘zbekiston bu borada mintaqada yetakchi o‘rin egallamoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosati, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, ekologik qonunchilikni kuchaytirish, aholi va tadbirkorlar o‘rtasida yashil texnologiyalarni rag‘batlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Xalqaro hamkorlik bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, Yevropa Ittifoqi, BMT, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda moliyaviy va texnik ko‘mak asosida ekologik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa O‘zbekistonni nafaqat mintaqaviy, balki global ekologik muammolarga javob beruvchi davlat sifatida ko‘rsatmoqda. Shunga qaramay, mavjud muammolar ham e‘tibordan chetda qolmasligi lozim. Jumladan, texnologik infratuzilmaning to‘liq shakllanmaganligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi, ekologik ong darajasining pastligi kabi omillar yashil iqtisodiyot siyosatini to‘liq amalga oshirishda to‘siq bo‘lmoqda. Bu holatlarni bartaraf etish uchun uzoq muddatli strategik rejalashtirish, ekologik ta‘lim tizimini rivojlantirish, xususiy sektorni faol jalb etish va aholining ekologik madaniyatini oshirish lozim. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot sohasidagi tashabbuslari mintaqaning ekologik barqarorligi va barqaror iqtisodiy o‘shishida muhim omilga aylanmoqda. Ushbu yondashuv faqatgina O‘zbekiston manfaatlariga emas, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining

barqaror kelajagiga xizmat qiladi. Davlat va jamiyat kuchlarini birlashtirgan holda, ekologik muvozanatni ta'minlash va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish borasida yanada katta yutuqlarga erishish mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida (PF-5863-son Farmon). <https://lex.uz>
2. Iqlim o'zgarishi bo'yicha Respublika komissiyasi. (2023). O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish borasidagi strategik yo'nalishlari. Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
3. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). Supporting Uzbekistan's transition to a green economy. <https://www.uz.undp.org>
4. World Bank. (2022). Green growth for sustainable development in Uzbekistan. <https://www.worldbank.org>
5. Asian Development Bank (ADB). (2023). Uzbekistan: Climate change and environmental sustainability. <https://www.adb.org>
6. Delegation of the European Union to Uzbekistan. (2022). EU – Uzbekistan cooperation on green economy projects. <https://www.eeas.europa.eu>
7. CAREC Program. (2021). Promoting regional approaches to green development. <https://www.carecprogram.org>
8. Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). Yashil iqtisodiyot: O'zbekiston amaliyoti va istiqbollari [Seminar materiallari]. Toshkent.
9. Karimova, G. (2022). Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish: O'zbekiston tajribasi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
10. Green Climate Fund, UNEP, GEF. (2023). Uzbekistan project database and green economy initiatives. <https://www.greenclimate.fund>, <https://www.unep.org>, <https://www.thegef.org>

CHEGARADAN O'TGAN SUV: AFG'ONISTONING QO'SHTEPA LOYIHASI VA UNING MARKAZIY OSIYOGA TA'SIRI

*Sharifova Arjumandbonu Hamid qizi,
Ostanaqulova Hilolaxon Furqat qizi*

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti Xalqaro Jurnalistika
fakulteti Siyosatshonoslik yo'nalishi 2-bosqich talabalari*

(arjumandhamidovna7@gmail.com, hilolaastanakulova@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afg'onistonda qurilayotgan Qo'shtepa kanali va uning mintaqaviy suv siyosatiga ta'siri tahlil qilinadi. Afg'onistan

bu daryo suvidan foydalanishi orqali O‘zbekiston va Turkmanistonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekologik va mintaqaviy muammolar yoritiladi. Va bu muammolarni bir necha yechimlari ham keltirilgan. Shuningdek ushbu maqolada Qo‘shtepa kanali qurulishi haqida ma‘lumotlar bilan birgalikda xaqlaro maydonda kanal haqida fikr mulohazalari ham mavjud.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, Qo‘shtepa, O‘zbekiston, Turkmaniston

Suv resurslari Markaziy Osiyoda mintaqasida strategik va ekologik jihatdan muhim hisoblamadi. Ayniqasa, Afg‘oniston shimolidan oqib o‘tuvchi Amudaryo mintaqada muhim omil hisoblanib, O‘zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston hayoti uchun muhim manbadir. So‘ngi yillarda qurilayotgan Qo‘shtepa kanali esa mintaqaga ekologik va siyosiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu maqolada Qo‘shtepa kanalining qurilishi, uning texnik vositalari, mintaqaviy ta‘siri va suv resurslari taqsimlanishidagi ehtimoliy mopjoralar va oqibatlari tahlil qilinadi. Amudaryo markaziy osiyodagi eng muhim transchegaraviy daryolardan biri hisoblanadi. Bu daryo tub mahalliy aholi uchun bir necha yuz yillar davomida hayotiy eng muhim omil bolib kelmoqda. bunga sabab amudaryoning pomir tog‘laridan boshlanib Tojikiston, Afg‘oniston va O‘zbekiston Turkmanistan hududlaridan otib orol dengiziga quyulishidir. shuningdek keltirilgan davlatlarni ozining suv orqali bog‘lovchi bolib ham foaliyat yuritgan. Ammo bu daryo endi nafaqat hayot balki, endi siyosiy manfaatlar markaziga aylanmoqda.

Amudaryo — xalq tilida Jayhun nomi bilan mashhur. Daryo uzunligi 2400 km, daryo deltasi 534739 Km kub Amudaryo hozirgi Tojikistonning Pomir tog‘i etaklaridagi Pang va Vaxsh daryolarining birlashuvidan boshlanib O‘zbekiston, Afg‘oniston va Turkmaniston hududlaridan o‘tadi va tobora qurib borayotgan Orol dengiziga borib quyiladi. Amudaryo tarkibi: qum, gil va loy, kalsiy, magniy, natriy va sulfatdan iborat. Hayvonat olami Ilonbaliq, qisqichbaqasimonlar qaqnus, qoplon qush toshbaqa va xavf ostida Amudaryo to‘g‘on baliqlari, oq turna, oq o‘rdak qara lebek o‘rdak kabi jonzotlar suv tanqisligi, zaharlanish, iqlim o‘zgarishi tufayli kamayib bormoqda va xattoki ayrim turlari yo‘qolib ketish arafasida. Amudaryo daryosining davlatlar bo‘yicha uzunligi va ulushi: Tojikistonda daryo uzunligi taxminan 280 km, ulushi 11%ni tashkil etib, daryo asosan tog‘li hududlardan oqib. Suv zaxirasining katta qismini tashkil qiladi. Afg‘onistonda esa daryo uzunligi 1125 km bo‘lib, ulushi 44%dir, daryo mamlakatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kesib o‘tmaydi, biroq Tojikiston, O‘zbekiston va Turkmaniston bilan chegaradosh hududlaridan oqib o‘tadi. So‘ngi yillarda Afg‘oniston suv resursidan faolroq foydalanishga harakat qilmoqda. O‘zbekiston hududida Amudaryoning uzunligi 650, ulushi 25%. Daryo davlatimizning markaziy va shimoliy qismlarida muhim ro‘l o‘ynaydi. Ayniqsa Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Buxoro va Qoraqalpog‘iston hududlari Amudaryo suvidan bevosita foydalanadi. Turkmaniston hududi

bo‘ylab oqadigan qismi taxminan 485 kmni tashkil etib, 19% ulushga ega. Daryodan ajraladigan suv resurslari orqali yirik sug‘orish tizimlari xususan, Garagum magistral kanali tufayli cho‘l hududlari ham o‘zlashtirilgan.

Amudaryo — to‘rt davlatni bog‘lab turuvchi, ammo suvdan foydalanish borasida turli manfaatlar va siyosiy pozitsiyalarni ifoda etuvchi transchegaraviy daryodir. 1997-yilda transchegaraviy daryolar bo‘yicha BMT konvensiyasi qabul qilingan.[1] 1966-yildagi Helsinki qoidalar[2] yoki 2004-yilda qabul qilingan Berlin qoidalar[3] xalqaro suv huquqlari bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari Amudaryo suvidan foydalanib kelmoqda. Ayniqsa, 1987-yilda Sovet Ittifoqi tomonidan Amudaryo suv resurslarini sovet respublikalari o‘rtasida taqsimlashga doir muvofiqlashtirilgan kelishuv[4] asosida protokol tuzilib, Afg‘onistondan tashqari Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha davrlarning yillik foydalanish ulushi: Tojikiston 15%, O‘zbekiston 43%, Turkmaniston 43% ni tashkil etgan. Biroq, Amudaryoning 44% Afg‘oniston hududidan o‘tganligi bois, rasmiy kvota ajratilmaganligiga qaramasdan bu davlat yiliga 2,1 milliard metr kub atrofida foydalanib kelgan. So‘ngi yillarda Afg‘onistonning Amudaryo suvidan foydalanish ulushi keskin ortib bormoqda, bunga sabab esa Qo‘shitepa kanalidir. Bu kanal 285 km uzunlikda, eni o‘rtacha 100 metr, chuqurligi 6-8 metr bo‘lib, sug‘oriladigan maydoni 550000 gektar. Qurilish ishlari 3 bosqichda amalga oshirilmoqda. 1-bosqichi 2022-yilda boshlandi va 2023-yil tugatildi. Bu bosqichda kanal o‘tadigan yerlar aniqlangan va qazish ishlari boshlangan va taxminan 108 km uzunlikdagi boshlang‘ich qismi qazib bitkazilgan. Bu boshqich natijasida 3500 yangi ish o‘rni yaratilib, 3000 dan ziyod texnik vositalar jalb etilgan. 2-bosqich 2023 yilda oktabrda boshlandi va hozirga qadar davom etmoqda. Bu bosqichda kanaldan ajralib chiqadigan kichik tarmoqlar qurish, nasos stansiyalari va sug‘orish uchun yerlarni tayyorlash kabi qismlarni o‘z ichiga oladi. 3-bosqich 2025-2028-yillarni o‘z ichiga oladi, kanalning oxirgi 90-100 km qismini yakunlash, sun‘iy yo‘ldosh orqali kuzatuv ishlarini yo‘lga qo‘yish, iqtisodiy-texnik xizmat ko‘rsatish tizimini barpo etish, hududlarni barqaror qishloq xo‘jaligiga o‘tkazilishi kutilmoqda. Shimoliy Afg‘onistonning Balx viloyati Qaldar tumanidan boshlanib, Javsjan viloyatdan o‘tib, Faryab viloyatining Anxay tumanida tugallanishi kutilmoqda[5]. Loyiha Sovet qo‘shinlarining Afg‘onistonga bostirib kirishi haqida kuchli eslatma bo‘lib, u ham zo‘ravon, ham unutilmas edi. Bu Afg‘onistonning birinchi prezidenti Muhammad Dovudning merosiga murojaat qiladi. O‘zining ilg‘or siyosati, xususan, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish rejalari va turli iqtisodiy modernizatsiya sa‘y-harakatlari bilan mashhur bo‘lgan Dovud hokimiyatni qonsiz to‘ntarish orqali qo‘lga kiritganidan so‘ng ko‘p o‘tmay Qo‘shitepa kanali loyihasini ishlab chiqdi, bu monarxiyaning tugatilishi va 1973-yilda Afg‘onistonning birinchi prezidenti bo‘lishiga turtki bo‘ldi[6]. Qo‘shitepa kanalining qurilish kanali qurilish ishlari Afg‘oniston Muxolifat hukumati tomonidan ham 2018-yildan

rejalashtirilgan, ammo uni davom ettirish va tugatish ishlari Tolibon hukumatiga me'ros bo'lib qoldi. 2022-yil 30-martda Tolibon bosh vazir o'rinbosari Mulla Abdul G'ani Baradar Qo'shtepa kanali qurilish ishlariga boshchilik qila boshladi. Bu loyihaning maqsadi: Afg'oniston qishloq xo'jaligi va iqtisodiy o'sishini qo'llab-quvvatlashdir. Bu kanal tufayli hozirda Afg'onistonda aholisi uchun 3500 ta bo'sh ish o'rni yaratildi va loyiha yakunlangach taxminan 200,000 yangi ish o'rni yaratilishi kutilmoqda. Bu ish o'rinlari: sug'orish tizimlari, qishloq xo'jaligi va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarini qamrab oladi. Kelajakda Qo'shtepa kanali nafaqat Afg'oniston aholisi uchun bo'sh ish o'rinlari yaratadi, baliki ularni oziq-ovqat muammosidan ham qutqaradi. Natijada Afg'oniston ijtimoiy muammolarini hal qilib, qo'shni davlatlarga o'z mahsulotlarini eksport qilishi mumkin. Afg'oniston Qo'shtepa kanali orqali Amudaryo suvining yiliga 12-15% idan foydalanishni maqsad qilgan bu esa, daryoning past oqimda joylashgan O'zbekiston va Turkmaniston davlatlarining qishloq xo'jaligiga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Buning oqibatida ushbu mamlakatlarda suv tanqisligi vujudga kelishi taxmin qilinmoqda. Kanal qurilishi uchun umumiy hisobda 684 million AQSH dollar pul miqdori sarflanishi rejalashtirilgan. Afg'oniston bu katta miqdordagi pulini qayedan va kimdan olmoqda? Rossiyalik ekspert Andrey Serenko shunday deydi: "Tolibonning puli bor; ular foydali qazilmalar qazib olish va kontrabandadan, giyohvand moddalar savdosidan, tranzit avtotransportdan va hokazolardan pul topishadi. Tolibonning yetakchi rahbarlari dollarli millionerlar. Ular faol va muvaffaqiyatli ravishda jihodchi maqomini kapitalistlarga aylantirmoqdalar.

"Tolibonning moliyaviy imkoniyatlari juda katta. Ular, xususan, "g'azablangan" mullalarga davlat byudjetining yarmini harbiy sohaga (armiya, politsiya, razvedka va boshqalar) sarflashga ruxsat berishadi. Bu esa juda katta pul", - deydi rossiyalik ekspert. Uning ta'kidlashicha, "Tolibon" Qatar, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) kabi davlatlardan ham tashqi moliyaviy yordam olgan[7]. Hozirda Afg'oniston yillik daromadi 2024-yil holatiga ko'ra YaIMining tahminiy miqdori 18 milliard AQSH dollarini tashkil etadi va kanal qurilishini Afg'oniston davlat kompaniyasi boshqarmoqda. Afg'oniston matbuoti keltirilgan ma'lumotlariga qaraganda, Qo'shtepa kanalining ikkinchi bosqichining ochilish marosimida ishtirok etish uchun Balx viloyatiga borgan Islom amirligining yuqori martabali mulozimlari Afg'oniston o'z g'alla yetishtirish bo'yicha o'zini-o'zi ta'minlay olishini ta'kidlagan. Bosh vazirning iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Mulla Abdul G'ani Baradar "Islom Amirligi qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligiga jiddiy e'tibor qaratish niyatida, chunki Qo'shtepa kanali qurilishida uning yaxshi namunasi borligiga guvoh bo'lamiz" - deb aytgan edi[8].

Qo'shtepa kanalining Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan O'zbekiston va Turkmanistonga ehtimoliy ta'siri va oqibatlari qanday? Ba'zi bir ekspertlar Qo'shtepa kanalini "Soatli bomba" ga qiyoslashmoqda. Chunki

kanal qurilish ishlari tugallangandan so'ng, 5-6 yilda Amudaryo quyi oqimida joylashgan O'zbekiston va Turkmaniston davlatlarining daryodan foydalanish ulushi 80%dan 65% ga pasayadi. Buning natijasida bu davlatlarda suv tanqisligi, irrigatsiya muammolari, cho'llanish va keyinchalik hattoki oziq-ovqat yetishmovchiligi kabi dolzarb muammolar vujudga kelishi ehtimoli yuqori. Yuqorida sanab o'tilgan ehtimoliy muammolarga qaramasdan, Qo'shtepa kanalining qurilishiga O'zbekiston hukumati iliq munosabatda. "O'ylab qarasangiz, afg'onlar ham bizning qarindoshimiz. Ularning ham Amudaryodan suv olishga haqqi bor. Ijtimoiy tarmoqlarda odamlar Qo'shtepa quryapmiz, shunday bo'layapti, shunday bo'lyapti, deb yozishadi. Nima, qurol olib, ular bilan jang qilishimiz kerakmi? Yo'q, biz ular bilan shug'ullanamiz, biz qarindoshmiz, munosabatlarimizni yaxshilashga harakat qilamiz. Shunda ularga to'g'riroq tushuntiramiz" Hujjatlar bo'ladi, boshqa qadamlar bo'ladi, muloqot orqali hammasini hal qilamiz, - dedi O'zbekiston suv xo'jaligi vaziri Shavkat Hamroev[9].

Qo'shtepa kanali qurilishi 2028-yilda tugallanadi, u keltirib chiqaradigan tabiiy muammolarga qanday yechimlar mavjud!?

Bugungi kunda suv tanqisligi dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida ayniqsa O'zbekiston, Turkmaniston davlatlarida suv tanqisligi muammolari kundan-kunga kattalashib bormoqda. Bu muammolarga yechim sifatida degradatsiyaga qarshi kurashishni keltirish mumkin. Degradatsiyaga uchragan yerlar; Qoraqalpog'istonning Qozobketken, Bo'zatov, Qong'iro't va Orol dengizi hududlari O'zbekistonning Buxoro, Navoiy, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari, Turkmanistonda Karakum cho'li, Lebap, Dashoguz, Mary viloyatlaridir. Degradatsiya uchragan yerlarni tuproq holatiga qarab zonalarga ajratiladi; A zona- barqaror va serunum yerlar B zona- yengil degradatsiyaga uchragan yerlar C zona-og'ir degradatsiyaga uchragan yerlar D zona-qayta foydalanishga yaroqsiz, konservatsiyaga muhtoj yerlar. Zonalarga bo'lingandan so'ng tuproq holatidan kelib chiqqan holatda o'simliklar ekilib monitoring qilinadi. Degradatsiyagab uchragan yerlarda va undagi o'simliklarda suvni saqlab qolish va tajash uchun Gidrogel moddasidan foydalanish zarur. Gidrogel — bu juda ko'p miqdorda suvni o'ziga singdira oladigan polimer modda. U tuproqqa qo'shilganda, yomg'ir yoki sug'orish paytida suvni o'ziga shimib oladi va keyin asta-sekin o'simlik ildizlariga beradi. Gidrogelning suv tanqisligiga foydasi:

1. Suv tejaydi — gidrogel tuproqdagi namlikni uzoq saqlaydi, shuning uchun sug'orish kamroq kerak bo'ladi.

2. Hosildorlikni oshiradi — suv barqaror ta'minlangani uchun o'simliklar yaxshi o'sadi.

3. Qurg'oqchil hududlar uchun mos — ayniqsa cho'l yoki yarim cho'l hududlarda juda foydali.

4. Eroziyani kamaytiradi — kamroq sugʻorish tufayli tuproq yuvilib ketmaydi.

5. Tuproq sifatini saqlaydi — tuproqning namligini tartibga soladi, bu esa foydali mikroorganizmlar uchun qulay muhit yaratadi.

Xulosa, Afgʻonistonda qurilayotgan Qoʻsh-tepa kanali Afgʻonistonga foyda keltiradi, ammo uning chegaradosh hududlariga katta zarar yetkazadi. Ushbu holatda Markaziy Osiyo davlatlari transcheraviy Amudaryo suv resurslarini boshqarishda kelishuvga erishish muhim sanaladi va bu oraqali mintaqada barqaror rivojlanish va yaxshi qoʻshnichilik aloqalarni rivojlanadi. Shunday ekan, Qoʻsh-tepa kanalining taʼsiri nafaqat texnik-inshoot masalasi, balki Markaziy Osiyo mintaqasining kelajagi uchun strategik geosiyosiy muammo hisoblanadi.

Foydalaniygan adabiyotlar roʻyxati:

1. https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/8_3_1997.pdf
2. https://www.internationalwaterlaw.org/documents/intldocs/ILA/ILA-HelsinkiRules1966-as_amended.pdf
3. https://www.internationalwaterlaw.org/documents/intldocs/ILA/ILA_Berlin_Rules-2004.pdf
4. <https://www.unomaha.edu/international-studies-and-programs/center-for-afghanistan-and-regional-studies/academics/transboundary-water-research/DLM13/DLM13.php>
5. <https://www.idsa.in/publisher/issuebrief/afghanistans-qosh-tepa-canal-potential-impact-on-uzbekistan-and-turkmenistan>
6. <https://thediplomat.com/2023/12/the-qosh-tepa-canal-a-source-of-hope-in-afghanistan/>
7. <https://old.asiaplustj.info/en>
8. <https://old.asiaplustj.info/en>
9. <https://kun.uz/en>

ZAMONAVIY EKOLOGIK SIYOSAT VA BARQAROR RIVOJLANISH: XALQARO TAJRIBA VA ISTIQBOL

Sharifjonova Jallbek Anvarovch,

Oʻzbekiston Davlat Jahon tillari universiteti,

Siyosatshunoslik 2-kurs talabasi

Tel: +998 90 799 59 80,

jalilbeksharifjonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro maydondagi ekologik vaziyat, ekologik xavf-xatarlar, yirik korxonalar faoliyatining ekologiyaga taʼsiri haqida soʻz ketadi. Global ekologik muammolarni oldini olishda jahon

davlatlarining o'zaro hamkorligi, bu hamkorlikning shartnomalar va aktlar orqali mustahkamlanishi yoritiladi. BMTning bu boradagi faoliyati va ekologik barqarorlikni saqlashga qaratilgan dasturlarining maqsadlari, vazifalari ko'rsatilgan. Bundan tashqari, jahon davlatlari zamonaviy ekologik siyosatini qanday shakllantirishi, milliy dasturlari va iqtisodiyotning ekologik zararlariga optimal yechim sifatida "yashil iqtisodiyot" modeliga o'tishi muhokama qilinadi. "Yashil iqtisodiyot" modeliga o'tishda ba'zi davlatlarning strategiyalari va islohotlari keng yoritiladi. Shu bilan birga O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini qabul qilishdagi o'z yondashuvi, islohotlari va istiqboli haqida kengroq yoritiladi. **Kalit so'zlar:** Ekologik siyosat, yashil iqtisodiyot, BMT, konsepsiya, karbon chiqindilari, issiqxona gazlari, yashil texnologiyalar, karbon dioksid, sof energiya, "Yashil bitim".

Sanoat inqilobi insoniyatga o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun juda ko'plab imkoniyatlarni yaratib berdi. Fan va texnikadagi yutuqlar insonlarga fazoni o'zlashtirish, ko'plab sanoat robotlarini yaratish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, sun'iy idrokni yaratish va ko'pgina kashfiyotlarga yo'l ochdi. Zamonaviy dunyoda insoniyat ehtiyojlari shu qadar ko'paymoqdaki, bu esa ishlab chiqarish hajmining ortishiga, ko'plab resurslarning safarbar etilishiga olib keldi. Agar insoniyatning tabiiy resurslarga bo'lgan talabi hozirgi sur'atda o'sishda davom etsa, 2030-yilda inson hayotini ta'minlash uchun ikkita hozirgi sayyora ekvivalenti va 2050-yilda 2,8 sayyora kerak bo'ladi [1]. Rivojlanayotgan va rivojlanmoqchi bo'lgan davlatlar mamlakat faravonligini ta'minlash uchun mamlakat iqtisodiyotiga katta sarmoya kiritishga, eksport va import salohiyatini yaxshilashga harakat qiladilar. Tabiiyki, bunday o'zgarishlar juda katta tabiiy resurslarni talab qiladi. Butun dunyoda faoliyat yuritayotgan korxonalar iste'molchilar ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda, tashqariga juda katta chiqindilar, atmosferaga esa zaharli gazlarni ishlab chiqaryapti. Bu esa o'z navbatida, atrof-muhitga katta miqdorda zarar yetishiga, tabiiy resurslarni ham kamayishiga, global iqlimning o'zgarishiga, yashil olamning yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, atrof-muhitdagi bunday o'zgarishlar insonlarning salomatligiga, turmush faoliyatining salbiy tomonga burilishiga olib keldi. Inson ehtiyojlari bir tomondan qoplansa, yana bir tomondan boshqa manfaatlari zarar ko'ryapti. Jahon hamjamiyati iqtisodiy o'sishning global ekologik muammolarga sabab bo'layotgani, bu muammolarning insoniyat kelajagiga xavf solishini chuqur anglagan holda, bunga turli xil yechimlar topishga harakat qiladi va o'z ekologik siyosatini isloh qilishga, yashil iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlarini oshirishga harakat qiladi. Darhaqiqat, yashil iqtisodiyot tamoyillari iqtisodiy foydani kamaytirmagan holda, ekologik xavflardan chiqib ketishni optimal varianti hisoblanadi.

Dunyo davlatlari ekologik siyosatini isloh qilar ekan, bu borada o'zaro hamkorlik masalalarini ham ko'rib chiqadi. Bu hamkorlik esa turli bitimlar, konvensiyalar, xalqaro huquqiy hujjatlar va kelishuvlar misolida ham o'z aksini topadi. Jumladan, "Parij" bitimi, "Kyoto" protokoli, "Monreal" protokoli, Stokgolm konvensiyasi ana shunday ekologik barqaror rivojlanish maqsadlar bayon etilgan bitimlar hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Atrof-muhit" bo'yicha dasturi (UNEP) davlatlararo ekologik siyosatni muvofiqlashtirish bo'yicha harakat olib boradi.

Global ekologik muammolarni kuzatish, tahlil qilish, aniqlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish bilan shug'ullanadigan bu muassasa, hukumatlarga ekologik barqarorlikka erishish strategiyalarni ishlab chiqarishda ko'maklashish, ekologik qonunchilikni ilgari surish bilan shug'ullanadi. Bu tadqiqotlar orqali har yili hisobot taqdim etadi. Bu dastur tomonidan tayyorlangan oltinchi global ekologik (GEO-6) hisobotda ham, atrof-muhit, iqtisodiyot va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liq ekanligi, 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibi uchun yo'nalishlar beriladi. Atrof-muhit muammolari kambag'allik, farovonlik, ish o'rinlari, ishlab chiqarish uslublari, innovatsiyalar va resurslarning mavjudligi yoki tanqisligi kabi asosiy iqtisodiy masalalar bilan ijobiy hamda salbiy jihatdan chambarchas bog'liq. Bir tomondan, iqtisodiyot ekologik muammolarining asosiy manbai bo'lsa, boshqa tomondan, ekologik muammolar tobora ko'proq iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'lmoqda. So'nggi maqolalarda qayd etilishicha, ifloslanish natijasida yuzaga keladigan farovonlik yo'qotishlari yiliga taxminan 4,6 trillion AQSh dollariga teng, bu esa "jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 6,2 foizini tashkil etadi. Ko'plab mamlakatlar hanuzgacha "hozir o's, keyin tozala" tamoyiliga amal qilmoqda. Ushbu hisobot esa bunday yondashuv barqaror emasligini ko'rsatadi, chunki dunyo allaqachon ko'plab sohalarda sayyoraviy chegaralarni kesib o'tgan — bu holat iqtisodiy o'sishni izdan chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, bu usul aksariyat mamlakatlar uchun yanada qimmatga tushadi, chunki ekologik zararlarni keyinchalik bartaraf etish, odatda, oldini olishga qaraganda ancha xarajatli bo'ladi. Bu yondashuv moliyaviy qiymatini yo'qotgan aktivlarni yuzaga keltiradi va sog'liq uchun qayta tiklab bo'lmaydigan salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Natijada, bunday iqtisodiyot samarasiz va raqobatbardosh bo'lmaydi. Aksincha, barqaror, innovatsion va resurslardan oqilona foydalanadigan iqtisodiyotga o'tishni boshqarishga qodir moslashuvchan va oldini oluvchi (proaktiv) yondashuv mamlakatlarga tez rivojlanayotgan, ekologik ongli ichki va eksport bozorlarida katta imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi [2].

Davlatlar ekologik siyosatini barqaror rivojlanish uchun, "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga murojat qiladi. Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy rivojlanish modeli bo'lib, iqtisodiy samaradorlikni kamaytirmagan holda

atrof-muhitni muhofaza qiladi. Yashil iqtisodiyotning maqsadi ekologik xavflar va resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytirishdir. Shuning uchun, past karbon chiqindilari, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy integratsiya joriy etilishi mumkin. Shu kontekstda, yashil iqtisodiyot shamol energiyasidan foydalanish kabi yangi alternatalarni qo'llashi mumkin. Shamol energiyasi elektr energiyasi ehtiyojining 47%, isitish uchun 25% va transport uchun 22% qismini qondira oladi. Quyosh energiyasining darajasiga kelsak, u 2009-yilga nisbatan, 66% ga rivojlangan, 2010-yil oxirida dunyo bo'ylab fotoelektrik qurilmalar quvvati 35000 megavattga yetgan bo'lib, bu 35 ta yadro reaktorining quvvatiga teng va bu kichik, qisqa muddatli xarajatlar bilan amalga oshirilgan.

Yashil iqtisodiyot tabiatning ahamiyati va investitsiyaning foydasi degan ma'noni anglatadi. Bu, shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish va energiya faollashuvini ta'minlashni, ya'ni uni asrashni talab qiladi [3]. Bu konsepsiya qo'shimcha ish o'rinlarini ko'paytirish bilan bir qatorda, unga sarf qilinadigan harajatlarni kamayishiga va foydali ish ko'effitsienti oshishiga sabab bo'ladi. Rivojlangan davlatlar o'z qudratiga og'ir sanoatning rivojlanishi, texnologiyalarning rivojlanishi va ko'plab resurslarning safarbar etilishi hisobiga erishadi. Aynan shu jahon iqtisodiyotiga ta'sir etadigan gegemon davlatlar dunyo ekologiyasiga ham juda katta ta'sir ko'rsatadi. Yirik korxonalar ishlab chiqarayotgan karbon dioksid (CO₂) kabi issiqxona gazlari global iqlim o'zgarishini keltrib chiqaradi.

Global ekologik o'zgarishlar, global iqtisodiy inqirozlar, ekologik beqarorlik tufayli ishlab chiqarish sanoatining zaiflashuvi davlatlar siyosatining o'zgarishiga, muammoga yechim sifatida yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga bosqichma-bosqich ko'chishiga olib keladi. Bu yondashuvda davlatlar turli optimal variantlarni qo'llab ko'rdi. Dunyoning yirik davlati hisoblanmish Aqshda ham yashil iqtisodiyot modeliga o'tish uchun aniq bir milliy dastur yo'q. AQSH hukumati "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda yashil iqtisodiyot mahsulotlari uchun bozorlarni shakllantirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, ilg'or "yashil texnologiyalar"ni amaliyotga joriy etishni qo'llab-quvvatlash va "yashil" tashabbusni mahalliy darajada rag'batlantirishga ustuvorlik bermoqda [4]. Jumladan, 1970-yillardagi neft inqirozi davridayoq Aqshda "yashil energetika"ni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosati boshlangan. Global moliyaviy inqiroz esa Aqshda bu sohaning jadal rivojlanishiga turtki boldi. 2009-yilda qabul qilingan "Amerikani ta'mirlash va qayta investitsiyalash to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi yirik tashabbus sifatida baholanadi. Ushbu qonunga ko'ra, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish uchun 1.6 milliard mablag' ajratilgan va muqobil energiya ishlab chiqaradigan kompaniyalarga kreditlar ajratishda imtiyozlar berildi.

Bundan tashqari, 2035-yilga qadar mamlakatda ishlab chiqariladigan energiyaning 80 foizi “sof energiya” manbalari hisobidan shakllanishi maqsad qilingan. Yevropa ittifoqi ham global o’zgarishlarga qarshi kurash uchun ko’plab konsepsiyalarni qabul qilgan. “Yevropa 2020” rivojlanish strategiyasi, “Yevropa yashil bitimi” dasturi shular jumlasidandir. Birgina “Yashil bitim” dasturiga qaraydigan bo’lsak, bu dastur Yevropa Ittifoqining COVID-19 pandemiyasi inqirozidan keying iqtisodiy tiklanish jarayonidagi ustuvor yo’nalishlarni belgilab beradi. Yevrokomissiya rahbari Ursula fon der Lyayen dasturni tanishtirishda “Yevropa yashil bitimi – bu bizning yangi o’sish strategiyamiz. U ishchi o’rinlarini yaratish bilan bir vaqtda issiqxona gazlarini chiqarish imkonini beradi”, deya ta’kidlab o’tgan bo’lsa, Yevrokomissiya vitse-prezidenti Frans Timmermans esa “biz aholi farovonligini yaxshilash va kelajak avlod uchun sog’lom sayyorani ta’minlashga yordam beruvchi “Yashil va inklyuziv o’tish”ni taklif etamiz”, deya aniqlik kiritdi [5]. Bu dasturda issiqxona gazlari emissiyasini 2030-yilga qadar 40 foiz qisqartirish mo’ljallangan.

Sof va xavfsiz energiyadan foydalanish, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy infratuzilmani rag’batlantirish, energiya samaradorligini oshirish va mahsulotlarning eko-dizaynini yaxshilash kabi qator vazifalar mo’ljallangan. Issiqxona gazlarining asosiy qismini o’zida mujassam etgan avtomobilsozlik sanoatini isloh qilish orqali, barqaror va intellektual transportga o’tishni jadallashtirish kabi amaliy choralar yo’lga qo’yilgan. Germaniyada “yashil iqtisodiyot”ni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashda soliqqa tortish, davlat xaridi, texnik tartibga solish, intellektual mulkni himoyalash, maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirish kabi dastaklardan foydalaniladi [6]. Bunda korxonalar innovatsion faolligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratilib, soliq imtiyozlari orqali qo’llab-quvvatlanadi. Ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiyalar moliyalashtirilib, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan ishlab chiqarish korxonalari o’rtasida hamkorlik darajasi muntazam oshirib boriladi va bio, nanotexnologiyalarga asoslangan loyihalar rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi. Germaniyada Aqshdan farqli o’laroq aniq konsepsiya mavjud. Konsepsiyaga muvofiq, qayta tiklanadigan energiya ulushini energiya is’temoli tarkibida 2030-2050-yillarda 30 foizdan 60 foizga oshirish rejalashtirilgan.

O’zbekiston jadal rivojlanayotgan davlatlar qatorida ekan, mamlakatda juda katta ijobiy o’zgarishlar amalga oshdi. Iqtisodiy salohiyati kengaydi, innovatsion texnologiyalar taraqqiy eta boshladi. Ko’plab davlatlar bilan keng masshtabdagi hamkorlik ko’plab yutuqlar va tajribalarni O’zbekistonga kirib kelishiga olib keldi. Rivojlanayotgan davlatlar qatori O’zbekiston ham “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini qabul qilib, mamlakat iqtisodiyotini bosqichma-bosqich bu modelga o’tkazmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yilning 14-yanvar kuni Birlashgan Arab Amirliklari poytaxtida o’tayotgan “Abu-Dabi barqaror rivojlanish

haftaligi” sammitida soʻzlagan nutqi ham, mamlakatning bu yoʻlda qatʼiyat bilan harakat qilayotganini taʼkidlaydi. Davlat rahbari oʻz nutqida bugungi kunda energetika manbalarini diversifikatsiya qilish, ulardagi uglevodorod ulushini keskin kamaytirish – iqlim oʻzgarishi keskin oqibatlarini yumshatish, barqaror rivojlanish va global xavfsizlikni taʼminlashning asosiy sharti ekanligini taʼkidladi.

“Yangi Oʻzbekistonning strategik maqsadi – ekologik barqarorlikni taʼminlash iqtisodiy oʻsishning resusrlar tejamkorligiga asoslangan “yashil” rivojlanish modeliga oʻtishdir. Shu bois 2025-yilni Oʻzbekistonda “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yil” deb eʼlon qildik, - dedi Shavkat Mirziyoyev [7]. Bu shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston oʻz ekologik siyosatini ancha takomillashtirgan va yanada rivojlantirish maqsadida, qator amaliy qadamlar tashlamoqda. Jumladan, “Oʻzbekiston – 2030 strategiyasi”da, Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga taʼsir oʻtkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish va ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummiy loyihasini kengaytirish kabi qator aniq maqsadlarni qoʻygan. Bunga koʻra, yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalari va lokal suv tozalash inshootlarini oʻrnatish hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish, 14 ta ekologik toza hudud rejimini joriy qilish, shaharlar bosh rejalarini tuzishda ular hududining kamida 30 foizini yashil maydonlar tashkil etishi, turar joy binolarini qurishda “yashil maydon”larni aholining soniga mutanosib boʻlishini taʼminlash, atrof muhitga taʼsir xavfi yuqori daraja (I toifa)dagi obyektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalari olish tizimini tatbiq etish, atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish tizimini rivojlantirish kabi qator vazifalar qoʻyildi.

Ustuvor maqsadlardan boʻlgan “yashil makon” doirasida har yili 200 million tup daraxt ekib borish va respublikada yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, ekiladigan har bir daraxtni parvarish qilish va sugʻorish tizimini yaratish, 1984 ta yashil bogʻlar barpo etish, shu jumladan 112 ta yirik sanoat korxonasi tomonidan oʻz va tutash hududlarida uch yil davomida 30 million tup koʻchatdan iborat “yashil belbogʻ”larni barpo etish kabi vazifalar belgilandi. Barcha davlat idoralari, korxonalar, taʼlim muassasalari hududlarida “yashil bogʻlari”ni tashkil etish, Toshkent shahrida yashil maydonlar hududini 5 barobar koʻpaytirib, 5 ming gektarga yetkazish, “yashil makon” umummiy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yoʻlga qoʻyish, shahar va tuman markazlarida har 50 – 100 ming aholi uchun “jamoat parklari”ni tashkil etish kabi rejalar tuzilda va bajarilishi belgilandi [8].

Bu strategiyaning 51-bandida, “yashil iqtisodiyot”ga o’tish, uning asosi bo’lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko’rsatkichlarini keskin oshirish maqsadi belgilanib, bu maqsad doirasida qayta energiya manbalarini jami iste’moldagi ulushini 40 foizga yetkazish, sanoatda “yashil sertifikat”lar bozorini rivojlantirish va “ekologik markirovkalash” amaliyoti joriy qilinadi. Bundan tashqari, shaharlarda jamoat transporti ekologik toza yoqilg’iga o’tkaziladi va elektr stansiyalari modernizatsiya qilinib, bu orqali tabiiy gaz sarfi kamaytiriladi. O’zbekistonda bu maqsadlar fonida jadal harakat qilyapmoqda. Chunki mintaqada suv muammosi ham chuqurlashib boryabdi, doimiy havo ifloslanishi natijasida poytaxt Toshkent PM (Particulate Matter) ya’ni havodagi mayda zarrachalar miqdori bo’yicha doimo yuqori o’rinni egallaydi. Sanoat korxonalari, transport tizimi bunga ta’sir ko’rsatib, boshqa geografik sabablar ham bunga ta’sir ko’rsatadi. O’zbekiston barqaror ekologik rivojlanishga erishmoqchi ekan, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, xususan, filtrlash tizimini isloh qilishi, korxonalar va ilmiy-tadqiqot markazlari o’rtasida samarali hamkorlikni yo’lga qo’yishi kerak. Mamlakatda chiqindilar, resurslarni qayta ishlash korxonalarini ko’paytirish, ularni zamonaviy standartlar asosida shakllantirish, quyosh, shamol energiyasidan foydalanishni oshirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Ekologik muammolar barcha mintaqada kurtak yozgan, bu esa Markaziy Osiyoda integratsiyani yanada kuchaytish kerakligini anglatadi. Umumiy fondlar tuzilishi, tajribalar almashinuvi, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga o’tishdagi umumiy hamkorlik, “yashil energetika” sohasidagi kelishuvlar mintaqada ekologik xavflarni bartaraf etishi, mintaqada davlatlari iqtisodiyotini yanada ko’tarishi, texnologiyalarni rivojlanishiga zamin yaratadi. Davlatlar qarshisida turgan global muammolarga asosiy yechim umumiy hamkorlik va integratsiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Егорова М. С. Экономические механизмы и условия перехода к зеленой экономике // *Фундаментальные исследования*. – 2014 – № 6-6. – С. 1262–1266
2. United Nations Environment Programme (UNEP). (2019). *Global Environment Outlook – GEO-6: Healthy planet, healthy people*. Cambridge University Press. <https://www.unep.org/resources/global-environment-outlook-6>
3. Ismail S 2014 The contribution of the green economy to achieving sustainable development in Algeria during the period 2005-2007, *Journal of Studies in Economy*, 3(2):149-150.
4. A.V. Vaxabov, Sh. X. Xajibakiyev. *Yashil iqtisodiyot: Darslik*. 2-nashr, qayta ishlangan va to’ldirilgan. / i.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiytahriri ostida. –Toshkent: “ZEBO PRINT”, 2021. -167 bet

5. <https://ec.europa.eu/info/strategy/priorities-2019-2024/european-green-deal>
6. A.V. Vaxabov, Sh. X. Xajibakiyev. Yashil iqtisodiyot: Darslik. 2-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan. / i.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiytahriri ostida. –Toshkent: “ZEBO PRINT”, 2021. -175 bet
7. <https://president.uz/oz/lists/view/7815>
8. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

EKOLOGIK INQIROZ VA UNING YECHIMLARI

Nasulloyev Dilshod Zuhridinovich

O'zbekiston jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti

Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'nalishi

2-kurs talabasi

[Tel:+998918329212](tel:+998918329212)

Email: nasulayevdilshod@gmail.com

Kirish. Iqlim o'zgarishi - bu Yerning mahalliy, mintaqaviy va global iqlimini belgilaydigan o'rtacha ob-havo sharoitlarining uzoq muddatli o'zgarishi. Ushbu o'zgarishlar atama bilan sinonim bo'lgan kuzatilgan ta'sirlarning keng doirasiga ega. 20-asrning o'rtalaridan boshlab Yer iqlimida kuzatilgan o'zgarishlar inson faoliyati, xususan, qazib olinadigan yoqilg'ining yonishi bilan bog'liq bo'lib, bu Yer atmosferasida issiqlikni ushlab turuvchi issiqxona gazlari darajasini oshiradi va Yer yuzasining o'rtacha haroratini oshiradi. Inson faoliyati bilan to'lib-toshgan tabiiy jarayonlar iqlim o'zgarishiga ham hissa qo'shishi mumkin, jumladan ichki o'zgaruvchanlik (masalan, El Nino, La Nina va Tinch okeanning o'n yillik tebranishi kabi tsiklik okean naqshlari) va tashqi ta'sirlar (masalan, vulqon faolligi,) kabilar kuzatilgan.

Asosiy qism. Olimlar o'tmish, hozirgi va kelajakdagi iqlim o'zgarishini kuzatish va o'rganish uchun kompyuter modellari bilan birga erdan, havodan va kosmosdan kuzatuvlardan foydalanadilar. Iqlim ma'lumotlari yozuvlari iqlim o'zgarishining asosiy ko'rsatkichlari, masalan, global quruqlik va okean haroratining oshishi; dengiz sathining ko'tarilishi; Yerning qutblarida va tog' muzliklarida muzning yo'qolishi; bo'ronlar, issiqlik to'lqinlari, o'rmon yong'inlari, qurg'oqchilik, suv toshqini va yog'ingarchilik kabi ekstremal obhavoning chastotasi va zo'ravonligining o'zgarishi; bulutlar va o'simliklar qoplami o'zgaradi.

"Iqlim o'zgarishi" va "global isish" ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladi, lekin alohida ma'noga ega. Shunga o'xshab, "ob-havo" va "iqlim" atamaları ba'zan chalkashtirib yuboriladi, garchi ular turli xil fazoviy va vaqt o'lchovlariga ega bo'lgan voqealarga ishora qiladilar


Global isish - bu inson faoliyati, birinchi navbatda, qazib olinadigan yoqilg'ining yonishi tufayli sanoatdan oldingi davrda (1850 va 1900 yillar oralig'ida) kuzatilgan Yer yuzasining uzoq muddatli isishi bo'lib, bu Yer atmosferasida issiqlikni ushlab turuvchi issiqxona gazlari darajasini oshiradi. Bu atama "iqlim o'zgarishi" atamasi bilan almashtirilmaydi. Sanoatdan oldingi davrdan boshlab, inson faoliyati Yerning o'rtacha global haroratini taxminan 1 daraja Selsiyga (Farengeyt 1,8 daraja) oshirganligi taxmin qilinmoqda, bu raqam hozirda har o'n yilda 0,2 darajadan (0,36 daraja Farengeyt) oshib bormoqda. Hozirgi isish tendentsiyasi, shubhasiz, 1950-yillardan beri inson faoliyati natijasidir va ming yillar davomida misli ko'rilmagan tezlikda davom etmoqda. Bu muammoning sababi o'laroq quyidagilarni kiritsak bo'ladi:[1]

Issiqxona gazlari

Fotoalbom yoqilg'ilarni yoqish, o'rmonlarni kesish va chorvachilik iqlim va er haroratiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda. Bu atmosferada tabiiy ravishda paydo bo'lganlarga juda ko'p miqdorda issiqxona gazlarini qo'shib, issiqxona effektini va global isishni kuchaytiradi.

Global isish

2011-2020 yillar qayd etilgan eng issiq o'n yillik bo'ldi, 2019-yilda global o'rtacha harorat sanoatgacha bo'lgan darajadan 1,1°C yuqoriga ko'tarildi. Hozirgi vaqtda inson tomonidan qo'zg'atilgan global isish har o'n yilda 0,2°C ga ortib bormoqda. Sanoatdan oldingi davrdagi harorat bilan solishtirganda 2 ° C ga ko'tarilishi tabiiy muhitga, inson salomatligi va farovonligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq, shu jumladan global muhitda xavfli va ehtimol halokatli o'zgarishlar sodir bo'lish xavfi ancha yuqori. Shu sababli, xalqaro hamjamiyat isinishni 2 ° C dan ancha past darajada ushlab turish zarurligini tan oldi va uni 1,5 ° C gacha cheklash bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirdi. [2]



1- rasm

Ko'p yillar davomida ommaviy axborot vositalari ekspertlari, partizan tahlil markazlari va qazib olinadigan yoqilg'i kompaniyalari tomonidan moliyalashtiriladigan maxsus manfaatdor guruhlar global isish haqiqatiga shubha uyg'otdi. Bu qarama-qarshiliklar iqlim o'zgarishi haqidagi dalillarni kamaytiradilar va buzib ko'rsatadilar, ifloslantiruvchilarni mukofotlaydigan siyosatni qo'llab-quvvatlaydilar va mavjud ifloslanish standartlarini buzishga harakat qiladilar. Ushbu dezinformatsiya to'lqini global isishning kuchayib borayotgan oqibatlari haqida jamoatchilikni chalg'itadi va chalg'itadi va bizga haqiqatan ham kerak bo'lgan echimlarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Ushbu maxsus manfaatlarning ta'siri etarli darajada kamaymaguncha, iqlim harakati ancha qiyin bo'ladi.

Hozir iqlim o'zgarishi yuz bermoqda va bu bizning sayyoramizdagi hayot uchun eng jiddiy tahdiddir. Yaxshiyamki, iqlim o'zgarishiga qarshi ko'plab echimlar mavjud va ular yaxshi tushuniladi. Xususan ular quyidagilar:

a) Fotoalbom yoqilg'ilarni yerda saqlash. Fotoalbom yoqilg'ilarga ko'mir, neft va gaz kiradi va qancha ko'p qazib olinsa va yoqilsa, iqlim o'zgarishi shunchalik yomonlashadi. Barcha davlatlar iqtisodlarini imkon qadar tezroq qazib olinadigan yoqilg'idan uzoqlashtirishlari kerak.

b) Qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya kiritish. Asosiy energiya manbalarimizni toza va qayta tiklanadigan energiyaga o'zgartirish qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanishni to'xtatishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Bularga quyosh, shamol, to'lqin, suv oqimi va geotermal energiya kabi texnologiyalar kiradi.¹



2-rasm

¹ NASA Global Climate Change. (2020). *Climate Change: How Do We Know?* <https://climate.nasa.gov>

c) Barqaror transportga o'tish . Benzinli va dizel yoqilg'isi bilan ishlaydigan transport vositalari, samolyotlar va kemalar qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanadi. Avtomobillardan foydalanishni qisqartirish, elektr transport vositalariga o'tish va samolyotlarda sayohatni minimallashtirish nafaqat iqlim o'zgarishini to'xtatishga yordam beradi, balki havo ifloslanishini ham kamaytiradi.

d) Dehqonchilikni yaxshilash va vegetarian parhezni rag'batlantirish . Odamlar uchun iqlim o'zgarishini to'xtatishga yordam berishning eng yaxshi usullaridan biri bu go'sht va sut mahsulotlarini iste'mol qilishni kamaytirish yoki butunlay vegetarian bo'lishdir. Korxonalar va oziq-ovqat chakana sotuvchilari dehqonchilik amaliyotini yaxshilashi va odamlarga o'zgarishni amalga oshirishga yordam berish uchun ko'proq o'simlik mahsulotlari bilan ta'minlashi mumkin.

e) Ko'proq uglerodni o'zlashtirish uchun tabiatni tiklash. Tabiiy dunyo bizning chiqindilarimizni tozalashda juda yaxshi, ammo biz unga g'amxo'rlik qilishimiz kerak. To'g'ri joylarda daraxt ekish yoki "qayta qurish" sxemalari orqali erni tabiatga qaytarish - boshlash uchun yaxshi joy. Buning sababi shundaki, fotosintez qiluvchi o'simliklar o'sayotganda karbonat angidridni tortib oladi va uni tuproqda ushlab turadi.

f) O'rmonlarni imkon qadar himoya qilish. O'rmonlar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda hal qiluvchi ahamiyatga ega va ularni muhofaza qilish muhim iqlim yechimidir. O'rmonlarni sanoat miqyosida kesish katta miqdordagi uglerodni so'rishi mumkin bo'lgan ulkan daraxtlarni yo'q qiladi. Shunga qaramay, kompaniyalar chorvachilik, soya yoki palma yog'i plantatsiyalariga yo'l ochish uchun o'rmonlarni yo'q qiladi. Hukumatlar yaxshiroq qonunlar ishlab chiqish orqali ularni to'xtata oladi.

g) Okeanlarni himoya qilish. Okeanlar ham atmosferadan ko'p miqdorda karbonat angidridni o'zlashtiradi, bu bizning iqlimimizni barqaror saqlashga yordam beradi. Ammo ko'p baliq ovlanadi, neft va gazni burg'ulash uchun ishlatiladi yoki chuqur dengiz qazib olish xavfi ostida. Okeanlarni va ulardagi hayotni himoya qilish oxir-oqibatda iqlim o'zgarishidan o'zimizni himoya qilishning bir usuli hisoblanadi.

h) Plastmassadan foydalanishni kamaytirish kamaytirish. Plastmassa moydan tayyorlanadi va neftni qazib olish, qayta ishlash va plastmassaga (hatto kiyim uchun poliester) aylantirish jarayoni hayratlanarli darajada uglerod talab qiladi . Tabiatda u tez parchalanmaydi, shuning uchun juda ko'p plastmassa yonib ketadi, bu esa chiqindilarga hissa qo'shadi. Plastmassaga bo'lgan talab shu qadar tez o'sib bormoqdaki, plastmassa yaratish va yo'q qilish 2050 yilga borib global uglerod byudjetining 17 foizini tashkil qiladi (bu Parij kelishuviga ko'ra biz emissiya qilishimiz kerak).

Albatta, bu muammolarni hal qilish uchun tegishli choralarni ko'rish kerak. Masalan, ekologik ta'lim. Ekologik ta'lim va tarbiya tizimi maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida,

ta'limning keyingi bosqichlarida hamda mehnat jamoalarida davom ettiriladi. Ma'lumki, ma'lumotlarga ko'ra, inson aqliy salohiyatining 50 foizi umumiy rivojlanishning dastlabki 3–4 yili davomida, 30 foizi 4–8 yoshda, 20 foizi esa 8–17 yoshda shakllanadi. Shuning uchun ekologik tarbiyani asosan bolalar bog'chalarida va maktablarda olib borish kerak. Bolalar bog'chalarida avvalo ekologik tushunchalar shakllantiriladi. Tabiatga muhabbat va unga g'amxo'rlik oilada va maktabda shakllanadi. Mashhur ilg'or pedagoglar o'z asarlarida bolalarga tabiatga bo'lgan muhabbatni erta yoshdan boshlab singdirish zarurligini ta'kidlab o'tganlar. XVII asrda yashagan mashhur pedagog Y.A. Komenskiy bu haqda "Rasmlar orqali sezgi olami" nomli kitobida alohida urg'u bilan ta'kidlagan. Bu kitob bolalarga tabiatni sevdirmoq, uni tanitish va uning hayoti va tuzilishini o'rgatishga xizmat qiluvchi bolalar ensiklopediyasidir.



3-rasm

Tabiatni muhofaza qilish faoliyatida gumanistik maqsadlar — ya'ni insonlarga g'amxo'rlik qilish va ularga mehr ko'rsatish — muhim rol o'ynaydi. Barcha mashhur pedagoglar o'quvchilarni gumanizm va tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash zarurligini ta'kidlab kelgan. Psixologlar fikriga ko'ra, qiziquvchanlik — bu o'rganishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, bolalar olgan bilimlarni faollashtiradi va ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. "Ekologik madaniyat" tushunchasi ushbu hodisalarga ongli va puxta yondashuvni, tabiat va jamiyat qonunlari bilan uyg'unlikda yashash talabini o'z ichiga oladi. Ekologik madaniyat — bu umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi va muhim ko'rsatkichidir. Shuning uchun har bir insonda o'z uyi, ko'chasi, mahallasi, qishlog'i va shahri ifloslanishdan himoya qilinishi, ularni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, tabiiy hududlarni asl holida saqlash va oqilona

foydalanish, yurtimiz tabiatini muhofaza qilish kabi fazilatlarni shakllantirish ekologik madaniyat sanaladi.

Iqlim o'zgarishi allaqachon inson salomatligiga ta'sir ko'rsatmoqda. O'zgaruvchan ob-havo va iqlim sharoitlari hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin. Issiq havo eng xavfli ob-havo hodisalaridan biridir. Okean harorati ko'tarilishi bilan [2] to'fonlar kuchliroq va namroq bo'ladi, bu esa to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita o'lim holatlariga olib kelishi mumkin. Qurg'oqchil sharoitlar o'rmon yong'inlari sonining ko'payishiga olib keladi, bu esa salomatlik uchun xavf tug'diradi. Ko'plab suv toshqinlari suv orqali yuqadigan kasalliklar, jarohatlar va kimyoviy xavflarning tarqalishiga olib kelishi ehtimoli katta. Chivin va kenja kabi hasharotlarning geografik tarqalish maydoni kengaygani sari ular kasalliklarni yangi hududlarga olib o'tishi mumkin. Bolalar, qariyalar, surunkali kasalligi bor insonlar, ochiq havoda ishlovchilar, ozchilik elatlar va kam daromadli odamlar iqlim o'zgarishi tufayli kelib chiqadigan ko'plab omillar ta'siriga eng ko'p uchraydigan qatlam hisoblanadi. Shunga qaramay, sog'liqni saqlash tashkilotlari mahalliy hamjamiyatlar bilan ishlayapti, odamlarga iqlim o'zgarishining sog'liqqa ta'sirini tushuntirish va qarshilik ko'rsatish qobiliyatini oshirish yo'lida turli tajribalarni o'tkazmoqda. Bizning oziq-ovqat ta'minotimiz ham iqlim va ob-havo sharoitlariga bog'liq. Garchi dehqonlar va olimlar ba'zi usullarni va texnologiyalarni moslashtira olsalar yoki yangilarini ishlab chiqsalar-da, ayrim o'zgarishlarni boshqarish qiyin bo'ladi. Haroratning ko'tarilishi, qurg'oqchilik va suv tanqisligi, kasalliklar va keskin ob-havo sharoitlari dehqonlar va oziq-ovqat yetkazib beruvchilar uchun muammolar tug'diradi. Qishloq xo'jaligi ishchilari issiqlik bilan bog'liq sog'liq muammolari — charchash, issiqlik urishi va yurak xurujlari — bilan duch kelishlari mumkin. Haroratning ko'tarilishi va issiqlik stressi chorvachilikka ham zarar yetkazadi.

Iqlim o'zgarishi ekotizimlar va organizmlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda, garchi bu ta'sir har xil darajada bo'lsa-da. Ba'zi tirik mavjudotlar iqlim o'zgarishiga moslasha oladi. Ba'zi o'simliklar erta gullaydi, ayrim turlar esa o'z yashash hududlarini kengaytira oladi. Biroq bu o'zgarishlar boshqa ko'plab o'simlik va hayvonlar uchun juda tez sodir bo'lmoqda, chunki harorat ko'tarilishi va yog'ingarchilik xarakterining o'zgarishi ekotizimlarga ta'sir qilmoqda. Kichik qanotli baliqlar (krylatka) va kenja kabi invaziv yoki zararli turlar iqlim o'zgarishi tufayli ko'proq joylarda tarqalib, ko'paymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). (2021). *Sixth Assessment Report (AR6)*.

2. World Meteorological Organization.(2022). *State of the Global Climate Report. B-2*
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (2025). "Iqlim o'zgarishining sabablari va oqibatlar." BMT hisobotlari. B 45-49.
4. Evropa Komissiyasi (2025). "Iqlim o'zgarishining sabablari." Evropa Komissiyasining ilmiy hisobotlari. b 32-36
5. AQSh Energetika axborot boshqarmasi (EIA) (2025). "Issiqxona gazlari va iqlim." EIA , <https://www.eia.gov/energyexplained/energy-and-the-environment/greenhouse-gases-and-the-climate.php>Energiya Ma'lumotlari Boshqarmasi
6. QSh Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA) (2025). "Iqlim o'zgarishining asoslari." b 75-80.
7. Met Office (2025). "Iqlim o'zgarishining sabablari." Buyuk Britaniya Meteorologiya xizmati, <https://www.metoffice.gov.uk/weather/climate-change/causes-of-climate-change/>
8. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (2025). "Issiqxona gazlari." BMT iqlim o'zgarishiga oid hisobot. b 120-124.
9. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (2025). "Iqlim o'zgarishining sabablari." BMT rasmiy sayti. <https://unfccc.int/cop3/fccc/climate/fact22.htm>

AHOLI EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ZAMONAVIY EKOLOGIK SIYOSATNING BOSH NEGIZI SIFATIDA

Hikmatov Akbarshoh Izzatulloevich

*O'zDJTU, Xalqaro jurnalistika fakulteti, Siyosatshunoslik ta'lim
yo'nalishi, 2-bosqich talabasi*

(+99890 2661602 akhbarshohkhikmatov@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistondagi zamonaviy ekologik siyosatning shakllanishi, qo'llanishi va hududlar bo'yicha amaliy natijalari tizimli tarzda tahlil qilinadi. So'nggi yillarda ekologik siyosat yuzasidan global yondashuvlar kuchaygan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida bu boradagi ilmiy tadqiqotlar cheklangan. Shu sababli, ushbu ish ekologik siyosatning hududiy farqlari, aholi ishonchi va xavf xabardorligi bilan bog'liq bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ifloslanish, barqarorlik, siyosat, hamkorlik, ekologiya, rivojlanish, xabardorlik, ekologik xabardorlik, ekologik xavfsizlik, ekologik modernizatsiya, ekologik boshqaruv.

XXI asrda ekologik muammolar global miqyosda dolzarb masalaga aylandi. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, resurslardan haddan tashqari foydalanish va ifloslanish nafaqat ekologik, balki siyosiy,

iqtisodiy va ijtimoiy muammolar sifatida ham qaralmoqda. Shu bois, har bir mamlakat zamonaviy yondashuvlar asosida ekologik siyosatini shakllantirishi zarur. Avvalgi tadqiqotlar bu sohada turli yo‘nalishlarni yoritgan. Nigmatov ekologik siyosatning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilgan. G‘iyozova va Dildora yashil iqtisodiyotning istiqbollari haqida bahs yuritgan. Ahmadovna esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning zamonaviy usullari, xususan monitoring tizimlari haqida yozgan[1]. Shu sababli, mazkur tadqiqot quyidagi maqsadlarni o‘z oldiga qo‘yadi:

1. O‘zbekistondagi zamonaviy ekologik siyosatning rivojlanishini baholash;

2. Surxondaryo viloyatidagi sanoat ifloslanishiga qarshi chora-tadbirlarning amaliy natijalarini tahlil qilish;

3. Ekologik siyosatda xalqaro va mintaqaviy hamkorlikning rolini aniqlash;

4. Taqqoslov asosida boshqa Markaziy Osiyo davlatlarining yondashuvlarini tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish.


Tadqiqotning yangiligi — uning tizimli yondashuvida. U ekologik siyosatga nafaqat huquqiy yoki ekologik nuqtayi nazardan, balki texnologik, axborot, diplomatik va sotsiologik jihatdan yondashadi. Shuningdek, amaliy echim sifatida vodorod ftorid gazlarini arzon sensorlar yordamida aniqlash va monitoring qilish bo‘yicha yangi takliflar ishlab chiqiladi[2].

Ushbu tadqiqot zamonaviy ekologik siyosatning O‘zbekistondagi amaliyotini baholashga qaratilgan bo‘lib, aralash tadqiqot dizayni asosida olib boriladi. Tadqiqotning umumiy yondashuvi izohlovchi ketma-ketlikka asoslangan aralash metod bo‘lib, avval miqdoriy, so‘ng esa sifatli ma‘lumotlar to‘planadi[3]. Bu yondashuv mavzuning murakkab siyosiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini har tomonlama yoritishga yordam beradi.

Tadqiqot O‘zbekistonning uchta ekologik jihatdan dolzarb hududi — Surxondaryo viloyatining sanoat ifloslanishidan zarar ko‘rgan Sariosiyo, Denov va Shurchi tumanlari; Qashqadaryo viloyatining pestitsid va yer degradatsiyasi yuqori bo‘lgan hududlari; hamda Toshkent shahri — siyosiy qarorlar markazi sifatida tanlab olingan[4]. Ma‘lumotlar yig‘ish bosqichi ikki yo‘nalishda olib boriladi. Birinchisi — so‘rovnoma. So‘rovnoma 30 ta savoldan iborat bo‘lib, unda respondentlarning ekologik savodxonligi, zamonaviy ekologik siyosatga munosabati, ifloslanish xavflariga duchorlik darajasi va demografik ma‘lumotlari haqida ma‘lumotlar to‘planadi. Savollar 5 pog‘onali Likert shkalasi asosida tuzilgan[5]. Ikkinchi bosqichda esa 30 nafar ishtirokchi bilan yarim strukturalashtirilgan intervyular o‘tkaziladi[6].

Rasm 1. O‘zbekistonning tanlangan hududlari bo‘yicha ekologik xabardorlik va ekologik siyosatga munosabat darajalari (Likert o‘rtacha baholari, n = 420)

Rasm 1 Surxondaryo, Qashqadaryo va Toshkent shaharlaridagi respondentlarning ekologik savodxonlik, siyosiy ishonch va sog‘liq uchun xavf xabardorligi bo‘yicha o‘rtacha baholarini taqqoslaydi.



Tadqiqot natijalari O‘zbekistondagi zamonaviy ekologik siyosatga nisbatan turli hududlarda fuqarolar va mutaxassislar o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Uchta asosiy hudud – Surxondaryo, Qashqadaryo va Toshkent shaharlarida o‘tkazilgan tadqiqotda respondentlarning ekologik savodxonligi, siyosiy bahosi va sog‘liq uchun xavflarga nisbatan xabardorlik darajasi baholandi. So‘rovnoma asosida tuzilgan quyidagi jadvalda har bir mezon bo‘yicha hududlar kesimida o‘rtacha ballar keltirilgan[7].

Jadval 1. O‘zbekistonning uchta hududi bo‘yicha ekologik xabardorlik va siyosatga nisbatan munosabat ko‘rsatkichlari.

Hudud	Ekologik xabardorlik	Siyosiy baholash	Sog‘liq uchun xavf xabardorligi
Surxondaryo	3.2	2.9	3.5
Qashqadaryo	3.6	3.3	3.1
Toshkent	4.1	4.0	3.8

Shakldan ko‘rinib turibdiki, Toshkent shahrida ekologik siyosatga nisbatan xabardorlik va ijobiy baho eng yuqori bo‘lgan (Awareness = 4.1, Perception = 4.0). Bu, ehtimol, poytaxtda ommaviy axborot vositalarida atrof-muhitni muhofaza qilish tashabbuslari kengroq yoritilayotganidan dalolat beradi[8]. Aksincha, Surxondaryo viloyatida aynan ftorid gazlarining emissiyasi natijasida salomatlikka bevosita tahdid mavjud bo‘lsa-da, siyosiy baholash past darajada (2.9). Bu esa ekologik siyosat va uning mahalliy

darajadagi tatbiqi o'rtasidagi uzilishlarga ishora qiladi[9]. Tadqiqotning nazariy muhimligi shundaki, u ekologik modernizatsiya nazariyasining O'zbekiston sharoitida qanchalik amalda ishlashini sinovdan o'tkazdi. Amaliy tomoni esa shundaki, ekologik siyosatni faqat milliy darajada emas, balki hududiy ehtiyojlarga qarab differensial yondashuv orqali qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud[10]. Bundan tashqari, sensorli monitoring texnologiyalarining keng joriy etilishi ekologik xavfsizlikni oshirishda muhim vosita bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot O'zbekistonda zamonaviy ekologik siyosatning amaliy samaradorligini hududiy nuqtai nazardan tahlil qilish orqali ekologik boshqaruvdagi muhim tafovutlarni aniqladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik xabardorlik va siyosatga ishonch darajasi Toshkent kabi urban markazlarda yuqori bo'lsa-da, Surxondaryo kabi chekka hududlarda sog'liq uchun xavf xabardorligi kuchli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.A. Avalbayev, "Texnologiya falsafasi nima?," Yangi O'zbekiston ustozlari, 2024.
2. M.S. Siddiqova, "Chiqindi va ularning turlari. Chiqindilarni yig'ish, saqlash va transportirovka qilish," Modern Science and Research, 2025.
3. Y.A. Ilxomov, "Post-pandemiya davrida turizm," Journal of Universal Science Research, 2025.
4. D.M. Saparboev, "Davlat byudjeti xarajatlari siyosatining zamonaviy konseptual asoslari," Страховой рынок Узбекистана, 2024.
5. S.J. Ahmadova, "O'zbekiston ekologik xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy mexanizmlari," Science and Innovation, 2024.
6. M.U.K. Khan and S. Khalid, "Xi-Jinping: A Vibrant Reformist of China and Global Leader," Review Journal of Social Works, 2025.
7. U.M. Yusupbayev, "Application of Financial Technologies and Alternative Financing in the Context of Uzbekistan," Prospects of Modern Science, 2025.
8. L.P.Y.G. Shiganova and T.N. Markova, "Environmental Speech Competence in Russian Language Education," Южно-Уралский институт, 2025.
9. R. Budnik and A.A. Tedeev, "Legal Risks in Emerging Techno-Environmental Conditions," Государство и право, 2025.
10. Z. Eraliev, "Migration Governance Beyond the West: Historical Legacies and Contemporary Trends," Lund University Research Portal, 2025.

EKOLOGIK SIYOSAT VA IQTISODIY ALOQALAR: XALQARO TAJRIBA VA ISTIQBOL

Sadullayeva Laziza Umar qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik siyosat va iqtisodiy aloqalar haqida tushuncha berilgan. Ekologik siyosat va iqtisodiy aloqalarda olib borilayotgan xalqaro tajribalar va amalga oshirilayotgan loyihalar haqida so'z yuritilgan. Shu bilan bir qatorda Yevropa ittifoqi, Xitoy davlatlari tomonidan olib borilayotgan ilg'or tashabbuslar aytib o'tilgan.

Kalitso'zlar: ekologik siyosat, yashil iqtisodiyot, YeI, yashil bitim.

Bugungi globallashuv davrida ekologik muammolarni hal etish butun insoniyat oldida turgan dolzarb masalalardan biriga aylandi. Havo va suvning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning tanqisligi ekologik siyosatni shakllantirishda asosiy tayanch vazifani bajarish bilan birga yangi yondashuvlarni talab qiladi. Hozirgi kunda ekologik siyosat va iqtisodiy aloqalar o'rtasidagi muvozanatni to'g'ri shakllantirish dunyo hamjamiyati oldida turgan vazifalardan biridir.

Ekologik siyosat atamasi (political ecology) dastlab 1935-yilda Frank Thone tomonidan chop etilgan maqolada keltirilgan[1]. Garchi ekologiya, geografiyaga oid sohalarda keng qo'llanilgan bo'lsa ham bu atamaning asosiy tizimli izohi mavjud emas edi. Antropolog Erik R. Wolf 1972 yilda "Egalik va siyosiy ekologiya" nomli maqolasida unga ikkinchi hayot baxsh etdi, unda u mahalliy mulkchilik va meros qoidalari "katta jamiyatdan kelib chiqadigan bosimlar va mahalliy ekotizimning zaruriyatlari o'rtasida qanday vositachilik qilishini" muhokama qiladi[2].

Raymond L. va Sined Beyli siyosiy ekologiya amaliyotida 3 ta asosiy qarashni ishlab chiqdi:

Birinchi, atrof-muhitdagi o'zgarishlar jamiyatga bir hil ta'sir ko'rsatmaydi: siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy farqlar xarajatlar va foydalarning notekis taqsimlanishiga olib keladi.

Ikkinchi, atrof-muhit sharoitlarining har qanday o'zgarishi siyosiy va iqtisodiy status-kvoga ta'sir qilishi kerak.

Uchinchi, xarajatlar va foydalarning teng bo'lmagan taqsimlanishi, shuningdek, ilgari mavjud bo'lgan tengsizliklarning kuchayishi yoki kamayishi o'zgargan kuch munosabatlari nuqtainazaridan siyosiy oqibatlarga olib keladi[3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shu bilan bir qatorda ekologik siyosat va iqtisodiy aloqalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik borligini inobatga olsak, bir davlatning ekologik siyosati uning boshqa davlatlar bilan olib boradigan iqtisodiy aloqalariga ta'sir

ko'rsatadi. Bunga Yevropa Ittifoqining uglerod chegarasini sozlash mexanizmi misol bo'la oladi. Bu Yevropa Ittifoqiga import qilinadigan po'lat, sement va ba'zi elektr energiyasi kabi uglerodli mahsulotlarga uglerod tarifidir. Yevropa Yashil bitimining bir qismi sifatida qonunlashtirilgan, u 2026 yilda kuchga kiradi va hisobot 2023 yildan boshlangan[4]. Texnologik hamkorlik va investitsiyalar oqimi ham faqat ekologik barqarorlikni ta'minlay oladigan mamlakatlarga qaratiladi, hamda bu ekologik muammolarni bartaraf etishda birgalikda harakat qilish uchun yo'l ochib beradi. Dunyo miqyosida ko'plab davlatlar ekologik siyosatni iqtisod bilan bog'lab bir qancha loyihalarni amalga oshirishga harakat qilishmoqda. Ulardan biri Yevropa Ittifoqi tomonidan tuzilgan "Yashilbitim"(Green Deal)dir. Uning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalari 2050-yilga kelib karbon neytrallikka erishish, 2030-yilgacha qo'shimcha 3 mlrd dona daraxt ekish. Shu bilan birga Yevropa Komissiyasi Yevropa Ittifoqining iqlim, energetika, transport va soliq siyosatini 2030 yilga kelib issiqxona gazlari chiqindilarini 1990 yilgi darajaga nisbatan kamida 55 foizga kamaytirishga moslashtirish bo'yicha takliflar to'plamini qabul qilgan[5].

Bundan tashqari Xitoy Xalq Respublikasi ham atrof-muhitni asrashga o'z hissasini jadallik bilan qo'shib kelmoqda. U tomonidan ilgari surilayotgan "Yashil iqtisodiyot" ekologik muammolarni bartaraf etishda muhim ro'l o'ynaydi. Xitoy quyosh energiyasi, elektr transport vositalari, va energiya tejaydigan binolarga e'tibor qaratib, yashil texnologiya innovatsiyalari bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Mamlakat quyosh panellari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilik qilmoqda va uglerod neytralligi maqsadlariga muvofiq ravishda 2025-yilga kelib elektromobil ishlab chiqarish ikki barobar oshirishni maqsad qilgan[6].

2015-yil dekabr oyida Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tgan BMT ning iqlim o'zgarishiga qaratilgan konferensiyasida ham ekologik muammolarni hal etishda 196 davlat tomonidan qabul qilingan Parij shartnomasi muhim o'rin egallaydi. Uning asosiy o'z oldiga qo'ygan maqsadi global o'rtacha haroratni 2°C dan ancha past haroratda saqlash. Parij bitimini tasdiqlagan davlatlar uchun past issiqxona gazlari emissiyasini rivojlantirish(LT-LEDS) kabi uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarni ham taklif etadi. Parij bitimi kuchga kirganidan keyingi yillar allaqachon past uglerodli yechimlar va yangi bozorlarni keltirib chiqardi. Ko'proq mamlakatlar, mintaqalar, shaharlar va kompaniyalar uglerod neytralligi maqsadlarini o'rnatmoqda. Nolinchi uglerodli yechimlar emissiyaning 25 foizini tashkil etuvchi iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatbardosh bo'lib bormoqda. Ushbu tendentsiya elektr va transport sohalarida eng ko'p seziladi va erta ko'chib yuruvchilar uchun ko'plab yangi biznes imkoniyatlarini yaratdi. 2030 yilga kelib, uglerodsiz yechimlar global emissiyaning 70% dan ortig'ini tashkil etuvchi tarmoqlarda raqobatbardosh bo'lishi mumkin[7].

XULOSA

Ekologik siyosat va iqtisodiy aloqalar chambarchast bog'liqdir. Bu ikki tushuncha o'rtasida muvozanatni saqlash zamonaviy taraqqiyotning asosiy omilidir. Ekologik barqarorlikka erishgan davlatlar shubhasiz iqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlay oladi. Shu sababli global hamjamiyat orqali ekologik hamkorlikni kengaytirish va samarali tajribalardan foydalanib, oqilona olib borilgan siyosat bilangina natijaga erishish mumkin.

Parij bitimini tasdiqlagan rivojlanayotgan davlatlarga rivojlangan davlatlar tomonidan kiritilayotgan investitsiyalar hamda texnologik tomondan ko'rsatilayotgan yordam atrof-muhitni asrashda sezilarni natijalarga olib kelishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Nature Rambling: We Fight for Grass," The Science Newsletter 27, 717, Jan. 5: 14.
2. Wolf, 1972, p.202
3. Political ecology. Url:https://en.wikipedia.org/wiki/Political_ecology-5
4. EU Carbon Border Adjustment. Url:<https://en.m.wikipedia.org/wiki/>
5. The European Green Deal. Url:<https://commission.euro-2019-2024/e>
6. Xitoy davlatining yashil iqtisodiyotdagi o'rni. Url:<https://prezi.com/p/cnbusj96rk8/xitoy-davlatining-yashil-iqtisodiyotdagi/>
7. What countries have a carbon tax. URL:<https://earth.org/what-countries-have-a-carbon-tax/>

ATMOSFERA IFLOSLANISHINING IJTIMOYIY OQIBATLARI: CHANG MUAMMOSI VA FUQOROLARNING EKOLOGIK FAOLLIGINI OSHIRISH ZARURATI

Barnayeva Amina Abdixakim qizi

*O 'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti
sotsiologiya yo 'nalishi talabasi 2-bosqich talabasi
(+998910035704 barnayevaamina@gmail.com)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati, hamda atmosfera tarkibidagi chang zarrachalarning me'yorlari va me'yordan ortishi oqibatlarini haqida tahlillar keltirilgan va fuqorolarning ijtimoiy hayotiga ta'siri o'rganilgan. Changning me'yordan oshishi sabablari ko'rsatilgan. Atmosferaning qanchalik inson hayotiga ahamiyati va insonlarning atmosferaga ta'siri organilib, aholining ekologik madaniyatini va faolligini oshirish haqida so'z boradi. Changning havoda me'yordan ortishi dunyo miqyosida tajribalar o'rganilib, uning samaralari haqida fikr mulohazalar keltirdik.

Kalit so ‘zi: ekologiya, atmosfera, ijtimoiy, chang, PM2.5 va PM10 jamoatchilik nazorati.

Kirish: Ekologiya bu insonning atrof-muhit bilan munosabatidir. Inson — hayotiy zarurlari: kislorod oladi, suv ichadi, oziq-ovqat iste’mol qiladi bularning barchasi ekologiya orqali ta’minlanadi. Bundan tashqari ekotizim barqaror bo‘lishi ya’ni daryolar, o‘rmon bo‘lishi, yer osti suv zaxiralari insonning salomat bo‘lishini ta’minlaydi. Insonni o‘rab turgan atrof-muhit inson bilan uzviy bog‘liqdir. Ekologiyaning o‘zgarishi insonlarga jiddiy zarar keltirishi mumkin misol uchun: iqlim o‘zgarishi issiq havolar, kuchli shamollar, qurg‘oqchilik odamlarning yashash tarzini, sog‘lig‘ini va iqtisodiyotini bevosita o‘zgartiradi. Bu o‘zgarishlar zamirida insonlarning ekotizmga yetkazilgan zarari ko‘proq misol: chiqindilar ko‘payishi, mashina va zavodlardan zaharli gazlar chiqishi, urbanizatsiya jaryonida havoda chang miqdori oshishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada atmosfera buzilishiga, shuningdek insonlarning o‘ziga qaytadi ularda nafas olish og‘ir bo‘ladi, bu esa yurak-qon tomir va nafas yo‘llari kasalliklariga olib keladi.

Chang — bu havoda muallaq holatda bo‘lgan, odatda inson ko‘zi bilan ko‘rinar-ko‘rinmas darajadagi, tuxumsimon, Uning diametri odatda 0.001dan 100 mikromertgacha qattiq zarrachalardan iborat modda bo‘lib u turli manbalardan — sanoat, transport, tuproq eroziyasi, qurilish va tabiiy jarayonlar natijasida atmosferaga chiqariladi.

AQSH atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi changni turlarini aniqlagan. Quyidagilar 1. PM10: diametri 10 mikrometr yoki undan kichik bo‘lgan zarrachalar 2. PM2.5 diametri 2.5 mikrometr yoki undan kichik bo‘lgan zarrachalardir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti esa PM2.5 va PM10 zarrachalarining havodagi konsentratsiyasi bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni berdi. PM2.5: yillik o‘rtacha konsentratsiya $5\mu\text{g m}^3$ dan oshmasligi kerak. PM10: $15\mu\text{g m}^3$ oshmasligi kerakligini me’yor deb belgilab bergan[1]. Bu esa inson salomatligini himoya qilish uchun belgilangan. Changning tarkibi menereal zarrachalar: kvars, feldshpat, kaolin kabi menerallar va organik moddalar: polen, bakteriyalar, zamburug‘lar, hamda inson faoliyati davomida chiqaradigan changlari bor. Havo tarkibida changni oshishi inson salomatligiga quyidagi xavflarni tug‘diradi:

1. Nafas tizimi kasalliklari: astma, bronxit, o‘pka saratoni.
2. Yurak qon tomir kasalliklari: yurak xuruji, insult.
3. Immun tizimining zaiflashishi: infeksiyalarga nisbatan sezuvchanlik oshadi[1].

JSSTning O‘zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi va iqlim o‘zgarishi vazirligi bilan hamkorlikda tadqiq otkazildi. Bu Toshkent shahrida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra changni yuzaga kelishi sabablari aniqlandi, unga ko‘ra: Tabiiy omillar: quruq

iqlim, qumli, va gil tuproqlar, zaif shamollar, harorat inversiyalari va atmosfera harakatsizligi kirsar.

Insonlarning aralashuvida esa qurilish, sanoat korxonalari faoliyatidan changning yuqori darajada ko'tarilib kelishiga sabab bo'lib normadan olti barobar yuqori ko'rsatkich ko'rsatdi.

Shamol bilan olib keladigan chang: 36%

Issiqlik ta'minoti: 24%

Transport vositalari: 16%

Sanoat korxonalari: 13%

O'zbekistonning ko'pgina hududlarida urbanizatsiya jarayonlari ketmoqda va qurilish sohasi havodagi ifloslanishning sabablaridandir. Toshkent shahrida antropogen PM2.5 toshmalarning umumiy yillik hajmining 18 % qurilish natijasida hosil bo'lgan shahar changi va yo'l changi resuspenziyasi tashkil etadi[2]. Bundan ko'rinib turibdi qurilish talablariga rioya qilish, jahon tajribalaridan foydalanib tartibga solinishi muhim vazifalardandir. Qurilish talablari quyidagilar: sanitariya-gigiyenik talablarga rioya qilish ya'ni chang, shovqin va tebranish me'yorlarini belgilagan darajada ushlab turish. PM10 va PM2.5 havoga tarqalishini nazorat qilish (suv sepish, tozalash mashinalari). shovqin me'yorlari ertalabki 8:00dan kechki 20:00 gacha vaqt oraliqda qurilish ishlari olib borish. Ekologik nazorat, Aholi salomatligi xavfsizligini ta'minlash. Shaharsozlik normalari va hududiy rejalashtirish qoidalariga muvofiq qurilish ishlarini olib borish shart.

Shu o'rinda Xitoyning Pekin shahri 2013-yildan boshlab havo sifati bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishdi. 2013-2022-yillar oralig'ida zarrachalar ifloslanishi 60% dan ortiq kamaydi. Bu natijalarga sanoat korxonalarini cheklash, avtomobil harakatini yopish, avtomobil harakatlarini to'xtatish, ko'mir yoqilg'isini kamaytirish va jamoat transportlarining rivojlantirish orqali erishildi. Shuningdek Pekin atrofidagi hududlar bilan hamkorlikda mintaqaviy ifloslanishga qarshi kurashish chora tadbirlari ko'rildi[3].

Janubiy Koreya Seul shahrida chang ifloslanishi mavjud edi va ifloslanishga qarshi keng qamrovli choralar ko'rildi. Seul shahrida 2005-yildan boshlab PM10 va azot konsentratsiyalarini kamaytirish maqsadida "maxsus havo sifati qonuni" qabul qilindi. Natijada, 2005-2021-yillar oralig'ida PM10 darajasi 30-40%ga, PM2.5 esa 19% kamaydi, jamoat transportida dizel yoqilg'isidan foydalanish to'xtatildi, elektr avtobuslarni joriy etish va havoni tozalovchi texnologiyalarni metro tizimida qo'llash kabi choralar qo'llanildi va samarali natija berdi[4].

Yana atmosferaga chang va zaharli tuzlar tarqalishiga sabab bo'layotgan Orol dengiz fojiasi esa bir O'zbekistonga emas, balki o'rta osiyo ekologiyasiga ta'siri bor. Orol dengizi masalasi bo'yicha muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ekologiya va atrof-muhitni asrash haqida shunday so'zlarni aytib o'tdilar "Biz, hech shubhasiz, ekologik muvozanat, musaffo havo, toza suv, bezavol tabiat tarafdorimiz. Bu masala

biz uchun boshqalarga qaraganda nihoyatda dolzarb va muhimdir. Nega deganda, biz dunyodagi eng katta ekologik ofat — Orol fojiasini bevosita o‘z boshidan kechirayotgan xalqimiz”, — dedi Shavkat Mirziyoyev[5].

O‘zbekiston Orol dengizi qurigan hududlarida chang ifloslanishi qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishildi. Hukumat 500 ming gektar maydonda cho‘lga chidamli daraxtlar va butalarni ekish orqali tuproqni beqarorlashtirish va chang ko‘tarilishini kamaytirishga erishildi. Orol dengizi fojiasi aholiga saboq bo‘lishi suv resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek tomchilab sug‘orish faoliyatini hamma hududlarda joriy etish lozim.

O‘zbekiston aholisining ko‘p qismini yoshlar tashkil etadi. Bu bizning demografik yutug‘imiz va biz jamoatchilikni ekologik madaniyatini shakllantirish ham aholining shu qatlamidan boshlash kerak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ekologik muammolar hal etishda jamiyatning faol ishtirokini muhim deb biladi. U quyidagicha fikrni bildirgan “Ekologiya — hayot momotimiz. [...] Aslida bitta qo‘mita emas, jamiyatimizni o‘zgarishi kerak. Har bir daraxtni saqlab qolish uchun hamma kurashishi kerak.[6]” shunday ekan biz atrof-muhitga e‘tiborsiz bo‘lmasligimiz shart. Ekologiyamiz avloddan-avlodga hech qanday zararlarsiz yetkazilishi muhim.

Xulosa: Tabiatimizni asrash har birimizni burchimizdir. Ekologiya va atmosferamizni turli xil zararli changlardan asrashimiz va bu changlar insonlarning sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazmasligiga jon jahdimiz bilan harakat qilishimiz shart. Aholining ekologik madaniyatini oshirish uchun quyidagi chora tadbirlarni yo‘lga qo‘yishimiz kerak.

1. Ta‘lim muassalarida tabiatni asrash uchun amaliy darslar o‘tilishi kerak.

2. Oyda ikki bora mashinasiz kun joriy qilish va jamoat transportlarini elektrlashtirish.

3. Qurilish bo‘layotgan hududlarda jamoatchilik nazoratida faol bo‘lishi va qurilish talablariga to‘la rioya qilayotganini aniqlash, agar talab darajasida javob bermasa sbunday holat bo‘lsa tegishli joylarga murojat qilish lozim.

4. Qurilish bo‘layotgan joylarda suv bilan changni bosish va zararli changlarni havoga tarqalishini oldini olish muhim vazifadir.

5. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot ishlari olib borish.

Eng avvalo islohotni hamma o‘zidan boshlasa turli zararli changlardan holi musaffo havodan nafas olish imkonini beradi. Yosh avlodga avvalo o‘rnak bo‘lamiz. Bizdan kelajak avlodga changsiz ekologiya meros qolishini ta‘minlashimiz shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Toshkent shahri havosining 2019-2023-yillar davomida PM2.5 va PM10 Mayda dispers zarralar bilan ifloslanish holatining tahlili // <https://srt-journal.ucom>

2. Toshkentda havo ifloslanishi har yili 3000 dan ortiq kishining bevaqt o'limiga sabab bo'lmoqda — Jahon banki hisoboti <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/1com>

3. United Nations Environment Programme. (2024). "Beijing air improvements provide model for other cities // <https://www.unep.org/news-and-stories/>

4. Establishing and Implementing the Comprehensive Air Quality Improvement Plan <https://english.seoul.go.kr/wp-content/uploads/2024/06/16.-Air-pollution>.

5. "Biz faqat dehqonchilik bilan kun ko'radigan mamlakat bo'lib qolmasligimiz kerak"— prezident <https://www.gazeta.uz/oz/2023/07/14/country/>

6. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi davom etmoqda. <https://uza.uz/oz/posts/shavkat-mirziyoyev-ekologiya-hayot-mamotimiz-bitta-com>

MILLIY TIKLANISH DEMOKRATIK PARTIYASINING YOSHLAR SIYOSATIDAGI O'RNI EKOLOGIK SIYOSATNING IJTIMOIY JIHATLARI MISOLIDA

Ismoilov Xurrambek Murodbek o'g'li

UZSWLU, Xalqaro jurnalistika fakulteti, "Siyosiy fanlar" kafedراسى,

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi, 2-bosqich talabasi

xurramismoilov90@gmail.com

+998 99 054 61 72

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda "Milliy Tiklanish" Demokratik partiyasining yoshlar siyosatidagi o'rni, xususan ekologik siyosatning ijtimoiy jihatlari misolida tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi ekologik muammolarning ortib borayotganligi va yoshlarning bu jarayonda faol ishtirok etish zarurati bilan bog'liq. Tadqiqot davomida partiyaning ekologik ongini shakllantirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid tashabbuslari, yoshlar bilan ishlashdagi strategiyalari hamda ekologik siyosatning ijtimoiy hayotga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, yosh avlodni ekologik madaniyat ruhida tarbiyalashdagi siyosiy partiyalarning roli xolis baholanadi. Ish natijalari asosida tegishli xulosalar va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy Tiklanish Demokratik partiyasi, ekologik siyosat, yoshlar siyosati, ekologik madaniyat, atmosfera muhofazasi, yashil

iqtisodiyot, atrof-muhit muhofazasi, Orolbo‘yi ekologiyasi, yoshlarning ekologik faolligi, yashil energiya.

Zamonaviy dunyoda ekologik muammolar global darajada jiddiy e‘tibor talab qilayotgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o‘zgarishi va boshqa ekologik xavflar nafaqat insoniyatning hayot sifatiga, balki ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, har bir davlatda ekologik barqarorlikni ta‘minlash va ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish muhim vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi ekologik muammolardan holi davlat deya olmaymiz, Global isishni O‘zbekistonga ta‘siri, Orolbo‘yi mintaqasidagi muammo, suv resurslarini yildan yilga kamayib borishi kabi muammolar yechimini talab qilayotgan favqulodda muammolar hisoblanadi [1]. Mamlakatda ekologik siyosat davlat darajasida muvofiqlashtirilib, yoshlarni ekologik ongga ega qilib tarbiyalash masalasi ham ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. Yoshlar – bu jamiyatning eng faollari va kelajak avlodning ta‘minotchilari sifatida ekologik masalalarda faollik ko‘rsatishi, ekologik muammolarga yechim topishda ishtirok etishi zarur.

Milliy Tiklanish Demokratik partiyasi mamlakat siyosiy maydonida yoshlar siyosatini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratmoqda. Ushbu partiya yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish sohasida ham faol ish olib bormoqda. Partiyaning ekologik siyosati yoshlar orasida atrof-muhitni muhofaza qilishga oid ongni oshirish, ularni barqaror rivojlanishga yo‘naltirish, shuningdek, ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Yoshlar siyosati Milliy Tiklanish partiyasining dasturida muhim o‘rin tutib, unda yoshlarga ta‘lim, bandlik, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya kabi sohalarda ko‘maklashish mexanizmlari nazarda tutilgan. Shuningdek, partiya yoshlarning davlat boshqaruvida ishtirokini rag‘batlantirishga intiladi, ularni siyosiy jarayonlarga jalb qiladi va demokratik qadriyatlarni targ‘ib qiladi.

Ekologik siyosat nafaqat tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan choralar majmuasi, balki uning ijtimoiy jihatlari ham katta ahamiyatga ega. Jamiyatning turli qatlamlari, ayniqsa yoshlar orasida ekologik madaniyatni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ekologik masalalarga ijtimoiy javobgarlikni oshirish muhim vazifalardan biridir [2].

Milliy Tiklanish Demokratik partiyasi yoshlar orasida ekologik ongni oshirishga qaratilgan turli tashabbuslar va loyihalarni amalga oshirmoqda. Partiya ekologik ta‘lim dasturlari, seminarlar, aksiyalar va ko‘ngillilik harakatlari orqali yoshlarni atrof-muhitni muhofaza qilishga jalb qiladi.

Shu bilan birgalikda, Milliy Tiklanish Demokratik partiyasining 2025-2029-yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturidagi ekologik siyosatga doir ko'plab samarali takliflar berib o'tilgan. Ulardan: "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, aholini energiya resurslari bilan ta'minlash, milliy transport tizimi salohiyatini oshirish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda "Yashil maydon" umummilliy loyihasi, "Yashil bog'lar", "Yashil jamoat parklari", "Yashil qalqon" va "Yashil qoplama" himoya o'rmonzorlarini tashkil etish, o'rmon maydonlarini ko'paytirish tashabbuslarini hamda Milliy tabiiy meros obyektlari ro'yxatini kengaytirib borish, "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahririni ishlab chiqish, moddiy madaniy meros obyektlarining tabiiy va texnogen ta'sirlardan shikastlanishini oldini olish, mavsumiy anomal iqlim holatlariga tayyorgarlik ko'rish va ularning xavfini kamaytirish bo'yicha dasturlar joriy etish, "Suv iste'moli madaniyatini yuksaltirish" dasturini qabul qilish, ota-bobolarimiz udumi – yoshlar turmush qurganda, farzand tug'ilganda yaxshi niyatlar bilan daraxt ekish odatini ommalashtirish [3].

Bundan tashqari, partiya yoshlarni ekologik faoliyatda qatnashishga rag'batlantiruvchi siyosiy platformalar yaratadi, ularni ekologik muammolarga yechim izlashga undaydi. Bu faoliyat ijtimoiy tarmoqlarda, mahalliy hamjamiyatlarda ekologik ongni kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yoshlar orasida ekologik ongning oshishi ularning ijtimoiy faolligini kuchaytiradi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlaydi va jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ekologik siyosat yuritishda yoshlar bilan harakat qilish kelajakdagi ekologiyaning kafolati ekanligi jahon siyosatidan ma'lum [4]. Ekologik tashabbuslarda qatnashgan yoshlar nafaqat o'z hayot sifatini yaxshilaydi, balki o'z atrofida qilargalarga ham ta'sir o'tkazadi.

Milliy Tiklanish partiyasining ekologik siyosatga oid faoliyati natijasida yoshlar ekologik muammolarga nisbatan mas'uliyatliroq bo'lib, jamiyatda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirmoqda. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va milliy taraqqiyot uchun muhim omildir. Misol uchun an'anamiz bo'lib kelayotgan Navro'z bayramida turli hil mevali yoki manzarali daraxtlar ekilishi ajdodlarimiz ham tabiatni asrashga bo'lgan e'tibori yuqori bo'lganini ko'rsatadi [5].

Xulosa qilib aytganda, Milliy Tiklanish Demokratik partiyasi yoshlar siyosatida ekologik masalalarga ijtimoiy jihatdan yondashishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilagan. Partiya o'z faoliyatida yosh avlodni ekologik muammolarga befarq bo'lmagan, ongli va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga intiladi. Bu borada turli loyihalar, tadbirlar va tashabbuslar orqali yoshlarning ekologik bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularni atrof-muhitni muhofaza qilish jarayoniga faol jalb etish maqsad qilingan. Ayniqsa, volontyorlik harakatlari, ekologik seminar va treninglar,

mahalliy hududlarda obodonlashtirish ishlariga yoshlarning keng jalb qilinishi bu siyosatning amaliy ifodasidir.

Partiya ekologik madaniyatni yuksaltirish orqali jamiyatda barqaror rivojlanish, sog'lom muhit va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ekologik siyosatning ijtimoiy jihatlari yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi, chunki bugungi yosh – ertangi jamiyat asoschisi. Shu bois, partiyaning bu yo'nalishdagi faoliyati nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlod uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Witnessing an environmental catastrophe: Reflections from the dried-up Aral sea 2024. URL: <https://www.unccd.int/news-stories/special-feature/witnessing-environmental-catastrophe-reflections-dried-aral-sea>.

2. Ecological policy of Uzbekistan 2021. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ecological-policy-of-uzbekistan-and-principles-of-its-implementation>.

3. Development based on traditions 2024. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/22/milliy-tiklanish/>.

4. Child and Youth Action for the Environment 2022. URL: <https://knowledge.unicef.org/CEED/child-and-youth-action-environment>.

5. Milliy Tiklanish Demokratik partiyasining 2025-2029-yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturi. URL: <https://mt.uz/saylovoldi-dastur>.

O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA MUAMMOLARI: SABABLAR, YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Jumayev Behzod Yo'ldoshevich

O'zDJTU, Xalqaro jurnalistika fakulteti, Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

+998997430118, bezodjumayev1922@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda yer yuzi hamda O'zbekistonda global muammolardan bo'lib borayotgan atmosfera havosining ifloslanish va uning salbiy oqibatlari va O'zbekiston hududida havo ifloslanish darajasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Atmosfera yerning himoya qatlami hisoblanadi, u barcha tirik organizmlarni zararli kosmik nurlardan, samodan tushadigan meteoritlarning zarrachalaridan himoya qilib turadi.

Kalit so'zlar: Atmosfera, tabiiy omillar, kosmik changlar, avtomobil transporti, oltingugurt oksidi, "smog", Luis Battan, bronxial astma, Sho'rtan-gaz, gidrometeorologiya, ifloslanish, Muborak issiqlik elektr markaz.

Atmosfera soʻzi yunoncha tildan olingan boʻlib, (atm-bugʻ, sfera-qobiq) yaʼni havo qobigʻi degan maʼnoni anglatib, biosferada hayot mavjudligini taʼminlovchi asosiy manbalardan biridir. Sayyoramiz yuzasidagi issiqlikni saqlaydi. Agarda havo qobigʻi boʻlmaganida edi, er yuzida kunduzi +1000 C va kechqurun -1000 C harorat kuzatilgan boʻlar edi. Unda bulutlar paydo boʻladi, yomgʻir, qor bunyodga keladi, shamol hosil boʻladi, shuningdek erga namlik berib, tovush oʻtkazadi va hayotbaxsh kislorod manbai hisoblanadi. Atmosfera qobigʻi quyidagi qatlamlarga boʻlinadi.

1. Troposfera – yer sirtida 0-15 km gacha;
2. Stratosfera – 15-50 km gacha;
3. Mezosfera – 50-80 km gacha;
4. Termosfera – 80-800 km gacha;
5. Ekzosfera – 800-1000 km dan yuqori.

Atmosfera shu qatlamlar bilan bir butun qobiq boʻlib hisoblanadi. Atmosferaning gaz tarkibi deyarli doimiy boʻladi: asosan azot-78,09%, kislorod 20,95%, argon-0,93%, karbonat angidrid-0,03% mavjuddir. Shu bilan birga yana inert gazlar: geliy, neon, ksenon, vodorod, kripton, metan, ammiak, yod, radon gazlar va havoda doim 3-4 % suv bugʻlari, changlar boʻladi. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar [1]. Atmosferada sodir boʻladigan fizik, kimyoviy va biologik oʻzgarishlar tirik organizmlarga oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Soʻnggi yillarda inson taʼsirining kuchayishi natijasida gazlar muvozanatining oʻzgarishi kuzatilmoqda. Atmosferadagi gazlar doimiy miqdorining oʻzgarishi sayyoramiz uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi aniqlangan. Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino aytganidek — Agar havoda chang va tutun boʻlmasa inson ming yilgacha umr koʻrgan boʻlardi. Atmosferaning ifloslanishi deganda havoga zaharli birikmalarning qoʻshilishi natijasida uning fizik va kimyoviy xususiyatlarini oʻzgarishi tushuniladi. Insoniyatga qolaversa, barcha jonivorlarga hayot baxsh etadigan atmosfera havosini hozir asosan ikki manba: tabiiy omillar va inson faoliyatining mahsuli – antropogen (sunʼiy) manba ifloslantiradi. Tabiiy omillarga: kosmik changlar, vulqonlarning otilishidan, togʻ jinslarining yemirilishi va tuproqning nurashidan vujudga kelgan moddalar, oʻsimlik va hayvon qoldiqlari, oʻrmon va dashtdagi yongʻin, dengiz suvining mavjlanishi bilan havoga chiqqan tuz zarrachalari kabilarni misol qilib koʻrsatish mumkin. Atmosferaning sunʼiy ifloslanishiga: avtomobil transporti birinchi oʻrinni (40%), energetika sanoati ikkinchi oʻrinni (20%), korxonalar va tashkilot ishlab chiqarishi uchinchi oʻrinni (14%), qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishi, maishiy kommunal xoʻjaligi va boshqalar zimmasiga ifloslanishning (26%) toʻgʻri keladi.

Yer sharining har xil mintaqalarida qaysiki, qayerda kimyoviy korxonalar koʻp boʻlgan joylarda atmosfera havosining ifloslanishi juda sezilarlidir. Masalan: Yaponiyada, AQShda, Yevropada, Rossiyada, Tojikiston (TADAZ) va Xitoyda, respublikamizda esa Toshkent, Fargʻona,

Chirchiq, Bekobod, Navoiy, Olmaliq kabi shaharlarni ko'rsatish mumkin Hozirda yer kurrasida xo'jalik faoliyati bilan bog'liq holda atmosferaga har yili 500 mln.tonna oltingugurt gazi, sulfat oksidi, azot oksidi, 6,5-7 mlrd. karbonat angidrid chiqarilmoqda. Shuningdek, atmosferaning ifloslanishida va ko'plab kislorodni sarflanishida samolyotlarning ham roli katta. Birgina reaktiv samolyot 8 soat ichida Amerikadan Yevropaga uchib o'tganda 50-100 tonnagacha kislorod yoqadi, ya'ni buni 100 ming gektar o'rmonzor bir kunda chiqarib beradi, bir kosmik kemaning fazoga chiqishi uchun 16 km radiusida ozon qatlami yemiriladi. Atmosfera havosining ifloslanishida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining ham hissasi bor, bunda parrandachilik va chorvachilik komplekslari, go'sht kombinatlari, kimyoviy o'g'itlar, zararli ximikatlar ko'proq ta'sir etadi. Bulardan tashqari kanalizasiya shaxobchalaridan, avtomobil g'ildiraklaridan, oyoq kiyimidan, oshxonalaridan va boshqalardan chiqqan chang, gazlar, hidlar ham atmosferani ifloslaydi [2].

Havoning kuchli ifloslanishi insonlar sog'lig'iga, qolaversa barcha jonzotlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir kishi sutka davomida o'rtacha 25 kg havo bilan nafas oladi. Havo tarkibidagi zarali chang, qurumlar, zararli gazlar kishi organizmida to'planaveradi. Oqibatda teri va ko'z kasalliklari, jigar serrozi, qonbosimining ortishi, surunkali bronxit, enfizima, nafas qisish va o'pka raki kabi kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Bolalar o'rtasida umumiy kasallanishning ortishi qayd qilingan. Havoda oltingugurt oksidi ko'p bo'lishi natijasida kishilarda bronxit, gastrit kasalliklari vujudga keladi. Atmosfera havosining ifloslanishi o'simlik va hayvonlarga ham zarar etadi. O'simlik barglariga, tuproq va suv orqali esa ildiziga o'tadi. Ifloslangan havo o'simliklarni zararlab, ularda modda va energiya almashinuvini buzadi. Qishloq xo'jalik ekinlari va mevali daraxtlar ham kam hosilli bo'lib qoladi. Sanoat va transportdan chiqqan zararli gazlar fotosintez jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Atmosferaning ifloslanishi hayvonlarga ham ta'sir etib, ularning zaharlanishiga, ba'zan esa nobud bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Hayvon turlarining kasallanib, zaharlanib, qirilib ketishida urushlarning, xususan AQShning Vyetnamda, Laosda olib borgan urushlarida kimyoviy qurollarni qo'llash tufayli 170 qush turidan hozir 24 qush turi, 55 sut emizuvchilar turidan 5 turi qolgan. Atmosferaga milliard tonnalab SO₂ gazining chiqarilishi natijasida sayyoramizning o'rtacha harorati 1850 yilga nisbatan 0,5oS ga oshganligi aniqlangan. Agar atmosferadagi SO₂ ning miqdori ortib boraversa, uning miqdori 2025 yilga borib 0,0379% ga etishi mumkin, bu esa er sayyorasi haroratini 1,8oS gacha ko'tarilishi taxmin qilinmoqda. Yer atmosferasi haroratining o'sishi, muzliklarning erishiga, suv sathining ko'tarilishiga olib keladi, bu esa ekin maydonlarini kamaytiradi, yog'in-sochin miqdori ko'payib, iqlim o'zgaradi.

Oxirgi 25-30 yil ichida kislotali yomg'irlar ayrim davlatlarda haqiqiy ekologik falokatga aylanib qoldi. Har qanday qazilma yoqilg'i yondirilganda chiqindi gazlar tarkibida oltingugurt va azot qo'sh oksidlari bo'ladi.

Atmosferaga millionlab tonna chiqarilayotgan bu birikmalar yomg'irni kislotaga aylantiradi. So'nggi yillarda AQSh, Kanada, Germaniya, Shvesiya, Norvegiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda kislotali yomg'irlar ta'sirida katta maydondagi o'rmonlar quriy boshladi. Bunday yomg'irlar tuproq hosildorligini pasaytiradi, binolar, tarixiy yodgorliklarni emiradi, inson sog'ligiga zarar etkazadi. Ayrim hududlarda havoning harakatsiz turib qolishi oqibatida kuzatiladigan zaharli tuman —smog insonlar sog'ligiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi. 1952-yili 5-9 dekabrda Londonda yuz bergan smog oqibatida 4000 dan ortiq kishi nobud bo'lgan. Fotoximik smog deganda sanoat va transport chiqindi gazlarning quyosh nurlari ta'sirida reaksiyaga kirishib xavfli birikmalarni hosil qilishni tushuniladi. Jumladan, ozon, formaldegid va boshqa birikmalarning hosil bo'lishi va miqdorining ortishi uzatiladi.

Yer yuzida atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish uchun tezlik bilan zarur choralar ko'rilishi lozim. Amerikalik meteorolog Luis Battan aytganidek: "Yoki insonlar havodagi tutunni kamaytiradilar, aks holda tutun yer yuzida insonlarni kamaytiradi". Rivojlangan mamlakatlarda tashqi muhitning ifloslanishi avtomobil dvigatellari chiqarayotgan zaharli moddalar tufayli yuz berayotir. Ba'zi kapitalistik mamlakatlarda, masalan, Yaponiyada avtomobillarning ko'pligi natijasida ko'cha harakatini boshqaruvchi polisiya xodimi har 2 soatda kislorod maskasini almashtirib turishga majbur bo'ladi. Shu sababli ham mutaxassislar avtomobillarni — g'ildirakdagi ximiyaviy fabrika deyishadi. Mashina motori chiqargan gaz tarkibida uglerod oksidlari, karbonat anhidrid, aldegidlar, azot oksidlari, uglevodlar, qo'rg'oshin birikmalari bo'lib, ular inson sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uglerod oksidlari qondagi gemogloblin bilan birikib, uning kislorod tashishi funksiyasini pasaytiradi. Qo'rg'oshin birikmasi nafas olish yo'llari orqali o'tib kishilarning yurak-qon tomirlarini shikastlar ekan. Atmosferaning kosmosdan ifloslanishi kosmik changlardan sodir bo'lmoqda. Yer sirtiga yiliga 10 mln.t. kosmik chang tushadi. Eng xavfli olam fazosidan Yerga kelayotgan turli xil chang, meteor zarralari, radiasiya oqimlari. Vulqonlarning otilishi va tog' jinslarining emirilishidan atmosferaga chiqqan turli xil zarralar bir necha yilgacha havoga suzib yurishi mumkin. Masalan: 1883 yil Karakatauda (Indoneziya) kuchli vulqon otilib, atmosferaga shunday ko'p miqdorda chang zarralari chiqqandiki, u 8-24 km balandligi, 16 km qalinligi qoplab olib 5 yil davomida havoda uchib yurgan. O'zbekiston Respublikasida ham atmosfera havosining ifloslanishi eng asosiy ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Aholi, sanoat va transport yuqori darajada to'plangan Toshkent va Farg'ona iqtisodiy rayonlari, metallurgiya, kimyo va mashinasozlik markazlari bo'lgan Olmaliq, Toshkent, Farg'ona, Bekobod, Andijon, Chirchiq, Navoiy shaharlarida havoning ifloslanish darajasi ancha yuqori. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan 2600 dan ortiq korxonalaridan yiliga 164 ming tonna 150 turdagi ifloslantiruvchi moddalar

havoga chiqarib yuborilmoqda. Ulardan 87%i respublikaning asosiy sanoat potentsiali hisoblangan Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Farg'ona, Navoiy viloyatlarida joylashgan korxonalar hissasiga to'g'ri keladi. 1987- yilda sanoat korxonalari tomonidan atmosferaga tashlangan chiqindilar miqdori respublikada aholi jon boshiga 150-211 kgni tashkil qilgan bo'lsa, 1996-yilda O'zbekiston bo'yicha atmosferaga turg'un va harakatlanuvchi manbalardan 1,8 million tonna zararli moddalar tashlangan. Bu ko'rsatkich 1991-yildagidan 2 million tonna, 1995-yildagidan esa 165 ming tonna kam demakdir. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish natijasida jami 32,7 ming tonna chiqindi tashlanib, shundan ishlab chiqarish sexlari, uchastkalari va obyektlarini to'xtatib qo'yish hisobiga 3,58 ming tonna tashlamalar qisqargan. (Keltirilgan ma'lumotlarda atmosferaga aviatsiya, temir yo'l, daryo transportlari, hayvon saqlash majmualari, shaxsiy isitish pechlari, chiqindixonalarning yondirilishi, karyer changlari va boshqa ifloslantiruvchi manbalardan chiqariladigan tashlamalar hisobga olinmagan). Umumiy ifloslantiruvchi tashlamalarning 53% ni uglerod oksidi, 15% ini oltingugurt angidridi va 15% ini yuqori toksiklik hossasiga ega bo'lgan moddalar, 8 % ini uglevodorodlar, 5% ini qattiq moddalar va 4% ini azot oksidlari tashkil qiladi. Qashqadaryo hududida atmosfera havosiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan 46600 dan ortiq transport vositalari va 6700 dan ortiq yirik qo'zg'almas manbalar mavjud bo'lib, ulardan bir yilda o'rtacha 32000 tonnadan ortiq zararli moddalar atmosferaga chiqarilmoqda. Shundan 212,4 ming t. qo'zg'almas manbalarga, 108,2 ming t. qo'zg'aluvchan manbalarga to'g'ri keladi. Bundan atmosfera havosini ifloslaydigan birinchi darajali ob'ektlarga quyidagilar kiradi: 1. Muborak gazni qayta ishlash zavodi 55 ming t. 2. Muborak gaz konlari unitar sho'ba korxonasi 5 ming t. 3. Sho'rtan neft-gaz unitar sho'ba korxonasi 70 ming t. 4. Sho'rtan gaz kimyo majmuasi 15 ming t. 5. Muborak issiqlik elektr markazi 10 ming t. Bu ob'ektlardan atmosfera havosiga chiqadigan zaharli moddalar viloyat bo'yicha 65 % ni tashkil etadi. Qizilqum sahrolaridek yirik tabiiy manbalar mavjud. So'nggi 30-40 yil mobaynida Orol dengizining qurib borishi tufayli uning qurigan tubidan chang va tuz ko'chadigan yana bir manba paydo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining Olmaliq, Ohangaron, Andijon, Buxoro, Qo'qon, Navoiy, Samarqand, Farg'ona va Chirchiq kabi sanoatlashgan shaharlarida ftoridlar, qorg'oshin, benz(a)pirin, oltingugurt qoksh oksidi, uglerod va azot oksidlari, xlor va ftorli vodorodlar, azot qo'sh oksidi, ammiak va chang miqdori ruxsat etilgan chegaraviy miqdordan yuqoriligicha qolmoqda. Olsimliklar uchun bunday gazlar, ayniqsa, SO₂ va chang yanada zararlidir. Havodagi SO₂ ni o'simliklar uchun toksiklik darajasi insonlar uchun ko'zda tutilgan me'yordan(0,5 mg/m³) 25 marta yuqori. Havo gaz tarkibining o'zgarishi gigiyenik nuqtai-nazardan xavfli hisoblanadi. Havoda qandaydir noxush hid sezilsa va u nafas yo'llari orqali organizmga ko'proq kirib qolsa, albatta kasallik sodir bo'ladi. Shunday gazlar ham borki, ular o'ta zaharli bo'lishiga

qaramay, sira hidi bo'lmaydi. Jumladan, is gazini inson seza olmaydi. Ko'pincha shahar havosiga sanoat korxonalari juda ko'p turli xususiyatli hidsiz va hidli gaz aralashmalar chiqarib tashlashi mumkin. Katta industrial shaharlarga kirib kelinganda havo tarkibi, uning musaffoligi buzilganligini sezish mumkin. Masalan, Olmaliq, Chirchiq, Navoiy va boshqa shaharlar havosining tarkibida o'n va undan ziyod gazlar mavjud. Ular sanoat korxonalaridan, avtotransport vositalaridan ajralib chiqadigan zararli gazlardir. Havo tarkibidagi zararli gazlar to'g'ridan-to'g'ri nafas yo'llariga kirib, o'pkaning alveolariga va qonga o'tadi, yoxud shilliq qavatidagi namliklar bilan birikib, uni yallig'lashi mumkin. O'zbekistonda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari shuni tasdiqlaydiki, zaharli gazlar ko'pincha yoshi o'tgan kishilarga, shuningdek, yosh bolalarga ancha keskin ta'sir etadi, ularda kasalliklar xiyla og'ir kechadi. Ma'lumotlar shahar aholisi o'rtasida nafas yo'llari kasalliklarining tarqalishi bilan atmosfera havosining ifloslanishi orasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Sanoat korxonalari joylashgan shaharlar aholisi o'rtasida turli kasalliklar ko'plab uchraydi. Shuni ham aytish kerakki, shahar havosi tarkibida zaharli moddalar kam bo'lsa-da, lekin surunkali ravishda mavjudligi turli xastaliklar kelib chiqishiga olib keladi [3].

Xulosa qilib aytganda, atmosfera havosining zararli gazlar, qurum, tumanlar bilan ifloslanishi o'z navbatida mazkur hududda yashovchi kishilar organizmiga asoratli ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. O'zbekiston Respublikasi gidrometeorologiya markazi bergan ma'lumotlarga qaraganda, Olmaliq va Farg'ona, shuningdek, Navoiy va Qo'qon shaharlari havosining zararli moddalar bilan ifloslanishi bo'yicha eng iflos havoli shaharlar guruhiga kiradi. O'zbekistonda turg'un manbalardan havoga tashlanadigan chiqindilar 1.3 mln. tonnaga yetdi. Jumladan, sulfat angidridi 535.8 ming, uglevodorod 427 ming, azot oksidi 94.1 ming, qattiq zarrachalar 317.4 ming tonnani tashkil etadi. Ana shu zararli moddalar asoratidan O'zbekiston shaharlarida umumiy kasalliklar 1.5 barobarga, bronxial astma esa 20 foizga ortgan. Bolalar organizmining yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish imkoniyati 25-37 foiz pasayib ketganligi kuzatiladi. Chirchiq shahrida qon kasalliklari bilan og'riganlar 4.7 barobar, endokrin bezlar kasalligi 1,9 barobar, qon bosimining oshishi 4.5 barobar, yurak ishimiya kasalligi 2.2 barobar ortganligi ma'lum. Farg'ona shahrida 1982-1988-yillar mobaynida nafas yo'li kasalliklari juda oshganligi aniqlangan. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo darasi hududidagi Tojikistonning Mirzo Tursunzoda shahrida joylashgan alyuminiy zavodi chiqindilarining asorati tufayli bu yerda chaqaloqlar tug'ilgach, bir yoshga yetmay nobud bo'lish holatlari 1,5 marta, tug'ma kasalliklar esa 1,8 marta ko'paygan.

Yer yuzida va o'zbekistonda havo ifloslanishini ya'ni havoning ma'lum darajada zaharlanishini oldini olish uchun. Ma'lum viloyat yoki hududlarda to'planib qolgan og'ir va yengil ishlab chiqarish bazalarini va korxonalarini

boshqa ishlab chiqarish tanqis bo'lgan yoki siyrak bo'lgan hududlarga ko'chirish. Bu zaharli havo qatlamini bir joyga to'plab hech narsaga erishib bo'lmaydi aksincha bu ma'lum hudud va joylarga juda kata ta'siri mavjuddir. Bu esa bora bora mahalliy aholining sog'ligi bilan bog'liq jiddiy muammolarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.Yo.Yormatova, X.S.Xushvaqtova. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018 – 200 b.
2. Sh.M.Sharipov, V.N.Fedorko, N.I.Safarova, V.A.Rafiqov. “Amaliy geografiya” darslik. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, davlat ilmiy nashriyoti Toshkent, 2017. – 160 b.
3. G‘ulomov P, Hasanov I, Qayumov A. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2009. – 155 b.

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING AHAMIYATI (RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI VA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA)

Yo‘ldosheva Oygul Zokir qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining, Jahon iqtisodiyoti

yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

(+998972210920, oygulzakirovna@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, xususan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Rivojlangan davlatlar — Germaniya, Daniya va Janubiy Koreya tajribasi asosida O‘zbekiston uchun mos keluvchi model va mexanizmlar ko‘rib chiqiladi. Mavjud imkoniyatlar va muammolar aniqlanadi, shuningdek, energiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Maqola ilmiy adabiyotlar, xalqaro hisobotlar va rasmiy statistika asosida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, quyosh energiyasi, energiya siyosati, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, yashil investitsiyalar.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, energiya xavfsizligi va atrof-muhitning degradatsiyasi sharoitida barqaror rivojlanishning muhim strategik yo‘nalishiga aylangan. O‘zbekiston uchun bu jarayon nafaqat ekologik ehtiyoj, balki iqtisodiy modernizatsiya uchun ham muhim imkoniyatdir. Rivojlangan davlatlar tajribasi, xususan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish bo‘yicha o‘rganilgan yondashuvlar,

O‘zbekistonning past uglerodli va resurslardan samarali foydalanishga asoslangan iqtisodiy yo‘lni tanlashida foydali bo‘ladi.

BMTning Atrof-muhit dasturiga (UNEP) ko‘ra, yashil iqtisodiyot – bu inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshiruvchi, shu bilan birga ekologik xavflar va ekologik resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytiruvchi iqtisodiy tizimdir. Uning asosiy ustunlari: barqaror qishloq xo‘jaligi, qayta tiklanuvchi energiya, yashil sanoat va ekologik boshqaruvdir.

Yashil iqtisodiyotning afzal tomonlari:

- ✓ Iqlimga zarar yetkazuvchi gazlar chiqindilarini kamaytirish
- ✓ Yashil sektorlar orqali yangi ish o‘rinlari yaratish
- ✓ Tabiiy resurslardan samarali foydalanish
- ✓ Sog‘liqni saqlash va umumiy hayot sifatini yaxshilash [1]

O‘zbekiston so‘nggi yillarda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan siyosatni ilgari surmoqda. 2019-yilda qabul qilingan **“Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)”** asosida mamlakatda energiya samaradorligini 20–25% ga oshirish va elektr energiyasida qayta tiklanuvchi manbalar ulushini 2030-yilgacha 25% ga yetkazish rejalashtirilgan [2]. Ushbu strategiya asosida

Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida quyosh va shamol energiyasi loyihalari ishga tushirildi [3]. ADB, Jahon banki va Masdar kabi xususiy kompaniyalar bilan hamkorlik kuchaymoqda va yashil moliyalashtirishni rag‘batlantiruvchi qonunchilik islohoti amalga oshirilmoqda. [4]

Qator rivojlangan davlatlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini muvaffaqiyatli joriy etish orqali O‘zbekistonga o‘rnak bo‘la oladi. Ularning siyosiy yondashuvlari, texnologiyalari va davlat-xususiy hamkorlik mexanizmlari muhim tajriba manbai hisoblanadi.

Germaniya – Energiewende (Energiya O‘zgarishi)

Germaniyada uzoq yillik **Energiewende** siyosati asosida atom energiyasidan voz kechilib, qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tilmoqda. 2023-yil holatiga ko‘ra, elektr energiyasining 46% dan ortig‘i quyosh va shamol manbalaridan olinmoqda. Bunga davlat subsidiyalari va texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali erishilgan. [5]

Daniya – Shamol energetikasidagi yetakchilik

Daniya dunyo bo‘yicha shamol energiyasi bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Aholi iste‘mol qiladigan elektr energiyasining 50% dan ortig‘i shamol generatorlari orqali ishlab chiqariladi. Hukumat tomonidan ilmiy tadqiqotlar va bozor rag‘batlantirishlari orqali bu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishildi [6].

Janubiy Koreya – Yashil Yangi Bitim (Green New Deal)

2020-yilda Janubiy Koreyada **Yashil Yangi Bitim** dasturi boshlangan bo‘lib, u doirasida 61 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritildi. Bu dastur yashil infratuzilma, qayta tiklanuvchi energiya va raqamli

innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, 660 mingdan ortiq ish o'rni yaratishni maqsad qilgan [7].

1- Jadval. Yashil energiya ko'rsatkichlari solishtirma holatda.

Davlat	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	Asosiy siyosiy vosita	Natija
Germaniya	46	Subsidiyalar, tariflar	Quyosh va shamol energetikasi rivoji
Daniya	50+	R&D sarmoyasi, bozor yordami	Shamol energetikasida global yetakchilik
Janubiy Koreya	15	Green New Deal	Yashil texnologiyalarga strategik investitsiya
O'zbekiston	<10	Yashil iqtisod strategiyasi	Quyosh va shamol loyihalari boshlang'ich bosqichda

O'zbekiston yiliga o'rtacha 300–320 quyoshli kunlarga ega bo'lib, bu qayta tiklanuvchi quyosh energiyasi uchun katta salohiyat yaratadi. Mamlakatda quyosh energiyasining texnik salohiyati yiliga 51 milliard tonna shartli yoqilg'i miqdorida baholanmoqda [8]. Navoi, Samarqand, Jizzax viloyatlarida xalqaro investorlar – Masdar, ACWA Power – ishtirokida yirik quyosh elektr stansiyalari qurilmoqda [9].

Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi tashkilotlar O'zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirmoqda. Masalan, ADB tomonidan Sherobodda 100 MVt quyosh elektr stansiyasi uchun sarmoya ajratilgan [10]. Bu hamkorlik texnologik yordam va institutsional salohiyatni oshirishda muhim omildir.

Iqtisodiyotni yanada yashillashtirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni oshirishda quyidagi muammolar vujudga kelishi mumkin:

Energoinfratuzilmaning eskiligi. Mavjud tizimlar zamonaviy qayta tiklanuvchi texnologiyalarni qabul qilishga mos kelmaslik holatlari.

Mutaxassislar yetishmovchiligi. Soha bo'yicha malakali muhandislar, texniklar yetishmaslik muammosi.

Huquqiy bo'shliqlar. Strategik hujjatlar mavjud bo'lsa-da, qonunchilikdagi aniq mexanizmlar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hukumat quyidagi siyosatlarni yo'lga qo'yishi kerak: qayta tiklanuvchi energiya sektori uchun qulay qonunchilik yaratish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish maqsadida soliq imtiyozlari va sarmoya kiritish

sharoitlarini yaxshilash, shuningdek, ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun aniq strategik reja va texnik yordamni rivojlantirish. Bundan tashqari, malakali kadrlar tayyorlash va texnologik innovatsiyalarni tatbiq etishga qaratilgan ta'lim dasturlarini kuchaytirish, yashil energiya sohasidagi huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni tezkor yangilash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni mamlakatning iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta'minlash uchun katta imkoniyatlarni yaratadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ayniqsa quyosh va shamol energiyasining katta salohiyati, O'zbekistonni mintaqaviy energetika markaziga aylantirishga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, ekologik xavfsizlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va energiya samaradorligini yaxshilash borasidagi sa'y-harakatlar iqtisodiyotning diversifikatsiyasini kuchaytiradi. Biroq, bu jarayonni tezlashtirish uchun energoinfratuzilmasining modernizatsiyasi, malakali kadrlar tayyorlash va huquqiy mexanizmlarning ishlab chiqilishi zarur.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishidagi muvaffaqiyat, xalqaro hamkorlik, sarmoya jalb qilish va texnologik yangilanishlarga bog'liqdir. Rivojlangan davlatlar tajribasi, masalan, Germaniya va Daniya, qayta tiklanuvchi energiya bozorlarini rivojlantirish, texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalarni rag'batlantirish borasida o'rnak bo'lishi mumkin. O'zbekiston bu yo'nalishlarni amalga oshirish orqali o'zining ekologik va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishi, global miqyosda barqaror rivojlanishga hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNEP (2019). Green Economy: Concept and Implementation
2. O'zbekiston Respublikasi (2019). Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi (2019-2030)
3. ADB (2020). O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya rivoji
4. Jahon banki (2021). O'zbekistonda yashil energiyaga investitsiyalar
5. Federal Ministry of Germany (2023). Energiewende
6. Danish Energy Agency (2022). Denmark's Wind Sector
7. Ministry of Finance, Korea (2023). Korean Green New Deal
8. ADB (2022). Central Asia Solar Potential
9. Masdar (2020). Solar Projects in Uzbekistan
10. ADB (2023). Uzbekistan Energy Assessment
11. Jahon banki (2022). Renewable Policy in Uzbekistan
12. ILO (2020). Green Skills in Uzbekistan
13. GGGI (2021). Legal Framework for Renewables
14. UNECE (2020). Regional Green Energy Cooperation

YASHIL DIPLOMATIYADA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKOLOGIK TASHQI SIYOSATI

Xasanov Asliddin Saydulla o‘g‘li

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xalqaro jurnalistika
fakulteti, Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi I-bosqich talabasi.*

+998 91 208 09 28, xasanovasliddin@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik diplomatiya ya’ni “yashil diplomatiya” tushunchasi zamonaviy xalqaro munosabatlar kontekstida tahlil qilinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining so‘ngi yillarda ekologik muammolarni tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ilgari surayotgani ko‘rsatib beriladi. Mamlakatning Orol dengizi inqirozi bo‘yicha global e’tirof etilgan tashabbuslari, transchegaraviy suv resurslari masalasida mintaqaviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish borasidagi harakatlari, hamda xalqaro tashkilotlar bilan ekologik yo‘nalishdagi hamkorligi asosida O‘zbekistonning yashil diplomatiyasini shakllantirish bosqichlari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, BMT, Parij kelishuvi, Orolbo‘yi mintaqasi, ekologiya, diplomatiya, iqlim o‘zgarishi, xalqaro ekologik huquq, yashil energetika.

XXI asrda insoniyat duch kelayotgan eng muhim muammolardan biri – bu ekologik muvozanatning buzilishi va uning global oqibatlaridir. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, suv tanqisligi kabi muammolar nafaqat atrof-muhitga balki siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik masalalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda davlatlarning tashqi siyosatda ekologik masalalarning alohida o‘rin egallashi tabiiy holdir. Aynan shu nuqtai nazardan “yashil diplomatiya” – ekologik muammolarni xalqaro doirada ilgari suruvchi yangi diplomatik yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. O‘zbekiston ham bugungi kunda ekologik muammolarni xalqaro darajada ko‘tarish, mintaqaviy va global ekologik tashabbuslarda ishtirok etishi orqali o‘zining “yashil tashqi siyosati”ni bosqichma bosqich shakllantirmoqda. Xususan Orol dengizi fojiasi, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish kabi masalalarda O‘zbekistonning xalqaro doiradagi pozitsiyasi tobora mustahkamlanmoqda.

Yashil diplomatiya – bu davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida tashqi siyosat doirasida amalga oshiradigan faoliyati sifatida izohlanadi. U xalqaro munosabatlarda ekologik munosabatlarni ilgari surish, global ekologik siyosatni shakllantirish va tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha davlatlararo hamkorlikni chuqurlashtirishni o‘z ichiga oladi. Yashil diplomatiya XX asr oxiri – XXI asr boshlaridan boshlab keng ommalasha boshladi. Xususan, 1992-yildagi Rio-de-Janeyroda bo‘lib o‘tgan BMTning

atrof muhit va rivojlanish bo'yicha konfrensiyasi, 1997-yildagi Kioto protokoli, 2015- yildagi Parij iqlim kelishuvi – bu diplomatik doiralarda ekologik masalalarning tobora markaziy o'ringa chiqayotganidan dalolat beradi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi davlatlari, Norvegiya, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar yaqin yillardan boshlab o'z tashqi siyosatining ajralmas qismi sifatida qaramoqda. Masalan, 2019-yilda Yevropa Ittifoqi “Yashil kelishuv” dasturini qabul qildi va 2050-yilga borib iqlimiy neytralikka erishishni maqsad qilgan. Dastur doirasida nafaqat ichki siyosatda, balki boshqa davlatlar bilan ham ekologik me'yor va talablarni ilgari surmoqda. Ayni paytda xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT, UNEP (BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi), va Global Enviroment Facility kabi tuzilmalar yashil diplomatiyaning muhim platformasiga aylangan[1]. Davlatlar ushbu tuzilmalar orqali ekologik loyihalarda ishtirok etadi, ekologik xavfsizlik, texnologik almashinuvni ta'minlashga harakat qiladi. Yashil diplomatiya zamonaviy diplomatiyaning yangi bosqichi sifatida shakllanayotgan bir paytda, O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda o'zining mustaqil va faol pozitsiyasini namoyon etmoqda. 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida so'zlagan nutqida Orol dengizi muammosini global ekologik falokat deb e'tirof etish zarurligini ta'kidladi. Natijada 2021-yil 18-may kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Orolbo'yi hududi “Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi” deb e'lon qilindi[2]. Bu qaror O'zbekistonning xalqaro ekologik diplomatiyadagi muhim yutug'i bo'ldi.

Shuningdek, O'zbekiston BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doimiy konfrensiyalarida (COP) muntazam ishtirok etib kelmoqda. 2021-yil noyabr oyida Glazgoda bo'lib o'tgan COP-26 konfrensiyasida O'zbekiston delegatsiyasi ishtirok etib, 2030-yilgacha issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga kamaytirish rejasini e'lon qildi. Bundan tashqari O'zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro loyihalarda faol ishtirok etmoqda[3]. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, yashil diplomatiya bugungi kunda xalqaro siyosatning ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. O'zbekiston esa ushbu sohada nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham faol tashabbuskor sifatida maydonga chiqmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgani bois, suv resurslari masalasi tashqi siyosatning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Mamlakat Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan transchegaraviy daryolar – Amudaryo va Sirdaryodan foydalanish masalasida doimiy muloqotni olib bormoqda. O'zbekiston 2018-yildan buyon mintaqaviy hamkorlik tamoyillarini ilgari surib, suvdan adolatli va oqilona foydalanishni targ'ib qilib kelmoqda. O'zbekiston quyosh va shamol energiyasini rivojlantirish borasida xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik qilmoqda. Masalan, Saudiya Arabistonining ACWA Power kompaniyasi

bilan 1000 MVt dan ortiq quyosh elektr stansiyalarini qurish bo'yicha shartnomalar imzolangan[4]. Bu tashabbuslar nafaqat ichki energetik xavfsizlik, balki global ekologik majburiyatlarning ham bajarilishiga xizmat qiladi. O'zbekiston BMT, Yevropa Ittifoqi, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro ekologik tashkilotlar bilan hamkorlikda mintaqaviy ekologik loyihalarda ishtirok etmoqda. Mamlakat 2022-yilda Yevropa Ittifoqining "Switch Asia" dasturiga qo'shildi va yashil iqtisodiyot yo'nalishda qo'shma loyihalarni boshladi. 2024-yilda O'zbekiston BMT bilan hamkorlikda iqlim migratsiyasi bo'yicha xalqaro konfrensiya o'tkazishni rejalashtirdi. Ushbu tadbir iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan migratsiya muammolarini muhokama qilish va yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslardan biri bu "Global iqlim poytaxtlari alyansi"ni tashkil etishdir. Ushbu alyans iqlim o'zgarishidan eng ko'p zarar ko'rgan shaharlar o'rtasida tajriba almashish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan hamkorlikda O'zbekiston "Yashil bandlik" dasturini ishlab chiqdi. Ushbu dastur iqlim o'zgarishining mehnat bozoriga ta'sirini o'rganish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan[5]. O'zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida xalqaro doirada aloqalarni kengaytirmoqda. Xususan, joriy yilga kelib, mamlakatda 25 gigavatt quvvatga ega qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishga tushirish rejalashtirilgan. Yaqin yillarda O'zbekiston ekologik tashqi siyosiy sohada faoliyati va tashabbuslarini yanada chuqurlashtirishni rejalashtirmoqda. Global iqlim o'zgarishlari, bioxilma-xillikning yo'qolishi, suv tanqisligi va ekologik migratsiya kabi dolzarb muammolar, yashil diplomatiyaning strategik ahamiyatini oshirib bormoqda. O'zbekiston kelajakda raqamli texnologiyalarni ekologik boshqaruvga keng joriy etishni rejalashtirmoqda. Xususan, sun'iy yo'ldoshlar orqali Orolbo'yi hududlarining ekologik monitoringi, yer degredatsiyasi va suv resurslari holatini real vaqt rejimida kuzatish tizimlari yo'lga qo'yiladi. Bu tashabbuslar xalqaro hamkorlikda, xususan BMTning UNEP(Atrof-muhit dasturi) bilan birga amalga oshirilishi kutilmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyoda ekologik muammolarga qarshi kurashishda mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish tarafdori. Bu yo'nalishda mavjud tuzilmalarning salohiyatidan samarali foydalanish hamda yangi tashabbuslarni ilgari surish ko'zda tutilmoqda. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi(IFAS) doirasida mintaqaviy muvofiqlashtirish va ekologik siyosatni integratsiyalash borasida ishlanmalar olib borilmoqda. O'zbekiston IFASdagi raislikni o'z zimmasiga olgan 2023-2024-yillarda bir qator tashabbuslarni ilgari surdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev IFASning huquqiy asoslarini takomillashtirish va institutsional mexanizmlarini modernizatsiya qilish tashabbusini ilgari surdi[6]. Bu tashabbus jamg'armaning samaradorligini oshirish va mintaqaviy ekologik muammolarni hal etishda yanada faol rol o'ynashini ta'minlashga qaratilgan

edi. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun texnologik va moliyaviy yordam ko'rsatish, ularda yashil energiya manbalarini rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ham global hamkorlikning muhim yo'nalishidir. Bu borada BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (UNFCCC) va uning doirasidagi Parij kelishuvi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Yashil diplomatiya faqat hukumatlar darajasida emas, balki xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor ishtirokida ham olib borilishi lozim. Zero, ekologik muammolar faqat bitta davlatga emas, balki butun insoniyatga daxldordir.

Xulosa qilib aytganda, yashil diplomatiya – bu zamonaviy diplomatiyaning ajralmas qismi bo'lib, global ekologik muammolarni hal etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga davlatlar diplomatik muzokaralar orqali ekologik muhofaza masalalarini kun tartibiga olib chiqishi, muayyan xalqaro huquqiy mehanizmlarni ishlab chiqishi va ularga qat'iy amal qilishi lozim. Atrof-muhit muhofazasi yo'lida davlatlar o'rtasidagi konstruktiv muloqot, uzoq muddatli hamkorlik va barqaror siyosiy yondashuvlar eng muhim omillardandir. O'zbekiston ham bu jarayonlarda faol ishtirok etib, yashil energetika va ekologik barqarorlik yo'lida muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Bu esa O'zbekistonning global ekologik muammolar yechimiga o'z hissasini qo'shayotganidan dalolat beradi. Yashil diplomatiya nafaqat rasmiy hukumatlar darajasida, balki xalqaro va nohukumat tashkilotlar, ilmiy doiralar va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borilishi kerak. Bu yo'lda ta'lim, ilm-fan va axborot vositalarining roli ham beqiyosdir. Ayniqsa, yoshlarda ekologik ongni shakllantirish, ularni bu jarayonlarga faol jalb etish, nafaqat yoshlar balki har birimiz ekologik mas'uliyatni his qilib yashasak, kelajak avlodlar uchun sog'lom va barqaror muhitni yaratishga hissa qo'shgan bo'lamiz. Zero, tabiatni asrash – bu jamiki insoniyatning umumiy burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Paris Agreement. 2015. <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqlari. <https://president.uz>

3. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O'zbekiston strategiyasi” – Toshkent: “O'zbekiston”, 2023.

4. ACWA Power kompaniyasining O'zbekistondagi loyihalari haqida ma'lumot. <https://www.acwapower.com/>

5. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti. <https://mfa.uz>

6. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (IFAS) rasmiy sahifasi.
<http://ec-ifas.org/>

EKOLOGIK SIYOSAT: BARQAROR KELAJAK SARI QADAM

Jorayev Muhammadsher Ma`rufovich

O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi talabasi
(+998907871616, jorayevmm@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik siyosatning mazmuni, maqsadlari, turlari, xalqaro va milliy darajadagi muammolari hamda ularni yechish bo'yicha chora-tadbirlari yoritilgan. Ekologik siyosat bugungi global isish, atmosfera ifloslanishi, tabiat resurslarining kamayishi sharoitida insoniyat uchun dolzarb masalaga aylangan. Shu bois, maqolada ekologik siyosatning roli, muhim jihatlari, amalga oshirish strategiyalari va barqaror rivojlanish tamoyillari atroflicha yoritiladi.

Kalit so'zlar: ekologik siyosat, barqaror rivojlanish, global isish, ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, xalqaro hamkorlik, qonunchilik.

Kirish: XXI asrda insoniyat taraqqiyoti bilan birga ekologik muammolar ham keskin tus olmoqda. Atmosfera, gidrosfera, biosfera va geosferadagi o'zgarishlar sayyoramizdagi ekologik muvozanatga tahdid solmoqda. Shu sababli har bir davlat ekologik siyosat yuritishga, bu sohada qonun va qarorlar qabul qilishga, tabiatni asrashga mas'ul. Ekologik siyosat esa davlatning atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qarorlar, strategiyalar, dasturlar va qonunchilik tizimi yig'indisi sanaladi.

Uning asosiy maqsadi – inson hayoti uchun xavfsiz ekologik muhitni yaratish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, ifloslanishni kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishishdir va inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan ekologik oqibatlarini boshqarish va kamaytirish uchun davlat va jamiyat tomonidan ko'riladigan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish. Bu siyosat iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ekologik siyosat ekologik huquq, ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik ta'lim sohalarini qamrab oladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha havo, suv, tuproq va biologik xilma-xillikni saqlab qolish; ekologik xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan inson salomatligiga xavf soluvchi ekologik xatarlarni kamaytirish asosiy maqsadlaridan biri. Barqaror rivojlanishni ta'minlashda kelajak avlodlar

ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabiiy resurslardan foydalanish, tabiiy boyliklarning qayta tiklanishini hisobga olgan holda ularni tejash ham shular jumlasidandir. Aholining ekologik savodxonligini yuksaltirish orqali ekologik muammolarga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish ham bu borada muhim hisoblanadi.

Ekologik siyosat nafaqat davlat darajasida, balki har bir fuqaroning kundalik hayotidagi ekologik tanlovlari orqali ham shakllanadi. Shu boisdan, bu siyosat yurt ichidagi qonunchilik bilan bir qatorda xalqaro normalarga ham asoslanadi. Ekologik siyosatni samarali amalga oshirish uchun qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, energetika va maishiy xizmatlar va yana boshqa ko'plab sohalarda ekologik talablarga javob berishi lozim.

Ekologik siyosatning asosiy yo'nalishlari: Atmosfera va suv havzalarini muhofaza qilish – sanoat korxonalaridan chiqadigan chiqindilarni kamaytirish, avtomobillardan chiqayotgan gazlarni nazorat qilish, ichimlik suvi manbalarini himoya qilish, suv ifloslanishini kamaytirish bo'yicha choralar. Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash – qattiq maishiy chiqindilarni saralash, qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish, chiqindilarni yoqish emas, balki ularni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlashga e'tibor qaratish.

Energiya manbalarini diversifikatsiya qilish – Quyosh, shamol, geotermal va boshqa muqobil energiya manbalarini rivojlantirish orqali an'anaviy neft va gazga bo'lgan qaramlikni kamaytirish. Biologik xilmaxillikni saqlash – yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon va o'simlik turlarini muhofaza qilish, milliy tabiat bog'lari va qo'riqxonalarni kengaytirish, genetik resurslarni saqlab qolish. Ekologik ta'lim va aholi ongini oshirish — bu atrof-muhitni asrashga qaratilgan tushunchalar, bilimlar va ko'nikmalarni aholiga yetkazish orqali ekologik ongni shakllantirish jarayonidir. Bu yo'nalish ekologik muammolarni tushunish, ularga mas'uliyat bilan yondashish, va barqaror hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Quyidagilar bu jarayonning asosiy yo'nalishlaridir: Maktabgacha ta'limda bolalarga tabiatni sevish, hayvonot va o'simliklar dunyosi haqida boshlang'ich tushunchalar beriladi (multfilmlar, rasm chizish, tabiat bilan tanishuv). Maktabda biologiya, geografiya, va ekologiya fanlari orqali o'quvchilarga atrof-muhit, iqlim o'zgarishi, chiqindilarni qayta ishlash kabi mavzular o'rgatiladi. O'rta maxsus va oliy ta'limda ekologik fanlar, amaliy mashg'ulotlar va loyihalar orqali talabalar ekologik muammolarni tahlil qilish, ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Ommaviy axborot vositalarida ekologik targ'ibot Televideniye, radio, internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali atrof-muhit muhofazasi mavzusida ko'rsatuvlar, maqolalar, infografikalar va roliklar tarqatiladi. Ekoaksiyalar,

ko‘chat ekish tadbirlari, chiqindilarni ajratish kampaniyalari haqida axborot berish orqali jamoatchilik e‘tiborini ekologik muammolarga qaratish mumkin. Aholini ekologik hayot tarziga o‘rgatish. – chiqindilarni saralab tashlash, energiyani tejash, suvni isrof qilmaslik, qayta ishlanadigan mahsulotlardan foydalanish singari oddiy ekologik odatlar aholiga o‘rgatiladi.

Mahallalarda, maktablarda va tashkilotlarda ekologik treninglar, seminarlar, viktorinalar, ko‘rgazmalar o‘tkaziladi. Yoshlar va bolalar o‘rtasida eko-klublar, musobaqalar tashkil etilib, ularda faol ishtirok etish rag‘batlantiriladi. Xalqaro ekologik siyosat ekologik muammolarning chegaralardan o‘tuvchi xususiyatini inobatga oladi. 1992-yilgi Rio-de-Janeyroda o‘tkazilgan Butunjahon sammiti, Kioto protokoli (1997), Parij kelishuvi (2015) ekologik siyosat tarixidagi muhim voqealardir. Bu hujjatlar global isish, karbonat gaz chiqindilari va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda asosiy huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro ekologik siyosat — bu davlatlararo darajada atrof-muhit muammolarini hal etishga qaratilgan strategiyalar, qonunlar va kelishuvlar tizimidir. Chunki ekologik muammolar (masalan, global isish, atmosferaning ifloslanishi, okeanlarning ifloslanishi) birgina davlat chegarasida qolmaydi, balki butun insoniyatga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, global ekologik muammolar xalqaro hamkorlikni talab qiladi.[5]

Asosiy tamoyillar: Ekologik muammolarning chegaralardan o‘tuvchi tabiati. Har bir davlatning ekologik mas‘uliyati. Yashil iqtisodiyotga o‘tish va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida adolatli majburiyat taqsimoti.

1992-yil – Rio-de-Janeyro Butunjahon sammiti. Rasman “Yer sammiti” deb ataladi. 178 ta davlat ishtirok etgan. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ilgari surilgan. “21-asr kun tartibi” (Agenda 21) qabul qilingan — bu davlatlar va tashkilotlar uchun ekologik harakatlar rejasi hisoblanadi.

1997-yil – Kioto protokoli. Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish majburiyatlarini belgilab berdi. Rivojlangan mamlakatlar karbonat gaz chiqarilishini 2008–2012 yillar oralig‘ida 1990-yil darajasidan kamida 5% ga kamaytirishi kerak edi. Bu kelishuv Xitoy va Hindiston kabi rivojlanayotgan davlatlardan chiqindilarni kamaytirishni talab qilmagan.

2015-yil – Parij kelishuvi. Iqlim o‘zgarishiga qarshi global harakatda muhim burilish nuqtasi. Har bir davlat o‘z hissasini (NDC — Nationally Determined Contributions) belgilaydi. Maqsad: global harorat oshishini sanoatgacha davrga nisbatan 2°C dan kamroq darajada saqlash, imkon qadar 1.5°C bilan cheklash. 190 dan ortiq davlatlar imzolagan.[4]

O‘zbekistonda ekologik siyosat. O‘zbekiston Respublikasi ekologik xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida bir qator qonun va qarorlarni qabul qilgan. 2017-yilda “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. 2019-yildan buyon amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umumxalq loyihasi ham ekologik siyosatning muhim ko‘rinishidir. Davlat tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan tizimli choralar yig‘indisidir. Ekologik siyosat orqali O‘zbekiston barqaror rivojlanish, sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash va kelajak avlodlar uchun toza muhit yaratishni maqsad qilgan.

Muhim hujjatlar va tashabbuslar: 2017– yil – “Atrof – muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun. [1] Ushbu qonun yangi tahrirda qabul qilinib, ekologik me‘yorlar zamonaviy talablar asosida belgilab berildi. Tabiiy resurslardan foydalanish tartibi Atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun javobgarlik, ekologik monitoring va baholash tizimini belgilaydi. “Yashil makon” umumxalq loyihasi (2019–2025). Bu loyiha O‘zbekiston bo‘ylab keng ko‘lamda daraxt ekish tashabbusi bo‘lib, maqsad — 3 yilda 200 milliondan ortiq ko‘chat ekish. Havoning tozaligini oshirish Iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘sirini kamaytirish. Shahar va qishloq hududlarining ekologik holatini yaxshilash.

2022-yilda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining ekologik reyting tizimini joriy qilishi. Hududlar ekologik holatiga qarab reytinglanadi. Bu tizim orqali viloyatlar o‘z ekologik faoliyatini baholash va yaxshilashga undaladi. Ekologik siyosatning dolzarb muammolari — bu atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan siyosatni amalga oshirishda uchraydigan asosiy to‘siqlar va yechilmagan masalalardir. Quyida O‘zbekistonda (va ko‘plab boshqa davlatlarda) ekologik siyosatga tahdid solayotgan eng muhim muammolar keltirilgan.[2]

Iqtisodiy manfaatlar bilan ekologik ehtiyojlar o‘rtasidagi ziddiyat. Sanoat va infratuzilma rivojlanishi ko‘pincha ekologik talablarni chetlab o‘tadi. Misol: foydali qazilmalarni qazib olish, yo‘llar va zavodlar qurilishi atrof-muhitga salbiy ta‘sir qiladi. Ko‘p hollarda tezkor iqtisodiy foyda uzoq muddatli ekologik yo‘qotishlarga olib keladi. Aholining ekologik madaniyatining pastligi. Odamlar ekologik xavfsizlik, chiqindilarni to‘g‘ri ajratish, suv va energiya tejash bo‘yicha yetarli bilim va odatlarga ega emas. Bu esa ommaviy ifloslanish, yashil hududlarning buzilishi va noratsional iste‘molga olib keladi. Ekologik tarbiya maktabgacha ta‘limdan boshlab kuchaytirilishi kerak.[3]

Korxonalarda ekologik standartlarning buzilishi. Ba‘zi ishlab chiqaruvchilar chiqindilarni to‘g‘ri utilizatsiya qilmaydi yoki havoga zararli moddalarni belgilangan me‘yordan oshirib chiqaradi. Nazorat

mexanizmlari sust yoki korrupsiyaga uchragan bo'lsa, bu holatlar ko'p kuzatiladi. Bu esa suv, havo va tuproq ifloslanishiga olib keladi. Resurslardan haddan tashqari foydalanish. Suv, o'rmon, yer va boshqa tabiiy boyliklar oqilona foydalanilmasdan, ko'p hollarda isrofgarchilik bilan sarflanmoqda. Bu nafaqat ekologiyaga, balki kelajak avlodlar uchun ham xavf tug'diradi. Resurslarni tejash va qayta tiklash siyosatini kuchaytirish zarur. Ekologik siyosatni yanada samarali va uzoq muddatli natijaga ega qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Ekologik ta'limni barcha bosqichlarda joriy etish. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha ekologiya bo'yicha bilimlar tizimli tarzda o'rgatilishi kerak. Darsliklar, amaliy mashg'ulotlar va ekologik loyihalar orqali yoshlarning ekologik madaniyati shakllantiriladi. Ekologik tarbiya jamiyatda ekologik mas'uliyatni kuchaytiradi. Davlat nazoratini kuchaytirish. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi korxonalariga nisbatan qat'iy nazorat va javobgarlik choralari belgilanishi zarur. Ekologik standartlarga rioya etilishini nazorat qiluvchi mustaqil inspeksiya organlari samarali ishlashi kerak. Yashirin chiqindilar, suv va havo ifloslanishining oldini olish uchun zamonaviy monitoring tizimlari joriy etilishi lozim.

Fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish. NNTlar, ekologik tashkilotlar va jamoatchilik vakillari ekologik siyosatda faol ishtirok etishi kerak. Aholi ekologik loyihalarga jalb qilinsa, ular ekologik muammolarga befarq bo'lmaydi. Ochiqlik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan hamkorlik davlat va fuqarolar o'rtasida ishonchni oshiradi.

Xulosa. Ekologik siyosat bugungi kunda har bir davlat oldida turgan eng dolzarb va ustuvor yo'nalishlardan biridir. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha samarali choralarni ko'rish, iqlim o'zgarishining oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi masalalar global darajadagi hamkorlikni talab etadi. Bunday siyosatning muvaffaqiyati faqat hukumat organlari faoliyatiga emas, balki jamiyatning barcha qatlamlarining, xususan fuqarolik jamiyati, nodavlat tashkilotlar va har bir fuqaroning faol ishtirokiga bog'liqdir. Atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish – bu nafaqat hozirgi avlodning ehtiyoji, balki kelajak avlodlar oldidagi insoniy va fuqarolik burchimizdir. Shunday ekan, ekologik barqarorlikni ta'minlash umumiy mas'uliyatimiz bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, 2017.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari.
3. www.un.org – Birlashgan Millatlar Tashkiloti rasmiy sayti.

4. www.greenpolicy360.net – Ekologik siyosatga oid xalqaro materiallar.
5. Eronov M. “Ekologik xavfsizlik asoslari”, Toshkent, 2020.

ATROF MUHIT MUHOFAZASI: O'ZBEKISTONNING 2025-YILDAGI YANGI IQTISODIY YO'NALISHI

Esonova Dilnura Marat qizi

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti 1-kurs talabasi
telefon: +998992426608*

Annotatsiya: 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Yashil makon va Yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. Bu tashabbus albatta Yangi O'zbekistonimizda atrof muhit muhofazasi ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Bugungi kunimizdagi global iqlim o'zgarishi, havo va suv ifloslanishi kabi muommolar insoniyatni jiddiy tashvishga solmoqda. Ushbu yil yurtimizda bunday muommalarga qarshi kurashishda yangi bosqich bo'ladi deb o'ylayman. Bu maqolamda, O'zbekistonning ekologik siyosati va yashil iqtisodiyotga o'tishdagi yangi strategiyalari amalga oshirilayotgan loyihalar va ularning istiqbollari haqida batafsil malumot berib o'tishga harakat qildim.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, ekologiya, tabiatni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, energiya tejash, qayta tiklanuvchi energiya, iqlim o'zgarishi, bioxilmaxillik, ekologik tasir, resurslarni tejash, uglerod izlari, aholi salomatligi, ekologik siyosat, innovatsiyalar, texnologik yangiliklar, chiqindilarni qayta ishlash, tabiiy resurslar, havo ifloslanishi, degradatsiya.

O'zbekistonning ekologik siyosati va yashil iqtisodiyotga o'tishdagi yangi strategiyalar. O'zbekiston 2019-yilda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"ni qabul qilgan bo'lib bu strategiya 2030-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Strategiyaning asosiy ko'zlagan maqsadi - iqtisodiyotning barcha sohalarida ekologik barqarorlikni taminlash energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalashni kengaytirishdir. 2025-yilda esa "Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqildi. Bu dastur doirasida "Yashil iqtisodiyot fondini tashkil etish va "Yashil moliyalashtirish" tizimini shakllantirish rejalashtirilgan.[1]

Bugungi kunda dunyo miqyosida barqarorlik va yashil rivojlanish eng ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan bir paytda, O'zbekiston ham bu

sohada faol va qat'iy qadamlar tashlamoqda. 2025-yilni "Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi mamlakatimizning ushbu global jarayonga jiddiy va mas'uliyatli yondashayotganini ko'rsatadi desam mubolag'a bo'lmaydi. Yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha ishlab chiqilgan strategiyalar nafaqat ekologik muhitni saqlashga, balki iqtisodiyotimizning ham yangi barqaror asosda shakllanishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, har birimiz ushbu yo'lda o'z hissamizni qo'shmog'imiz zarur, chunki atrof muhitni asrash - bu nafaqat hukumatning, balki jamiyatimizning har bir a'zosining umumiy vazifasi deb o'ylayman.

Atrof-muhit muhofazasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy qismi deb o'ylayman. Bugungi kunimizda iqtisodiy rivojlanish va atrof muhitni muhofaza qilish bir biridan ajralmas tushunchalarga aylangan. Zamonaviy iqtisodiyot modelida nafaqat ishlab chiqarish hajmi balki uning ekologik tasiri ham hisobga olinadi. O'zbekiston ham bu borada aniq va amaliy qadamlar tashlamoqda. 2025-yilni "Atrof muhitni asrash va Yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilish orqali mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishni ekologik barqarorlik bilan uyg'un holda davom ettirish maqsad qilingan. Bu yondashuv bir tomondan tabiat resurslarini saqlashni, ikkinchi tomondan esa, barqaror iqtisodiy o'sishni taminlashni ko'zda tutadi.[2]

O'zbekiston Respublikasining 2019-2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasida iqtisodiy sohalarda ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish va chiqindilarni qayta ishlashga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, 2030-yilgacha elektr energiyasining kamida 25 foizini quyosh va shamol energiyasi hisobidan ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Shuningdek "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida respublikada millionlab daraxtlar ekilmoqda. Bu faqatgina ekologik barqarorlikni taminlamay balki urbanizatsiya va sanoat rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarning oldini olishga ham xizmat qilmoqda. [3]

Dunyo tajribasi ko'rsatadiki, atrof muhitga e'tibor bermagan mamlakatlar uzoq muddatli rivojlanishda katta muammolarga duch keladi, iqlim o'zgarishi suv taqchillig'i tuproq degradatsiyasi va sog'liq uchun xavflar kabi. Shu sababli O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi strategiyasida ekologik barqarorlik asosiy tamoyil sifatida belgilab olingan. Shu o'rinda, atrof muhitni muhofaza qilishni faqat xarajat deb emas, balki uzoq muddatli investitsiya sifatida ko'rish kerak. Zero, sog'lom ekologik muhit -sog'llom jamiyat va barqaror iqtisodiyot garovidir. Atrof muhitni asrash va iqtisodiy rivojlanishni uyg'unlashtirish zamonaviy davrning eng muhim talabiga aylanmoqda. Menimcha O'zbekistonning yashil iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyasi iqtisodiy barqarorlik va xalq farovonligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Atrof muhitga befarq bo'lmaslik bu kelajak avlodlarga sog'lom hayot va imkoniyatlar eshigini ochish demakdir. Shuning uchun har birimiz tabiatni asrash va uni iqtisodiy taraqqiyot bilan uyg'un

holda rivojlantirish uchun mas'ul ekanimizni his qilishimiz kerak.

O'zbekistonda 2025-yilda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha qator asosiy yo'nalishlar belgilangan bo'lib, ular mamlakatimizning ekologik barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

birinchi yo'nalish-qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish. Xususan 2025-yil yakuniga qadar quyosh va shamol energiyasi asosida jami 5G vt quvvatidagi elektr stansiyalarini ishga tushurish rejalashtirilgan. Bu esa O'zbekistonning umumiy energiya ishlab chiqarishidagi qayta qayta tiklanuvchi manbalar ulushini sezilarli oshiradi. [4]

ikkinchi yo'nalish - energiya samaradorligini oshirish. Mamlakatda sanoat korxonalarida va infratuzilmalarda inergiyani tejavchi texnologiyalar joriy qilinmoqda. Masalan, yangi qurilayotgan uy-joy energiya samarador qurilish materiallaridan foydalanish majburiy etib belgilanmoqda. (5)

uchinchi yo'nalish esa ekologik toza transport tizimini rivojlantirish. 2025-yilgacha yirik shaharlarda elektr avtobuslar va elektromobillar uchun infratuzilma kengaytirilishi va birgina Toshkent shahrida 2025-yilda 500ta yangi elektr avtobus qatnovga chiqarilishi rejalashtirilgan.[4]

Bu rejalar albatta o'z kuchini ko'rsatib boshladi deb o'ylayman. Chunki Toshkent shahrida harakatlanayotgan bunday elektr avtobuslar va elektromobillar faqatgina ekologik toza transport tizimini rivojlantirish uchun emas balki insonlarga ham bir qancha qulayliklar tug'dirmoqda deb o'ylayman.

to'rtinchi yo'nalish -qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish.2025-yilga kelib yirik shaharlarning kamida 60 foizi chiqindilarni ajratib yig'ishva qayta ishlash tizimiga o'tkazilishi belgilangan.[5]

beshingi yo'nalish -biologik xilma xillikni saqlash va o'rmon maydonlarini kengaytirish. "Yashil makon" loyihasi doirasida 2025-yilda yana 250million tup daraxt va buta ekish rejalashtirilgan. Bu nafaqat ekologik muvozanatni tiklash balki iqlim o'zgarishining oldini olish uchun ham muhim chora hisoblanadi. [3]

O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy o'sishida yashil iqtisodiyotning orni muhim ahamiyatga ega. Yashil iqtisodiyot atrof muhitni himoya qilish va iqtisodiy o'sishni barqaror ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi. O'zbekistonda ekologik barqarorlikni taminlashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Yashil iqtisodiyot orqali chiqindilarnitizimlarini rivojlantirish va ekologik zararni kamaytirish maqsad qilinmoqda. Bundan tashqari: qayta tiklanadigan energiya, iqtisodiy diversifikatsiya va yashil ish o'rinlari kabi loyihalar yaratildi. Mana shu kabi yashil iqtisodiyot, O'zbekistonning iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi va atrof muhitni himoya qilish orqali xalqning hayot sifatini oshirishga hissa qo'shadi deb o'ylayman.

Bugungi kunimizda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishidagi

yashil iqtisodiyotning roli tobora ortib bormoqda. Yashil iqtisodiyot nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki iqtisodiy o'sishni barqaror ravishda rivojlantirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston tabiiy resurslarga boy bo'lishi bilan birga qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni taminlash yo'lida aniq qadamlarga o'tdi. Bunday yondashuvlar nafaqat ekologik balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham katta foyda keltiradi deb o'ylayman. Chunki yashil iqtisodiyot O'zbekistonda ijtimoiy iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Shu bilan birga davlatning ekologik barqarorlikka erishish yo'lida amalga oshirayotgan sa'y harakatlari Xalqaro tajribalar va ilg'or texnologiyalarni o'rganish orqali yanada samarali bo'ladi desam mubolag'a bo'lmaydi. Shu sababli yashil iqtisodiyotning o'sishini yanada kuchaytirish ekologik xavfsizlikni taminlash va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini oshirish O'zbekiston uchun dolzarb vazifaga aylanadi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali Atrof muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili to'g'risida (<https://yuz.uz> O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" fondi tashkil etilishi mumkin -yuz.uz)

2. O'zbekistonda 2025-yil "Atrof muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi//gazeta.uz

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2025-yil-Atrof-muhitni muhofaza qilish va Yashil iqtisodiyot yili deb e'lon qilindi//Kun.uz.-2024-yil 20-noyabr. [URL://Kun.uz/en/news/2024/11/20/uzbekistan-declares-2025-as-the-year-of-environmental-protection-and-green-economy](https://Kun.uz/en/news/2024/11/20/uzbekistan-declares-2025-as-the-year-of-environmental-protection-and-green-economy) (murojaat qilingan sana: 29.04.2025) (<https://president.uz/uz/lists/view/5087>)

4.lex.uz

5.norm.uz

GLOBALASHUV JARAYONIDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA O'ZBEKISTONNING XALQARO EKOLOGIK SIYOSATDAGI O'RNI

Sobirjonova Saida Sarvar qizi

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xalqaro jurnalistika fakulteti,
Xalqaro munosabatlar yonalishi 1-bosqich talabasi
+99894 9448983, sobirjonovasaida73@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuvning atrof-muhitga ko'rsatgan salbiy ta'sirlari, xususan, ekologik muammolarning kuchayib borayotgan ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning

kamayishi, suv tanqisligi va sanoat chiqindilarining ortishi kabi global muammolar misolida insoniyat oldida turgan ekologik tahdidlar yoritilgan. Shu doirada O‘zbekiston Respublikasining ekologik barqarorlikni ta’minlash borasidagi siyosiy strategiyasi, xalqaro ekologik tashabbuslarda ishtiroki hamda Orolbo‘yi mintaqasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar ko‘rib chiqilgan. Maqolada ekologik xavfsizlik nita’minlashda xalqaro hamkorlik ning o‘rni va O‘zbekistonning bu yo‘nalishdagi faolligi asosli dalillar bilan bayone tilgan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi, O‘zbekiston ekologik siyosati, xalqaro hamkorlik, Orolbo ‘yi inqirozi, UNEP.

So‘nggi o‘n yilliklarda globallashuv jarayonlari jahon iqtisodiyoti, siyosati va ijtimoiy strukturalarini tubdan o‘zgartirish bilan birga atrof-muhitga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonlar tabiiy resurslarga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshirib, ekologik tizimlarning barqarorligini zaiflashtirmoqda. Iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, biologik xilma-xillikning pasayishi va sanoat chiqindilarining ko‘payishi kabi global ekologik muammolar insoniyatning umumiy yashash sharoitiga jiddiy tahdid solmoqda. Shu munosabat bilan, ekologik barqarorlikni ta’minlash milliy va xalqaro siyosatlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Global ekologik tahdidlar davlat chegaralarini kesib o‘tib, ko‘p darajali va ko‘p qirrali hamkorlikni talab etadi. Xalqaro miqyosda BMTning UNEP kabi tashkilotlari ekologik monitoring va boshqaruvda muhim mexanizmlar sifatida faoliyat olib bormoqda. Bu tashkilotlar orqali ekologik siyosatni muvofiqlashtirish va qo‘shma tashabbuslarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. O‘zbekiston geografik joylashuvi, iqlim sharoiti va iqtisodiy taraqqiyot xususiyatlari tufayli ekologik muammolarning o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Milliy ekologik strategiyalar va qonunchilik joriy etilgan bo‘lib, ularning asosiy maqsadi tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishdir. Ayniqsa, Orol dengizi atrofidagi ekologik inqiroz mintaqaviy hamda xalqaro darajada ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarning markazida turibdi. Ushbu mintaqada yuzaga kelgan ekologik muammolar O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur maqola globallashuv jarayonlarining atrof-muhitga ta’sirini tizimli tarzda tahlil qilgan holda, O‘zbekistonning xalqaro ekologik siyosatdagi o‘rni va mintaqaviy ekologik xavfsizlikni ta’minlashdagi roli haqida ilmiy izlanishlarni taqdim etadi. Tadqiqotda iqlim o‘zgarishi, suv resurslari boshqaruvi, bioxilma-xillikning saqlanishi va chiqindilarni kamaytirish kabi muammolar milliy va xalqaro darajada ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ekologik barqarorlikni ta’minlashda xalqaro hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi hamda O‘zbekistonning ushbu jarayondagi

faol roli ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotning natijalari nafaqat ekologik xavfsizlikka oid nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki amaliy siyosat va strategiyalarni takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, O'zbekistonning ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlarni milliy sharoitga muvaffaqiyatli moslashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Globalashuv va ekologik muammolar. Hozirgi davrda barcha jamiyatlarning oldidagi va inson omiliga chambarchas bog'liq bo'lgan masala bo'lmish atrof muhit ekologiyasi xavfsizligini ta'minlashdan muhimroq ish yo'qdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida "Bizdagi barqarorlik va xavfsizlik yo'lida tahdid bo'lib turgan muammolarni anglab yetayapmizmi? Xavfsizlikka tahdid solib turgan muammolarga nimani qarshi qo'ya olamiz?... biz istiqomat qilayotgan mintaqada jo'g'rofiy- siyosiy muvozanatning saqlanishiganimalar kafolat bo'la oladi. Xavfsizlikni qanday saqlab qolish mumkin?" kabi savollar dolzarb muammolar sifatida kun tartibiga qo'yilgan.[1]. Shu nuqtai nazardan qaralsa ekologik muammolar bugungi globalashuv davrida nafaqat atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq masala, balki milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omiliga aylangan. Zero, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va yerlarning degredatsiyasi nafaqat tabiatga, balki inson salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi turmush darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda har bir davlat, jumladan O'zbekiston ham, ekologik xavfsizlikni milliy va global darajada ta'minlash bo'yicha faol siyosat yuritishi zarur. Bu esa xalqaro ekologik tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirishni, ekologik qonunchilikni takomillashtirishni hamda aholi ekologik ongini yuksaltirishni talab qiladi. Shu bilan birga, ekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikning o'rnini beqiyosdir. Bugungi kunda atrof-muhitni himoya qilish faqat bitta mamlakatning masalasi emas, balki butun sayyoraning umumiy vazifasiga aylangan. Ayniqsa, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun global ekologik siyosatda faol ishtirok etish va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tashkilotlar bilan yaqin aloqalar o'rnatish, ekologik standartlarni joriy etish va innovatsion yechimlarni milliy sharoitga moslashtirish orqali O'zbekiston o'zining ekologik barqarorlik strategiyasini mustahkamlashi mumkin. Shunday qilib, ekologik xavfsizlikni ta'minlash nafaqat atrof-muhitni saqlash, balki milliy xavfsizlik va iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylanmoqda.

O'zbekiston duch kelayotgan ekologik muammolar. O'zbekiston ekologik jihatdan nozik mintaqalardan biri sanaladi. Mamlakatning geografik joylashuvi, iqlim sharoiti, tabiiy resurslardan uzoq yillar davomida noto'g'ri foydalanish natijasida bir qator ekologik muammolar yuzaga kelgan.

Ularning eng yirigi va jahonga mashhuri bu, albatta, Orol dengizi fojiasidir. Orolning qurishi nafaqat suv resurslarining kamayishiga, balki mintaqadagi iqlim o'zgarishiga, tuproqning sho'rlanishi va havoning chang bilan ifloslanishiga olib keldi. Bu holat esa aholi salomatligiga, qishloq xo'jaligi samaradorligiga va umuman, yashash sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, yirik sanoat korxonalarining filtratsiyasiz ishlashi, yirik shaharlarda avtomobillar sonining keskin ortishi, chiqindilarni boshqarish tizimidagi kamchiliklar ham ekologik muhitga salbiy ta'sir etmoqda. Qishloq xo'jaligida haddan tashqari ko'p suv iste'moli, kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlarning me'yordan ortiq ishlatilishi yerlarning degredatsiyasi va suvning sifatiga putur yetkazmoqda. O'zbekistonning ayrim hududlarida suv taqchilligi tobora keskinlashmoqda. Iqlim isishi natijasida yozgi qurg'oqchiliklar soni ortib, bu holat nafaqat ekinlar hosildorligiga, balki ichimlik suvi ta'minotiga ham xavf tug'dirmoqda. Bu kabi ekologik muammolarni bartaraf etish uchun uzoq muddatli strategik rejalashtirish, ilmiy yondashuv va aholining ekologik madaniyatini oshirish zarurdir. "Orolbo'yining ne'matlarini barcha "yagona sovet xalqi" bilan baham ko'rgan bo'lsak uning "achchiq mevasi - Orol va orolbo'yi fojiasi, bu halokatning ekologik oqibatlarini, halokatidan qutulish yo'llarini qidirish - yolg'iz o'zimizning, Makaziy Osiyo xalqlarining ishi bo'lib qoldi" (Islom Karimovning 1994- yil 23-maydan O'zbekistonda Qozog'iston kunlarining ochilishiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida: "Tariximiz ham kelajagimiz ham mushtarak", degan nutqidan). Aytib o'tilgan ulkan muammolarga yechimlarning yoritib ketilishiga to'xtaydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining XI bobi, 50-moddasida shunday deyilgan, "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar". [2]

Bundan tashqari, ekologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni bartaraf etishda davlatning qonunchilik bazasi va nazorat mexanizmlarining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar suv resurslarini muhofaza qilish, ularni tejab-tergab ishlatish bo'yicha qat'iy tartiblarni belgilagan. Ushbu qonun asosida suvdan foydalanishda to'lovlar tizimi, sanitariya va gigiyena me'yorlari, chiqindilarni tozalash hamda suv havzalarining ekologik holatini saqlash bo'yicha majburiyatlar belgilanadi. Shuningdek, atmosfera havosining muhofazasi, yer resurslaridan oqilona foydalanish, zararli moddalarning chiqarilishini nazorat qilish kabi sohalarda ham ekologik qonunchilik va tegishli davlat tashkilotlarining doimiy ekologik nazorati yo'lga qo'yilgan. Aholi salomatligi va ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, ishlab chiqarish obyektlari uchun atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish ehtimoli mavjud bo'lgan holatlarda davlat ekologik ekspertizasi majburiy qilib belgilangan. Biroq amaliyotda ushbu qonun va nazorat mexanizmlarining barcha holatlarda to'liq ishlamayotgani, ayrim

joylarda ekologik talablarning buzilishi, chiqindilarning noqonuniy tarzda tashlanishi va havoga zararli gazlarning chiqarilishi hamon dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Bu esa ekologik madaniyatni oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va ekologik siyosatni yanada izchil amalga oshirish zaruratini ko'rsatadi. [3]. Muammolarni bartaraf etish uchun birinchi navbatda aholining ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ta'lim va targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur. Sanoat korxonalarida "yashil texnologiyalar"ni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Mahalliy ekologik nazoratni kuchaytirish, jarimalarni qat'iylashtirish va qonunbuzarlik holatlarini jamoatchilik ishtirokida nazorat qilish samara beradi. Suv resurslaridan raqamli monitoring asosida foydalanish, suv tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish suv tanqisligi muammosini kamaytiradi. Ekologik loyiha va startaplarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. [4].

O'zbekistonning xalqaro ekologik siyosatdagi o'rnini. Globallashtirish jarayonida ekologik muammolar milliy chegaralardan chiqib, butun insoniyat uchun tahdid darajasiga yetmoqda. Bunday sharoitda har bir davlatning xalqaro ekologik siyosatdagi o'rnini va mas'uliyati tobora ortmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham bu borada faol tashabbuskor davlatlardan biri sifatida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida xalqaro hamkorlikni kengaytirmoqda. Mamlakat ekologik muammolarning global tus olganligini tan olgan holda, ularni hal qilishda transchegaraviy va institutsional yondashuvlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi 1992-yildan boshlab BMT va uning ixtisoslashgan agentliklari — UNEP (Atrof-muhit bo'yicha dastur), UNDP (Taraqqiyot dasturi) hamda GEF (Global ekologik jamg'arma) bilan faol hamkorlik qiladi. [5]. Ushbu tashkilotlar ko'magida mamlakatda iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikni saqlash, chiqindilarni boshqarish, suv resurslarini himoya qilish kabi yo'nalishlarda yuzlab xalqaro loyihalar amalga oshirilgan.

Ayniqsa, Orolbo'yi ekologik inqiroz zonasini tiklash borasida qator xalqaro forum va sammitlarda O'zbekiston tashabbuslari ilgari surilgan. 1997-yilda qabul qilingan "Osiyo ekologik deklaratsiyasi"da O'zbekistonning faol ishtiroki ushbu sohadagi siyosiy irodani namoyon etdi. Bu deklaratsiyada ekologik barqarorlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, mintaqaviy ekologik xavfsizlikni mustahkamlash kabi tamoyillar ilgari surilgan. Shuningdek, 2022-yilda BMT Bosh Assambleyasida O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan "Barqaror rivojlanish uchun Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi" deb e'lon qilinishi xalqaro miqyosda katta qadam bo'ldi. [6]. Bundan tashqari, O'zbekiston milliy ekologik strategiyasini ham xalqaro mezonlarga mos tarzda shakllantirmoqda. Ekologik siyosatda yashil

iqtisodiyot, barqaror taraqqiyot, resurslarni tejash kabi global tamoyillar ustuvorlikka ega. Mamlakatda ekologik qonunchilik xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda, ekologik ekspertiza tizimi takomillashtirilmoqda, strategik baholash va monitoring mexanizmlari joriy etilmoqda. Bu esa O‘zbekistonning xalqaro ekologik siyosatdagi ishonchli va mas’uliyatli hamkor sifatida tan olinishiga zamin yaratmoqda.

Yana bir muhim jihat — transchegaraviy ekologik muammolar, xususan, Orol dengizi bilan bog‘liq inqiroz masalasidir. Bu borada O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda faol ishlamoqda. “Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi” doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar, mintaqaviy kelishuvlar, xalqaro donorlarning moliyaviy ko‘magidan samarali foydalanish mamlakat ekologik siyosatining tashqi yo‘nalishida muhim o‘rinni egallaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki kabi yirik moliyaviy institutlar bilan ekologik sohada hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Bu ham ekologik siyosatni innovatsion va texnologik asosda rivojlantirishga xizmatqilmoqda. Xalqaro tajriba va texnologiyalarni jalb etish, xorijiy investitsiyalar evaziga ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish, ekologik diplomatiya samaralaridandir. O‘zbekiston globallashtirish sharoitida xalqaro ekologik siyosatni nafaqat qo‘llab-quvvatlamqda, balki uning faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Bu esa mamlakatning ekologik barqarorlik, xalqaro xavfsizlik va inson salomatligini ta‘minlash borasidagi strategik yo‘nalishlarida muhim bosqich bo‘lib xizmat qilmoqda.

Globalashuv jarayonida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar mamlakatlar chegaralarini kesib o‘tgan, jahon miqyosida barqarorlikka tahdid soluvchi halokatli oqibatlariga ega bo‘lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston o‘zining milliy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, xalqaro ekologik hamkorlikni mustahkamlash va global ekosistemani saqlash yo‘lida mas’uliyatli davlat sifatida faol ishtirok etishi shart. Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash uchun samarali qonunchilik bazasini yaratish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik monitoring tizimini takomillashtirish zaruriy choralar sirasiga kiradi. Xalqaro maydonda O‘zbekiston mintaqaviy transchegaraviy ekologik muammolar, xususan, Orolbo‘yi ekologik inqirozini hal etishda yetakchi rolni o‘ynamoqda. Ushbu yo‘nalishda BMT, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, ilg‘or ekologik texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy imkoniyatlarni jalb etish mamlakatning ekologik siyosatini samarali amalga oshirish uchun muhim omillardandir.

Xulosa qilganda, O‘zbekistonning xalqaro ekologik majburiyatlarini bajarish orqali mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash imkoniyatlari oshadi. Bundan tashqari, ekologik muammolarni hal qilishda davlat siyosatidan tashqari, har bir fuqaroning ekologik ongini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir bilim va mas’uliyatini kuchaytirish zarur.

Milliy ta'lim tizimida ekologik tarbiyani kuchaytirish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy platformalar orqali ekologik savodxonlikni oshirish – bu jarayonlarning ajralmas qismi bo'lishi lozim. Shunday qilib, O'zbekiston ekologik barqarorlik va global hamkorlik tamoyillarini uyg'unlashtirgan holda, milliy va xalqaro maydonda ijobiy o'zgarishlar uchun muhim poydevor yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.N.Nig'matov. Tabiat, jamiyat, ma'naviyat. T.: O'zbekiston, 2009 y. – B. 4-5.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolalari. T.: O'zbekiston, 1997 y. – B. 131-134.
3. E.O.Turdiqulov. Global ekologik muammolar va ularni hal etish strategiyasi. T.: O'zbekiston, 2013 y. – B. 21.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqi. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/4633>.
5. UNDP in Uzbekistan. URL: <https://www.undp.org/uzbekistan>.
6. PQ-4477-son. 04.10.2019. 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. URL: <https://lex.uz/docs/-4539502>.

YASHIL ENERGETIKA: TEXNOLOGIC TARAQQIYOT VA ECOLOGIC ONG UYG'UNLIGI SIFATIDA

Xudiyorova Charos Baxtiyor qizi

*O'zbekiston davlat Jahon Tillar universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi, 1-bosqich talabasi
(+998976481900, xudiyorovac@gmail.com)*

Annotatsiya: Yashil energetika — bu atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilish tizimi. Ushbu yo'nalishning asosiy maqsadi — tabiiy resurslardan foydalanishda ekologik muvozanatni saqlab qolish, ifloslanishni kamaytirish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va kelajak avlodlarga sog'lom muhitni ta'minlashdir.

Kalit so'zlar: Yashil energetika, Qayta tiklanuvchi energiya, Ekologik toza texnologiyalar, Quyosh energiyasi, Shamol energetikasi, Bioenergetika, Energiya samaradorligi, Barqaror rivojlanish, Energetik xavfsizlik va Iqlim o'zgarishi.

Kirish. Hozirgi global iqtisodiy o‘shish fonida energiyaga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Shu bilan birga, an’anaviy energiya manbalari – neft, gaz, ko‘mir kabi resurslar ekologik muhitga qaytarib bo‘lmas darajada zarar yetkazmoqda[1]. Shu sababli, yashil energetika nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham barqaror kelajakning poydevoriga aylanmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo miqyosida energiya resurslariga bo‘lgan talab keskin ortib bormoqda. Bu holat, ayniqsa, sanoatlashgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. An’anaviy energiya manbalari — ko‘mir, neft va gaz — iqtisodiy o‘shishni ta’minlab kelayotgan bo‘lsa-da, ularning ekologik salbiy oqibatlari, xususan, atmosfera ifloslanishi, issiqxona effekti va iqlim o‘zgarishiga olib kelmoqda. Shu bois, barqaror va ekologik toza energiya tizimiga o‘tish masalasi global kun tartibida turibdi. Yashil energetika — qayta tiklanadigan, tabiiy resurslardan olinadigan, atmosfera ifloslanishini kamaytiruvchi energiya manbaidir[2]. Bu soha texnik infratuzilma va muqobil energiya manbalariga tayanadi. Lekin zamonaviy yondashuvda yashil energetika — bu odamlarning ekologik ongini shakllantirish, energiyani tejash madaniyatini yaratish, jamiyatni texnologik mas’uliyatga yo‘naltirish kerak. Misol uchun, quyosh panellari yoki shamol turbinalarini o‘rnatish emas, balki ularni qanday va nima uchun ishlatayotganimiz biz uchun muhimdir[3].

IoT (Internet of Things), sun‘iy intellekt, aqlli shahar texnologiyalari yashil energetikani yangi bosqichga olib chiqmoqda[3]. AQSh, Yaponiya, Norvegiya kabi davlatlar “aqlli tarmoqlar” orqali energiyani minimal yo‘qotish bilan yetkazib berishni yo‘lga qo‘yishmoqda[4]. Innovatsiyalar faqat texnika emas — bu ekologik innovatsion tafakkurning timsolidir. Misol uchun, Germaniyada energiyani faqat ishlab chiqarish emas, iste‘mol qilish ham nazorat qilib boriladi[5].

Insonlar yashil energiyani faqat texnik masala deb biladilar, lekin bu noto‘g‘ri yondashuvdir. Maktabdan boshlab ekologik va energiya savodxonligini shakllantirish kerak[2]. Energiya tejovchi madaniyat (masalan, zarurat bo‘lmaganda chiroqni o‘chirish, energiyaning iste‘molini nazorat qilish) jamiyatdagi yashil ong indikatoridir. O‘zbekiston sharoitida: Quyoshli iqlimdan foydalanish imkoniyati mavjud, ammo bu imkoniyatlar hali to‘liq ishga tushmagan[6].

Yashil energetika yangi ish o‘rinlarini yaratadi (masalan, texnik xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish, montaj va monitoring). Mahalliy iqtisodiyotda importdan qutulish uchun energiya importi o‘rniga ichki energiya ishlab chiqarish kerak[1]. Uzoq muddatda yashil energetika iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy yo‘nalishga aylanishi mumkin. Misol qilib aytadigan bo‘lsam, Yashil iqtisodiyot O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda global raqobatni, ekologik imijni yaratish uchun imkon ochib beradi[5].

Yashil energetika alohida soha emas — u qishloq xo‘jaligi, transport, sanoat va uy-joy qurilishida integratsiyalashgan bo‘lishi kerak. “Yashil

arxitektura”, “Eko-transport”, “Qayta ishlovchi sanoat” kabi konseptlar bu yoʻnalishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi[3]. Mintaqaviy hamkorlik va transchegaraviy loyihalar orqali yashil energetikaning taʼsir doirasini kengaytirish ham mumkin.

Bu oʻtkazilgan tadqiqot orqali yashil energetikaning atrof-muhitni himoya qilish va iqtisodiy rivojlanishga qoʻshayotgan hissasi koʻrsatilgan. Yashil energiya manbalari, masalan, quyosh, shamol va biomassa, iqlim oʻzgarishiga qarshi samarali kurashda va yangi ish oʻrinlari yaratishda juda muhim hisoblanadi[3]. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, yashil energetika kelajakda global energiya tizimining asosiy yoʻnalishlaridan biriga aylanishi mumkin[5]. Shuningdek, davlatlar va xalqaro hamkorlik-ning yashil energiyani rivojlantirishga boʻlgan eʼtibori ham kuchaymoq-da[4], bu esa ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashga ham yordam beradi[7].

Xulosa qilib shuni aytishim mumkunki, Yashil energetika zamonaviy dunyoda nafaqat ekologik muammolarga yechim, balki iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy farovonlik va texnologik taraqqiyotning rivojlantiruvchi yoʻnalishi sifatida oʻzini koʻrsatmoqda. Yashil energetika kelajakka qaratilgan strategik yoʻnalish boʻlib, u orqali biz nafaqat toza va xavfsiz energiya tizimini yaratamiz, balki ekologik barqarorlikni taʼminlab, keyingi avlodlar uchun sogʻlom muhit qoldiramiz. Har bir inson, tashkilot va davlat bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Karimov, Sh. "Energetika va ekologiya: muammolar va istiqbollor." –Toshkent: Fan, 2021.
2. Xudoyberganov, B. "Yashil iqtisodiyot asoslari." – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
3. International Renewable Energy Agency (IRENA). “Global Energy Transformation: A Roadmap to 2050.” – Abu Dhabi, 2023.
4. United Nations Environment Programme (UNEP). “Renewable Energy and Jobs – Annual Review 2023.”
5. Germanwatch. “Global Climate Risk Index 2024.” – Berlin: 2024.
6. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, 2019-yil 21-may.
7. Energetika vazirligi rasmiy sayti – www.minenergy.uz (kirilgan sana: 2025-yil 7-aprel)

AHOLI OʻSISHI VA EKOLOGIK MUAMMOLAR TAHLILI

Sadiyev Navroʻzbek Siroj oʻgʻli

Internatioanal school of finance technology and science institute Xalqaro munosabatlar fakulteti XM-01 talabasi

Annotatsiya. Zamonaviy dunyoda ekologik muammolar global xavf darajasiga yetgan. Aholining ko‘payishi, sanoatning jadal rivojlanishi va tabiiy resurslarning noqonuniy ekspluatatsiyasi natijasida insoniyat o‘z hayotiy asoslarini yo‘qotish xavfi ostida qolmoqda. Bu maqolada ekologik madaniyat tushunchasi, uning mohiyati va jamiyatdagi ahamiyati yoritilgan. Ekologik madaniyat — bu insonning atrof-muhitga nisbatan ongli, javobgar va barqaror munosabatini ifodalaydi. U chiqindilarni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik toza turmush tarzini tanlash kabi odatlar orqali namoyon bo‘ladi. Maqolada ekologik madaniyatning past bo‘lishi eng ilg‘or qonun va texnologiyalarni ham samarasiz qilib qo‘yishi ta’kidlanadi. Shuningdek, O‘zbekiston va butun dunyoda mavjud ekologik holat qisqacha tahlil qilinadi. Xususan, Orol dengizining qurishi, havo va suvning ifloslanishi, chiqindi muammolari milliy miqyosdagi asosiy ekologik muammolar sifatida ko‘rsatilgan. Jahon miqyosida esa iqlim o‘zgarishi, o‘rmonlarning kesilishi, plastik ifloslanishi va hayvonot dunyosining yo‘qolishi kabi global muammolar haqida.

Kalit so‘zlar: Ekologik muammolar, ekologik madaniyat, atrof-muhit, chiqindilar, tabiiy resurslar, Orol dengizi, iqlim o‘zgarishi, havo ifloslanishi, suv ifloslanishi, plastik ifloslanish, biologik xilma-xillik, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik.

Kirish: Dunyo aholisi 1950-yillarda taxminan 2,5 mlrd edi. 1950–2000 yillar “Aholi portlash” davri bo‘ldi. 1974 yilda 4 milliardga, ya’ni 24 yil ichida 1,5 milliard kishiga ortdi. 1987 yilda 5 milliardga yetdi. 1999 yilda 6 milliardga chiqdi. Bu davrda o‘shish sur‘ati har yili deyarli 2%1 atrofida bo‘lib, tarixdagi eng yuqori demografik ko‘rsatkichlar qayd etilgan. Aholi ko‘paygan sari tabiiy resurslarning haddan tashqari ishlatilishi, ifloslanish darajasining oshishi, shaharlar haddan tashqari zichlashadi, iqlim o‘zgarishini kuchaytiradi. Bu dunyo aholisi ko‘paysa tabiatga, ekologiyaga qanday zarar yetishining omillaridan misol edi. Agar dunyo aholisi kamaysa ekologiyaga yaxshi bo‘ladi deb o‘ylaydiganlar ham topiladi. Agar shunday bo‘lsa tabiiy muvozanat tiklanadi, resurslar bosqichma-bosqich tiklana boshlaydi, o‘rmonlar, hayvonot dunyosi o‘z holiga qaytadi, ifloslanish kamay boshlaydi, ya’ni kamroq chiqindi va zararli gazlar chiqadi, havo va suv sifati yaxshilanadi, yashilhududlar ko‘payadi. Lekin buni zarari ham bor, insonlar kamayishi mehnat kuchining kamayishi u degani iqtisodiy tanazzul, qarilik darjasining haddan tashqari oshishi, infratuzilmaning yemirilishi. Endi ikki tomonni ham ko‘ramiz: aholi ko‘payishi ekologiyaga salbiy ta’sir qiladi ayniqsa rivojlanmagan hududlarda, aholining kamayishi esa ekologiya uchun foydali bo‘ladi degan qarash bu xato tepada sanab o‘tildi qanday muammolarga duch kelishimiz. Eng yaxshi yechim bu ekologik madaniyatni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va yashil

turmush tarziga o'tish deb bilaman. Ekologik madaniyatni oshirish bu eng yaxshi samarali usul lekin bunga vaqt kerak bo'ladi.

O'zbekistonda bu masalada ishlar olib borilayapti. 2025.01.30 PQ-18522 ga muvofiq 2030-yilgacha aholini ekologik madaniyatini oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshiriladi. Men, O'zbekiston Ekologik partiyasi a'zosi sifatida, chuqur ishonch bilan aytamanki, bugungi kunda ekologik madaniyat masalasi mamlakatimizning eng muhim ijtimoiy va siyosiy yo'nalishlaridan biridir. Tabiat va inson o'rtasidagi nozik muvozanatni saqlash nafaqat qonuniy choralar, balki har bir fuqaroning ekologik savodxonligi va ongli xatti-harakati bilan ta'minlanadi.

Yaqinda qabul qilingan "2030 yilgacha bo'lgan davrda aholi ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi" bu boradagi sa'y-harakatlarimizning qonuniy asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu konsepsia faqatgina rasmiy hujjat emas, balki atrof-muhitga bo'lgan munosabatimizni tubdan o'zgartirishga qaratilgan muhim qadamdir, deydi Ulug'bek Pirmuhamedov, O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi Jamoatchilik ekologik nazoratini tashkil etish va murojaatlar bilan ishlash sho'basini mudiri.

Bugungi kunda dunyoda ekologiya yomonlashib boryapti, BMTning 2019-yilgi hisobotiga ko'ra, taxminan 1 million hayvon va o'simlik turlari yo'qolib ketish xavfi ostida. Bu insoniyat tarixidagi eng katta yo'qotishlardan biri hisoblanadi. WWFning 2020-yilgi "Living Planet" hisobotida 1970-yildan beri sutemizuvchilar, qushlar, baliqlar, sudralib yuruvchilar va amfibiylar populyatsiyasi o'rtacha 68% ga kamaygani qayd etilgan.

Iqlim o'zgarishi, atmosfera chiqaryalayotgan karbonat angidrid miqdorining oshishi global isish va suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda. Dunyoning 2 milliarddan ortiq aholisi suv tanqisligi bo'lgan hududlarda yashaydi. So'nggi 50 yil ichida dunyo bo'ylab hayvonlar populyatsiyasi o'rtacha 70% ga kamaydi. Asosiy sabablar: yashash muhitining yo'qolishi, o'rmon kesilishi, qishloq xo'jaligi kengayishi, iqlim o'zgarishi, ifloslanish, noqonuniy ovchilik va invaziv turlar. Bu jarayon ekosistemalar barqarorligini buzadi, insoniyat uchun zarur bo'lgan tabiiy xizmatlarni kamaytiradi masalan, changlanish, toza suv ta'minoti, o'simliklarning ko'payishi.

Har yili dunyoda taxminan 300 million tonna plastik ishlab chiqariladi, shundan atigi kichik qismi qayta ishlanadi. Qolgan qismi tabiiy muhitga tushib, tuproq, daryo va okeanlarni ifloslantiradi. Dengizlarga tushgan plastik chiqindilar dengiz hayotiga katta zarar yetkazadi, baliq, sut emizuvchilar, qushlar va boshqa organizmlar plastikni yutib, nobud bo'lishga olib keladi. Mikroplastiklar inson sog'lig'iga ham tahdid solmoqda, ular oziq-ovqat zanjiri orqali inson organizmiga kirishi mumkin. Har yili taxminan 8 million tonna plastik okeanlarga oqadi. Dengiz hayvonlarining 90% dan ortig'i plastik chiqindilar bilan aloqada bo'ladi.

Toshkent va boshqa yirik shahlarda havo ifloslanishi ko'p, sanoat va transport chiqindilari sabab. Shuningdek, suv manbalarida kimyoviy ifloslanish mavjud. O'zbekiston o'rmon fondi oxirgi 30 yilda 10% ga kamaygan. Bulardan ham yirikroq yana bir muammo bor bu muammo mahalliy emas mintaqaviydir. 20-asr oxiridan beri Aral dengizi maydoni 90% ga kamayib, sho'rlanish va qurgoqlik muammolarini keltirib chiqardi. UN5EP4 O'zbekiston bilan birgalikda ekologik monitoring, chiqindilarni kamaytirish va Aral mintaqasida sog'lom atrof-muhit yaratish uchun strategiyalar ishlab chiqmoqda. BMT vositachiligida Markaziy Osiyo davlatlari orasida suv resurslarini adolatli taqsimlash va boshqarish bo'yicha dialoglar tashkil etilib, kelishuvlar qabul qilinmoqda. Har bir konvensiya aloxida bo'lib har birini aniq maqsadi va vazifalari bor

Parij kelishuvi iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha eng zamonaviy hujjat deb hisolasa bo'ladi. Unda barcha davlatlarga y'ni rivijlanga, rivijlanayotgan qanday bo'lishidan qat'iy nazar hammaga birdek majburiyat yuklaydi. Bu hujjatning asosiy maqsadi:

Global haroratning ko'tarilishini 2°S dan past darajada, ideal holda $1,5^{\circ}\text{S}$ gacha cheklash;

Har bir davlat o'zining milliy hissa rejasi (NDCs) ni ishlab chiqadi va har 5 yilda yangilab boradi;


Iqlimga moslashish, moliyaviy yordam, texnologik yordam va imkoniyatlarni oshirish choralari ko'rib chiqiladi.

BMT Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi konvensiyasi (UNFCCC):

Bu konvensiya 1992-yil 9-mayda Nyu-Yorkda BMT shtab kavartirasida qabul qilingan. Ushbu konvensiya 1999-yil Brazilyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan Er sammitida 1546 davlat tomonidan imzolangan. Biz u konvensiyaga 1993-yilda qo'shilganmiz. Tarixda birinchi bor aynan shi konvensiyada iqlimo'zgarishini lobal muammo sifatida tan olishgan . ostan ham mga global miqiyosda qarashimiz kerak insin faoliyati natijasida issiqxona gazlarining ortishi Yer haroratining ko'tarilishga olib kelishini rasman e'tirof etgan birinchi hujjat hisoblanadi .

Konvensiyaning asosiy maqsadi — issiqxona gazlarini xavfli darajagacha ko'payishining oldini olish. Konvensiyada barcha ishtirokchi davlatlar o'z milliy ekologik siyosatlarini ishlab chiqishga, ma'lumot almashishga, hamkorlik qilishga va iqlim o'zgarishiga moslashish choralari ko'rishga chaqiriladi. Bu hujjat xalqaro ekologik huquqning asosiy poydevori hisoblanadi.

Bu diagrammada Yer haroratning ylar davomida k'rsatilgan (1860-2000)



Met office UK

Chiqindilarni qayta ishlash chiqindilar miqdorini kamaytiradi, bu esa tuproq, suv va havoning ifloslanishini kamaytirishga yordam beradi. Qayta ishlangan materiallarni ishlab chiqarish yangi xom ashyo olishdan kam energiya talab qiladi. Masalan, aluminiy qog'oz yoki metallni qayta ishlash ularni yangi materiallarga aylantirishda energiya sarfini sezilarli kamaytiradi. Qayta ishlash sanoati yangi ish o'rinlarini yaratadi va chiqindilarni boshqarish xarajatlarini kamaytiradi. Qayta ishlash jarayonlari karbonat angidrid chiqindilarini kamaytiradi, chunki yangi mahsulot ishlab chiqarishda ko'proq energiya sarflanadi, bu esa issiqxona gazlarining ko'payishiga olib keladi. Qayta ishlagan sanoatida yetakchi 7 davlatlardan biri bu Germaniya. Germaniyada chiqindilarni ajratib yig'ish va qayta ishlash tizmi juda rivojlangan. Germaniyada aholining chiqindilarni ajratib yig'ishi majburiy hisoblanadi. Har bir uyda qog'oz, plastik, organik chiqindilar va boshqalar uchun alohida idishlar mavjud. Germaniya qayta ishlangan materiallardan ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko'plab sohalarda, jumladan avtomobilsozlik va qurilishda keng qo'llanadi, bu energiya va xom ashyo sarfini kamaytiradi. Chiqindilarni qayta ishlash sanoati Germaniyada ko'plab ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi. Germaniya o'zining ekologik siyosati doirasida karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishga katta e'tibor qaratadi va ekologik texnologiyalarni rivojlantirishga sarmoya kiritadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ekologik muammolar juda jiddiy holga kelib qolgan. Aholining ko'payishi, sanoatning kengayishi va odamlarning tabiatga befarqligi atrof-muhitga katta zarar yetkazmoqda. Dunyo bo'yicha iqlim o'zgarishi, o'rmonlarning kesilishi, hayvonlarning yo'qolib ketishi, plastik chiqindilar kabi muammolar ko'payib bormoqda. Bu faqat biror davlatga emas, balki butun insoniyatga ta'sir qilmoqda. O'zbekistonda ham ekologik vaziyat xavotirli. Ayniqsa, Orol dengizining

qurib borishi, havo va suvning ifloslanishi, chiqindilar muammosi katta muammolar qatorida turadi. Shu sababli ekologik madaniyatni oshirish juda muhim.

Ekologik madaniyat degani — bu tabiatga ongli munosabatda bo‘lish, chiqindini kamaytirish, resurslardan tejab foydalanish va toza turmush tarzini tanlash deganidir. Davlatimiz bu borada turli reja va dasturlar ishlab chiqmoqda. Jumladan, 2030 yilgacha aholining ekologik madaniyatini oshirish bo‘yicha maxsus konsepsia qabul qilindi. Bu hujjat orqali aholiga ekologik bilim berish, yoshlarni atrof-muhitga e‘tiborli bo‘lishga o‘rgatish ishlari olib borilmoqda. Menimcha, har birimiz o‘zimizdan boshlashimiz kerak. Tabiat biz uchun, biz esa tabiat uchun javobgarmiz. Toza va sog‘lom muhitda yashash o‘z qo‘limizda. Ekologik muammolarni hal qilishda faqat davlat emas, biz — oddiy fuqarolar ham faol bo‘lishimiz kerak. Faqat shunda kelajak avlodlar uchun toza va yashil muhitni saqlab qolishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Introduction - PMC
2. LEX.UZ - O‘zbekiston qonunchiligi
3. <https://ipbes.net/global-assessment>
4. <https://www.oscepa.org/>
5. ADOPTION OF THE PARIS AGREEMENT - Paris Agreement text English
6. conveng.pdf
7. Home - Eurostat

3-SHO‘BA. EKOLOGIK SIYOSATNING IJTIMOIIY AHAMIYATI: EKOLOGIK SAVODXONLIK, FUQAROLAR VA JAMOATCHILIK FAOLLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

YOSHLAR ORASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH: ASOSIIY YO‘NALISH VA ISTIQBOLLARI

G.B.Umarova

*O‘zDJTU Siyosiy fanlar kafedrası
katta o‘qituvchisi, t.f.n.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda ekologik vaziyat, inson hayotiga ta‘sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish yo‘lida yoshlarning atrof-muhitga bo‘lgan mas‘uliyatli munosabatini shakllantirish, ularni tabiatni muhofaza qilishga undash va ularning ekologik madaniyatini rivojlantirish va barqaror kelajak uchun faol ishtirokchilarga aylantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, iqlim o‘zgarishi, ekologik vaziyat, ekologik muammo, atrof muhitni asrash, “yashil” iqtisodiyot, ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik barqarorlik.

Bugungi kunda ekologik muammolar global miqyosda dolzarb masalalardan biriga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, chiqindilarning ko‘payishi, tabiiy resurslarning kamayishi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi dunyoning barcha burchaklarida jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev 2025-yilni yurtimizda “Atrof muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” [1] deb e‘lon qilishni taklif etdi. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “Biz tabiat haqida so‘z yuritganda, ko‘pincha “ona tabiat” degan iborani ishlatamiz.O‘ylaymanki, bu shunchaki chiroyli, shoirona so‘z emas, balki uning zamirida chuqur hayotiy haqiqat bor. Biz mo‘tabar ona zotini qanday yuksak hurmat-ehtirom qilsak, o‘zimizni qurshab turgan tabiatga ham shunday munosabatda bo‘lishimiz zarur. Zero, tabiatni asrash – insonni asrash demakdir.”[2] Bu O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “O‘zbekiston-2030” Strategiyasida o‘zini yaqqol ifodasini topgan. Unda “Mamlakatimizda ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta‘sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan «Yashil makon» umummilliy loyihasini kengaytirish, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, iqlim o‘zgarishi salbiy ta‘sirining oldini olish[3] o‘zini yaqqol ifodasini topgan.

Yangi O‘zbekistonning ertangi ekologik barqaror taraqqiyoti – navqiron yosh avlodning nechog‘lik ekologik madaniyatga sadoqat ruhida tarbiya topishiga har jihatdan ham bog‘liqdir. Chunki ekologik ong va tafakkur yuksak bo‘lmagan joyda taraqqiyotga va takomilga erishib bo‘lmaydi. Ekologik madaniyatni rivojlantirish esa yoshlarning atrof-muhitga bo‘lgan mas’uliyatli munosabatini shakllantirish, ularni tabiatni muhofaza qilishga undash va barqaror kelajak uchun faol ishtirokchilarga aylantirishning asosiy yo‘lidir. Ekologik madaniyat insonning atrof-muhitga bo‘lgan munosabati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, chiqindilarni kamaytirishi va tabiatni asrash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va qadriyatlaridir. Bu atama nafaqat ekologik bilimlarni, balki ushbu bilimlarni kundalik hayotda qo‘llash va ekologik muammolarga yechim topishga intilishidir.

O‘zbekistonda yoshlar aholining katta qismini tashkil qiladi va ularning ekologik madaniyatga bo‘lgan munosabati turlicha. Ayrim yoshlar atrof-muhit muammolaridan xabardor bo‘lsa-da, quyidagi sabablarga ko‘ra bu masalaga yetarlicha e‘tibor bermaydi:[4]

- Ekologik bilimning yetishmasligi: o‘rta, maxsus va oliy ta‘lim muassasalarida ekologik ta‘limga yetarli e‘tibor berilmaydi.
- Iqtisodiy omillar: ko‘p yoshlar uchun kundalik iqtisodiy muammolar ekologik masalalardan ustun turadi.
- Ommaviy axborot vositalarining roli: ekologik mavzular ommaviy axborot vositalarida keng yoritilmaydi, bu esa yoshlarning xabardorligini pasaytiradi.
- Infrastruktura muammolari: chiqindilarni qayta ishlash, qayta foydalanish kabi tizimlarning yetarli darajada rivojlanmagani ekologik madaniyatning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Yoshlar orasida ekologik madaniyatni rivojlantirish bir qator sabablarga ko‘ra muhimdir:

Birinchi, kelajak uchun mas’uliyat: Yoshlar kelajakda jamiyatning asosiy qatlamiga aylanadi. Ularning ekologik bilimi va madaniyati barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Ikkinchi, global muammolarga ta’sir: Yoshlar ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etib, iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi va boshqa muammolarga qarshi kurashishda muhim o‘rin tutadi.

Uchinchi, ijtimoiy o‘zgarishlar: Yoshlar yangi g‘oyalar va texnologiyalarni tez qabul qiladi, bu esa ekologik madaniyatni ommalashtirishda samarali natija beradi.

Shu bois, bu boradagi zamonaviy innovatsion g‘oya, qarashlar, usul va vositalarga tayanish, mavjudlarini mukammaligi va hayotiylikini oshirish dolzarb ahamiyatga egadir. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali – zamonaviy usullari; oila, mahalla, ekologik targ‘ibot-tashviqot, ekologik ta‘lim tarbiya, mahalliy va xorijiy tajribalarning zamonaviy usullari hamda vositalari orqali amalga oshiriladi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirish borasida muayyan ijobiy oʻzgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, yoshlar orasida ekologik tadbirlar, chiqindilarni yigʻish aksiyalari va atrof-muhitni muhofaza qilishga bagʻishlangan fleshmoblar ommalashmoqda. Biroq bu tashabbuslar tizimli va keng miqyosli emas. Yoshlar orasida ekologik madaniyatni shakllantirish uchun bir qator samarali usullar mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga boʻlish mumkin:

1. Taʼlim tizimi:

- Maktab va universitetlarda ekologik taʼlim: ekologik mavzularni oʻquv dasturiga kiritish, amaliy mashgʻulotlar tashkil qilish va tabiatni muhofaza qilish boʻyicha loyihalarni amalga oshirish.

- Ekologik klublar va toʻgaraklar: talabalarni birlashtirib, ularni ekologik tadbirlarga jalb qilish.

- Mutaxassislar bilan uchrashuvlar: ekologlar, olimlar va faollarning leksiylari yoshlarda qiziqish uygʻotishga xizmat qiladi.

2. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar:

- Ijtimoiy tarmoqlarda ekologik kontent: ekologik muammolar va ularning yechimlari haqida qisqa videolar, infografikalar va postlar yoshlarni jalb qilishning samarali usulidir.

- Ekologik chellendjlar: masalan, plastik ishlatmaslik, chiqindilarni saralash kabi chellendjlar yoshlarni faol ishtirokka undaydi.

- Media kampaniyalar: televideniye va radio orqali ekologik mavzularni keng yoritish.

3. Amaliy tadbirlar:

- Eko-aksiyalar: daraxt ekish, chiqindi yigʻish, suv havzalarini tozalash kabi tadbirlar yoshlarda masʼuliyat hissini oshiradi.

- Ekologik loyihalar: yoshlarning oʻzlari tomonidan tashkil qilingan loyihalar, masalan, qayta ishlanadigan materiallardan mahsulot yasash.

- Eko-festivallar: musiqa, sanʼat va ekologik mavzularni birlashtirgan tadbirlar yoshlarning qiziqishini oshiradi.

4. Davlat va nodavlat tashkilotlarning roli:

- Davlat dasturlari: ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan milliy dasturlarni ishlab chiqish va moliyalashtirish.

- Mahalla va NNTlar bilan hamkorlik: xalqaro va mahalliy ekologik tashkilotlar bilan birgalikda loyihalar amalga oshirish.

- Grantlar va mukofotlar: ekologik tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash uchun yoshlarga grantlar taqdim qilish.

Oʻzbekistonda yoshlar orasida ekologik madaniyatni shakllantirish uchun quyidagi amaliy takliflarni amalga oshirish mumkin:

1. Ekologik taʼlimni kuchaytirish: Maktablarda “Ekologiya” fanini mustaqil fan sifatida joriy qilish va universitetlarda ekologik yoʻnalishlarni kengaytirish.

2. Eko-volontyorlikni rivojlantirish: Yoshlarni ekologik tadbirlarga jalb qilish uchun volontyorlik platformalarini yaratish.

3. Qayta ishlash infratuzilmasini yaxshilash: Chiqindilarni saralash va qayta ishlash uchun maxsus joylar tashkil qilish.

4. Ekologik startaplarni qo'llab-quvvatlash: Yoshlarning ekologik yo'nalishdagi tadbirkorlik g'oyalarini moliyalashtirish.

5. Xalqaro tajribadan foydalanish: Jahondagi muhim ekologik tashabbuslarni O'zbekistonda qo'llash, masalan, "Plastich Free July" kabi tadbirlarni tashkil qilish.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida yoshlar orasida ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha ijobiy natijalar bergan tajribalar mavjud.[5] Masalan, Shvetsiyada maktablarda ekologik ta'limga katta e'tibor beriladi va yoshlar chiqindilarni saralash va qayta ishlashga o'rgatiladi.

Germaniyada ekologik loyihalar uchun yoshlarga grantlar taqdim qilinadi va ularning tashabbuslari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilib boriladi. Keniyada esa plastik sumkalardan foydalanish taqiqlandi va yoshlar ushbu tashabbusni faol qo'llab-quvvatlamogda. Ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitiga ham moslashtirib, yoshlar orasida ekologik madaniyatni rivojlantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar orasida ekologik madaniyatni rivojlantirish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki barqaror kelajakni ta'minlash uchun muhimdir. O'zbekistonda bu jarayonni tezlashtirish uchun ta'lim, ommaviy axborot vositalari, amaliy tadbirlar va davlat dasturlaridan foydalanish zarur. Yoshlarning faol ishtiroki va ularning ekologik bilim va ko'nikmalarini oshirish orqali mamlakatda ekologik muammolarga qarshi samarali kurashish mumkin. Kelajak yoshlar qo'lida va ularning ekologik madaniyati bu kelajakning qanday bo'lishini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Parliament.gov.uz/articles/2135
- 2.Parliament.gov.uz/articles/2135
- 3.<http://lex.uz//dochs/6600413>
- 4.https://www.uznature.uz
- 5.Xalqaro ekologik tashkilotlarning hisobotlari.

IJTIMOIIY EKOLOGIYA

Давронова Феруза Рахмоновна

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti

Siyosiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi, s.f.f.d.(PhD)

Raxmatova Go'zal Akmalovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda ekologiyada vujudga kelyotgan muammolarning asosiy ildizi va unga qanday yechim topish kerakligi bayon qilingan. Bu borada asosan, Murray Bookchinning ijtimoiy ekologiya nazariyasi va Ijtimoiy Ekologiya Institutining faoliyatiga murojaat qilgan holda masalaga nazar tashlanadi.

Kalit soʻzlar: ijtimoiy ekologiya, ijtimoiy guruh, ekologiya inqirozi, ekologik buzilishlar, jamiyat, eksplutatsiya, ekorejim, tabiat, ekofeminizm, biotexnologiya, yashil harakat.

Atrof-muhit, tabiat muhofazasi bugungi kundagi umumbashariy masala sifatida diqqat markazida turadi. Jumladan, Barqaror Rivojlanish Maqsadlari barcha mamlakatlarni: kambag'al, boy va o'rtacha daromadli mamlakatlarni harakatga chaqiradi. U farovonlikni yaxshilash va sayyoramizni himoya qilishga qaratilgan. Davlatlar iqtisodiy o'sishni oshirish va ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ish bilan ta'minlash, shuningdek, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida qator muammolarni hal etishga qaratilgan sa'y-harakatlar bilan bir vaqtda tabiatdan noto'g'ri foydalanishga barham berish choralarini ko'rish kerakligini tan oladi. [1] Ayniqsa, barcha uchun suv va kanalizatsiya mavjudligi va barqaror boshqaruvini ta'minlash (6-maqсад), iqlim o'zgarishi va uning ta'siriga qarshi kurashish uchun shoshilinch choralar ko'rish (13-maqсад), barqaror rivojlanish uchun okeanlar, dengizlar va dengiz resurslarini saqlash va barqaror foydalanish (14-maqсад), yer ekotizimlarini muhofaza qilish, tiklash va barqaror foydalanishni rag'batlantirish, o'rmonlarni barqaror boshqarish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to'xtatish va qaytarish hamda bioxilma-xillikning yo'qolishini to'xtatish (15-maqсад) bo'yicha strategik maqsadlar belgilab olindi va ularni amalga oshirishga oid izchil vazifalar ishlab chiqildi.

Hozirgi vaqtda ekologiya ko'p qirrali tizimdir. U shartli ravishda asosiy sohalarni ajratib turadi: bioekologiya (umumiy ekologiya), geoekologiya, amaliy ekologiya, inson ekologiyasi va ijtimoiy ekologiya. Ijtimoiy ekologiya "jamiyat - tabiat - inson" tizimidagi asosiy qonuniyatlarni, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirini o'rganish va optimal modelni yaratish imkoniyatlarini belgilaydigan kategoriya hisoblanadi. [2] Jamiyat, inson va tabiat munosabatlari, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik, bir-birini to'ldirish va o'zaro muhofazalash bilan bog'liq xususiyatlar mazkur kategoriyaning muhim aspekti hisoblanadi.

Ijtimoiy ekologiya tushunchasi amerikalik olim Murray Bookchin tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ekologik inqirozda jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning bevosita ta'sirini o'rganuvchi va tabiatdan foydalanish sohasida ijtimoiy guruhlarining munosabatlarini ko'rib chiqadigan fandır.

Bookchin 1960-yildan buyon mavjud bo'lgan jamiyat tuzilishini tanqid qilib, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarda noto'g'ri tashkil qilingan jamiyat tizimini muhim omil sifatida ko'rib chiqadi. Biz bugun ijtimoiy ekologiya inqirozini boshdan kechirmoqdamiz va bu hech birimiz uchun sir emas. Zamonaviy jamiyatda yuzaga kelgan ulkan sanoat shahar kamarlari, yuqori darajada sanoatlashgan qishloq xo'jaligi va har ikkalasidan ham ustun bo'lgan anonim byurokratik boshqaruv apparatlari faoliyatlari ijtimoiy ekologiya inqirozining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu nazariyada insoniyat anglab yetishi kerak bo'lgan eng muhim narsa shuki, atrofdagi olam bilan birlik jamiyatni mustahkamlaydi. Azaldan barkamol jamiyatda komil insonlar yetishib chiqishi, yaxlit jamiyatda birdam insonlar bo'lishi natija sifatida kutilgan. Bugungi kunda ekojamiyat tuzish, inson va tabiatning uyg'unlikda rivojlanishiga erishishga ehtiyoj sezmoqdamiz. Bookchin ta'kidlaganidek, zamonaviy davrda mavjud bo'lgan ekologik inqirozning manbai va xavfi bugungi jamiyatlar o'tmishda yaratgan jamiyatlarga nisbatan ekologik muvozanatni yanada ko'proq xavotirga solayotganidan kelib chiqadi. Bookchin fikriga ko'ra, inson ekologiyada tabiatning bir qismi ekan odamlarning organik evolutsiyadan tashqarida emasligini o'ylash muhim. Haqiqatdan ham kundan kunga atrof-muhit bilan bog'liq muammolarga qanchalik ko'p yechimlar berishga harakat qilmaylik, ekologik buzilishlar ko'payib bormoqda. Achinarlisi mavjudlari ham tobora kengayib, yanada kattaroq xavfga aylanib ketmoqda. Tabiat bilan birga rivojlanadigan inson, undan ayri holda yashay olmasligini anglashi kerak. Shundagina, muammolarning ildizidan boshlab bartaraf etishga erishishimiz mumkin.

Xo'sh, ijtimoiy ekologik muammolarning boshlang'ich nuqtasi jamiyat va tabiat o'rtasida vujudga keldimi? Yo'q, bunda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihat har ikkalasining taraqqiyoti ortidan muammolar kelib chiqishidir. Hayotni soddalashtirish, qulayliklarga erishish ortidan yuzaga kelgan, qayta tiklanmaydigan tabiiy buzilishlar, tabiatni ekspluatatsiya qilish, tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish bugun bizni o'rab turgan atrof-muhitni, butun borliqni inson manfaatlarining qurboniga aylantirib qo'ydi. Insoniyatning barcha harakatlari insoniy hukmronlikka intilish asosida amalga oshiriladi. Tabiatdagi boshqa mavjudotlardan o'zini farqli bilgan insoniyat har davrda o'z tafovutini asosan boshqaruv uchun yo'naltirishi eng achinarli holatdir. Bugun biz anglashimiz kerak bo'lgan haqiqat shuki, tabiatdagi boshqa mahluqotlardan farqli yaratilgan inson o'z ustun jihatlarini uni o'rab turgan tabiatni asrash va rivojlantirishga qaratishi kerak. Har bir davrada tabiatni asrash va undagi muammolarga yechim topishga harakat qiluvchi jamoalar topiladi. Bugungi kunda shunday jamoalardan biri - bu Ijtimoiy Ekologiya Instituti (ISE) hisoblanadi. 1974-yilda Murray Bookchin tomonidan tashkil etilgan institut b'lgan ISE - bu o'rganishga bag'ishlangan mustaqil oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy ekologiya, falsafa, antropologiya, tarix, iqtisodiyot, tabiiy fanlar va feminizmga asoslangan fanlararo sohalarni

o'z ichiga oladi. Shuningdek, 1981-yilda qayta tashkil qilingan instituti ijtimoiy va ekologik jamiyat uchun kurashda global lider bo'lib kelgan. ISE yashil harakat, ekofeminizm, yadroga qarshi harakat, GMO va biotexnologiyaga qarshi harakatlari uchun tarixiy va katalitik rol o'ynaydi.

Diqqatni tortadigan qator jihatlari borasida to'xtaladigan bo'lsak, ekofeminizm harakatining vakillari e'tirofiga ko'ra, iqlim o'zgarishi qizlar va ayollarga nisbatan zo'ravonlikning kuchayishiga olib keladi. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) tadqiqotchilarining fikricha, atrof-muhit degradatsiyasi mintaqada gender asosidagi zo'ravonlikni kuchayishiga ham sabab bo'lar ekan. Jumladan, ekstremal ob-havo hodisalari (issiqlik, qurg'oqchilik, suv toshqini va bo'ronlar) tez-tez va halokatli bo'lishi sababli global isish resurslariga bosim o'tkazishi sababli ko'plab hududlar aholisi qashshoqlashish, ishsizlik va ochlik singari muammolarga duch keladi, bu esa odamlarni har doim ham qonuniy bo'lmagan pul topish usullariga (brakonerlik, qul savdosi va boshqalar) murojaat qilishga majbur qiladi. Ayollar bu vaziyatda ko'proq zarar ko'rishadi, zotan ular ko'pincha noqulay hududlarda yashab, qonuniy huquqlarga ega emas. Bu esa xalqaro sohada e'tibor berilishi va muammolar ijobiy hal etilishi lozim bolgan holatdir. Demak, ekofeminizm harakati ekologik adolat va ayollar huquqlari harakati bilan birlashadi va uyg'unlikda faoliyat yuritadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ijtimoiy ekologiya inson farovonligi va jamiyat taraqqiyoti uchun juda muhimdir. U oziq-ovqat ishlab chiqarish, havo va suvni toza saqlash, o'zgaruvchan iqlim sharoitida biologik xilmaxillikni saqlash uchun juda muhim bo'lgan odamlar va tabiatning o'zaro bog'liqligi haqida yangi ilmiy-nazariy bilimlarni tadqiq etadi. Shunday qilib, ijtimoiy ekologiya inson va uning atrof-muhit o'rtasidagi munosabatni o'rganadi, ijtimoiy jarayonlarni (va munosabatlarni) ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy tahlil qiladi, insonning tabiiy-sotsial mavjudot sifatidagi xususiyatlarini hisobga oladi, bu uning atrof-muhit elementlariga ham, ularga munosabatiga ham ta'sir qiladi. Shuningdek, aholining taxminan yarmini tashkil etuvchi xotin-qizlar qatlamining yashash sharoitlarini yaxshilash, muhofaza qilish, ekologik savodxonlikni oshirish orqali ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga ham e'tibor qaratadi. Demak, ijtimoiy ekologiya insoniy ekologiya haqidagi bilimlarga asoslanadi. Aholining ekologik ta'limi odamlarning ekologik madaniyati va ongini shakllantirishning muhim jihati hisoblanadi. U atrof-muhit muammolarining ahamiyatini va ularning hayot sifatiga ta'sirini tushunishga yordam beradi va odamlarga ushbu muammolarni hal qilishda ularning rolini tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Цели в области устойчивого развития//
<https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goal>

2. Социальная экология. Методические указания. –Ярославл, ЯрГУ, 2013. Ст. 7.

3. Экология и революционная мысль
<https://web.archive.org/web/20171213101156/>

4. Ijtimoiy ekologiya // <https://www.ekoloji.com/uz/ekoloji/toplumsal-ekoloji/>

5. Ijtimoiy ekologiya instituti rasmiy sayti // <https://social-ecology.org/wp/about/history/>

JAMIYAT HAYOTIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA RAHBAR MA’SULIYATI

*Nishonov Zoxidbek Tursunalievich,
“Tashkent-Sharqiy Airport” MChJning
Aviatsiya xavfsizligi departamenti direktori*

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat hayotida ekologik madaniyatni shakllantirishda rahbar ma’suliyatiga doir tahlillar keltirilgan. Tabiiyki, muallif mavzuni dolzarbligini tadqiq etish bilan bir qatorda jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirishda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati, xususan, oila tarbiyasiga e’tibor qaratgan. Shuningdek, maqolada rahbar shaxsini soha bilan bog‘liq ma’suliyatiga oid qarashlarini keltirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, rahbar, boshqaruv, rahbar ma’suliyati, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat.

Globalashuv va modernizatsiyalashuv jarayonida inson hayoti va faoliyati hamda uni vorisiiyligi, bardavomligini ta’minlash dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Xususan, bugungi global muammolar yanada amaliy ahamiyat kasb etishida aholi hamda yoshlar orasida ekologik madaniyatni shakllantirish nafaqat nazariy, shuningdek pragmatik ahamiyatga molik.

Tabiiyki, bugungi kunda qaysi bir sohada bo‘lmasin rahbar shaxsi jamiyat boshqaruvida ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki u ustuvorliklarni va rivojlanish vektorini belgilaydi. U nafaqat ekologik qoidalarga rioya qilishi, balki atrof-muhitni saqlashga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlab, ekologik ta’lim va xabardorlikni faol ravishda targ‘ib qilishi kerak. Mamlakat rahbari Prezident Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashlari uchun biz tabiatga mehr va e’tibor berishimiz, u bilan uyg‘un bo‘lib yashashimiz kerak. Bu nima degani? Bu – tabiatni toza-ozoda tutish, yer va suv resurslarini, ekologik tizimni asrash, daraxt ekib, bog‘ yaratish

degani. Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur.

Bugun ko‘chaga yoki istalgan joyga qarang. Hamma joyda odamlar tashlab ketgan chiqindilarni ko‘rasiz. Biz ona yurtimizni muqaddas deymiz. Agar shu yurt, shu tuproq biz uchun muqaddas bo‘lsa, nima uchun uni toza-ozoda saqlamaymiz?

Albatta, bunday muammolarni faqat ma‘muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi. Bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin.

Mahallada, ko‘chalarda chiqindi tashlagan kishini ko‘rganda, «bu ishingiz noto‘g‘ri bo‘ldi», deydigan muhitni shakllantirishimiz, odamlarimizni bunga o‘rgatishimiz kerak. Bu – hammamizning ishimiz va insoniy burchimizdir»[1]. Albatta, ona tabiatni, ichadigan suvimiz, nafas oladigan havomizni toza saqlash nafaqat mahalliy lokal hayot va uning muammolari bilan ayni paytda ekologik, globam muammolar chegarasiz bilmaydi. Bunga ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Butunjahon yovvoyi tabiat jamg‘armasi, Global oyoq izlari tarmog‘i va London Zoologiya jamiyati tomonidan olib borilgan qo‘shma tadqiqotga ko‘ra, 1970 yildan beri yerdagi yovvoyi hayvonlar va qushlar soni 3430 turga kamaydi va tirik sayyoralar indeksi 52% ga kamaydi, ya‘ni ularning soni havoda va quruqlikda yashovchi turlarning soni 76% ga, quruqlikda va suvda yashovchi turlarning soni 39% ga kamaydi. Har yili inson faoliyati tufayli 11 million gektar tropik o‘rmonlar kesilib, yo‘q qilinadi. Bu o‘rmonlarni tiklash bo‘yicha ishlardan 10 baravar ko‘p. Har kuni atmosferaga taxminan 60 million tonna karbonat angidrid chiqariladi, bu havoning isishiga va o‘z navbatida Jahon okeanining suv sathining ko‘tarilishiga olib keladi [2].

Shunday ekan muammo kunday ravshan. Asosiy masala uni bartaraf etish mexanizmlari hamda amalga oshirishni pragmatik jihatlari haqida o‘ylash lozim. Muammoni har tomonlama yoritish va uning yechimini aniqlash uchun bir qator anketalar va qiyosiy tadqiqotlarga e‘tibor qaratish muhimdir. Shu munosabat bilan, ijtimoiy so‘rov natijalari bizga mashhur ekologik amaliyotlarning quyidagi ierarxiyasini yaratishga imkon beradi. Ularning eng katta samaradorligi va mavjudlik jihatidan eng mashhur va qo‘llab-quvvatlanadigan amaliyoti haqida savolga javob albatta, respondentlar, avvalo, saralash (42,53%) chiqindilarni afzal berdi, zararli maishiy kimyo (36,12%) va plastik rad (31,96%), suv tejash (32,31%), xavfsiz qadoqlash (31,96%), tozalash kunlarida ishtirok etish (30,64%) va chiqindi qog‘ozlarni yig‘ish (29,16%). "Ekologik faoliyatda ishtirok etish" variantini respondentlarning deyarli 21 foizi taqdim etadi. Bir tomondan, bu atrof-muhit masalalari bo‘yicha yoshlar faoliyati rasman haqiqatini tasdiqlaydi, chunki bu so‘rovnomadagi boshqa savolga javoblar natijalariga deyarli to‘g‘ri keladi. "Siz turli xil ekologik tadbirlarda qatnashasizmi?" respondentlarning 19,1% tomonidan ijobiy javob berildi.

Boshqa tomondan, ushbu umumiy shakllangan variantni tanlashning past ko'rsatkichlari, bizning fikrimizcha, yoshlar harakatlar samaradorligi haqida gap ketganda, harakatlarning aniq variantlarini tanlashga moyilligini ko'rsatadi [3].

Darhaqiqat ekologik madaniyat deganda biz eng avvalo odam va olam munosabatini ko'z oldimizga keltiramiz. Bunda insonning tabiat bilan qanchalar uyg'un o'zaro hayot kechirishini kuzatishimiz mumkin. Insonlar uzoq davr mobaynida o'zi yashayotgan hayotga, eko- muhitga befarq bo'lib keldilar va ularning asorati bugungi kunda salbiy oqibatlarini ko'rsatmoqda. Agarda bu haqda gapirsak muammo talaygina. Ammo gap uni bartaraf etishda, amaliy natijaga erishishda. Shu bois, bugungi kun rahbariga juda katta ma'suliyat yuklatiladi. Chunki u jarayonlar uchun ekologik muammolarni bartaraf etishga ma'sul.

Kuzatuv va izlanishlarimiz mahsuli bois mavzuga, sohaga aloqador bir qator tezlarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zamonaviy rahbar ma'suliyatiga ushbu sohaga oid quyidagilarni keltirish o'rinli:

- Atrof muhitni toza saqlash va ekologik madaniyatni shakllantirishda eng avvalo fuqarolik jamiyati institutlari ma'suliyatini ta'kidlash lozim. Siyosiy partiyalar, NNT, OAV, mahalla instituti, oila kabilarni keltirish lozim.

Ta'kidlash joizki ekologik tarbiya avvalo oiladan boshlanib keyin maktab, tashkilotlar, siyosiy partiyalar va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarida davom etadi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida o'tkazilgan so'rovlarda quyidagilar ma'lum bo'lgan. Ma'lumot beruvchilarning aksariyati oilani asosiy ekologik qadriyatlar va munosabatlar shakllanadigan makon deb ta'rifladilar. Bu haqdagi bayonotlarni qat'iy ishonch darajasiga ko'ra tasniflash mumkin: "Albatta, faqat oila, chunki agar men ota-onam va buvim tomonidan tabiatni muhofaza qilish ruhida tarbiyalanmaganimda va buni qanday qilish kerak, keyin, rostini aytsam, men deyarli qila olmasdim bu borada foyda olish, bu davlat yoki maktab bo'ladimi" (ayollar, 20 yosh, Qrim), "Oila jamiyatning asosidir, ota-onalar va ularning ota-onalari bizga saqlab qolishimiz kerak bo'lgan an'analar va bilimlarni berishadi. Tabiat ularni o'rab olgan va bizni o'rab turgan narsadir va biz unga hurmat bilan munosabatda bo'lishimiz kerak, chunki oqsoqollarimiz bizga vasiyat qilishadiki bizning bolalarimiz ham risoladagidek toza yashash joyiga ega bo'lishlari kerak" (yer, 20 yosh, Adigeya), o'rtacha darajada: "Albatta, oilada tarbiya katta rol o'ynadi. Mening tarbiyam umuman va atrof-muhitga bo'lgan munosabatim ham" (ayollar, 21 yosh, Qrim)[4]. Davlat tashkilotlari bilan bir qatorda jamiyat tashkilotlari ham bu borada ma'suliyatni his etishlari kerak.

-Atrof-muhitni rivojlantirish strategiyasini shakllantirish: Boshqaruvda rahbar ekologik jihatlarni hisobga oladigan va atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish maqsadlarini belgilaydigan strategiyani ishlab chiqishi va amalga oshirishi kerak.

- Bog'cha, maktab va oliygohlarda ekologik ta'limni qo'llab-quvvatlash: Boshqaruvda ta'lim dasturlariga homiylik qilishi, ekologik tadbirlarni tashkil qilishi va ekologik xabardorlik kampaniyalarini o'tkazishi mumkin.

-Sohaga oid kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish: Rahbar o'z xodimlarining ekologiya va barqaror rivojlanish sohasida o'qitilishini ta'minlashi, shuningdek ularni ekologik tashabbuslarda ishtirok etishga undashi kerak.

- Ekologik texnologiyalarni joriy etish: Boshqaruvda rahbar atrof-muhitga ta'sirini kamaytiradigan ilg'or ekologik innovatsion texnologiyalar va amaliyotlarni amalga oshirishi kerak.

-Ekologik loyihalarni targ'ib qilish: Boshqaruvda rahbar atrof-muhitni yaxshilashga hissa qo'shadigan ekologik loyihalar va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

-Ekologik madaniyatni shakllantirish va uni targ'ibi bilan aloqador ichki tartib va qoidalarni o'rnatish:Boshqaruvda rahbar atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va resurslarni tejashga qaratilgan ichki tartib va qoidalarni o'rnatishi kerak.

Umuman olganda, boshqaruvda rahbarning ushbu jarayonlarni optimallashtirishga qaratilgan ma'suliyati quyidagi natija va omillarni ta'minlaydi:

Birinchidan, jamiyatda ekologik ongni oshirishga yetakchilik qilish orqali odamlarga ekologik muammolarning ahamiyatini tushunishga va ularni hal qilishda ishtirok etishga yordam beradi.

Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish: rahbarning faol ishtirokida shakllangan ekologik madaniyat atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga yordam beradi.

Muhim omil hisoblangan barqaror taraqqiyot va kelajakni yaratish: ekologik madaniyatga e'tibor beradigan yetakchilik kelajak avlodlar uchun barqaror kelajakni yaratishga yordam beradi.

Tashkilotning imidji va obro'sini oshirish: ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha faol ish olib boradigan tashkilotlar o'zlarining obro'si va jamoatchilik oldida obro'sini oshiradilar.

Inson hayot va faoliyati uchun muhim hisoblangan yashash sharoitlarini yaxshilash: rahbarning faol ishtirokida shakllangan ekologik madaniyat hamma uchun yashash sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. «Aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur» — Shavkat Mirziyoev.Daryo.uz <https://daryo.uz> > 2022/02/02

2. Mar O. I. Zamonaviy rus jamiyatidagi ekologik madaniyat: dolzarb muammolar. M.: Izd-vo MNEPU. 2011. 226 p. 32.

3. Рыбакова М. В. Социально Экологические практики: состояние и механизмы управления. М.: КДУ. 2012. 318 п.;

4. Экологические поведение в современной России: Мнения молодежи Южного Федерального округа (По материалам фокус группового исследования). КиберЛенинка <https://cyberleninka.ru> артисле экологическое-пове... Автор: ВА Захарова · 2022 · цитируется: 4 — Рыбакова М.В. (2012) Социальные экологические практики: состояние и механизмы управления. М.: КДУ, 318.

ЭКОЛОГИК SAVODXONLIK, FUQAROLAR VA JAMOATCHILIK FAOLLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Sevara G'ayratovna RAXIMOVA

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti stajyor o'qituvchisi

E-mail: gsevara1983@gmail.com

Tel: +998931072833

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda ekologik siyosatning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Ekologik siyosatning asosiy maqsadi atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik savodxonlikni oshirish va fuqarolarni ekologik masalalarda faol ishtirok etishga undashdan iborat. Maqolada ekologik siyosatning rivojlanish jarayoni, ekologik ta'limning ahamiyati, fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirishning dolzarb masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ekologik siyosat, ekologik savodxonlik, fuqarolar faolligi, jamoatchilik faolligi, ekologik ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik, yashil iqtisodiyot, tabiatni himoya qilish, ekologik xabardorlik, ekologik muammolar, ekologik tashabbuslar.

Kirish. Dunyoning eng qudratli mamlakatlarida ekologik siyosatni rivojlantirish va ekologik faollikni oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar juda samarali va rivojlangan. Bu mamlakatlar o'zlarining yashil iqtisodiyotga o'tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik siyosatni kuchaytirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish orqali global ekologik muammolarga qarshi kurashda yetakchilik qilmoqda. Ayni damda O'zbekistonda xam ushbu tajribalardan foydalangan holda o'z ekologik siyosatini samarali ravishda rivojlantirish xolatlari kuzatilmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekologik siyosatni samarali amalga oshirish uchun hukumatlar, fuqarolar va biznes sektori o'rtasida hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ekologik savodxonlikni oshirish, fuqarolar faolligini

kuchaytirish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi tajribalar, resurslarni samarali boshqarish hamda ekologik ta'limni kengaytirish jamiyatning ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim omillardir. AQShda "Green New Deal" tashabbusi doirasida ekologik siyosat va yashil iqtisodiyotga o'tish uchun keng ko'lamli rejalar ishlab chiqilgan. Bu tashabbus iqlim o'zgarishini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritish, chiqindilarni kamaytirish va yangi, ekologik toza ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan. Xukumatning iqlim o'zgarishi bo'yicha strategiyasi quyidagilardan iborat: Prezident Jozef Bayden iqlim o'zgarishiga qarshi kurashni o'zining bosh siyosiy prioritetlaridan biriga aylantirib, 2050-yilga qadar AQShni "karbonsiz" qilishga qaratilgan siyosatni amalga oshirmoqda. Bu strategiya qatorida yangi energiya tizimlarini joriy etish, avtomobillarni elektrlashtirish va yangi ekologik siyosatlarni joriy etish bor. Parij kelishuvi: AQSh Parij kelishuviga qaytish orqali global iqlim o'zgarishini kamaytirish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga intiladi. Bu orqali AQSh xalqaro miqyosda ekologik masalalar bo'yicha muhim o'rin tutmoqda.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid masalalar bir nechta moddalarda aks ettirilgan. 2022-yil 8-dekabrda qabul qilingan ushbu Konstitutsiya ekologik huquqlarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratgan. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 49, 62, 66, 68, 115-moddalarida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid masalalar aks etgan. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Xamda davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi. Shu bilan birga Konstitutsiyada insonning sog'ligi, hayoti va atrof-muhitdan foydalanish huquqi kafolatlanadi [1].

O'zbekiston ekologik siyosatining asoslari 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Ekologik xavfsizlik to'g'risida"gi Qonun bilan belgilanib, ushbu qonun atrof-muhitni muhofaza qilish, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishish yo'lida davlatning ekologik xavfsizlik sohasidagi siyosatini shakllantirishga xizmat qiladi. 2020-yilgi "Yashil iqtisodiyot" strategiyasini amalga oshirishda ekologiya va atrof-muhitni saqlashga qaratilgan choralar kuchaytirildi, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, sanoat korxonalarida ekologik standartlarni kuchaytirish orqali barqaror rivojlanishga erishish maqsad qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ekologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan yillik tadbirlar ro'yxati tuzilgan bo'lib, mazkur ro'yxatga ko'ra, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha har yili

an'anaviy seminarlar, konferensiyalar, va treninglar tashkil etiladi, o'tqizib kelinadi. Masalan, 2024-yil 23–24 oktyabr kunlari Toshkent kimyo-texnologiya institutida “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishdagi innovatsion texnologiyalar” mavzusida respublika ilmiy-texnikaviy anjuman o'tkazildi. Mazkur tadbirda ekologik muammolarni hal etishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish kabi masalalar muhokama qilindi [2].

Bundan tashqari, har yili 5-iyun kuni Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni nishonlanadi. Bu sanaga bag'ishlangan tadbirlarda daraxt ekish, ekologik aksiyalar va seminarlar o'tkaziladi [3].

2025-yilning 17-yanvar kuni Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili” munosabati bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) bilan hamkorlikda Global Ekologik Fond moliyalashtirilishida amalga oshirilayotgan ikkita xalqaro loyihani ishga tushirishga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha yangi tashabbuslar va loyihalar taqdim etildi. Mazkur tadbirda ikki loyihaning birgalikdagi byudjeti 2030-yilga borib taxminan 6,5 million dollarni tashkil qilish aytib o'tildi[4].

Shu bilan birga, 2024-yil 13-fevraldan boshlab “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ markaziy apparati va filiallarida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xodimlarning malakasini oshirishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil etildi. Mazkur tadbirda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhit monitoringi va analitik tahlil usullari kabi mavzular o'rganildi [5]. Umuman olganda, O'zbekistonda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar muntazam ravishda o'tkazilib, bu sohadagi bilim va tajribalarni oshirishga xizmat qilmoqda.

2020-yilda ekologik savodxonlikni rivojlantirish uchun Ekologik ma'rifat dasturi ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-sonli qarori bilan «O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi» tasdiqlangan. Ushbu konsepsiya ekologik savodxonlikni oshirish, yoshlarni ekologik tarbiyalash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida keng ko'lamli chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi [6].

Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasining bir qancha yo'nalishlari mavjud, shulardan asosiylari quydagilardan iborat:

- Maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimida ekologik ta'limni joriy etish xamda takomillashtirish, shuningdek ekologik dastur asosida ekologik mashg'ulotlar o'tkazish.

- O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar haqida dastlabki tushunchalarni bolalar ongiga singdirish.

- dastur va o'quv-metodik materiallarni yangilash, ekologik ta'limni umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari dasturlariga kiritish.
- ekologik ta'limni oliy ta'lim tizimida rivojlantirish, ekologik ta'limni oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalari va dasturlariga kiritish.
- ekologik ta'lim bo'yicha yangi mutaxassisliklar va yo'nalishlarni joriy etish, ekologik ta'limni targ'ib qilish va jamoatchilikni jalb etish, ekologik ta'lim bo'yicha ommaviy axborot vositalarida materiallar tayyorlash va nashr etish.
- jamoat tashkilotlari va ekologik harakatlarni qo'llab-quvvatlash, ekologik ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, davlat budjeti mablag'larini ajratish. Xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish. shular jumlasidandir.

Ushbu konsepsiya ekologik savodxonlikni oshirish va yoshlarni ekologik tarbiyalashda muhim qadam bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan davlat siyosatini amalga oshirishda asosiy hujjat hisoblanadi.

Fuqarolar va jamoatchilik faolligi, ekologik xayriya tashabbuslari va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan "Yashil Uzbekiston" kabi loyihalar ekologik muammolarga qarshi kurashda fuqarolarni jalb qilishda samarali bo'lmoqda. Mahalla institutining ekologik faoliyati: mahalla raislari va mahalla kengashlari tashabbusi bilan daraxt ekish, chiqindilarni to'plash va ajratish kabi ko'plab ekologik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda xam ko'plab ekologik muammolar mavjud. Chorvachilik va qishloq xo'jaligida sun'iy o'g'itlar va pestitsidlarning haddan tashqari qo'llanilishi ekologik tahdidlarga olib kelayotganligi yaqqol nomoyon bo'lmoqda. Shuningdek Orol dengizi muammolari xam o'ziga xos muammolar zanjiri desak xato bo'lmaydi. Orol dengizining qurishi O'zbekistonning ekologik vaziyatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa hududdagi aholining salomatligiga ham jiddiy ta'sir qiladi.

Ayni zamonda ekologik savodxonlikni oshirishda ta'lim tizimini takomillashtirish mazkur masalani yechimi bo'ladi. Buning uchun maktablar va oliy o'quv yurtlarida ekologik masalalarni o'rgatish uchun alohida kurslar va darsliklar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek ta'lim dargohlarida ekologik tadbirlarni ko'plab tashkil etilishi yosh avlodni atrof-muhitga mehr, ekologik madaniyat va mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatib, ularni barqaror rivojlanishga hissa qo'shadigan ongli fuqarolar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. .

Fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirish ham o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Mahallalarda ekologik faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish, aholining ekologik savodxonligini oshirish, shuningdek, ekologik xayriya tashkilotlari va jamoat birlashmalarini faolroq ishga jalb qilish orqali muhim natijalarga erishish

mumkin. Bu esa ekologik muammolarni hal qilishda keng jamoatchilikni jalb qilishga va ularning mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning ekologik siyosatini kengaytirish bugungi kunda barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash yo'lida muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Yashil iqtisodiyot"ni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus ekologik grantlar va iqtisodiy rag'batlantirish tizimini yaratish — bu barqaror rivojlanishga erishish yo'lida muhim qadamdir. Bunday tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-Ekologik startaplar va innovatsion loyihalar uchun grantlar: Atrof-muhitga zarar keltirmaydigan, energiya tejamkor yoki chiqindi kamaytirishga qaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqayotgan tadbirkorlar uchun davlat yoki xalqaro moliyaviy grantlar ajratish.

-Soliq imtiyozlari va subsidiyalar: Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilgan korxonalariga soliq yengilliklari berish, ekologik toza mahsulot ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan qo'shimcha mablag'lar ajratish.

-“Yashil kreditlar” tizimi: Tijorat banklari tomonidan ekologik toza texnologiyalarni xarid qilish yoki ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun past foizli kreditlar taklif etilishi.

-Ekologik baholash tizimi: Loyihalarni moliyalashtirishdan oldin ularning atrof-muhitga ta'siri tahlil qilinib, ekologik jihatdan foydali loyihalarga ustuvorlik berilishi.

-Mahalliy va xalqaro sheriklik: Xalqaro ekologik fondlar bilan hamkorlikda O'zbekistondagi “yashil” loyihalarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirish.

Shu kabi rag'batlantirish vositalari nafaqat atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Global Ekologik Fondning Kichik Grantlar Dasturi (GEF KGD) O'zbekistonda tabiiy resurslarni asrash, tuproqni saqlash va yaxshilash, energiya, suv, bioxilma-xillikni saqlash va ishlab chiqarish kabi loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun grantlar taqdim etadi. Bu dastur 2008 yildan buyon faoliyat olib bormoqda va 100 dan ortiq loyihani qo'llab-quvvatlagan. Loyihalar mahalliy aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga ham qaratilgan.

“Yashil Makon” Umummilliy Loyiha 2024-yilda “Yashil Makon” loyihasi doirasida 100 milliard so'm mablag' ajratildi. Bu mablag'larning 52 milliard so'mi “Ochiq budjet” portali orqali “Menning bog'im” loyihasini moliyalashtirishga, 48 milliard so'mi esa boshqa ko'kalamzorlashtirish tadbirlariga yo'naltirildi. Natijada 208 ta tuman va shaharda “Yashil bog” va “Yashil jamoat park”lari barpo etildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ekologik siyosatni amalga oshirish uchun yaratilgan qonuniy asoslar ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik savodxonlikni oshirish, fuqarolarni ekologik faoliyatlarga jalb qilish va ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Ekologik qonunlar va normativ hujjatlar orqali O'zbekiston ekologik siyosatni samarali tarzda amalga oshirishga intilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi //https://lex.uz/docs/-6445145#-6445572

2. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi toshkent kimyo-texnologiya instituti respublika miqyosdagi ilmiy-texnikaviy anjuman axborot xati <https://anjumanlar.uz/conference/793.5-iyun> Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni. / <https://ecomove.uz/news/view/525>

4. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/ozbekistonda-atrof-muhitni-muhofaza-qilish-va-yashil-iqtisodiyot-yilini-yangi-yashil-tashabbuslar-bilan-boshlaymiz>.

5. Atrof-muhitni muhofaza qilishning zamonaviy standartlari bo'yicha seminar tashkil qilindi <https://tpp.uz/oz/news/atrof-muhitni-muhofaza-qilishning-zamonaviy-standartlari-boyicha-seminar-tashkil-qilindi>.

6. O'zbekiston respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori 27.05.2019 y. n 434//<https://buxgalter.uz/uz/doc?id=5>

THE EVOLUTION OF SOCIAL PARTNERSHIP AND ITS IMPACT ON SOCIO-ECONOMIC CONDITIONS

Akhmadaliev Sevinchbonu Rustamjon kizi

1st year PhD student of the National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (+99899 439-18-17, sarahuzbek97.co@gmail.com)

Annotation: This article provides a comprehensive overview of the historical development and contemporary transformation of social partnership as a model of labor relations and socio-economic governance. Drawing on theoretical frameworks it traces the origins of social partnership to early XX century industrial relations and highlights its institutional expansion in post-World War II Europe, particularly in countries like Austria, Germany, and the Nordic states. The article critically examines the challenges social partnership faced during the neoliberal era.

Key words: Social partnership, industrial relations, labor relations, trade unions, employer associations, social dialogue, economic governance, welfare state, ILO, EU labor policy.

As global economies continue to grapple with inequality and labor market fragmentation, the concept of social partnership has regained attention among scholars and policymakers. This article explores the historical origins and development of social partnership models, examining how they have adapted to changing socio-economic conditions.

Social partnership has played a vital role in the regulation of labor relations and economic policy-making in both developed and developing countries. By fostering dialogue and cooperation among key social actors—namely, trade unions, employers' associations, and governments—social partnership has contributed to social stability, economic growth, and democratic governance. Understanding its origins and development provides insight into its strengths, limitations, and future prospects.

In scientific literature and practice, social partnership is an ambiguous and multi-aspectual notion. Some understand it as a specific type of social relations between social groups, layers, classes, communities, and other structures, others as a mechanism of relations between state bodies, representatives of workers and employers, and the third ones as a special type of collective-labor relations. Also, social partnership refers to the collaboration between employee and employer representatives on joint bodies responsible for strategic advice and administration within the apprenticeship system. This collaboration can be bipartite or tripartite, involving trade unions, works councils, and sometimes government representatives.

International Labor Organization experts define the essence of social partnership as a mechanism by which entrepreneurs, workers' representatives, and the state develop a set of concerted actions to address important issues of economic and social policy by finding compromises.

Basically, the concept of social partnership is grounded in pluralist and corporatist theories of industrial relations. Pluralism recognizes the legitimacy of diverse interest groups within society, while corporatism emphasizes structured cooperation between these groups and the state. Social partnership represents a middle path, where conflicting interests are negotiated through institutionalized dialogue rather than confrontation.

The generalization of the existing definitions of social partnership, as defined in the works of modern scholars, shows that there are two main approaches to determining its content: broad and narrow. Speaking about the rather broad meaning of this term, they distinguish the following main features: social partnership is a form of implementation of relations between employees, employer and the state; it is carried out with the help of specific institutes, tools, and mechanisms; the result of the agreements is the adoption

of acts of social partnership; it forms a certain system, the specific set of elements of which depends on the level of realization of relations and their subjects; the goals are to reconcile the interests of the parties, to reach an agreement between them and to ensure high social standards for the population; the object is social and labor relations (which are much wider than collective-labor relations); the parties of social-partnership relations are equal when making co-decisions.

Moreover, social partnership can be considered as a special type of social and labor relations inherent in a market economy, which, on the basis of equal cooperation of employed workers and employers, can provide the optimal balance and the realization of their main interests. And in the broadest sense, social partnership is a specific type of social relations between different social groups, as well as the corresponding mechanism of relations between the state authorities, representatives of workers and employers.

Historically, the roots of social partnership can be traced back to the late XIX and early XX centuries, coinciding with the rise of industrial capitalism and the labor movement. Early examples include two main countries:

Germany: The origins of "Soziale Marktwirtschaft" (social market economy) and co-determination (Mitbestimmung) policies following World War II provided a foundational model. The German system institutionalized labor-employer cooperation at both firm and national levels.

Scandinavia: Nordic countries, particularly Sweden and Norway, developed tripartite cooperation involving labor, employers, and the state. These arrangements became especially prominent during the interwar period and post-World War II reconstruction. During the post-war period, social partnership became a cornerstone of industrial democracy in Western Europe. Countries developed different models:

- Austria and Germany institutionalized tripartite corporatism, involving regular consultation between social partners and the state.
- Sweden and Denmark emphasized bipartite coordination, with strong, centralized unions and employer associations managing wage bargaining.
- Ireland and the Netherlands adopted social pacts to stabilize economies during periods of crisis in the 1980s and 1990s.

These systems facilitated economic planning, wage moderation, and social peace, contributing to post-war prosperity. Also, there are some key factors contributing to their expansion: the need for reconstruction and social cohesion, the rise of welfare state ideologies, the increasing legitimacy and institutional strength of trade unions and employers' associations, support from international institutions like the International Labor Organization (ILO).

Countries such as Austria, the Netherlands, and Ireland institutionalized social partnership frameworks that facilitated consensus-driven policies on wages, employment, and social welfare.

In the late XX century social partnership faced significant challenges. For instance, globalization and labor market deregulation weakened collective bargaining institutions, declining union membership and employer centralization reduced representational legitimacy. Furthermore, the 2008 global financial crisis led to austerity measures that undermined tripartite trust in many countries. Nevertheless, social partnership adapted: in the European Union the European Social Dialogue became a transnational mechanism for policy coordination.

Coming to the XXI century, social partnership has taken on new roles: the European Social Dialogue encourages cooperation between European-level social partners to shape EU labor policies. Social dialogue is central to ensuring a *just transition* to sustainable economies. During the COVID-19 crisis, countries with strong social partnership traditions (e.g., Austria, Germany, Denmark) managed rapid consensus on emergency labor market policies.

Modern social partnerships are increasingly focused on inclusion, gender equality, digitalization, and sustainability, expanding the scope of traditional labor-employer relations.

Today, social partnership continues to evolve in response to new challenges including climate change and the just transition, technological disruption and the future of work, migration and labor market integration, pandemic response and resilience building. In many countries, there is renewed interest in social dialogue as a means to promote inclusive and sustainable development.

In conclusion, social partnership, born out of the industrial conflicts of the past, has matured into a vital institution for managing socio-economic complexity. While it faces contemporary challenges, its core principles—dialogue, negotiation, and mutual respect—remain relevant. Strengthening social partnership will require innovation, inclusivity, and a recommitment to democratic values in both the public and private spheres. Policymakers should recognize the value of strong, representative institutions and invest in mechanisms that promote genuine dialogue and shared responsibility.

References:

1. Crouch, C. (1993). *Industrial Relations and European State Traditions*. Oxford University Press.
2. Hyman, R. (2001). *Understanding European Trade Unionism: Between Market, Class and Society*.
3. Schmitter, P. C. (1974). Still the Century of Corporatism? *Review of Politics*, 36(1), 85–131.

4. Streeck, W., & Schmitter, P. C. (1991). From National Corporatism to Transnational Pluralism. *Politics & Society*.
5. Visser, J. (2006). Union Membership Statistics in 24 Countries. *Monthly Labor Review*.
6. Hassel, A. (2009). "Policies and Politics in Social Pacts." *European Journal of Industrial Relations*.

IJTIMOYIY TADBIRKORLIKNING EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI ROLI

Hamrayeva Vasila Mirzohid qizi
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti “Sotsiologiya”
Kafedra 1-bosqich magistranti
(+998953838013 vasilahamrayeva64@gmail.com)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining ekologik muammolarni hal etishdagi roli har tomonlama yoritilgan. Unda ekologik muhitdagi muammolarning zamonaviy ko‘rinishlari, ularning ijtimoiy oqibatlari va bunday muammolarga javob bo‘la oladigan innovatsion tadbirkorlik yechimlari tahlil qilingan. Ijtimoiy tadbirkorlikning chiqindilarni qayta ishlash, yashil texnologiyalarni joriy etish, ekologik savodxonlikni oshirish kabi sohalarida tutgan o‘rni nazariy hamda amaliy misollar orqali ochib berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston tajribasi, xorijiy davlatlardagi ilg‘or amaliyotlar va bu sohada mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda muammolar ham chuqur tahlil qilingan. Maqola yakunida ijtimoiy tadbirkorlik asosida ekologik barqarorlikka erishish uchun aniq va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik muammolar, ijtimoiy tadbirkorlik, ekologik ong, ekologik barqarorlik, ekota‘lim loyihalari, “Yashil maktab” tashabbusi, “Econet” loyihasi

Bugungi kunda ekologik muammolar butun dunyo uchun dolzarb masalaga aylangan. Atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, chiqindilar muammosi, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi holatlar insoniyat taraqqiyotiga jiddiy xavf solmoqda. Ayniqsa, urbanizatsiya jarayoni va sanoatning tez sur‘atlarda rivojlanishi ekologik muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu sharoitda ijtimoiy tadbirkorlik ekologik barqarorlikka erishishda muhim vositaga aylanmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlikdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad bu jamiyatning zaif qatlamini ish bilan ta’minlash, ularning moliyaviy daromad topishiga ko‘maklashishdan iborat[1]. Ijtimoiy tadbirkorlar o‘z biznes faoliyatlarini faqat foyda olishga emas, balki ijtimoiy

va ekologik muammolarni hal qilishga yo'naltiradilar. Ayniqsa, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalar, yashil mahsulotlar ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash, aholining ekologik ongini oshirish kabi yo'nalishlarda ijtimoiy tadbirkorlarning roli ortib bormoqda.

Ijtimoiy tadbirkorlik — bu jamiyatdagi muayyan ijtimoiy, ekologik yoki madaniy muammolarni hal qilishga qaratilgan innovatsion biznes faoliyatidir. U klassik tadbirkorlikdan farqli o'laroq, asosiy e'tiborni foydadan ko'ra ijtimoiy samaraga qaratadi. U foyda olish bilan birga, ijtimoiy yoki ekologik ehtiyojlarni qondirishga harakat qiladi. Ijtimoiy tadbirkorlar odatda davlat yoki xususiy sektor hal eta olmayotgan muammolarga e'tibor qaratadilar: nogironlar bandligi, ta'limga teng imkoniyat, ekologik muhitni yaxshilash kabi yo'nalishlarda ishlaydilar.

Ekologik barqarorlik esa hozirgi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda, tabiiy resurslardan oqilona va muvozanatli foydalanish prinsipidir. Bu tushuncha biologik xilma-xillikni saqlash, chiqindilarni kamaytirish, energiya manbalaridan samarali foydalanish, havoning, suvning va yerning ifloslanishini oldini olishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy tadbirkorlik va ekologik barqarorlik o'zaro chambarchas bog'liqdir. Chunki ekologik muammolar ijtimoiy beqarorlikni yuzaga keltiradi, ijtimoiy tadbirkorlik esa bunday muammolarga innovatsion yondashuv orqali yechim taklif qiladi.

So'nggi o'n yilliklar davomida ekologik muammolar butun dunyo hamjamiyati e'tiborida turibdi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ham ekologik muammolar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Xususan:

- Chiqindilar muammosi: shahar va qishloqlarda chiqindilarni to'plash, saralash va qayta ishlash tizimi yetarlicha shakllanmagan. Natijada atrof-muhitga zarar yetmoqda.

- Atmosfera havosining ifloslanishi: avtomobillar va sanoat korxonalarining chiqarayotgan zararli gazlari inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

- Suv resurslarining ifloslanishi va kamayishi: daryo va kanallardagi suv sifati past bo'lib, ayrim hududlarda toza ichimlik suvi taqchilligi kuzatilmoqda.

- Yashil hududlarning kamayishi: shaharsozlik siyosatida daraxtlar kesilishi va yangi qurilishlar ekologik muhitga zarar yetkazmoqda.

Bunday muammolar aholi salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi, ijtimoiy tenglik kabi ko'plab yo'nalishlarga ta'sir qilmoqda. Ularni faqat davlat tomonidan emas, balki jamiyatning ichki resurslari — ijtimoiy tadbirkorlik kabi tashabbuslar orqali ham bartaraf etish mumkin.

2025-yil 1-sentabrdan boshlab tadbirkorlik subyektlariga “Yashil tadbirkor” maqomini berishni nazarda tutuvchi platformani ishga tushirish taklif qilinmoqda. Bu “O'zbekiston–2030” strategiyasini “Atrof-muhitni

asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasida keltirib o‘tilgan[2]. “Yashil tadbirkor” maqomini olgan kompaniyalar bir qator imtiyozlardan foydalanishlari mumkin:

- “Shaffof qurilish” platformasida ustuvorlik berish;
- Muayyan muddat davomida ekologik tekshiruvlardan ozod etish;
- Xalqaro bozorlarga chiqish uchun qo‘llab-quvvatlash;
- Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi doirasida qo‘shimcha ball berish.[3]

Ekologik yo‘nalishga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik bugungi kunda ekologik barqarorlikka erishishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bunday tadbirkorlik quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

- Qayta ishlash loyihalari: plastik, metall, qog‘oz va boshqa chiqindilarni yig‘ish, ajratish va qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi startaplar paydo bo‘lmoqda.

- Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish: kimyoviy qo‘shimchalarsiz oziq-ovqat mahsulotlari, ekologik toza qadoqlash materiallari ishlab chiqariladi.

- Yashil energiya yechimlari: quyosh batareyalari, shamol turbinalari kabi muqobil energiya manbalarini ishlab chiqarish va joriy etish.

- Ekota‘lim loyihalari: maktab va universitetlarda ekologik madaniyatni oshirish bo‘yicha darslar, seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.

- Mahalliy ekologik tashabbuslar: mahallalarda chiqindilarni yig‘ish, daraxt ekish, suv resurslarini tejashga qaratilgan tadbirlar.

Ijtimoiy tadbirkorlar bu faoliyatlarni daromad manbai sifatida emas, balki barqaror ijtimoiy foyda yetkazish vositasi sifatida amalga oshiradilar.

O‘zbekistonda ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan bir qator ijtimoiy tadbirkorlik tashabbuslari shakllanmoqda. Quyida ayrim misollarni ko‘rib chiqamiz:

- “Yashil maktab” tashabbusi: maktab o‘quvchilari o‘rtasida chiqindilarni saralash, qayta ishlash va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish g‘oyasini targ‘ib qiladi.

- “Econet” loyihasi: mahalliy tadbirkorlar tomonidan ishga tushirilgan ushbu platforma aholiga ekologik mahsulotlar, qayta ishlangan buyumlar va yashil texnologiyalarni taqdim etadi.

Bu loyihalar aholining ekologik savodxonligini oshirish, ijtimoiy faol bo‘lishini rag‘batlantirish, hamda atrof-muhit muhofazasiga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirish orqali ekologik barqarorlikka hissa qo‘shmoqda.

Xalqaro miqyosda ekologik ijtimoiy tadbirkorlik keng tarqalgan va muvaffaqiyatli natijalarga erishgan. Misollar:

- TerraCycle (AQSH): bu kompaniya qayta ishlashga yaroqsiz hisoblangan chiqindilarni yig'ish va sanoat korxonalariga sotish orqali ekologik muammolarni hal qilmoqda.

- Barefoot College (Hindiston): elektr energiyasidan mahrum hududlarda yashovchi ayollarni quyosh panellarini o'rnatish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha o'qitadi.

- GreenCollect (Avstraliya): ofislardan chiqadigan texnologik chiqindilarni yig'ib, ularni qayta ishlash orqali ekologik va ijtimoiy foyda keltiradi.

Bu kabi loyihalar tadbirkorlik orqali ekologik masalalarni hal qilishda jamiyatni faol ishtirok etishga jalb qilgan.

Bugungi global va mahalliy ekologik muammolar insoniyat farovonligiga jiddiy xavf solmoqda. Iqlim o'zgarishi, chiqindilar muammosi, resurslar tanqisligi, havoning va suvning ifloslanishi kabi holatlar nafaqat atrof-muhitga, balki inson salomatligi, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka ham ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy davlat siyosati va yirik korporativ tashabbuslar ko'p hollarda ushbu muammolarning yechimini to'liq ta'minlay olmayapti.

Shunday bir sharoitda ijtimoiy tadbirkorlik ekologik muammolarga innovatsion, mahalliy va barqaror yechimlar taklif etadigan muhim vosita sifatida e'tirof etilishi lozim. Ijtimoiy tadbirkorlar ekologik muammolarning ildiziga nazar soladi, jamiyat ichidagi resurslarni birlashtiradi va kichik miqyosda katta ijtimoiy ta'sir yaratadi.

O'zbekistonda ham ijtimoiy tadbirkorlikni ekologik yo'nalishda kengaytirish uchun salmoqli imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, yoshlar orasida ekologik ongning ortib borayotgani, yangi texnologiyalarning ommalashuvi va xalqaro hamkorlik uchun ochiqlik bu sohaning salohiyatini yanada oshirmoqda.

Ijtimoiy-ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar:

- 1.O'zbekiston sharoitida ekologik muammolarni samarali hal etish uchun ijtimoiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Buning uchun eng avvalo ekologik yo'nalishga ixtisoslashgan, milliy sharoitga mos strategik hujjatlar va huquqiy-me'yoriy baza ishlab chiqilishi kerak. Bu strategiya mavjud ekologik muammolar xaritasiga asoslangan bo'lishi, ustuvor yo'nalishlarni aniqlab berishi lozim.

- 2.Yoshlarning ekologik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari, yoshlar markazlari va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda ekologik tadbirkorlik inkubatorlarini tashkil etish zarur. Bu inkubatorlar ekologik g'oyalarni real va barqaror biznes loyihalarga aylantirishga xizmat qiladi.

- 3.Ekologik ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy ko'mak dasturlarini kengaytirish muhim. Maxsus grantlar, subsidiyalar va

imtiyozli kreditlar davlat, xususiy sektor hamda xalqaro donorlarning hamkorligida ajratilishi lozim.

4. Ekologik mas'uliyatni shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni beqiyos. Maktab, kollej va oliy ta'lim darajalarida "Ekologik tadbirkorlik asoslari" fanini joriy etish, amaliy mashg'ulotlar va loyihalar orqali yosh avlodda ekologik ongni shakllantirish zarur.

5. Har bir tuman va mahalla darajasida mahalliy ekologik muammolarni ijtimoiy tadbirkorlik orqali hal qilish mexanizmini ishlab chiqish kerak. Chiqindilarni boshqarish, daraxt ekish, suvni tejovchi texnologiyalar joriy etish kabi loyihalar ana shunday yondashuv doirasida amalga oshirilishi mumkin.

6. Xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Germaniya, Janubiy Koreya, Hindiston kabi davlatlarda qo'llanilgan ekologik tadbirkorlik amaliyotlarini o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bo'yicha ekspertlar guruhi tuzilishi maqsadga muvofiq.

7. Ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali yashil energiya, chiqindilarni qayta ishlash, suvni tozalash texnologiyalarini ishlab chiqish va tijoratlashtirishga i

mkon yaratish lozim. Bunday innovatsion yondashuvlar atrof-muhit muammolarini zamonaviy usullar bilan hal qilishga xizmat qiladi.

8. Shuningdek, aholining ekologik savodxonligini oshirish va ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadida keng qamrovli axborot-kampaniyalarni yo'lga qo'yish kerak. Ijtimoiy tarmoqlar, OAV, blogerlar hamda ta'lim muassasalari orqali ekologik muammolar va ularni ijtimoiy tadbirkorlik orqali hal qilish yo'llari ommaga tushuntirilishi zarur.

Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy xususiyatlari yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos keladi[4].

Xulosa qiladigan bo'lsak ekologik muammolarning keskinlashuvi ijtimoiy mas'uliyatli va barqaror yechimlarni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy tadbirkorlik ekologik muammolarni hal etishda samarali vosita sifatida maydonga chiqmoqda. O'zbekiston sharoitida ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish – nafaqat ekologik barqarorlik, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot uchun ham muhim omildir.

Taklif etilgan strategik yo'nalishlar – milliy strategiya ishlab chiqish, yoshlar uchun inkubatorlar yaratish, moliyaviy ko'maklarni kengaytirish, ta'lim orqali ekologik ongni shakllantirish, xalqaro tajribani o'rganish va aholining eko-savodxonligini oshirish – barchasi ijtimoiy-ekologik tadbirkorlikning ildiz otishiga xizmat qiladi. Mazkur tashabbuslarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali biz nafaqat ekologik muammolarga yechim topamiz, balki ijtimoiy mas'uliyatli, innovatsion fikrlovchi va barqaror rivojlanishga hissa qo'shadigan yangi avlod tadbirkorlarini ham tarbiyalaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamrayeva V.M. Educational research in Universal Sciences (ERUS) Journal. ISSN 2181-3515 Volume 2, Special issue 7 august 2023.
2. <https://gov.uz/oz/eco/news/view/32599>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/10/green-business/>
4. <https://e-koncept.ru/2016/56919.htm>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSHLARNING EKOLOGIK MADANIYATINI OSHIRISH

Qaytarov Javohir Zokir o‘g‘li,

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xalqaro Jurnalistika fakulteti,
Siyosatshunoslik yo‘nalishi 3-kurs talabasi.*

Annotatsiya. Globallashuv davrida ekologik vaziyatning keskinlashuvi, atrof muhitni muhofaza qilish, jamiyat xafsizligi va taraqqiyotini taminlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning ekologik madaniyatini oshirishda ta‘lim muassasalari, NNTlar, OAVlari va an‘anaviy institutlarning o‘rni va olib borilayotgan islohatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologik madaniyat, ta‘lim tizimi, NNTlar, ijtimoiy tarmoqlar, konsepsiya, yashil makon.

Zamonaviy dunyoda insoniyat turmush tarzining jadal rivojlanishi bilan birga atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar ham ortib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi, havo va suvning ifloslanishi, chiqindilar ko‘payishi kabi ekologik muammolar bugungi kunda nafaqat ayrim mintaqalar, balki butun dunyo aholisini tashvishga solmoqda. Ushbu holat ekologik ong va madaniyatni yuksaltirish zaruratini yuzaga keltirdi. O‘zbekiston ham ekologik barqarorlikni ta‘minlash yo‘lida muhim islohotlarni amalga oshirmoqda. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil hududlarni kengaytirish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi sa‘y-harakatlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Ammo bu jarayonning muvaffaqiyati, avvalo, aholining, ayniqsa yoshlarning ekologik madaniyatiga bog‘liq. Yosh avlod – jamiyatning eng faol va istiqbolli qatlami sifatida – ekologik muammolarga befarq bo‘lmasligi lozim. Ular nafaqat atrof-muhit muhofazasida ishtirok etishlari, balki bu borada ijtimoiy ongni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, yoshlar orasida ekologik madaniyatni rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Ekologik madaniyat – bu insonning tabiatga nisbatan ongli, mas‘uliyatli va ehtiyotkor munosabatini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, u ekologik bilim, ko‘nikma, qadriyat va xulq-atvorning uyg‘unligini o‘z ichiga

oladi. Boshqacha qilib aytganda, ekologik madaniyat – bu tabiatni asrashga qaratilgan hayotiy prinsiplar majmuidir. Ekologik madaniyat insonning kundalik turmushida namoyon bo‘ladi: chiqindilarni to‘g‘ri saralash, suv va elektr energiyasidan tejamkorlik bilan foydalanish, daraxt ekish yoki atrof-muhitni toza saqlash kabi oddiy amallar orqali u hayot tarziga aylanadi. Bu madaniyatning shakllanishi orqali inson o‘zining nafaqat bugungi hayotiga, balki kelajak avlodning salomatligiga ham mas‘uliyat bilan yondashadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategyasi kitobining, o‘zbekiston va umumbashariy muammolar bo‘limida, iqlim o‘zgarishlari, ekologik buhronlar, Orol va ona tabiatni asrash zarurati haqida alohida tuxtalib, “Yashil” texnologiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va inovatsiyon ishlanmalarni qullab –quvatlash, sanoat korxonalarining shunday texnologiyalarga o‘tishini rag‘batlantirish va bu jabxada “yashil moliyalashtirish” tizimini rivojlantirish lozimligi, Eng muhim masala aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta bunday muammolarni faqat ma‘muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-mu habbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”[1] ligini takitlab o‘tgan. Ekologik madaniyat nafaqat shaxsiy farovonlik, balki umumiy ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biridir. U orqali jamiyatda ekologik muammolarga befarqlik kamayadi, ekologik ong va javobgarlik kuchayadi.

Ekologik madaniyatning ahamiyati faqatgina individual darajada emas, balki butun jamiyat miqyosida ham muhim o‘rin tutadi. Har bir fuqaroning ekologik ongli harakati jamiyatda ekologik muhitni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi [2]. Masalan, har bir odam chiqindilarni ajratib tashlasa yoki plastik mahsulotlardan voz kechsa, bu kichik ko‘rinadigan harakatlarning yig‘indisi katta ijobiy natijalarga olib keladi.

Shaxsiy hayotda esa ekologik madaniyat inson salomatligini saqlashga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga va ekologik xavflardan ehtiyot bo‘lishga yordam beradi. U kishining ongida tabiat bilan uyg‘unlikda yashash g‘oyasini mustahkamlaydi. Ayniqsa, bolalikdan boshlab ekologik tarbiya berish orqali kelajakda yanada mas‘uliyatli va atrof-muhitga hurmat bilan qaraydigan avlodni shakllantirish mumkin.

Jamiyat hayotida esa ekologik madaniyat ekologik siyosatning muvaffaqiyatli amalga oshishiga, aholining ekologik tashabbuslarga faol qo‘shilishiga, ekologik qonunlarga rioya etilishiga xizmat qiladi. Ekologik madaniyati yuksak jamiyatda atrof-muhit muammolari tezroq hal etiladi, barqarorlik va sog‘lom muhit ta‘minlanadi. Yoshlar orasida ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagilar omillar asosiy rol o‘ynaydi.

Ta‘lim tizimi orqali (maktab, oliy ta‘lim muassasalari): Ekologik madaniyatni yoshlar ongida shakllantirishning eng asosiy yo‘llaridan biri — bu ta‘lim tizimi orqali maqsadli tarbiya berishdir. O‘zbekiston

Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg'or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirishdan iborat[3]. Konsepsiya doirasida maktabgacha yoshdan boshlab ekologik bilimlarni bosqichma-bosqich singdirish, bu borada darslar, treninglar, fan to'garaklari tashkil etish orqali o'quvchilar tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirilmoqda. Maktabda biologiya, geografiya va tabiatshunoslik fanlari orqali atrof-muhit muhofazasi haqida ilk bilimlar beriladi. Oliy ta'lim muassasalarida esa ekologiya sohasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan yo'nalishlar, ilmiy tadqiqotlar va ekologik tahlillar orqali talabalarda chuqurroq ekologik tafakkur shakllanadi. Bundan tashqari, turli fakultetlar kesimida ham ekologik komponentlar kiritilgan fanlar orqali barcha soha vakillarida ekologik madaniyat rivojlantirilmoqda.

Ekologik madaniyatni mustahkamlashda faqat nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyat ham muhim o'rin tutadi. Daraxt ekish, hududlarni tozalash, chiqindilarni saralash kabi oddiy, ammo samarali tadbirlar yoshlarni ekologik masalalarga bevosita jalb qiladi. Yurtimizda o'tkazilayotgan "Yashil makon", "Bir million daraxt", "Ekologik haftalik" kabi ommaviy tadbirlar yoshlarning ekologik ongini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Aynan Prezidentimiz farmoni bilan tashkil etilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida o'tgan davr doirasida 588 gektar "yashil bog'lar", 662 gektar "yashil jamoat parklari", Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida jami 40 km masofada "yashil belbog'"lar barpo etildi [4]. Bunday aksiyalar orqali nafaqat ekologik muhit yaxshilanadi, balki ishtirokchilarda tabiatga mehr va e'tibor uyg'onadi.

Zamonaviy yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan ijtimoiy tarmoqlar ekologik tarbiyatda ham kuchli vosita bo'la oladi. Instagram, Telegram, YouTube va TikTok kabi platformalarda ekologik mavzudagi kontentlar — videolar, maqolalar, infografikalar, bloglar orqali yoshlarga tez va samarali ta'sir ko'rsatish mumkin. Ommaviy axborot vositalarida ekologik muammolar haqida maxsus ko'rsatuvlar, intervyular, ekspert tahlillari orqali aholi, xususan yoshlar ekologik xabardorlikni oshirib boradi. Shu bilan birga, eko-bloggerlar, jamoat faollari va ijtimoiy loyihalar orqali yoshlar ekologik harakatlarga ko'proq jalb qilinmoqda.

Yoshlar orasida ekologik madaniyatni rivojlantirishning yana bir muhim yo'li — ularning o'z tashabbuslariga ko'maklashishdir. Yoshlar tomonidan tashkil etilayotgan ekologik startaplar, ekologik klublar, volontyorlik harakatlari ekologiya sohasida innovatsion yondashuvlar va yechimlarni ilgari surmoqda. Misol uchun, maktab va oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan "Yosh ekologlar" klublari orqali ko'plab yoshlar mahalliy ekologik muammolarni o'rganib, ularni bartaraf etish

bo'yicha o'z loyihalarini amalga oshirmoqda. Shuningdek yoshlar orasida ekologik turizmni rivojlantirishga alohida etibor qaratilmoqda. Xususan, SH.Mirziyoyev o'zining Yangi o'zbekiston taraqqiyot strategiyasi kitobida "Ekologik turizm O'zbekistonda rivojlanayotgan va istiq bolli tarmoq hisoblanadi. Ekologik turizm katta iqtisodiy daromad keltirishga qodir"[5] diya takitlagan.

Xulosa o'rnida shuni takidlashimiz mumkinki, yoshlar orasida ekologik madaniyatni shakllantirishi – bu nafaqat atrof muhitni muhofaza qilish, jamiyat xafsizligi va taraqqiyotida muhim hisoblanadi. Yoshlarning ekologik ma'daniyatini oshirish, bu borada ta'limni rivojlantirish, NNTlar va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, ekologik startablar, ekologik klublar orqali yoshlarning faolligini oshirish tashabbuskorligini kuchaytirish ekologik barqarorlikni taminlashda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. 54 Yangi O'zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 318-319 b.
2. Sultonov, P. S. (n.d.). Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. [PDF]. Ziyouz.com. https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_pdf
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Ekologik ta'lim va tarbiya konsepsiyasi", 2019-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. "Yashil makon" umumxalq harakati to'g'risida, 23.11.2023 yildagi PF-199-son.
5. Mirziyoev Sh.M. 54 Yangi O'zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh.M. Mirziyoev. –Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. –324 b.

RAQAMLI MADANIYAT SHAROITIDA EKOLOGIK SAVODXONLIK: YOSHLAR ORASIDA EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Mingturayeva Kamola Farhod qizi

Talaba, O'zbekiston Jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti

Sotsiologiya yo'nalishi, 2-bosqich

+998883335600

kamolamingturayeva0005@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli madaniyat vositalari orqali yoshlar orasida ekologik savodxonlik va ekologik ongni shakllantirish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Dunyoda ekologik ta'lim raqamli vositalar yordamida tez sur'atlarda rivojlanmoqda. O'zbekiston misolida bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud imkoniyatlar va muammolar o'rganiladi. Tadqiqot doirasida so'rovnoma va intervyular asosida real ijtimoiy holat tahlil qilinib, yangi innovatsion strategiyalar taklif qilinadi.

Kalit soʻzlar: ekologik savodxonlik, raqamli madaniyat, ekologik ong, yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, gamifikatsiya, innovatsiya.

XXI asrda insoniyat raqamli transformatsiya sharoitida yashamoqda. Bir tomondan texnologik rivojlanish taraqqiyotni tezlashtirayotgan boʻlsa, boshqa tomondan ekologik muammolar kuchayib bormoqda. Atmosfera ifloslanishi, iqlim oʻzgarishlari, suv resurslarining tanqisligi va chiqindilarning koʻpayishi global tahdid sifatida namoyon boʻlmoqda. Shu nuqtayi nazardan, aholining, ayniqsa yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bugungi kunda ekologik muammolar faqat tabiatshunoslar emas, balki sotsiologlar, pedagoglar va siyosatshunoslar oldidagi ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki ekologik muammolarning zarari nafaqat tabiatga, balki, jamiyatga, davlatga va munosabatlarga ham jiddiy putur yetkazmoqda.

Raqamli texnologiyalarning taraqqiyoti bu yoʻnalishda yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, ekologik ilovalar va raqamli platformalar yoshlarni ekologik ongli fuqarolar sifatida shakllantirishda muhim vositaga aylanishi mumkin. Oʻzbekiston Respublikasi “2030-yilgacha ekologik taraqqiyot strategiyasi”da fuqarolarning ekologik savodxonligini oshirish alohida yoʻnalish sifatida koʻzda tutilgan [1]. Ayniqsa, yoshlar — jamiyatning eng faol va innovatsion qatlamini tashkil etgan holda — ekologik ongli fuqaro boʻlishda muhim oʻrin tutadi. Biroq ularning ekologik maʼlumot manbalari, undagi ishtiroki va axborotni qay tarzda qabul qilishi chuqur tahlil qilinmagan. Shu boisdan soʻrovnoma tashkil qilindi va soʻrovnoma orqali ekologik savodxonlik darajasi, raqamli vositalardan foydalanish odatlari va munosabatlari oʻrganildi. Soʻrovnoma 150 nafar 18–25 yosh oraligʻidagi talabalar va yoshlar ishtirokida onlayn formatda tashkil etildi.

Mazkur tadqiqot sifatli va miqdoriy tahlil metodlariga asoslangan. Ilmiy yondashuv doirasida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

1. Nazariy tahlil:

Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari: Atrof-muhitni muhofaza qilish toʻgʻrisidagi Qonun, Raqamli Oʻzbekiston strategiyasi [2] [3].

UNESCO, OECD va UNEP ning ekologik taʼlimga doir xalqaro hisobotlari [4] [5] [6].

2. Soʻrovnoma metodikasi:

Soʻrovnoma talabalar oʻrtasida "Google Forms" orqali oʻtkazildi.

Savollar ekologik ong, raqamli vositalardan foydalanish, axborot manbalari, shaxsiy ekologik odatlar va ishtirok faoliyatini oʻz ichiga oldi.

3. Statistika tahlil: Maʼlumotlar Microsoft Excel va SPSS dasturlari orqali tahlil qilindi.

Soʻrovnoma natijalari:

78% respondent o‘zini ekologik muammolar haqida ma’lumotga ega deb hisoblaydi.

51% ishtirokchi ekologik ilovalardan foydalanmagan.

63% yoshlar ekologik axborotni Instagram, Telegram va TikTokdan oladi.

35% yoshlar ekologik ilovalar bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi, ammo bunday ilovalarning mavjudligidan bexabar.

40% yoshlar esa ekologik ta’limni gamifikatsiyalangan (o‘yin elementli) formatda olishni afzal ko‘rgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli madaniyat vositalari ekologik savodxonlikni oshirishda kuchli vosita bo‘lishi mumkin. Biroq bu vositalardan to‘liq foydalanilmayapti. Masalan, dunyoda mashhur bo‘lgan Ecosia, JouleBug kabi ilovalar O‘zbekistonda ommalashmagan [7] [8]. Mutaxassislar yoshlar bilan ishlashda gamifikatsiya, vizual materiallar va qiziqarli onlayn testlar muhimligini qayd etishdi, yoshlar bilan ishlashda raqamli vositalar — ayniqsa vizual va interaktiv kontent — yuqori samaradorlikka ega ekanini ta’kidlashdi. Mahalliy ekologik kontent yetishmasligi — asosiy muammo sifatida e’tirof etildi.

Statistik natija:

Ekologik axborotga qiziqish bilan raqamli vositalar orqali ishtirok o‘rtasida 0.68 korrelyatsiya aniqlangan — bu o‘rta darajadagi musbat bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Dunyo bo‘yicha “green tech” va “edtech” sohalarining kesishgan nuqtasi — ekologik raqamli ta’limdir. Germaniyada Umweltbildung (ekota’lim) konsepsiyasi asosida maktablarda ekologik fanlar ijtimoiy tarmoqlar bilan uyg‘unlashtirilgan[9]. Janubiy Koreyada esa “eco influencers” orqali TikTok’da yoshlar o‘rtasida chiqindilarni ajratish bo‘yicha fleshmoblar ommalashtirilmoqda.

O‘zbekiston bu yo‘nalishda hali ilk bosqichdadir. "Urikguli" va "Green Youth Union" kabi harakatlar borki, ular raqamli vositalar orqali faoliyat olib bormoqda, lekin ularning ko‘lamini kengaytirish zarur [10] [11].

Shuningdek, raqamli madaniyatning ekologik ta’siri nafaqat axborot yetkazishda, balki yoshlarning shaxsiy hayot tarzi (ya’ni ekologik odatlari)ni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston yoshlari ekologik muammolarga befarq emas, ammo ular raqamli ekologik vositalardan keng foydalanmaydi. UNESCO va OECD tomonidan e’lon qilingan metodologik tavsiyalarga ko‘ra, raqamli ekologik savodxonlik faqat bilim emas, balki ishtirok va tashabbus orqali shakllanadi [12]. Ekologik muammolarni bartaraf etish va ekologik munosabatni yaxshilash uchun eng yaxshi yo‘l raqamli vositalardir. Taklif sifatida birinchidan, mahalliy kontekstga moslashtirilgan ilovalar, video darslar, interaktiv xaritalar, bloglar, monitoring vositalari, gamifikatsiya va blogerlar ishtirokidagi targ‘ibotlar orqali ekologik

savodxonlikni sezilarli oshirish mumkin. Ikkinchidan, Davlat siyosati, ta'lim tizimi va fuqarolik jamiyatining integratsiyalashgan faoliyati muhim deb o'ylaymiz. Uchinchidan, ta'limda "green curriculum" joriy etish — barcha fanlarda ekologik komponentlarni integratsiyalash, to'rtinchidan, har bir hududda eko-ambassadorlar tarmog'ini yo'lga qo'yish samarador yo'llardan biridir. Bloggerlar, "green influencer"lar orqali ekologik ongni ommalashtirish ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "2030-yilgacha ekologik taraqqiyot strategiyasi". – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonuni". – Toshkent, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent, 2020.
4. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
5. OECD. Environmental Education for the 21st Century: International Best Practices. – Paris: OECD Publishing, 2019.
6. UNEP (United Nations Environment Programme). Global Environment Outlook. – Nairobi: UNEP, 2020.
7. Ecosia – Search Engine that Plants Trees. <https://www.ecosia.org>
8. JouleBug – Sustainability App. <https://www.joulebug.com>
9. Umweltbildung in Deutschland. – Bundesministerium für Umwelt, Naturschutz und nukleare Sicherheit, Berlin, 2021.
10. "Green Youth Union" harakati rasmiy sayti. <https://greenyouth.uz> (agar mavjud bo'lsa, maqolada nomi tilga olingan)
11. "Urikguli" ekologik tashabbus blogi. <https://www.tirikchilik.uz/urikg>
12. UNESCO va OECD metodologik tavsiyalari asosida raqamli ekologik savodxonlik materiallari. – 2021.

EKOLOGIK SIYOSATNING IJTIMOIIY AHAMIYATI: EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI

Qosimov Muhammaddiyor

O'zDJTU, Xalqaro jurnalistika fakulteti Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

+998905636577, qosimovm020@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabiiy resurslarni boshqarish, ekologik muvozanatni saqlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari yoritilgan. Unda resurslar turlari, ularni boshqarishning ilmiy va amaliy

asoslari, ekologik muammolarning sabablari va oqibatlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida bu borada amalga oshirilayotgan siyosat va dasturlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ekologiya tabiiy landshaft, eroziya, ekologik tahlil, qo‘riqxonalar, “Qizil kitob”, resurslar, inson omili, BMT, FAO.

Tabiiy resurslar insoniyatning hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha moddiy boyliklarni o‘z ichiga oladi. Ularning oqilona boshqarilishi va muhofaza qilinishi ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 50-moddasida «Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar»-deb belgilab qo‘yilgan. bundan ko‘rinib turibdiki, atrof-muhitga bo‘lgan munosabat bosh qomusda ham keltirib o‘tilgan [1]. Bu esa fuqarolarning ekologik majburiyatlarini konstitutsiya darajasida mustahkamlaydi va uni himoya qilishga undaydi. Muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2010-yil 20-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillik sammiti”da so‘zlagan nutqida Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistondagi ekologik muammolarga alohida e‘tibor qaratildi, “mintaqaviy muammolar majmuyiga e‘tibor qaratilar ekan, ekologik xavfsizlik va atrof-muhit masalalarini chetlab o‘tish mumkin emas” bu so‘zlar zamirida ekologiya uchun faqatgina tayyinlangan xodimlar emas, har bir inson javobgar ekanligini anglatadi. Ekologiya har davrda global muammo hisoblanib kelingan. Dunyo aholisining keskin o‘sishi o‘z navbatida katta miqdordagi yerlarning o‘zlashtirilishi, tabiat va sanoat-industriyal jamiyat o‘rtasidagi chegaralarning buzilishiga olib keladi. Atrof-muhit, jonli tabiat esa maishiy chiqindilar ichida qolib ketmoqda. Atrof-muhit muhofazasi doim insoniyatning birinchi raqamli muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Atrof-muhit muhozasasi bu – ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ularni tiklash choralari amjmuasidir.

Ekologik holatning yomonlashuvi, yoshu-qarining, ularning faoliyati qanchalik tabiatga zarar yetkazishi haqida fikr qilmagan holda, imkon qadar tez fursatlarda foyda olishga intilishi, huquqiy me‘yorlarni bilmaslik va ularga amal qilmaslik, yoshlar o‘rtasida zo‘ravonlikning ortib borishi va boshqalar umumiy madaniyatning va shu jumladan, ezgulikka intilish, boshqalar dardiga befarq bo‘lmaslik, o‘z-o‘zini chegaralash va mushohada yuritish kabi qadriyatlarga asoslangan ekologik madaniyatning qanchalik past darajada ekanligini ko‘rsatadi [2]. Ekologik madaniyat bu tabiatga imkoni boricha zarar keltirmaslik, tabiat va jamiyat taqdiri birligini tushunishdir. Yoshlarda tabiatdan uning boyliklariga zarar yetkazmagan holatda foydalanish kerakligini o‘rgatish ekologik ta‘lim tarbiyaning asosi hisoblanadi.

Global muammolar haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, ularning katta qismi aynan ekologiya va atrof-muhitga bog‘liq ekanini ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, Ozon qatlamining yemirilishi, chuchuk suv miqdorining keskin kamayib ketishi, shimoliy va janubiy qutb muzliklarining yil sayin erib yoqolib borishi, buning oqibatida esa dunyo okeani sathining bir necha metr ko'tarilishi, okean suvlarining sho'rlanishi, noyob hayvon turlarining yo'qolib ketish darajasida kamayib ketganligi, tabiiy landshaftlar o'z qiyofasini o'zgartirganligi, havoning ifloslanganligi, sanoat yetakchi o'rin egallagan davlatlarda atmosferaning karbonat anhidrid gazi bilan to'lganligi (xitoyda yoz oylarida qizil rangdagi qor yog'ishi, Hindistonning Munbay shahridagi havo tarkibidagi zararli moddalarning kislorod miqdorga qaraganda ko'p bo'lishi) global muammolar orasida yetakchi. Bu muammolar kecha yoki bugun paydo bolgan muammolar emas, bu muammolar ekologiya madaniyatiga amal qilinmay, me'yorlarini buzib boraverish natijasida paydo bo'lgan natijadir.

Hayvonot olami, o'simlik dunyosi ushbu qilingan ishlardan kamayib boradigan bo'lsa, kelajak avlod jonli tabiatni ko'ra olmasligi mumkin. Bu esa tabiatni asrash va muhofaza qilishni kuchaytrish bo'yicha berilgan signaldir. Dunyo olimlari ushbu muamolarni bartaraf qilish uchun barcha imkoniyatlarni amalga oshirmoqda, ammo nomutanosiblik bunga yo'l qo'ymaydi. Taniqli ekonomist John Harper tabiatdagi o'zgarishlarni izohlar ekan, "tabiat barcha narsani hazm qilishi mumkin, biroq uning sog'lom muhiti yo'qolishi muqarrar" deydi [3]. Aynan tahlil jarayoni uchun amerikaga birinchi marta insonlarning tashrifini ko'rib chiqamiz. Yevropaliklar Amerika atroflariga ko'chib kelganlarida, ular ko'rgan narsa shu bo'ldiki, tabiatga umuman ziyon yetkazilmagan edi. Shundan keyin tuproqqa ishlov berish va dehqonchilik natijasida sekin-asta yerlar eroziyaga uchraydi. Ba'zi yovvoyi tabiatdagi turlar xavf ostida qoldi, ba'zilari esa umuman yo'qolib ketdi. Yangi texnologiya atrof-muhitga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bug'va dizel mashinalari, kommertsion neft qazib olish, ko'mirni kuydirish, sanoat rivojlanishi chiqindilarni chiqishi va atrof muhitni ifloslanishiga olib keldi. Inson tashrifigacha saqlangan noyob tabiat zavol topdi. Tog'ri jamiyat rivojlanishi ham kerak, lekin hamma narsani me'yoridan oshirmagan holatda amalga oshirish zarur.

Inson tirik organizmlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etib yoki yashash sharoitini o'zgartirib, uning tarqalishiga yoki qirilib yo'q bo'lishiga sababchi bo'ladigan mavjudotdir. Inson tabiatga ko'rsatadigan kuchli ta'siri orqali abiotik va biotik sharoitlarni o'zgartiradi. Inson million yil davomida tarkib topgan tirik dunyo manzarasini bir necha o'n yilda o'zgartirib yubordi. Uning tirik organizmlariga salbiy ta'siri natijasida yer yuzida ko'plab o'simlik va hayvon turlari yo'qolib ketdi. Hozirda dunyo aholisi 8,214 milliard kishiga yaqin. Bu ko'rsatkich o'sishda davom etadi va tarix davomida bu ko'rsatkich hech qachon o'smay qolmagan. Aholi o'sar ekan uning talab va ehtiyojlari oshib boradi. Xususan, resurslarga bo'lgan talab, foydali qazilmalar insoniyat va uning xo'jaligi, kundalik harajatlarining taraqqiyoti uchun energiya va

yoqilg'i manbai bo'lib, yildan-yilga ulardan foydala nish ortib bormoqda. So'nggi 25 yil ichida dunyoda ko'mirga bo'lgan talab 3 marta, temir rudasi 5 marotaba, neft va gazga bo'lgan talab 6 marotaba, marganes, kaliy, fosfor tuzlariga talab 2-3 marotaba oshgan. Har yili 150 mlrd tonna mineral xomashyo qazib olinmoqda. Tabiiy jarayon oqibatida daryolar, dengiz, okeanlarga har yili 15 mlrd tonna tog' jinslarini oqizib kelinmoqda, 3-4 mlrd tonna chiqindi gazlar atmosfera havosiga ko'tarilmoqda. Inson foydali qazilmalarni o'zlashtirishi oqibatida 1500-2000 mlrd tonna tog' jinslari bir joydan ikkinchi joyga joylashtiriladi [4]. Bu ko'rsatkichlar esa, doimiy o'sib boruvchi indekslar ro'yxatiga kiradi.

Agar tabiatni saqlab qolish, resurslardan unumli foydalanish, ekotizimni asrash va boyitishga qaratilgan chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan bo'lsa. Tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirilgan, bu unumli foydalanish va tabiatga ko'p miqdorda zarar bermaslikni ta'minlaydi. Mamlakatimizda tabiiy resurslarni boshqarish va ekologik muamolarni bartaraf etish borasida sayi harakatlarga keladigan bo'lsak, qoniqarli darajada deya olamiz. Misol uchun: Maxsus muhofazaga olingan hududlarni boshqarish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan. "Qizil kitob", Qo'riqxonalar bunga misol bo'ladi [6]. Atrof-muhitni ifloslanish manbalarini aniqlash bo'yicha nazorat tizimini takomillashtirilgan va rivojlantirilgan. Maishiy chiqindilar qayta ishlash orqali ifloslanish qisqargan. Genetik fond, turlar va landshaftlar xilma-xilligini saqlash borasida yuzlab ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda.

Tabiiy resurslar insoniyat hayoti va iqtisodiyotining eng muhim tayanchlaridan biri hisoblanadi. Ammo oxirgi o'n yilliklarda ularning me'yoridan ortiqcha ekspluatatsiya qilinishi, ifloslanish darajasining oshishi va ekologik muvozanatning buzilishi global miqyosdagi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. BMTning 2023-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi ichimlik suvi zaxiralari 40% ga qisqargan, yer yuzidagi har uchinchi tuproq maydoni esa degradatsiyaga uchragan. Orol fojiasi esa butun Markaziy Osiyo ekologiyasiga tahdid solayotgan ochiq dars bo'lib qolmoqda. Bu kabi faktlar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni kechiktirib bo'lmaydigan masalaga aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham bu borada muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Jumladan, "Yashil makon" umumxalq loyihasi doirasida 2021–2024 yillar oralig'ida mamlakat bo'ylab 500 milliondan ortiq daraxt ekilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan katta qismi allaqachon amalga oshirilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuviga qo'shilgan holda, issiqxona gazlari chiqindilarini 2030-yilgacha 35% ga kamaytirishni o'z oldiga maqsad qilgan. Ushbu strategik yondashuvlar mamlakatda ekologik barqarorlikka erishishga bo'lgan siyosiy irodani namoyon etadi.

Shuningdek, resurslarni boshqarishda raqamli texnologiyalar — geoinformatsion tizimlar, sun'iy yo'ldosh orqali monitoring qilish, avtomatlashtirilgan suv sarfi va tuproq unumdorligi tahlillari kabi zamonaviy vositalarni keng joriy etish lozim. Masalan, FAO ma'lumotiga ko'ra, zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni joriy etgan mamlakatlarda sug'orish suvi sarfi o'rtacha 30–40% ga kamaygan.

Xulosa qilib aytganda, tabiiy resurslarni boshqarish, ekologiyani muhofaza qilish va atrof-muhitni asrash — bu faqat ekologik masala emas, balki iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va sog'lom kelajakni ta'minlash yo'lidagi kompleks yondashuvdir. Har bir shaxsning ekologik mas'uliyati, davlatning qat'iy siyosati va xalqaro hamkorlikni uyg'unlashtirish orqali biz nafaqat hozirgi avlod, balki kelajak avlod uchun ham yashashga yaroqli muhit yaratishga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.

2. Духонина Ye. A., УСОВА Н. В. Формирование экологической культуры младших школьников в процессе освоения основ конструкторской деятельности. Интеграция науки и образования в XXI веке: Психология, Педагогика.

3. Makhmudova, A. Ensuring the competitiveness of the scientific approaches of eco-tourism a case of Uzbekistan. South Asian Journal of Marketing, Management Research, 8(11). – P. 33-41.

4. Султонов, Т. Takhmis by nematulloh kishvari to the ghazel with the redif of "boldum sanga" by Alisher Navoi. Иностранные языки в Узбекистане, (2), 2019. – С. 158-167.

5. Narkabilova, G. Extracurricular activities are a key element in the organization of the educational process. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 12(4), 2023. – P. 1029-1033.

6. Норова, М. Б., Олимова, Д. В. Морфометрические параметры челюстно-лицевой области здоровых детей, соответствие их закону золотой пропорции и определение симметричности. Новый ден в медицине, (2), 2020. – С. 477-479.

EKOLOGIK SIYOSATNING IJTIMOIIY AHAMIYATI: EKOLOGIK SAVODXONLIK, FUQAROLAR VA JAMOATCHILIK FAOLLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Abduraimova Charos Akramjon qizi

*O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti xalqaro munosabatlar yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik siyosatning ijtimoiy ahamiyati, ekologik savodxonlik, fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirishning dolzarb masalalari targ'ib qilingan. Jumladan ta'lim tizimida ekologik ta'limni kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarida ekologik mavzularni yoritish, jamiyat ongida ekologik madaniyatni shakllantirish kabi masalalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Ekologiya, global, regional, mahalliy, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, ekologik siyosat, yashil iqtisodiyot.

“Ekologik muammolarga e'tibor bermasdan, barqaror rivojlanish haqida gap bo'lishi mumkin emas. Har bir islohotda tabiatni asrash, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish asosiy tamoyil bo'lishi kerak.”

SH.M.Mirziyoyev

Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish eng dolzarb muammolardan biridir. O'tgan asrning oxiriga kelib inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muvozanatining buzulishi natijasida atrof-muhit, ekologik vaziyat keskin o'zgarishlarga yuz tutdi. Hozirda, Yer yuzida global, regional va mahalliy ekologik muammolar vujudga kelganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz zarurdir.

Jumladan tabiat qonunlarini buzish, Ajdodlarimizdan bizga meros qolgan yerlarni yaroqsiz holga keltirish ekologik falokatga sabab bo'lishi muqarrardir. Shuningdek, mavjud ekologik muammolarning yechimini topish, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish ahamiyatga molik.

Tabiat bilan inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi, bu munosabatlar odamlarning ekologik madaniyatiga bog'liqdir. Ekologik madaniyat – ongli ravishda shakllanib boradigan tuyg'u bo'lib, uni hayotimiz davomida amaliy harakatlarimiz bilan rivojlantirib borishimiz va unga amal qilishimiz lozim.

Shuningdek, ekologik ta'lim-tarbiyani mustahkam asosda yo'lga qo'yish global ekologik inqirozning oldini olishning muhim omillaridan biri ekanligini jahon hamjamiyati tushunib yetdi. Yuzaga kelayotgan ekologik muammolar barchamizga ma'lum. Shu sababli insonlarni ekologik ongli qarorlarni qabul qilishga o'rgatish ekologik ta'lim va savodxonlikning asosiy mazmunini tashkil qilib, har qaysi insonning ekologik muammolarni yuzaga kelishida va atrof-muhitning zararlanishiga o'z hissasi borligini anglash, tushunib yetishga o'rgatadi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Prezident Sh.Mirziyoyev 2024-yil 18-20 noyabr kunlari Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasida so'zlagan nutqlarida atrof-muhitni muhofaza qilish “yashil” iqtisodiyotga o'tish

masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Ushbu nutqlar asosida, 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi [1].

Shuningdek, ekologik muammolarni tizimli hal etish, yashil iqtisodiyotga o'tish bosqichlarini jadallashtirish, ekologik savodxonlik va jamoatchilikni faolligini oshirish kabi muhim masalalar Prezidentimiz ilgari surayotgan tashabbuslarga sabab bo'ladi. Jumladan ekologik savodxonlik, fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirish insonlarni ongida ekologik madaniyatni shakllantirish uchun ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. Barcha bosqichlarda ekologik ta'limni kuchaytirish, o'quv dasturlariga ekologik mavzularni kiritish zarur [2]. O'quvchilarni ekologik loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish, maktabdan tashqari ekologik to'garaklarni tashkil etish foydali bo'ladi. Ommaviy axborot vositalari ham jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Gazeta va jurnallar, televideniya va internetda ekologik mavzularni yoritish, tabiatni asrashga chaqiruvchi roliklarni e'fira uzatish imkoniyatiga ega [3]. Shunday bo'lsada, ekologik madaniyatni shakllantirish uchun ta'lim va targ'ibot kifoya emas. Davlat siyosati va qonunchiligini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha normalarni kuchaytirish, ekologik normalarni buzganlik uchun javobgarlikni oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, ekologik madaniyatni shakllantirishda yoshlarning roli alohida ahamiyatga ega. Yoshlar yangilikka intiluvchan, g'oyalarga boy va faol bo'lib, ular orqali ekologik g'oyalarni keng yoyish mumkin. Biroq, ekologik madaniyatni shakllantirish faqat yoshlar bilan cheklanmasligi kerak. Butun jamiyatni, jumladan katta yoshdagi aholini ham bu jarayonga faol jalb qilish lozim. Mahalla va qishloqlarda ekologik mavzulardagi uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazish, atrof-muhitni tozalash va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha hasharlar tashkil etish mumkin [4].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ekologik siyosatning dolzarbligi ortib borayotgan bugungi kunda, jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish, insonlar ongiga ushbu tushunchani singdirish, har bir tirikman deya nafas olib yashayotgan insonlarning tabiatga, atrof-muhitga befarq emasligini anglatish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezidentimiz 2025 yilni yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilishni taklif qildi., 20 noyabr 2024. Url: https://uza.uz/oz/posts/prezidentimiz-2025-yilni-yurtimizda-atrof-muhitni-asrash-va-yashil-iqtisodiyot-yili-deb-elon-qilishni-taklif-qildi_659176

2. Kurbanbaevna, K. R. (2021). O'zbek mentaliteti shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik Jihatlar. Philosophy And Life International Journal, (4 (15)).

3. Kurbaniyazova, R. K. (2021). Yangilanayotgan O‘zbekistonda davr ruhi va aholi mentaliteti o‘zgarishlari dinamikasi. *Academic Research In Educational Sciences*, 292), 347-354

4. Pulatova N. R. (2024) Jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish. *International journal of scientific researchers*, 511-515

4-SHO‘BA. ZAMONAVIY EKOLOGIK SIYOSATNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI: IJTIMOIIY-SIYOSIY VA QIYOSIY TAHLIL.

MARKAZIY OSIYODA EKOLOGIK STRATEGIYALAR VA GENDER TENGLIGINING XALQARO HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLILI

Nizamova Mohidil Maxmud qizi

“Siyosiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchi-stajyori
+998945208770, nizamovamohidil@gmail.com

Annotatsiya: Maqola Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik strategiyalarida gender tengligi masalalarini xalqaro huquqiy me‘yorlar va qiyosiy tahlil asosida o‘rganadi. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonning milliy strategiyalari xalqaro hujjatlar, xususan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Parij Kelishuvi talablari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy dinamika, an’anaviy gender rollari va xalqaro tashkilotlarning ta’siri muhokama qilinadi. Qiyosiy tahlil davlatlar o‘rtasidagi farqlar va umumiy muammolarni aniqlaydi. Maqola gender tengligini mustahkamlash orqali ekologik barqarorlikka erishish yo‘llarini taklif qiladi. Tadqiqot Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish va adolatli siyosatlar uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Ekologik strategiyalar, gender tengligi, xalqaro huquq, Markaziy Osiyo, qiyosiy tahlil, barqaror rivojlanish, ijtimoiy-siyosiy dinamika, Parij Kelishuvi.

Zamonaviy dunyoda ekologik muammolar va gender tengligi o‘zaro bog‘liq masalalar sifatida e’tirof etilmoqda. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning tanqisligi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi global tahdidlar nafaqat ekotizimlarga, balki ijtimoiy tuzilmalarga, xususan, gender dinamikasiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayollar, ayniqsa, Markaziy Osiyo kabi rivojlanayotgan mintaqalarda, iqlim o‘zgarishi va resurslarni boshqarishdagi zaif guruh sifatida ko‘riladi, lekin ularning barqaror rivojlanishdagi roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro huquqiy me‘yorlar, masalan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) va Parij Kelishuvi, ekologik strategiyalarda gender tengligini integratsiya qilishni talab qiladi. Biroq, Markaziy Osiyo davlatlarida bu integratsiya qay darajada amalga oshirilmoqda va milliy strategiyalar xalqaro standartlarga qanchalik mos kelmoqda degan savollar dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy va ekologik xususiyatlarga ega. Bir tomondan, mintaqqa suv resurslari tanqisligi, cho‘llanish va iqlim o‘zgarishi kabi jiddiy ekologik muammolarga duch

kelmoqda. Boshqa tomondan, an'anaviy ijtimoiy tuzilmalar va gender rollari ayollarning ekologik loyihalarda faol ishtirokini cheklamoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi davlatlarning ekologik strategiyalari xalqaro hamjamiyat talablariga moslashishga intilmoqda. Ushbu strategiyalarda gender tengligi masalalarining qanchalik aks etishi va davlatlar o'rtasidagi yondashuv farqlari qiyosiy tahlil orqali aniqlanishi lozim.

Ushbu maqolaning maqsadi Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik strategiyalarida gender tengligi masalalarini xalqaro huquqiy me'yorlar nuqtai nazaridan tahlil qilish va davlatlar o'rtasidagi yondashuvlarni qiyosiy ravishda o'rganishdir. Shuningdek, mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy dinamika, an'anaviy gender rollari va xalqaro tashkilotlarning ta'sirini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi.

Maqola xalqaro huquqiy asoslarni, ijtimoiy-siyosiy tahlilni va Markaziy Osiyo davlatlarining qiyosiy tahlilini o'z ichiga oladi. Xususan, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning ekologik strategiyalari va gender tengligi bo'yicha yondashuvlari solishtiriladi. Tadqiqotda BMT hujjatlari, milliy strategiyalar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari asosiy manba sifatida foydalaniladi. Ushbu tahlil nafaqat mintaqadagi hozirgi holatni yoritish, balki kelajakda gender tengligini mustahkamlash orqali ekologik barqarorlikka erishish yo'llarini taklif qilishga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik strategiyalarida gender tengligi masalalarini tahlil qilish xalqaro huquqiy me'yorlar, ijtimoiy-siyosiy dinamika va davlatlar o'rtasidagi farqlarni kengroq kontekstda ko'rib chiqishni talab qiladi. Ushbu muhokama xalqaro huquqiy hujjatlarning gender tengligini ekologik siyosatga integratsiya qilishdagi rolini, Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy muammolar va imkoniyatlarni, shuningdek, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning strategiyalarini qiyosiy tahlil orqali yoritadi. Natijalar mintaqada gender tengligi va ekologik barqarorlikni mustahkamlash uchun amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Xalqaro huquqiy me'yorlarning ta'siri. Xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 5 va SDG 13), Parij Kelishuvi (2015) va CEDAW, ekologik strategiyalarda gender tengligini targ'ib qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi [1]. SDG 5 gender tengligini, SDG 13 esa iqlim o'zgarishiga qarshi choralarni ta'kidlaydi, bu ikki soha o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Parij Kelishuvi iqlim siyosatida ayollarning zaifligini va ularning qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilinishini alohida e'tiborga oladi [2]. CEDAW esa ayollar huquqlarini ekologik adolat kontekstida himoya qilishni talab qiladi. Ushbu hujjatlar Markaziy Osiyo davlatlariga milliy strategiyalarni xalqaro standartlarga moslashtirishda yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi[3].

Biroq, xalqaro me'yorlarning amaliy joriy etilishi mintaqada bir xil emas. Masalan, O'zbekiston va Qozog'iston SDG maqsadlariga rioya qilish bo'yicha hisobotlarda gender va iqlim masalalarini qisman aks ettirsa-da, Turkmaniston kabi davlatlarda bu masalalar deyarli e'tiborga olinmaydi [4]. Xalqaro tashkilotlar, masalan, UN Women va UNDP, mintaqada gender tengligi va ekologik barqarorlik bo'yicha loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi, lekin moliyaviy va institutsional cheklovlar tufayli ularning ta'siri cheklangan. Bu holat xalqaro huquqiy majburiyatlar va milliy amaliyotlar o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi [5].

Ijtimoiy-siyosiy dinamika. Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy kontekst ekologik strategiyalarda gender tengligini integratsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Mintaqada an'anaviy gender rollari ayollarning qaror qabul qilish jarayonlariga to'liq jalb qilinishini cheklaydi. Masalan, qishloq joylarda ayollar suv resurslari va qishloq xo'jaligini boshqarishda faol ishtirok etsa-da, ularning ovozi ko'pincha rasmiy siyosat va loyihalarda aks etmaydi [6]. Bu holat, ayniqsa, Tojikiston va Qirg'izistonning qishloq hududlarida yaqqol ko'rinadi, bu yerda ayollar suv tanqisligi va iqlim o'zgarishi oqibatlariga ko'proq duch keladi.

Nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati gender tengligini ilgari surishda muhim rol o'ynaydi. Qirg'izistonda ekologik loyihalarda ayollar tashkilotlarining faolligi sezilarli bo'lsa, Turkmanistonda siyosiy cheklovlar bunday tashabbuslarni deyarli imkonsiz qiladi [7]. Xalqaro tashkilotlarning yordami, masalan, UNDPning Tojikistondagi suv boshqaruvi loyihalari, ayollarning ishtirokini oshirishga xizmat qilmoqda, lekin bu tashabbuslar mintaqaning barcha davlatlarida teng taqsimlanmagan. Ijtimoiy stereotiplar va ta'lim darajasining pastligi ayollarning ekologik siyosatdagi rolini yanada cheklaydi, bu esa gender tengligini mustahkamlash uchun uzoq muddatli strategiyalar zarurligini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik strategiyalari va gender tengligi bo'yicha yondashuvlari sezilarli farqlarga ega. Quyida har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlari va muammolari qisqacha tahlil qilinadi.

O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi ekologik barqarorlikka qaratilgan bo'lib, gender tengligi masalalari qisman hisobga olinadi. Ayollar qishloq xo'jaligi va suv resurslari boshqaruvida faol, lekin ularning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki cheklangan. Masalan, Aral dengizi inqirozi kontekstida ayollarning ekologik loyihalarga jalb qilinishi ko'proq xalqaro tashkilotlar tashabbusi bilan amalga oshirilmoqda [8]. Milliy qonunchilikda gender tengligi bo'yicha ba'zi yutuqlar mavjud, lekin amaliy joriy etishda muammolar saqlanib qolmoqda.

Qozog'iston yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishga katta e'tibor qaratadi, lekin gender tengligi masalalari ikkinchi darajali sifatida qolmoqda. Neft va gaz sanoatida ayollarning ishtiroki past bo'lib, ekologik loyihalarda ularning roli asosan xizmat ko'rsatish sohasi bilan cheklanadi. Shu bilan

birga, Qozog‘iston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda gender va iqlim bo‘yicha loyihalarni rivojlantirmoqda, masalan, yashil energiya dasturlari.

Qirg‘iziston tog‘li hududlarda iqlim o‘zgarishi va ekologik loyihalarda ayollarning rolini faol targ‘ib qiladi. Gender tengligi bo‘yicha qonunchilik mintaqada eng ilg‘orlaridan biri bo‘lib, ayollar tashkilotlari ekologik tashabbuslarda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, qishloq joylarda iqtisodiy resurslarning cheklanganligi va ta‘lim darajasining pastligi ayollarning to‘liq ishtirokini qiyinlashtiradi.

Tojikiston suv resurslari va iqlim o‘zgarishi loyihalarida ayollarning ishtirokini xalqaro tashkilotlar yordami bilan oshirmoqda. Masalan, UNDP loyihalari ayollarni suv boshqaruvi va barqaror qishloq xo‘jaligi dasturlariga jalb qiladi. Biroq, an‘anaviy ijtimoiy normalar va iqtisodiy qiyinchiliklar ayollarning faolligini cheklaydi.

Turkmaniston ekologik siyosatda gender tengligini deyarli hisobga olmaydi. Siyosiy tuzumning yopiq tabiati va fuqarolik jamiyatining cheklanganligi tufayli ayollarning ekologik loyihalardagi ishtiroki minimal darajada. Xalqaro tashkilotlarning ta‘siri ham juda past bo‘lib, bu davlatni mintaqadagi boshqa davlatlardan sezilarli darajada orqada qoldiradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida ekologik strategiyalarda gender tengligini integratsiya qilishda katta tafovutlar mavjud. Qirg‘iziston va Tojikiston xalqaro yordam va qonunchilik orqali ma‘lum yutuqlarga erishgan bo‘lsa, Turkmaniston va qisman O‘zbekiston bu sohada sekinroq harakat qilmoqda. Qozog‘iston iqtisodiy resurslarga ega bo‘lsa-da, gender masalalariga yetarlicha e‘tibor bermaydi.

Gender tengligi va ekologik strategiyalar bo‘yicha statistik ma‘lumotlarning kamligi tahlil va monitoringni qiyinlashtiradi. Masalan, ayollarning ekologik loyihalardagi ishtirok foizi yoki iqlim o‘zgarishining gender oqibatlari bo‘yicha aniq ma‘lumotlar deyarli yo‘q.

An‘anaviy gender rollari ayollarning qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilinishini cheklaydi. Bu muammo ayniqsa qishloq hududlarda yaqqol ko‘rinadi.

Ekologik loyihalar uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi va institutsional zaiflik gender tengligi tashabbuslarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Parij Kelishuvi va SDG kabi hujjatlarning talablari mintaqa davlatlarida turlicha amalga oshirilmogda, bu esa yagona yondashuvning yo‘qligini ko‘rsatadi.

Kelajak istiqbollari va tavsiyalar. Markaziy Osiyoda ekologik strategiyalar va gender tengligini mustahkamlash uchun quyidagi tavsiyalar muhim ahamiyatga ega:

Yevropa Ittifoqining gender va iqlim siyosati tajribasi, masalan, ayollar uchun maxsus ekologik ta‘lim dasturlari, Markaziy Osiyoda qo‘llanilishi

mumkin. Bu dasturlar ayollarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi rolini oshirishga yordam beradi.

Ta'lim va imkoniyatlarni kengaytirish: Ayollar uchun ekologik loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish uchun ta'lim dasturlari va grantlar joriy etilishi kerak. Masalan, qishloq joylarda ayollar uchun yashil energiya va suv boshqaruvi bo'yicha treninglar tashkil qilinishi mumkin.

Gender tengligi va iqlim o'zgarishi bo'yicha aniq statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun milliy va xalqaro tashkilotlar hamkorligi zarurdir.

Milliy strategiyalarni xalqaro me'yorlarga moslashtirish: Davlatlar Parij Kelishuvi va SDG talablariga muvofiq gender tengligini ekologik strategiyalarga integratsiya qilish bo'yicha aniq choralar ko'rishi kerak. Bu jarayonda xalqaro moliyaviy yordam muhim rol o'ynaydi.

Nodavlat tashkilotlar va ayollar tashabbuslari ekologik siyosatda faol ishtirok etishi uchun qo'llab-quvvatlanishi lozim. Qirg'izistondagi tajriba boshqa davlatlar uchun namuna bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda ekologik strategiyalar va gender tengligi xalqaro huquqiy me'yorlar asosida rivojlanmoqda, lekin integratsiya darajasi davlatlar bo'yicha turlicha. Qirg'iziston va Tojikiston xalqaro yordam va qonunchilik orqali ma'lum yutuqlarga erishgan bo'lsa, O'zbekiston va Qozog'iston bu sohada sekinroq harakat qilmoqda, Turkmaniston esa sezilarli darajada orqada qolmoqda. Ijtimoiy-siyosiy to'siqlar, ma'lumotlarning yetishmasligi va moliyaviy cheklovlar asosiy muammolar sifatida qolmoqda. Biroq, xalqaro tajribani qo'llash, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va fuqarolik jamiyatini jalb qilish orqali gender tengligini mustahkamlash ekologik barqarorlikka erishishda muhim qadam bo'ladi. Ushbu tahlil Markaziy Osiyo davlatlari uchun nafaqat hozirgi muammolarni, balki kelajakda barqaror rivojlanish yo'llarini ham aniqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. United Nations. Sustainable Development Goals (SDG), 2015. URL: <https://sdgs.un.org/goals>.

2. United Nations Framework Convention on Climate Change. Paris Agreement, 2015. URL: <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement>.

3. United Nations. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women (CEDAW), 1979. URL: <https://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw/>.

4. Абдуллаев И., Рахматуллаев С. Экологические стратегии и гендерное равенство в Центральной Азии. Ташкент: Фан ва Технология, 2020. – 150 с.

5. UN Women. Gender and climate change in Central Asia: Policy brief, 2015. URL: <https://www.unwomen.org/en/digital-library/publications/2022/10/gender-and-climate-change-central-asia>.

6. Кодирова Н. Гендерное равенство и управление водными ресурсами в Центральной Азии. Душанбе: Илмий Нашрлар, 2019. –121 с.

7. Осмонова А. Рол женщин в экологических проектах Кыргызстана. Бишкек: Ала-Тоо Университети, 2021. URL: <http://www.alatoo.edu.kg/research/publications>.

8. UNDP Uzbekistan. Orol dengizi mintaqasida ekologik loyihalar va gender tengligi. URL: <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/aral-sea-projects>.

ZAMONAVIY EKOLOGIK SIYOSATNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI: QIYOSIY TAHLIL

*Shokirova Mubina Nabijon qizi,
O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti,
Siyosatshunoslik 2-kurs talabasi
Tel: +998 94 274 11 04,
mubinashokirova04@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro ekologik siyosat sohasidagi ekologik muammolar, ularni tartibga soluvchi xalqaro huquqiy normalar hamda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari keng yoritilgan. Ayniqsa, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarning ekologik siyosati, xalqaro bitimlardagi ishtiroki hamda ekologik xavfsizlikni ta‘minlashdagi roli muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, xalqaro ekologik konvensiyalar va deklaratsiyalarning milliy qonunchilikka ta‘siri, xususan O‘zbekiston Respublikasida ekologik siyosat yo‘nalishida olib borilayotgan islohotlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ekologik siyosat, huquqiy asoslar, konstitutsion asoslar, atrof muhit, global iqlim o‘zgarishi, BMT, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar.

Bugungi kunda butun dunyo miqyosda insoniyat uchun ekologik xavfsiz makonda yashash talabi bora bora oshib bormoqda. Sayyoramizning muhitini egallayotgan ekologik muammolar, barcha dunyo xalqlarini chuqurroq o‘ylashga majbur qilmoqda. Xalqaro ekologik siyosat esa bugungi globallashuv jarayonida eng dolzarb va muhim aspekt sifatida ko‘rilmoqda. Ma‘lumki, amerikalik olim Linton K. Kolduell ilk bor “ekologik siyosat” tushunchasini tilga kiritgan edi. Dastlabki davrlarda ekologik siyosat deganda tabiiy muhitni ifloslantiruvchi texnologiyalardan foydalangan ishlab chiqaruvchini muayyan jarima to‘lashga undovchi choralar nazarada tutilgan

bo'lsa, hozirgi davrga kelib ushbu tushuncha turfa ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ifodalanadigan bo'ldi. Ekologik siyosat zarur bo'lgan muammolar sirasiga global iqlim o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, toza ichimlik suvi tanqisligi, bioxilma-xillokning qizqarishi, ortiqcha chiqindilarning hosil bo'lishi va ularni utilizatsiyalash muammolari kiradi. Bularning oqibati o'laroq, dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog'liq turli xil kasalliklar ham kelib chiqmoqda. Ayni paytda, ekologik inqiroz – jamiyat, tabiat va insoniyat inqirozidir. Shunday ekan, inson jamiyat va tabiat bilan hamnafas bo'lishi, tabiatdan oqilona foydalana olishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich ta'kidlaganidek, "...bu ko'hna dunyo, biz yashayotgan hayot yagona, yaxlit bir voqyelikdir. Shunday ekan, moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo'yish, ularning birini ustun deb bilgan holda, tiriklikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilish qandaydir biryoqlama qarash ifodasi, deb aytsak xato bo'lmaydi"[1].

Shu narsa ayonki, dolzarb bo'lgan ushbu ekologik muammolarga xalqaro ekologik siyosatning qay darajada olib borilishi muhim rol o'ynaydi. Bu borda xalqaro ekologiya huquqi xalqaro miqyosda ekologik qonunlarni va barcha xalqaro normalarni tartibga solib, xalqaro prinsiplarga mos faoliyat olib borishni ta'minlashi belgilangan.

Ma'lumki, ekologik siyosat subyektlari sifatida millat va xalqlar, o'z mustaqilligiga ega bo'lgan barcha davlatlar, xalqaro tashkilotlar va birlashmalar ekologik siyosatning huquqiy asoslarini belgilovchi va amalga oshiruvchi mas'uldirlar.

Ekologik siyosatning huquqiy asoslarini shakillantirishda dastlab xalqaro tashkilot va birlashmalar ishga kirisha boshlashgan. Buning isboti o'laroq, atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilish tamoyillari asosan BMT va uning atrof muhit bo'yicha o'tkazilgan Stokgolm konferensiyasi (1972), Yevropa xavfzilikni ta'minlashning yakuniy hujjati (Xelsinki, 1975) va Umumjahon tabiat xartiyasida hamda Rio-de-Janeyro konferensiyasi (1992) qarorlarida aniq ko'rsatilib berildi [2]. Ushbu belgilangan xalqaro tamoyillarga tabiatni muhofaza qilish va uning mutanosibligini saqlash, o'z hududida tabiat boyliklariga nisbatan suverenitetlik, insonning ekologik huquqining afzalligi, hamma sohada ekologik nazorat tashkil etishi va olib borish, xalqaro miqyosda ekologik axborotni erkin almashtirish, favqulodda ekologik vaziyat holatida davlatlarning bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatish, xalqaro ekologik-huquqiy kelishmovchilik va nizolarni tinch yo'llar bilan hal etish kabi qonun-qoidalar kiritildi. Bundan tashqari, xalqaro ekologik siyosatda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1982-yil tasdiqlangan "Butunjahon tabiatni muhofaza qilish xartiyasi" ham katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu hujjat 1982-yil 28-oktabr BMT Bosh Assambleyasi 37-sessiyasining rezolyutsiyasi bilan

tasdiqlanib, tabiatni muhofaza qilishning 24 ta asosiy prinsiplarini ko'rsatib berdi. Xartiyada asosiy urg'uni ekologik ta'lim va tarbiya masalalariga berilgan.

BMTning ayrim ixtisoslashtirilgan tashkilotlari ham ekologik siyosat bo'yicha faoliyat olib boradi. BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi (YuNEP) 1972-yil 15 dekabrda tashkil topgan bo'lib, atrof-muhitga oid 8 yo'nalishdagi masalalarni hal qilish bo'yicha shug'ullanadi. 1948-yilda tashkil topgan yana bir nodavlat notijorat tashkilotlardan bir Tabiat va tabiiy resurslarni muhofazalashning xalqaro ittifoqi (TMXI) no'lib, u 100 dan ziyod davlat va 500dan ziyod nodavlat tashkilotlarni a'zo qilib olgan [3]. Nafaqat BMT tashkiloti, balki boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar ham ekologik siyosat borasida o'z ish faoliyatlarini olib borishadi, hamda ekologik-huquqiy asoslarni shakillantirishadi. Bunday tashkilotlarga misol sifatida, Davlatlararo ekologik kengash, Regionlararo ekologik jamg'arma, YuNDRO, Jahon meteorologik tashkiloti va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Ekologik siyosatni yuritishda xalqaro tashkilotlar bosh bo'g'inlarda turar ekan, bir qator davlatlarning bu boradagi huquqiy asoslari yetarlicha ta'minlangan va o'z ijobiy natijasini ko'rsatib kelmoqda. Shunday davtlarga misol tariqasida iqtisodiy-ijtimoiy-ekologik jihatdan eng rivojlangan mamlakatlardan biri Amerika Qo'shma Shtatlarini olishimiz mumkin. AQSHda ekologik qonunchilik jarayoni Senat va uning maxsus – Atrof muhit bo'yicha va Jamoat ishlari bo'yicha komitetlarida amalga oshiriladi. Shuningdek, ichki ishlar vazirligi milliy bog'larni, baliq xo'jaligi tegralarini va tabiiy boyliklarni asrashni o'z zimmasiga olgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish Agentligi atrof tabiiy muhitni ifloslanishini kamaytirishda barcha davlat organlari, jamoat tashkilotlari va shtatlarning sa'y-harakatlarini birlashtiradi, ekologik turdagi ilmiy faoliyatlarni tashkillashtiradi, davlat standartlarini ishlab chiqadi hamda ekologik qoidalarga rioya etilishini ta'minlaydi.

AQSHda tabiatni ekologik-huquqiy muhofaza qilishda "Atrof-muhitni muhofaza qilishning milliy siyosati to'g'risida"gi qonun alohida o'rin egallaydi. Bu Qonunga binoan, 1970-yil 1-yanvardan boshlab, federal boshqaruv darajasida har bir fuqaro tabiatga munosabatini belgilovchi "ariza" yozadi va unga nisbatan o'z harakatining yuridik asosini yaratadi. Ushbu "ariza"ga amal qilmaslik huquqbuzarlarga operativ tarzda juda katta miqdordagi ma'muriy yoki jinoiy sanksiyalarni qo'llashga asos bo'la oladi [4]. Ushbu Amerika Qo'shma Shtatlarining ekologik-siyosatidagi ekologiya huquqi normalari shakillanadigan huquq tizim uchun mamlakat Konstitutsiyasini "bilvosita manba" sifatida ta'riflaydilar. AQSHning ekologik qonunchilikni ishlab chiqishda inobatga olinishi lozim bo'lgan barcha umumiy konstitutsiyaviy normalarni uch yirik guruhga ajratishimiz mumkin: 1) atrof muhitni muhofaza qilish sohasida huquqiy tartibga solishni amalga oshirish bo'yicha Kongress vakolatlarini belgilovchi normalar; 2)

ushbu vakolatni chegaralovchi normalar; 3) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasini huquqiy tartibga solishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan fuqarolarning huquqlariga oid normalar. AQSH ekologik qonunchiligida asosiy o'rinni konstitutsiyaviy qoidalarni sud sharhi egallaydi hamda u ekologik munosabtlarni har qanday sohada qo'llashni nazarda tutadi [5]. AQSHning ekologik siyosat borasidagi normativ- hujjatlari hamda konstitutsion qonunlarini tahlil qilgan holda shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, samarali olib borilayotgan ushbu siyosiy institutlar inklyuzivligini saqlab qolmoqda va bu esa to'g'ridan to'g'ri mamlakatning iqtisodiy rivojiga ham hissa qo'shmoqda.

Yana bir ekologik siyosatdagi qonunchilik tartibini izchil yo'lga solib olgan davlatlardan biri Koreya Respublikasi hisoblanadi. 1948-yilgi Konstitutsiyada tabiiy resurslardan foydalanishga oid masalalar ancha keng tartibga solingan bo'lib, uning 120-moddasi tabiiy boyliklarga, 121-moddasi qishloq xo'jaligiga, 122-moddasi yer mulkchiligiga oid qonunlarga hamda 123-moddasi fermer xo'jaligi va baliqchilikka bag'ishlanadi.

Shuningdek, Koreya Konstitutsiyasida fuqarolarning ekologiya sohasidagi huquqlariga oid munosabatlar ham tartibga solingan. Chunonchi, uning 35-moddasiga muvofiq barcha fuqarolar hayot uchun qulay va inson soglig'i uchun maqbul bo'lgan atrof muhit huquqiga ega, davlat va uning barcha fuqarolari atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish uchun barcha zarur choralarni ko'radilar. Insonning atrof muhitga nisbatan huquqlari qonun bilan belgilanadi [6].

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda shu asnosida fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlash masalasi Yaponiya miqyosida ham juda ahamiyat kasb etadi. Yaponiya tabiiy muhit sifati borasida boshqaruv tizimining samarali tizimini joriy etib, nafaqat ekologik inqirozni ortga surishga, balki ko'plab ekologik ko'rsatkichlarni yaxshilashga ham erishdi. Bugungi kunda ham Yaponiya fuqarolarning sof va xavfsiz tabiiy muhitga huquqlarni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash yo'lidan bormoqda. Chunonchi, amaldagi Konstitutsiyaning 25-moddasida "Barcha sog'liq va madaniya ahyotning eng quyi darajasiga ega bo'lishga haqli. Davlat hayotning barcha soahalarida jamiyat farovonligi, ijtimoiy ta'minoti, shuningdek xalq salolatliligini tiklash va rivojlantirish yo'lida xizmat qilishi lozim" [7].

Yaponiyadagi ekologiya siyosatiga qolgan davlatlarning siyosatidan farqli jihati shu bo'ldiki, atrof-muhitni asrash bo'arasidagi qonun hujjatlarida asosiy o'rinni fuqarolarning atrof muhitga bo'lgan huquqi himoya qilinishi. Ya'ni Yaponiya fuqarolarining toza va xavfsiz hududda istiqomat qilinishini ta'minlashni davlat o'z burchi sifatida biladi va aynan shuning uchun ham ekologiyaga bo'lgan jamiyat va davlat siyosati majburiyat emas, balki burch sifatida talqin etiladi.

Bir qator xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining tahlili ularda ekologik-huquqiy normalar turlicha tartibga solinganligidan guvohlik beradi.

Xususan, xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida davlatning tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash singari mustaqil funksiyalari mavjudligi mustahkamlangan (GFR Konstitutsiyasining 15-moddasi, Bolgariya Konstitutsiyasining 31-moddasi), tabiiy ob'ektlar va resurslarga nisbatan davlatning mutlaq mulk huquqi belgilab qo'yilgan (Vengriya Konstitutsiyasining 8-moddasi, Ruminiya Konstitutsiyasining 12-moddasi), atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va majburiyatlarini shakllantirish. Ayni damda ta'kidlash o'rinliki, ko'p hollarda fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitda yashash huquqi ayni damda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish majburiyati bilan bog'lanadi (GFR Konstitutsiyasining 34-moddasi), davlatning mamlakat va jamiyatning tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ichki va tashqi siyosatiga oid prinsiplarining yaxlitligi (Vengriya Konstitutsiyasining 20-moddasi) [8]. Shuningdek, boshqa ko'plab Yevropa davlatlarida ham fuqarolar va davlatning ekologiya sohasidagi huquq va majburiyatlari aniq-ravshan belgilab berilgan.

Umuman olganda, mamlakatimizda istiqloq sharofati bilan rivojlantirilgan ekologik siyosat tufayli atrof-muhit sifati va musaffoligi yanada yaxshilandi. Davlatimizning zamonaviy ekologik-siyosat borasidagi olib borayotgan faoliyati hamda qonuniy asoslari yaxshi tizimlashtirilganligiga qaramay, bu borada xorijiy tajriba va malakalarga tayanib, yangidan yangi istiqbolli chora-tadbirlarni joriy qilish zarur. Ekologik qonunchilikni takomillashtirishda tabiiy muhitni asrash, aholi salomatligini himoyalash, boshqa sohalaridagi qonunchilikni ekologik talablar bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, ekologik normalarni amalga oshirish mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro ekologik huquqiy hujjatlarga qo'shilish, ularni ratifikatsiya va implementatsiya qilish, ijrosini nazorat qilish bo'yicha faoliyatni kuchaytirish zarur. Har qanday davlatning barqaror rivojlanishi atrof-muhitni himoya qilish va resurslardan oqilona foydalanishga bog'liq. Shu bois ekologiya sohasida yagona davlat siyosatini bosqichma-bosqich amalga oshirish hamda tabiiy tizimlarning saqlanishi va tiklanishini ta'minlash dolzarbdir. Ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligini belgilash, uni amaliyotga tatbiq etish, ekologik ta'limni rivojlantirish va jamoatchilikni faol jalb etish ham ekologik qonunchilikning asosiy yo'nalishlaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”, 2008. – 68-69 betlar
2. R.A.Ikramov. Ekologiya huquqi: darslik. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. -197 bet

3. A.N.Nigmatov. Ekologiya huquqi: darslik. –T.: “Noshir”, 2012. - 380-381 betlar
4. O‘sha manba, -388 bet
5. Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari: milliy va xorijiy tajriba
6. J.T.Xolmo‘minov. Ekologiya huquqi: darslik. –T.:TDYU, 2018. -355 bet
7. O‘sha manba, -356 bet
8. Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari: milliy va xorijiy tajriba